O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95-yilligiga bag‘ishlanadi

R.HAYITBOYEV, S.A.ABDUXAMIDOV

TURIZMNING TURLARI VA RESURSLARI

O‘quv qo‘llanma 61010400-Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan

Samarqand-2025

UO‘K: 338.483.1(075.8)
A 15
KBK: 65.433ya73

R. Hayitboyev, S.A. Abduxamidov.
Turizmning turlari va resurslari *[Matn]:* ***o‘quv qo‘llanma /*** *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 - 392 bet.*

Turizmdagi xalqaro ekspertlarning xulosalari bo‘yicha davlatlarda turizmning taraqqiyot darajalari davlatda turizmning ko‘plab turlarini rivojlantirishga bog‘liq. Shu sababli, turizm ta’limida tayyorlanayotgan mutaxassislarga “Turizmning turlari va resurslari” fanini o‘qitish talabi kiritildi. O‘quv qo‘llanmada turizmning sohalari, turlarining ta’riflari va ularning resurslari, turlarni rivojlantirish imkoniyatlari, turlarni tashkil qilish va rivojlantirishdagi muammolar va ularning yechimlari, turlarning ekuskursiyalarini, marshrutlarini, reklamalarini ishlab chiqish, turizmidagi turlarga gid-ekskursiyachilar tayyorlash mavzulari yozildi. O‘quv qo‘llanma universitetlarning, institutlarning professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, turizm ta’limidagi magistrlar, talabalar va turizmdagi tadbirkorlarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: i.f.n., dotsent T. S. Sharipov

Taqrizchilar: i.f.d., professor M. Q. Pardayev (SamISI)
PhD., dotsent. S. Haydarov (SamDU)

O‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servisinstituti Ilmiy Kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi №4-sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop qilishga tavsiya etildi (ro‘yxatga olish raqami-124-10\11).

ISBN: 978-9910-752-96-4

© R. Hayitboyev, S.A. Abduhamidov, SamISI. 2025 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2025 y.

KIRISH

Turizmning sohalari va turlari insoniyatning ijodi va yaratuvchilik sohalaridan, moddiy va nomoddiy mahsulotlar ishlab chiqarishidan kelib chiqgan. Ziyoratgoh joylar, tarixiy obidalar, diniy rahnomolarning dahmalari jahonning mashhur kishilari hayotidir. Faqatgina ekoturizm, rekreatsiya turizmi va g‘or turizmi turlari tabiat mahsuli hisoblanadi. Ishlab chiqarish sohalarining yoki insonlar guruhining mo‘jizakor, mukammal va hayratomuz ko‘rinishga ega bo‘lgan mahsulotlari, inshootlari insonlar oqimini o‘ziga jalb qilishi turizm sohasini keltirib chiqardi, sohadagi turlarning ko‘payib borayotganligi ham ana shu omillarga bog‘liq.

Dunyoning 7 mo‘jizasini ko‘rish, ularning siru-asrorlari bilan tanishishga qiziqish qadim sivilizatsiyada turistlar oqimini tashkil qilganligi malum. Bu vaqtda “turizm” so‘zi hali kashf qilinmagan, tarifi berilmagan edi. O‘zga yerlardagi odamlarni, tabiatni ko‘rishga qiziqish, asosiy hollarda boylik izlash, yangi yerlarni topish uchun chiqgan kishilar hozirda buyuk geografik kashfiyotchilar nomini olgan. Bu davr ham jahonda turizmning rivojlanishida alohida bosqich hisoblanadi.

Dastlab, inson o‘zida paydo bo‘lgan e’tiqod hissi nuqtai-nazaridan o‘z dinidagi barkamol insonlar, avliyolar, ruhoniylar va shayxlarga, keyinchalik ularning qabriga sig‘indi, bu harakatlari unga xotirjamlik sezdi. Bunday harakatlar turizmda ziyorat turizmi nomini oldi. Keyinchalik o‘tmishdagi o‘z ajdodlari qurgan mo‘’jizakor, mahobatli qurilish inshootlariga, insoniyatning mashhur sarkardalari qurdirgan qasrlarni ko‘rishga intildi. Bu harakatlar hozirda tarixiy-madaniy turizm turi deb nomlangan. Shu tariqa turizmning turlari ro‘yxati to‘lib bordi. Hozirgi Rossiyalik mutaxassislarning yozishicha jahonda turizmning asosiy turlari 20-22 turdan iborat. AQShda esa 100 dan ziyod va hakozolar.

O‘zbekistonda hozirda turizmning 8 ta turi har xil darajalarda rivojlantirilmoqda, istiqbolda yana 8 ta turizm turlarini rivojlantirishning katta salohiyatlari va imkoniyatlari mavjud. Turizmdagi xalqaro ekspertlarning xulosalari bo‘yicha davlatlarda

turizmning taraqqiyoti darajalari turizmning ko‘plab turlarini rivojlantirishga bog‘liq. Shu sababli, turizm ta’limida tayyorlanayotgan bo‘lg‘usi mutaxassislarga “Turizmning turlari va resurslari” fanini o‘qitish talabi kiritildi.

I BOB. TURIZMNING TURLARI VA RESURSLARI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Turizmning turlari va resurslari fanining maqsadi va vazifalari

Turizmning turlari Rossiyalik turizm mutaxassislarining fikrlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinib berilayapti. Turizmdagi turlarni tasniflashdagi chalkashliklar ham turizmdagi turlarga, turistlar sonini, harakatlanishini, xizmatlar turini ham aralashtirish, turizmdagi haqiqiy turlar xilini aniqlashni ham qiyinlashtiradi, haqiqiy turlarning qaysilari muhimrog‘u, qaysi turlar o‘z salohiyati bo‘yicha keyinroq turadi, ajratish mushkullashadi.

Talabalardan, turizmdagi tadbirkorlardan, yosh mutaxassislar dan turizmning turlarini sanab bering degan savolga-ichki turizm, xalqaro turizm, kiruvchi turizm, chiquvchi turizm, avtoturizm deb keyinchalik ziyorat turizmi, ekoturizm, sport turizmi, piyodalar turizmi, keksalar turizmi, velosiped turizmi, mototurizm va hakozo turlarni qo‘shib javob berishadi. Turistlarning piyoda, velosipedda yoki mototsiklda harakatlanishi turizmning turi emas balki, turistning xohish-istagi bilan o‘zi tanlagan harakatlanish vositasi bilan turistik faoliyatda bo‘lishidir. Ya’ni turdagi transport xizmatlaridan iste’molchining-turistning o‘z tashabbusi bilan foydalanishini tushunish kerak.

Agar turistning bu kabi harakatlarini tur deb qabul qilsak, avtoturizm, samolyot turizmi, temir yo‘l turizmi yoki tuya va eshshak turizmi degan mazmunsiz turistik atamalar paydo bo‘ladiki, bu atamalarni yaratish aslo mumkin emas. Turistning transport turlaridan foydalanishi turizmda transport xizmatlariga kirishini bilish unchalik murakkab tushuncha emas. Yana javoblardan malum bo‘ladiki, turizmning turlarini statistika uchun kerak bo‘ladigan turistlar oqimini hisobga oladigan ichki, xalqaro, kirish va chiqish sohlaridagi turistlar harakatiga qo‘shib yubormoqda. Ichki, xalqaro, kirish va chiqish turizmi deganda turistlarning sonini hisobga olish va o‘sish yoki kamayishga qarab rejalashtirish ishlarini amalga oshirish tushuniladi. Bu ko‘rsatgichlar turizmdagi tur emas balki, turizmning alohida-alohida sohalari hisoblanadi. Turizmdagi tur turistning malum bir qiziqish

obekti-turistik resurs – makonni anglatadi.

Yangi ma’ruza matnlarida, uslubiy qo‘llanmalarda mualliflar Rossiyalik turizm mutaxassislari, proffessor-o‘qituvchilari nashr qilgan darslik, qo‘llanmalardagi turizm atamalarini keltirishi to‘g‘ri albatta. Lekin, O‘zbekiston turizmi uchun o‘ziga xos bo‘lgan, qulay, milliy turizm atamalari haqida ayniqsa, turizmning turlari va resurslari haqida yagona fikrlarni, atamalarni turizm uchun tayyorlanayotgan bo‘lg‘usi mutaxassislarga to‘g‘ri yetkazish va to‘g‘ri tushuntirishga kelishib olish juda zarur.

Yana shuni qayd qilish lozim bo‘lmoqdaki, xalqaro miqyosda va mamlakatimizda ekoturizm rivojlanishi va bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar tobora kuchayib borayotganligidan ekoturizm yo‘nalishida umuman ishlamagan ba’zi bir olimlar ham, ekoturizm bo‘yicha o‘z maqolalari sonini ko‘paytirish uchun almoyi-aljoyi maqolalarni yozishmoqda (masalan, sun’iy bog‘lardagi ekoturizm, tarixiy obidalar ekoturizmi, me’morchilik yodgorliklari ekoturizmi, arxeologik qazilmalar ekoturizmi, ekologik mushkul joylar ekoturizmi va boshq..).

Bunday holatlarga turizm fanlarining tadqiqotchilari, ilmiy–amaliy konferensiyalarni tashkil qiluvchilar aslo yo‘l qo‘ymasliklari lozim. Shuning uchun ham, qayd qilganimizdek, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishni ommaviy targ‘ib qilish uchun ham, turizmdagi tadbirkorlikni to‘g‘ri tashkil qilishimiz uchun ham, birinchi navbatdagi vazifamiz turizm sohalarining, turlarining tarif va tavsiflarini, uning faoliyat chegaralarini yaxshilab bilib olishimiz kerak.

***Faning maqsadi*:** O‘zbekiston milliy turizmida rivojlanti rilayotgan turizmning turlari va bu turlarning resurslari haqida, turizmdagi turlarni rivojlantirishdagi muammolar va ularning yechimlari haqida, turizmdagi turlar sonini ko‘paytirish haqida va turizmdagi turlarni rivojlantirish istiqbollari haqidagi bilimlar va ma’lumotlarni talabalarga yetkazish hisoblanadi.

***Fanning vazifalari*:** Talabalarga turizmning turlarining mazmuni va mohiyatini o‘rgatish, turizmdagi turlarning resursla rini o‘rgatish, turizmdagi turlarga turizm mahsulotlarini ishlab chiqishni o‘rgatish, milliy turizmni rivojlantirishda turizmning turlari asosiy rolga egaligi

haqida bilimlar berish, turizmdagi turlarga ekskursiyalar, marshrutlar va reklamalar ishlab chiqishni o‘rgatishdan iborat**.**

1.2. Turizmning sohalari va turlari

Turizmning haqiqiy mohiyati, bu sohaning rivojlanish manbai, o‘zagi, yadrosi turistik resurslar va bu turistik resurslardan foydalanishda aniq mavzuli, resurs mazmunini, mohiyatini anglatadigan turni ishlab chiqish hisoblanadi. Tur nomi esa birinchidan, turistik resursning, (ob’ektning) mohiyati mazmunidan (masalan, ziyorat turizmi va hakozo….) ikkinchidan, turistning hohishi, qiziqishidan (masalan, sport turizmi, sog‘lomlashtirish turizmi, rekreatsiya turizmi, kasbiy faoliyat turizmi va hakozo..) kelib chiqadi. Shuningdek, turizmning sohalarini ham turizmdagi turlarga aralashtirish, qo‘shish butunlay noto‘g‘ri xulosalarni keltirib chiqaradiki, bunday holatga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Tur–turist uchun ma’lum marshrutda, ma’lum turistik ob’ektga, ma’lum muddatda taqdim etiladigan, turli xizmatlar (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati, maishiy, turistik ekskursiya va boshqa) to‘plamidir (BTT-Butunjahon turizm tashkiloti-1.2.1,1.2.2,1.2.3-Rasmlar).Shuning uchun ham Rossiyalik mutaxassis lar adabiyotidagi tasniflardan foydalanib, O‘zbekistonda turizmning qaysi turlarini asosiy deb va bu turlarning qanday rivojlantirish istiqbollari borligiga to‘xtalish fikrimizcha to‘g‘ri bo‘ladi.

Turizmning turlarini belgilashda O‘zbekiston uchun qulay bo‘lgan usullarni,atamalarni qo‘llashimizni hech kim taqiqlamaydi. Respublikamizda turizmni rivojlantirishga jadal kirishilayotgan ekan,turizmdagi turlarni salohiyatiga qarab, ularga keladigan turizm oqimlariga qarab, ma’lum bir guruhlarga ajratishimiz mumkin. Turizm resurslarining salohiyatiga qarab, Respublikamiz da turizmdagi quyidagi asosiy turlarni rivojlantirish mumkin va bu turlarni asosiy turlar deb qabul qilish lozim.



1.2.1-rasm. Turning tarkibi[1]



1.2.2-rasm. Turistik paket[2]



1.2.3-rasm. Turizm mahsuloti[3]

[1]Kvartalnov V.A.,Teoriya i praktika turizma.Moskva,”Finansi i statistika”.2003.-660 s.
[2] Kvartalnov V.A.,Teoriya i praktika turizma.Moskva,”Finansi i statistika”.2003.-660 s.
[3]Kvartalnov V.A.,Teoriya i praktika turizma.Moskva,”Finansi i statistika”.2003.-660 s.

Ziyorat turizmi **–** Islom dini olamidagi mashhur kishilarning qabrlarini ziyorat qilish. Makkaga, Madinaga haj va Umra safarlari ziyoratini amalga oshirish. Payg‘ambarmiz Muhammad Alayhissalom yaqinlarining va safdoshlarining vatanimizdagi muqaddas ziyoratgohlarini ziyorat qilish. Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent shaharlariga kelib masjidlarda «juma» namozlarini o‘qish. Shuningdek, ushbu shaharlardagi muqaddas qadamjolar bo‘lgan - Imom-al-Buxoriy, Buxorolik pirlar, Xo‘ja Ahror vali, Ruxobod majmualarida nomoz amallarini bajarish.

Tarixiy–madaniy turizm - Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Termiz, Qo‘qon, Qarshi, Jizzax shaharlaridagi va Respublikamiz tumanlaridagi tarixiy obidalarni ko‘rishga qiziqish.

Ekologik turizm **–** Vatanimizning go‘zal tabiat mintaqalariga, betakror tabiat go‘shalariga, noyob o‘simliklar olami va hayvonot dunyosiga, 4 faslning iqlimiy xususiyatlarini ko‘rishga qiziqish.

Arxeologiya turizmi – Samarqand, Buxoro, Xorazm, Termiz, Toshkent, Shahrisabz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon shaharlarining qoldiqlari, qadimiy qalalar harobalari, ko‘hna, qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari hayoti haqidagi arxeologiya topilmalariga qiziqish. Turistning, turistlarning arxeologiya makonlaridagi qazishma ishlariga, arxeologiya ilmiy tadqiqotlari ga qatnashishga qiziqishi.

Sport turizmi **–** hozirda jahon bo‘yicha ommaviylashib borayotgan milliy kurash, tennis, futbol, chang‘i sporti, boks, olimpiada, milliy va xalqaro sport va boshqa sport-bellashuv musobaqalariga qiziqish.

Rekreatsiya turizmi **–** Tabiat bag‘ridagi mo‘jizakor go‘shalarda, tog‘ o‘rmonlaridagi shifobaxsh daraxtlar ichida,tabiiy sharsharalar, zilol buloqlar yonida vaqtinchalik dam olishga, charchoqni yo‘qotishga intilish, qiziqish. Vatanimizning sog‘lomlashtirish markazlarida, kurort va sanatoriyalarida, mineral, shifobaxsh suvlari maskanlarida, shifobaxsh qum-balchiqlarida, ma’danli suvlari manzillarida davolanishga qiziqish.

Ovchilik turizmi **–** Respublikamizda ov qilishning huquqiy-qonuniy me’yorlari yaratilganligi, ovchilik maydonlarining katta

hududlarni egallashi, ovchilik obektlarining aniqligi, ovda harakatlanishning erkinligidan qurol va qurolsiz ovchilikka qiziqish.

Kasbiy faoliyat turizmi – kasbiy faoliyat yuzasidan chet davlatlarga borishga, chet elliklarning respublikamizga kelishiga, tijoratchilar, tadbirkorlar, savdogarlar, qo‘shma korxonalar tuzuvchilarning mamlakatlardagi o‘z kasbi faoliyati doirasida malakalar oshirish, mahsulotlar, asbob-uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga yoki tanishishga (ko‘rgazmalarga) qiziqish.

Ilmiy turizm – Vatanimizda va xorijda talim olish, xalqaro ilmiy markazlarda o‘qish, xalqaro yirik Universitetlarda ilmiy-amaliy malakalarini oshirish, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya lar, simpoziumlarga qatnashish, xalqaro ilmiy grant loyihalarni bajarishga, magistratura va doktoranturani xorij mamlakatlarda, vatanimizda o‘tkazishga qiziqish.

Savdo turizmi – Vatanimizda va xorijda faqat savdogarchilik masalalariga, mol olib kelish va olib ketish, ayriboshlash, savdo markazlari ochish, narx-navo o‘zgarishiga, valyutalar bahosiga, yangi bozorlarga, haridor talab mollar savdosiga qiziqish.

Ijtimoiy turizm – Davlat tomonidan yoki shaxs ishlab turgan korxona hisobidan sayohatga chiqish, sog‘lomlashtirish, dam olish maskanlariga, kurort va sanatoriyalarga borishga qiziqish. O‘zbekistonda bunday imtiyozlarni O‘zbekiston kasabachilar uyushmasi federatsiyasi ishlab chiqadi.

Ekskursiya (tanishuv, ko‘rish) turizmi – bu tur asosan mamlakat ichkarisida ko‘proq rivojlanadi. Yakka shaxs yoki guruh bo‘lib tashabbuskor (o‘qituvchi, ekolog, injener, mutaxassis) boshliq rahbarligida qisqa, birkun muddatlarda o‘lkashunoslik, tarixiy, madaniyat muzeylarini, botanika bog‘larini, zavod, fabrikalarning ish faoliyatlarini, yaqin masofalardagi oromgohlar, tabiiy landshaftlarni, hayvonot bog‘lari, suv va daryo havzalarini ko‘rishga qiziqish.

Qishloq turizmi – qishloqlarda turizmni tashkil qilib, qishloqlarimizga ichki va xalqaro turistlarni jalb qilish asosida qishloqlarimizdagi obodonchilikni kuchaytirish, qishloq aholisi ning ish bilan bandligini oshirish, qishloqlarimiz aholisini xalqaro hamdo‘stlik

jarayonlariga qo‘shish va qishloqlarimizni va qishloqlarimizda yashayotgan xalqimizni xalqaro miqyosda dunyoga ko‘rsatish.

Agroturizm **–** qishloq turizmining bir yo‘nalishi bo‘lib, u dam olish yoki qishloq xo‘jaligi ishlarida ishtirok etish uchun qishloq joylarida turistlarning vaqtinchalik qolishini nazarda tutadi, qishloq turizmida qishloq joylarining tabiiy, madaniy va tarixiy va boshqa resurslaridan foydalanishga qaratilgan faoliyatidir.

Gastronomiya turizmi **–** “Gastronomiya turizmi-bu qo‘shni ko‘chadami yoki Yer sharining boshqa bir oxirida unutilmas, g‘aroyib ichimliklar, taomlarni tatib ko‘rishdan lazzatlanishni izlashdagi turistik faoliyat hisoblanadi”.**“**Ovqat- bu millatning eng muhim mohiyati, uning harakteri va tarixi”. Bu so‘zlar “Butunjahon gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi”ning“Manifesti” hisoblanadi.

Ishchanlik turizmi **–** Ishchanlik turizmi–bu kompaniya yoki tashkilot xodimlarining ish masalalarini hal qilishi uchun o‘z vataniyadagi tashkilotlarga, korxonalarga va chel el davlatlaridagi konferensiyalar, ko‘rgazmalar, forumlar, sammitlar va boshqa xalqaro yig‘inlarga qatnashish va biznes rejalarini hal qilish uchun safarni tashkil qilishdir. Ishchanlik turizmining maqsadi o‘z vatanidagi va chet davlatlaridagi ishlab chiqarish seminarlariga, yig‘ilishlariga qatnashib, yangi texnologiyalarni o‘rganish va turizm bozorining yangi segmentlarini va mahsulotlarini aniqlash hisoblanadi.

G‘or turizmi **–** sayyoramizdagi gorizontal va vertikal holatlardagi g‘orlarga qiziqish hisoblanadi. Bu turizm turiga jismoniy jihatdan tayyorlangan, g‘orlardagi xavf-xatarlar bo‘yicha maxsus tayyorlangan, o‘ziga xos bo‘lgan dam olishni, sarguzashtlarni izlaydigan, hohlaydiganlar qiziqadilar.

Shaharsozlik turizmi **–** O‘z vatanida va xorij davlatlaridagi zamonaviy shaharlarni ko‘rishga qiziqish. Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz shaharlaridagi yangi obidalar va yangi tipda kengaytirilgan shaharlar, ayniqsa cho‘llarimizda bunyod etilgan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Zafarobod kabi shaharlariga qiziqish ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham o‘zining turistik bozorini topishni taminlashimiz lozim.

Qayd qilingan 18 ta turizm turi mamlaktimizda talablar darajasida rivojlanishi mumkin. Chunkibu turizm turlariga(ichki va tashqi turizmda) turistlarning qiziqishlari haqida batafsil malumotlar bor. Ikkinchidan, qayd qilingan turlarning turistik resurslari–obektlari xilma-xilligi, jozibadorligi, mazmundor ligi, diqqatga sazovorligi, ulug‘vorligi, muqaddasligi, noyobligi, betakrorligi jihatlari, ko‘rinishlari, tariflari televideniye, internet axborotlar tizimida reklama qilinmoqda. Shuningdek, turizm rivojlangan davlatlardagi tajribalardan malumki, bu turlarga turistlarning oqimi juda katta miqdorlarda bo‘ladi. Shuning uchun ham, qayd qilingan turlarni turizmdagi asosiy turlar deb nomlash ham to‘g‘ri bo‘ladi.

Turizmning sohalari deyilganda xalqaro statistikada sayohatlarning yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘yidagi sohalarni ajratish mumkin[4]:

1.*Ichki turizm* **–** o‘z davlati chegarasida sayohat. Ekspertlar xulosasiga ko‘ra sayyoh 80-100 km dan oshgan masofaga sayohat qilsa, turizm sayyohi deyiladi.

2.*Kirish turizmi* **–** O‘zbekistonga boshqa davlatlardan turistlarning kelishi.

3.*Chiqish turizmi* **–** agar O‘zbekistonlik Malayziyaga sayohat qilsa, chiqish turizmi (turist) bo‘ladi. Malayziyaga borgandan keyin, u turist Malayziya uchun kirish turizmiga kiradi.

4.*Xalqaro turizm* **–** jahon davlatlaridagi turistlarning dunyodagi mamlakatlar bo‘yicha turistik faoliyatlari hisoblanadi.

5.Milliy turizm – kirish, ichki va chiqish turizm shakllarini birlashtiradi[5].

6. Mintaqaviy turizm[6] - turistik xizmatlar taqdim etiladigan, turist uchun alohida qiziqish uyg‘otadigan, tabiiy-iqlimiy, madaniy va tarixiy resurslar, ko‘ngilochar yoki boshqa majmualardan foydalangan holda turistlar ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘zoro chegaradosh, bir guruh mamlakatlar yoki viloyatlardan iborat bo‘lgan hudud turizmi.

[4]Kvartalnov V.A.,Teoriya i praktika turizma.Moskva,”Finansi i statistika”.2003.-660 s.:Durovich A.P., Organizatsiya turizma.Minsk, “Novoye znaniye”, 2008.-632 s.

[5]Hayitboyev R., Sattarov A., Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma, Samarqand, SamISI, MCHJ «TONG»,2009.-87 b.

[6] Abduxamidov S.A. Turizm sohasini mintaqaviy rivojlantirishning metodologik asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun olib borayotgan dissertatsiya tadqiqotlari ma’lumotlari. S.: 2025 y.

7. O‘zbekistonning xalqaro turizmi – O‘zbekistonliklarning xorij davlatlariga turizm maqsadlarida chiqishi va xorijiy davlatlar fuqarolarining O‘zbekistonga turizm maqsadlarida kelishi hisoblanadi. Turizmdagi turistik faoliyat turistning xohishi bo‘yicha yoki turizm firmalari, tashkilotlarining faoliyatlari bo‘yicha tashkiliy jihatlardan va turistlarning jismoniy holatlari bo‘yicha quyidagi guruhlarni tashkil qiladi:

Tashkil etilgan turistik faoliyat – bu tur tashkilotlar tomonidan tashkil etilagan alohida shaxslarni yoki bir guruh turistlarning sayohatidir. Tashkil etilgan turistlar, turistlar yo‘llanmasini harid qilish yo‘li bilan sayohat xuquqini qo‘lga kiritadilar. Bunda xizmatlar miqdori turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, turistlar ovqatlanishi uchun kursovkani yoki xizmatlar kompleksini, ya’ni transport xizmatlari, ovqatlanish, yashash, transfer, sayohat xizmatlari va h. k... ni harid qilib olishlari mumkin.

Tashkil etilmagan turistik faoliyat – turizmdagi bu faoliyatda turistlar turizm firmalarining takliflari yoki yo‘llanmalarini harid qilmaydi, ular o‘z hohishlari bilan sayohat qilishadi va turizm xizmatlarini sayohati davomida o‘zlari erkin harid qilishadi.

Faol turizm – faol harakatlarga (piyoda ko‘p yurish, tog‘larga sayohat va boshq..) turistlarning jismoniy holatlari bo‘yicha ajratiladi, asosan, yoshlarga mo‘ljallangan turlar tashkil qilinadi

Sust turizm – kam harakat qilinadigan turistlarga (ko‘proq keksa kishilarga, oilaviy turistlarga mo‘ljallangan turlar tashkil qilinadi.

Turizm bu ijtimoiy – iqtisodiy soha. Demak, dastavval uning yuqorida qayd qilingan sohalarini, bu sohalarning mohiyati, mazmunini, tarkibini, uning rivojlantirish rejalarini, huquqiy me’yorlarini ishlab chiqish kerak.Matbuotdagi xabarlarga qaraganda hozirda mamlakatimizdagi turizm halq xo‘jaligidagi 40 ta tarmoqlari bilan ishlamoqda. Bu tarmoqlar qaysilar va turizmning qanday sohalari bilan bog‘langan? Bunday savollar juda ko‘p. Shuning uchun ham, turizmni rivojlantirishdagi hozirgi tadqiqotlarimiz turizmning barcha sohalari, turlari bo‘yicha aniq tarif va tafsiflarni ishlab chiqishdan iborat bo‘lishi kerak.

Turizmning turlarini turizmdagi sohalarga aralashtirishi miz turizmdagi sohalarni, tarmoqlarni yaxshi bilmaganligimiz hisoblanadi. Masalan, qishloq turizmi, ekoturizm va ziyorat turizmlarini ham turizmdagi sohalar deb tushunuvchilar ham ko‘p. Bunday xulosalar mamlakatimizdagi turizm tadbirkorligini, turizmga qiziqishni chalkashtirib yuboradi. Vaholanki, xalq xo‘jaligidagi har bir tarmoqning dasturi, boshqaruvi, huquqiy-me’yoriy hujjatlari davlat tomonidan tayyorlangandagina u soha deyiladi, erkin va tartib bilan ishlaydi.

1.3. Turizmning resurslari

Turizmning resurslari – turizm maqsadlarida va turizm jarayonida insonning ehtiyojini qondirishga qodir tabiiy-iqlim, ijtimoiy–madaniy, tarixiy, me’moriy, ilmiy, sanoatga doir, tomosha qilinuvchi ob’ektlar yoki hodisalar to‘plamidan iborat. Turizmning resurslari har bir mamlakatning milliy boyligi bo‘lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Ulardan eng noyoblari, jahon ahamiyatiga molik ob’ektlar va yodgorliklar hisoblanib, YUNESKOning «Jahon merosi» ro‘yxatiga kiritiladi. Bunday ro‘yxat har-yili YUNESKO tomonidan o‘rganiladi va yangilanadi, ro‘yxatdagi tabiiy, moddiy, nomoddiy, tarixiy va madaniy yodgorliklardavlat tomonidan muhofaza qilinadi, umumjahon ahamiyatidagi ob’ektlar va yodgorliklarni ta’mirlashga, saqlab qolishga YUNESKO tomonidan mablag‘ ajratiladi.

Turizmning resurslari adabiyotlarda to hozirgacha *turistik resurslar* deb yozilmoqda. Resurs so‘zi farang tilidan- zahira, boylik, manba deb tarjima qilingan[7], tushunarli. Ammo, *turistik* so‘zi yoki atamasi tushunarsiz. Birinchidan, turistik degan so‘z o‘zbek tilida mavjud emas. Bu so‘zning kelib chiqishi vatanimizda turizm ta’limi tashkil qilingan 2006-yillarda, o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda Rossiya olimlarining adabiyotlarini o‘zbek tiliga buzib tarjima qilishdan kelib chiqdi. Bu so‘zlarni biz turistning resursi, turistlikning resurslari deb tarjima qilganimizda ham noto‘g‘ri bo‘lardi. Bu noto‘g‘ri nomlanish turizm

[7]Ruscha-o‘zbekchalug‘at. O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, II-Tom,Toshkent, 1983.-355 b.

ta’limidagi “Turizm asoslari” darsligiga ham kiritildi[8] va to hozirgacha yozilmoqda (turistik resurs birlik, kamlik ma’nosida-ku). Turist yoki turistlar qiziqadigan manbalar, ob’ektlar, tabiat, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, voqe’alar, millatlar, an’analar, marosimlar va boshqalar turizmning resurlari hisoblanadi. Turist yoki turistlar o‘zining yoki o‘zlarining talablari, ehtiyojlari va hohishlari bilan turizm resurslarining ob’ektlarini tanlashi mumkin.

Hozirda mutaxassislar turizmning resurslarini quyidagi guruhlarga ajratishadi[9]:

-*Turizmning tabiiy–iqlimiy resurslari*(tabiat va tabiiy resurslarning barchasi);

-*Turizmning madaniy–tarixiy resurslari* (moddiy madaniy merosob’ektlari-tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar)[10];

-*Turizmning ijtimoiy–iqtisodiy resurslari* (turizm–iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarini o‘z ichiga olgan, qurilishdan boshlab, transport xizmatigacha bo‘lgan faoliyatning ixtisoslashgan turi hisoblanadi. Undan tashqari turizm iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi korxonalari, transport vositalari, ishlab chiqaruvchi zavodlar, mebel ishlab chiqaruvchi korxona va boshqalar);

-*Turizmning axborot resurslari* (sayohat vaqtida yoki unga tayyorgarlik ko‘rishda turistlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga beriladigan ma’lum hudud, ob’ekt to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmuasi turizmning axborot resurslari hisoblanadi);

-*Turizmning mehnat resurslari* (turizmda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida insonlarning jismoniy va aqliy mehnati ishlatiladi. Bunda insonlarni sog‘ligi va jismoniy kuchi, ma’lumoti hamda malakasi asosiy o‘rinni egallaydi. Mehnat resurslarining miqdori, malakasi iqtisodiy omil sifatida katta ahamiyatga ega);

[8]Tuxliyev S. S., Hayitboyev R., Safarov B., Tursunova G., Turizm asoslari, Darslik, Toshkent, 2014.-330 b.
[9]Tuxliyev S. S., Hayitboyev R., Safarov B., Tursunova G., Turizm asoslari,Darslik, Toshkent, 2014.-330 b.
[10]O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy me’ros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh.,2001 yil 30 avgust, 269-II-son

-*Turizmning asosiy vosita resurslari* ishlab chiqarishning birinchi omili hisoblanib, unga turli inshootlar, jihozlar kiradi, ulardan mehnat faoliyati orqali foydalaniladi. Asosiy vosita elementlari tasnifi mutaxassislar tomonidan quyidagicha belgilangan:

-*asosiy binolar:* otellar, bar, restoran, klub va b.;

-*yordamchi binolar:* garaj, isitish tizimi va b.;

-*inshoat va qurilmalar:* yo‘llar, turistik po’ezdlar, sport maydonlari va b.;

-*kommunikatsiya qurilmalari:*elektr o‘tkazgichlar, quvurlar va b.;

-*mashina vajihozlar:*transformator, kompyuter va b.

-*transport vositalari:*yengil avtomobil, avtobus va b.

Tayanch so‘zlar: tur, soha, resurs, mo‘jiza, mayya, gelios, mavzoley, gidrotexnika, to‘g‘on, kolleksiya, antiqa.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savollar va topshiriqlar

1. Nima uchun turizm turlarga ajratilgan?
2. Turizmning sohalari va turlarida qanday farqlar bor?
3. Turizmning sohalarini tushuntirib bering.
4. O‘zbekistonning xalqaro turizmini tushuntirib bering.
5. O‘zbekistonda turizmning turlari ko‘payishi mumkinmi?

II BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURLIGI

2.1. O‘zbekistonda turizmning turlarini rivojlantirish zarurligining kelib chiqganligi

Har qanday davlatda turizm sohasini rivojlantirish boshqa sohalar kabi davlatning rahbariga bog‘liqligini isbotlab o‘tirish shart emas. Lekin o‘z davlatida davlatning iqtisodiyotiga yordam beradigan ma’lum bir ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishni juda hohlagan davlat rahbari albatda bu sohani rivojlantiradi. Xulosalarimizni quyidagi misol bilan isbotlaymiz:

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida Rishton tumanida qurilgan “Xalqaro kulolchilik markazi”ga bordi. Prezidentimiz kulolchilik buyumlarini aholi orasida ommalashtirish kerakligini aytib–*“Endi nafaqat ko‘rgazmalar yoki muzeylarda, balki xonadonlarda ham ko‘zlarni quvnatib turishi kerak, «Bu ham ma’naviyat, bu ham ma’rifat, bu ham tarix, bu ham madaniyat. Biz madaniyatni, urf-odatimizni o‘zimizdan boshlashimiz kerak-ku? Yoki noto‘g‘rimi? Mening uyimda ham yo‘q bu sopol. Hayotimizga, ro‘zg‘orimizga kiritaolmadik»*-dedi davlatimiz rahbari.

Kulollarga aylanma mablag‘ va imtiyozlar berish, boshqa hududlarimizda do‘konlar ochishiga ko‘maklashish, mamlakatimizning xorijdagi elchixonalarida ko‘rgazma-savdo rastalari tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Prezidentimizning bu tavsiyalari ham xalqimizning milliy merosi boyliklarining asosiy yo‘nalishlari ning, sohalarining istiqbolda rivojlantirishning dolzarbligini tasdiqlaydi. Bundan yangi–milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda salohiyatli sharoitlar va katta imkoniyatlar kelib chiqishini aniq tasavvur qilish mumkin. O‘zbekiston milliy turizmida yangi-milliy madaniy meros turizmining kelib chiqishidagi ilmiy-amaliy

tadqiqotlarning amalga oshirilishida Prezidentimizning keltirilgan qaydlari albatda muhim ahamiyat kasb etgan[11].

Ikkinchi misolni keltiramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «*O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»*gi 2016--yil 2-dekabrdagi PF-4861 sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni, xalqaro turizmni rivojlan tirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, istiqbolli islohatlarning sharoitlarini yaratdi. Prezident farmonida[12]:

-“Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini rivojlantirish;

–ziyorat qilish, ekologik,ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish;

-ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirish ning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” belgilangan.

Mamlakatimizda gastronomiya turizmini rivojlantirishning beqiyos salohiyatlari mavjudligi turizm mutaxassislariga ham, boshqalarga ham ma’lum edi. Lekin Prezidentimizning bu farmonigacha gastronomiya turizmini rivojlantirish tadqiqotlari loaqal boshlanmadi. Farmondan keyin boshlandi va hozirda O‘zbekiston milliy turizmiga gastronomiya turizmini tashkil qilish va rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berildi[13]. Qayd qilingan holatlar asos bo‘lib, turizm sohasida yangi

[11]Samarov X. Q.O‘zbekistonda yangi-milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning maqsadi va vazifalari,«SERVIS» ilmiy-amaliy jurnali2020 yil 4 son,120-125 b.;Milliy madaniy meros turizmi,(Monografiya), ,« Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», ISBN 978–9943–Toshkent.- 2022.-188 b.

1.Ўzbekiston Respublikasi Prezidentining -«Ўzbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari tўg‘risida»gi Farmoni2016 yil 2-dekabrdagi PF-4861

[13]QahharovJ.,O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. SamISI. “SERVIS” ilmiy-amaliy jurnali 2019 yil №3-son. 83-88 b.; Qahhorov J.A.,Gastronomiya turizmining xalqaro festivallari. Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnali №4 (45) 20.12.2019 yil 42-45 b.

turlar yuzaga chiqdi. O‘zbekistonning milliy turizmida turizmning yangi turlarini rivojlantirish zarurligining kelib chiqganligini ushbu mavzuda ikkita tur misolida keltiramiz.

2.2. O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirishning zarurligi

Turizm sohasi o‘zining ko‘p qirraligini, o‘zgaruvchanligini yana bir bor tasdiqladi. Jahon turizmida yangi yo‘nalish-taomlar turizmi-gastronomiya turizmi o‘zining shiddatli taraqqiyotini boshladi. Xuddi hozirgi taomlar kuni kecha paydo bo‘lganidek tasavvurlar paydo bo‘ldi va yangi g‘oyani-innovatsiyani tezda ilg‘ab oluvchilarning tashabbuskor shiorlari va reklamalari tasirida odamlar turli-tuman va turli mazalilikga ega taomlarni yoppasiga izlashga tushdi[14]. Hozirda gastronomiya turizm jahon sayyohlik bozorining eng jadal va rivojlanayotgan turizm yo‘nalishi sifatida tan olingan. Umuman olganda, sayyohlik sanoatining umumiy daromadlarida gastronomiya turizmning ulushi 30%ga yetadi va bu ko‘rsatkich o‘sib bormoqda.

BMTning Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO, oziq-ovqat turizm bo‘yicha Global hisobot tadqiqotlari) ma’lumotlariga ko‘ra, sayohatchilarning 79 foizi gastronomiya tadbirlar taqvimi va mahalliy oshxonalarning xususiyatlarini o‘rganib chiqqandan so‘ng, sayohat rejalarini tuzishadi. Shuningdek, tadqiqotga ko‘ra, har uchinchi sayyoh borayotgan davlatining milliy oshxonasini sayohat qilish uchun motivatsiya deb hisoblaydi va u umumiy harajatlarning taxminan 30foizini ovqatlanishga sarflanishi o‘rganilib chiqildi. So‘nggi 20-yil ichida dunyoda turizmning o‘sishi o‘rtacha 9,4% ga oshgan bo‘lsa, mazkur o‘sish sur’ati turizm turlari ichidan gastronomiya turizm ko‘rsatkichi 15,5 %-yillik o‘sishni ko‘rsatgan[15].

Vatanimizda gastronomiya turizmini rivojlantirish yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlanti rishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016-yil 2-dekabrdagi PF-

[14]Vulf Erik «Chto takoye gastronomicheskiy turizm» //http:// www. World of travel. org/ what-is-food-tourism.
[15]World Tourism Organization UNWTO. http://media.unwto.org/ru/press-release/2016-01\19

4861 sonli Farmonidan boshlandi[16]. Bu farmon mamlakatimizda gastronomiya turizmini rivojlantirish ning tamal toshlarini qo‘ydi, huquqiy me’yorlarini va istiqbollarini yaratdi. Farmonga asoslangan holda ta’kidlash mumkinki, gastronomiya turizmi O‘zbekistonga ham kirib keldi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy turizmida gastronomiya turizmini rivojlantirish zaruratining kelib chiqganligini quyidagilar bilan asoslash mumkin:

1. *Vatanimizda gastronomiya turizmini rivojlantirish birinchi marotaba O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmonida aks ettirildi.*

2. *O‘zbekistonda gastronomik turizm assotsiatsiyasi ochildi.*

2019-yil 6-avgust kuni O‘zbekiston Oshpazlar Uyushmasi anjumanlar zalida tegishli idoralar hamda OAV vakillari ishtirokida “O‘zbekiston gastronomik turizm assotsiatsiyasi”ning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda yig‘ilganlarga assotsiatsiya ning maqsadi, faoliyati va a’zolik shartlari bo‘yicha taqdimot tashkil qilindi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi xabariga ko‘ra, assotsiatsiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishdan maqsad gastronomiya turizmi yo‘nalishida turli tadbirlar, jumladan ko‘rgazma, festival, forum, seminar, ilmiy anjuman, davra suhbati, tanlov va shu kabi boshqa tadbirlarni tashkil etish, assotsiatsiya qoshida xalqaro grantlar homiyligida o‘zbek milliy kulinariyasi tarixi, buguni va kelajagi bo‘yicha gastronomik turizm taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi turli loyihalarni amalga oshirishdan iboratdir.

Assotsiatsiya O‘zbekistonda sayyohlik mavsumini uzaytirish maqsadida har-yilning noyabr oyida muntazam ravishda “Lazzatli O‘zbekiston” xalqaro milliy taomlar festivaliga mezbonlik qiladi, festivalga xalqaro turistik agentliklarini muntazam jalb etib boradi va tadbir doirasida O‘zbekiston bo‘ylab hududiy gastronomik turlarni tashkil etadi. Shuningdek, assotsiatsiyaga a’zo restoranlar va ularning xodimlari orasida “Xorijliklar e’tirofiga sazovor bo‘lgan-yilning eng

[16]Ўzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning-«Ўzbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari tўg‘risida»gi Farmoni,2016 yil 2-dekabr, PF-4861.

yaxshi restorani, “Yil ofitsianti”, “Yil restoran menejeri”, “Yil bosh oshpazi” nominatsiyalari bo‘yicha taqdirlash marosimlari o‘tkaziladi.

3. *Milliy taomimiz–palov 2016-yil 1-dekabrda YUNESKOning nomoddiy madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritildi.*

Milliy taomimiz–palovning 2016-yil 1-dekabrda YUNESKO ning reprezentativ nomoddiy madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritilgani shoh taomimizning dunyo nazdidagi yuksak o‘rnini ko‘rsatib turibdi. O‘zbekiston Oshpazlar uyushmasi raisi Akbar Umarovning ta’kidlashicha:

-YUNESKOning talablari bo‘yicha shunchaki iste’mol qilinadi gan taomnimas, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyat va an’analarni kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

-O‘zbek xalqining hayotida palov milliy taomining o‘rni, milliy taomlarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar, ma’naviyatimiz, urf-odatlarimizni saqlab qolish maqsadida bu ish amalga oshirildi;

-O‘zbek milliy taomi oshning tarbiyaviy jihatlari ochib berildi. Jumladan, mahallalar yoki choyxonalarda qo‘ni-qo‘shni, oshna-og‘aynilar yig‘ilib, osh ustida o‘zaro suhbatlashishi, bu suhbatlarda farzandlar tarbiyasi, kelajagi to‘g‘risida maslahatlashishi, muhim masalalar muhokama qilinishi, maslahat oshi, to‘y oshi, ma’raka oshi, kabi an’analarimizning xususiyatlarini chuqur o‘rganib, mazmun-mohiyatini, osh bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyat va an’analarning jamiyatdagi roli ochib berildi.

-Osh shunchaki taom emas, balki jamoani birlashtiruvchi madaniyat vositasiga aylanib qolganligi ko‘rsatildi;

-YUNESKOdagilar palovning nafaqat insonni ozuqa, shifo va quvvat bo‘lib to‘yintirishi, balki uning tarixi va jamiyatdagi o‘rniga yuqori baho berishdi. Bu yoshlarimiz o‘rtasida milliy qadriyatlarimiz tiklanishida, milliy pazandachiligimiz saqlanib qolishida muhim ahamiyatga ega[17].

4. *O‘zbek nonlari bo‘yicha hujjatlarning YUNESKOga taqdim etish uchun tayyorlanayotganligi.* Dunyoga mashhur nonlarimiz bor. Non rizq-ro‘zimiz. Yurtimizda tayyorlanadigan nonlarning turi ko‘p.

[17].G. Boboyeva, O‘zA, 27.07.2019

Xususan, o‘zbek pazandachiligida obi non, patir non, shirmoy non, jizzali non va gijda non kabi nonlar, ayniqsa, tandirda pishirilgan non turlari keng tarqalgan. Non bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlarimiz ham ko‘p. Xalqimiz nonni shunchalik qadrlaydiki, yangi tug‘ilgan chaqaloqning rizqi butun bo‘lsin deb beshigiga kulcha osib qo‘yishadi, harbiy xizmatga ketayotgan yigitlarimizga rizqini qidirib qaytsin, deb non tishlatib qolishadi. Kelinchak kuyov uyiga kirganda yaxshi niyatlar bilan qo‘ltig‘iga non qistirishadi, mehmonga borilganda juft non bilan kirib boriladi.

Mehmon kelganida ham dasturxonga, avvalo, non qo‘yishadi. Xalqimizning non to‘g‘risida ko‘p hikmatli maqollari borki, ular insonlarni insof, vijdon va diyonatga chorlaydi. Non bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyaviy urf-odatlarimiz juda ko‘p bo‘lgani uchun ham bularni kelajak avlodlarimizga yetkazib, kerak bo‘lsa, YUNESKO ning ro‘yxatiga kiritishga arziydi.

5.*O‘zbekiston gastronomiya turizmining xalqaro gastronomiya turizmida tan olinayotganligi:* **a)** O‘zbekiston delegatsiyasi 2017--yilning 25-sentyabrida Fransiyaning poytaxti Parij shahridagi Le Village International de la Gastronomie (Gastronomiyalarning xalqaro qishlog‘i) xalqaro gastronomiya festivaliga kelgan 40 ta davlatlar qatorida taklif qilindi va qatnashdi. Xalqaro gastronomiya festivali Mashhur Eyfel minorasi yaqinida, Sena daryosi sohilida xalqaro festivallar uchun maxsus qurilgan qishloqda tashkil qilindi. Delegatsiya tarkibidagi - «O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi», O‘zbekiston havo yo‘llari va O‘zbekistonning Fransiyadagi elchixonasining ma’sul rahbarlari xalqaro festivalda «O‘zbek milliy oshxonasi» stendini ko‘rsatishdi, faranglarni, festival qatnashchilarini o‘zbek taomlari dasturxoniga taklif qilishdi. Xalqaro festivaldagi O‘zbekiston bo‘limiga Fransiyaning mashhur kishilari, shoirlari va yozuvchilari ham kelishdi. O‘zbekistonning gastronomiya salohiyati va betakror ta’mga ega bo‘lgan taomlari ayniqsa palov Fransiya xalqi va festival qatnashchilariga manzur bo‘ldi.

b)TurkiyaningAfonkarahisar shahrida 2018-yilning16-18 mart kunlari xalqaro turizm va gastronomiya festivali o‘tkazildi. Festivalga

davlatlardan turizm ekspertlari va ovqatlantirish tashkilotlarining rasmiy vakillari qatnashdi. O‘zbekiston nomidan-O‘zbekiston oshpazlari assotsiatsiyasi raisi A.Umarov xalqaro jyuri-ekspert a’zosi sifatida faoliyat yuritdi.

v) National Geographic Traveler jurnali tomonidan Rossiya hududida tashkil qilingan tanlovda O‘zbekiston birinchi o‘rinni egalladi (2018-yil 15-oktyabr), “Gastronomiya turizmi” yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan ovoz berish jarayonida jami ovozlarning 34% i O‘zbekistonga berildi, Italiya 21% ovoz jamlab ikkinchi o‘rinni egalladi, Ozarbayjon 17% ovoz bilan uchinchi o‘rinni, Fransiya 13% ovoz bilan to‘rtinchi. Yuqoridagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston o‘z raqiblaridan bir necha barobar o‘zib ketgan. Ikkinchidan, aynan Rossiyada O‘zbekiston gastronomiya sayyohlik yo‘nalishi sifatida yuqori qadrlanadi[18].

6. “*O‘zbekistonning milliy oshxonalari” dunyoning eng yirik davlatlarining shaharlaridagi restoranlarida ochilganligi va ishlayotganligi.*Rossiya Federatsiyasining poytaxti Moskva shahrida 300 dan ortiq restoranlarida o‘zbek oshxonasi mavjud. Shunday restoranlardan Nyu-York, Berlin, Frankfurt, London, Los-Anjelos, Dubay, Pekin, Seul, Sankt-Peterburg, Riga, Istambul va boshqa yirik shaharlarda ham ko‘paymoqda. Xorijdagi bir nechta taxliliy tadqiqotlar agentliklari va jurnallar o‘tkazgan so‘rovnomalarda O‘zbekiston gastronomiya turizmi yo‘nalishida eng mashhur yo‘nalish sifatida tan olinmoqda[19].

7. *O‘zbekistonda birinchi «GastroBazar»* I-*Xalqaro gastronomiya festivali o‘tkazilganligi.* 2019-yilning 9-11 avgust kunlari Toshkent shahrida “Gastro Bazar – 2019” I-Xalqaro gastronomiya festivali o‘tkazildi. Festivalning asosiy tashkilotchilari–O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi va Toshkent shahar hokimligi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, oldin ham gastronomiya va turizm o‘rtasidagi aloqalar sayyohlar oqimini ko‘paytirishga va sayyohlarning tashrif kunlarini uzaytirishga yordam

[18]. https://sputniknews-uz.com/tourism/
[19].«Xabar.uz»;

berib kelgan. Xalqaro gastronomiya festivalida Turkiyada tajribadan o‘tgan “Gastronomik orolcha” haqida ma’lumotlar o‘rganildi, orolcha tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash va O‘zbekiston gastronomiyasini turk OAVlari orqali sohaning yoritilishi masalalari ko‘rib chiqildi[20].

Yuqorida keltirilgan rasmiy ma’lumotlar O‘zbekistonning turizmida gastronomiya rivojlantirish zaruratining kelib chiqganligi to‘liq tasdiqlaydi. O‘zbekiston gastronomik turizm assotsiatsiyasi O‘zbekistonda sayyohlik mavsumini uzaytirish maqsadida har-yilning noyabr oyida muntazam ravishda “Lazzatli O‘zbekiston” xalqaro milliy taomlar festivalini o‘tkazadi. Xalqaro festivalga xalqaro turizm tashkilotlarini, agentlik larini muntazam jalb etib boradi va tadbir doirasida O‘zbekiston bo‘ylab hududiy gastronomik turlarni tashkil etadi. Shuningdek, restoranlar va ularning xodimlari orasida “Xorijliklar e’tirofiga sazovor bo‘lgan-yilning eng yaxshi restorani, “Yil ofitsianti”, “Yil restoran menejeri”, “Yil bosh oshpazi” nominatsiyalari bo‘yicha taqdirlash marosimlari o‘tkaziladi.

Keltirilgan rasmiy ma’lumotlarning tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, O‘zbekistonda gastronomiya rivojlantirishning quyidagi mexanizmlarini yaratishni talab qiladi:

-xorij davlatlaridagi gastronomiya turizmining tajribala rini O‘zbekistonda qo‘llash yo‘llarini;

-O‘zbekistonda gastronomiya rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini yaratish;

-O‘zbekistonda gastronomiya turizmi xizmatlarini takomillash tirish yo‘llarini yaratish;

2.3. O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishning zarurligi

Turizm jamiyat faoliyatining barcha sohalariga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiga kirib bormoqda. Turizmning chegaralari, rivojlanishining tezligi mamlakatning milliy boyligi, tabiiy boyliklari, milliy merosi boyliklarining jahonda ma’lumligi va tanishligi bilan o‘lchanadi. Hozirgi vaqtda aynan xalqlarning milliy merosi boyliklari

[20].Turizm«Gastro Bazar - 2019»

xalqaro hamjamiyat ning,mamlakatning na faqat jozibadorligiga, ijtimoiy sharoit larga, turizmga, balki biznesga bo‘lgan munosabatlaridir.

Zamonamizning hozirgi sharoitida davlatlar va xalqlarning haqiqiy xalqaro hurmatga loyiqligi o‘zining harbiy qudrati yoki aholisining ko‘pligi bilan emas balki, jahonning madaniyatiga, ilmiga, iqtisodiga, taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi. Shuning uchun mamlakat xalqining qadimdan saqlab, e’zozlab kelayotgan milliy merosi boyliklari qayd qilingan faktlar bo‘yicha uning hurmatini xalqaro miqyoslarda aniqlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunda xalqlarning milliy merosi boyliklaridagi jozibadorlik asosiy o‘rinni egallaydi.

Madaniyat xalqlarning o‘ziga xosligini va mustaqilligini mustahkamlovchi, saqlovchi, rivojlanishi jarayonlarining poydevo ri hisoblanadi. Xalqlarning milliy merosi boyliklari ham ularning madaniyati taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham, har bir xalqning, har bir millatning milliy merosi boyliklarini ko‘rishi zamirida ana shu millatlarning, xalqlarning o‘tmish va hozirgi madaniyatiga qiziqish kelib chiqadi. Mana shu qiziqishni qondirish uchun milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanish-milliy madaniy meros turizmi yuzaga keldi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning – *“Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz”-degan so‘zlari ham buyuk tariximiz, buyuk davlatimiz va buyuk madaniyatimiz bilan chambarchas bog‘langan milliy meros boyliklarimizni jahonga aynan turizm orqali ko‘rsatishimiz lozim”*[21].

O‘zbekiston turizmida milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish zarurligining kelib chiqganligini quyidagi manbalar asoslaydi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ning farmonlari va qarorlarida xalqimizning milliy merosi boyliklaridan

[21]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent, 25.01.2020.

foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilish va xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘rsatmalari,topshiriqlarining belgilanganligi.

2. O‘zbekiston xalqlarining milliy merosi boyliklarini asrab-avaylash va ularni xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizda xalqaro anjumanlar va simpoziumlar, tadbirlar o‘tkazilayotganligi.

I. O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish zaruratining Prezidentimizning farmonlari va qarorlaridagi ko‘rsatmalari asosida kelib chiqganligi:

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 3 fevraldagi PF-5326-sonli Farmonini ijro etish, shuningdek, respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ‘ib qilish maqsadida «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi [22].

O‘zbekistonda milliy meros turizmini rivojlantirishning zarurligi ushbu qarorning maqsadida belgilanganligini alohida keltiramiz:

- kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylantirish;
- mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiat boylikla rini keng targ‘ib qilish.

Qarorda keltirilganidek, mamlakatimizga turistik oqimni ko‘paytirish hozirgi kunda turizmning ikki turi-tarixiy- madaniy turizm va ziyorat turizmi orqali amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”qabul qilgan farmonida[23] - *Respublikaning turizm salohiyatini, birinchi navbatda*

[22]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori (Toshkent sh.,2018 yil 6 fevral,PQ-3509-son).

[23]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent shahri, 2018 yil 3 fevral

investitsiyalarni faol jalb qilish, sohaga innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish hisobiga rivojlan tirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadi belgilangan.

a) O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish farmonda belgilangan tarixiy merosimizdan “har tomonlama imkoniyatlardan foydalanish” ko‘rsatmasiga kiradi. Ikkinchidan, hozirga kelib, xalqaro miqyoslardagi turistik mahsulotlarimiz ancha eskirganligini ham tan olishimiz kerak. Dunyo hamjamiyatini lol qoldirgan tarixiy shaharlarimizdagi tarixiy-madaniy obidalar chorak asrdan beri reklama qilinayapti va shuncha muhlatlarda xalqaro turistik oqim tarixiy shaharlarimizda bo‘ldi. Bu shaharlarimizdagi tarixiy obidalarni ko‘rib ketganlar endi vatanimizning boshqa jozibador turistik resurslarini tanlashadi. Bu xulosa matbuotimizda anchadan beri yozilmoqda. Yangi milliy madaniy meros turizmining milliy meros boyliklarimizdan foydalanish haqidagi reklamalari xalqaro turizm bozorida O‘zbekiston turizmidagi yangi turistik mahsulot hisoblanadi. Xalqaro turizm bozoriga bunday reklamalarni chiqarishimiz vatanimizga albatda yangi turistik oqimlarni tashkil qiladi.

b) Kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylantirish davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tarkib lariga kiradi. Bu kirish turizmini mamlakatimizdagi mavjud imkoniyatlarning barchasidan foydalanib xalqaro turistlarning miqdorini ko‘paytirishni ana shu siyosat oldiga talab qilib qo‘yadi. O‘zbekistonda milliy meros boyliklarini asrash xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish, milliy meros boyliklaridan foydalanish tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro miqyoslardagi tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2. “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro

madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadi va Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib, tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo‘llash; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an’analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash belgilan gan[24]ganligi ham mamlakatimizda xalqimizning milliy meros boyliklaridan foydalanishda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishning ob’ektiv zarurati kelib chiqganligini bildiradi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2018 y) da[25]– *“Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan tarmoqlardan biri-bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob’ektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga mamlakatimiz ning betakror tabiati, go‘zal dam olish zonalari imkoniyat laridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlarni ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur»*-degan ko‘rsatmalari ham milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanishning zaruratini keltirib chiqardi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni ng Oliy Majlisga Murojaatnomasida[26]-*Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish ustuvor vazifa bo‘lib qolishi, nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020-yilda O‘zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritganligini ham e’tiborga olib madaniy meros ob’ektlariga turizm marshrutlarini ko‘paytirishni* tavsiya qildi.

Murojaatnomada yana bir vazifa– YUNESKOning Umumjahon moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga

[24]«O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (Toshkent shahri, 2018 yil 28 noyabr).
[25]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2018 y)
[26]O‘zbekistonRespublikasiPrezidenti Shavkat MirziyoevningOliyMajlisgaMurojaatnomasi25.01.2020).

O‘zbekistondagi yangi ob’ektlarni kiritishni tezlashtirishni belgiladi. Prezidentimizning turizmni iqtisodiyotimizning strategik tarmog‘iga aylantirishning ustivor vazifalardan ekanligini qayta-qayta ta’kidlashi va xalqimizning moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi boyliklarini YUNESKO ro‘yxatiga kiritishni keltirganligi ham bu meros boyliklaridan foydalanib milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish zaruratining kelib chiqganligini asoslaydi.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni[27]da va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori[28]da belgilangan ko‘rsatmalarga asoslanib O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish ilmiy tadqiqotlarini bajarish zaruriyati.

II. O‘zbekiston xalqlarining milliy merosi boyliklarini asrab-avaylash va ularni xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizda xalqaro anjumanlar va simpoziumlar, tadbirlar o‘tkazilayotganligi ham milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishnin ob’ektiv zaruratini yuzaga chiqarganligini bildiradi.

1. 2019-yilning 26-avgust kuni Samarqand shahrida mamlakatimizda madaniy-tarixiy merosni o‘rganish, asrab-avaylash va targ‘ib qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan jahon hamjamiyatini tanishtirish, bu ishlarni keng qamrovda davom ettirish va mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribalarni o‘rganish maqsadida “Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi” xalqaro anjumani o‘tkazildi. Ushbu xalqaro konferensiyani o‘tkazishdan asosiy maqsad, moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlashda YUNESKO tamoyillarini amalga oshirish, tarixiy madaniy merosni asrab - avaylash va ommalashtirishda jahon tajribalarini o‘rganish, ularni tiklashda yangi strategiya va texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotni

[27]Toshkent sh.,2021 yil 6 aprel,PF-6199-son
[28]Toshkent sh., 2021 yil 6 aprel,PQ-5054-son

rivojlantirish sharoitida madaniy meros ob’ektlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish belgilandi.

2.Xalqaro konferensiyaning qarori bo‘yicha madaniy meros va shaharlarni rejalashtirish, madaniy merosni saqlashda huquqiy tizimlarni yaratish hamda madaniy merosni saqlashda AKTdan foydalanish sektorlarida yig‘ilishlarni o‘tkazish kabi 3 ta yo‘nalish bo‘yicha ish olib bordi. Shu bilan bir qatorda, 2019-yilning 22-27 avgust kunlari Toshkent, Termiz va Samarqand shaharlarida “O‘zbekiston - buyuk yo‘llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din madaniyat” meros haftaligi o‘tkazildi. Ushbu haftalik doirasida Toshkent shahrida O‘zbekiston madaniy merosini asrash, o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha Butunjahon jamiyatining III xalqaro kongressi, Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida O‘zbekiston ning yozma merosi durdonalari ko‘rgazmasi, O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasida “Dalvarzin oltini: Kushon imperiyasi va uning jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissasi ko‘rgazmasi”, Samarqand shahrida dunyo xalqlari liboslarini taqdim etuvchi “Eng yaxshi milliy liboslar” tanlovi va Termiz shahrida “O‘zbekiston-sivilizatsiyalar chorrahasi” nomli xalqaro arxeologiya forumi o‘tkazildi.

3. 2019-yil 26-avgust-Samarqand shahridagi Forumlar saroyida “Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO) shafeligida tashkil etilgan anjumanda xalqaro tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari, dunyoning 77davlatidan arxitektorlar, olimlar, xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

4. Samarqand shahrida “Sharq taronalari ”XII xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimi o‘tkazildi. Dunyoning 85 davlatidan kelgan ishtirokchilarni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamda BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO) Bosh direktori Odri Azule xonim tabrikladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Turizm va milliy madaniyat vazirligi, YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani

mintaqasi nomoddiy madaniy merosi xalqaro axborot va hamkorlik markazi (ICHCAP)o‘rtasida Ipak yo‘lidagi madaniy merosni saqlash bo‘yicha memorandum imzolandi.

6. Samarqandga tashrif buyurgan Jahon hunarmandlar kengashi (WCC)ning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha prezidenti Gada Kaddumi Samarqandga “Xalqaro hunarmandlar shahri” maqomini berishni taklif qildi.

7. Bulung‘ur tumanida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li asos solgan dostonchilik maktabi an’analarini davom ettirish maqsadida “Baxshilar sayli” o‘tkazildi.

8. Xalqaro sayyohlik kuni munosabati bilan Samarqandda “Silk road bazaar” milliy hunarmandchilik va savdo festivali o‘tkazildi.

9. Samarqand shahrida “Madaniy merosni asrash va uning turizm rivojiga hissasi” mavzuida I xalqaro amaliy simpozium o‘tkazildi.

10. Qo‘qon shahrida xalqaro hunarmandchilik festivali o‘tkazildi. Anjumanda 100dan ortiq davlatdan faxriy mehmonlar, mohir hunarmandlar, taniqli madaniyat arboblari, san’atshunos olimlar, Jahon hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha prezidenti Gada Kaddumi, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi. Gada Kaddumi rahbarligida ishlab chiqilgan onlayn-ensiklopediyada Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 50 davlatning hunarmandchiligi tarixi, o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot berilgan. Gada Kaddumi xonimning ta’kidlashicha, ushbu loyiha madaniyatlararo muloqotni mustahkam lash, xalqlarni bir-biriga tanitish, shu tariqa do‘stlik, hamjihat lik va tinchlik o‘rnatilishiga xizmat qiladi.

11. Prezidentning xalqaro “Zardo‘zlik va zargarlik” festivali ni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi.Festival doirasida “An’anaviy zardo‘zlik va zargarlik san’atini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2022-yilning 21-25 may kunlari o‘tkaziladi.

O‘zbekiston xalqlarining milliy merosi boyliklarini asrab-avaylash va ularni xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizda yuqorida qayd qilingan xalqaro anjumanlar va

simpoziumlar, tadbirlar o‘tkazilayotganligi, rejalashtirilayotgan ligi ham milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishning milliy turizmimizda dolzarbligini, ob’ektiv zaruratini yuzaga chiqarganligini bildiradi.

O‘zbekiston milliy turizmining sohalarida va turlarida zamona talablariga javob beradigan tadqiqotlar faoliyatni tashkil qilish majmuali xususiyatlarga ega bo‘lib, turizmning har qanday sohasida, tizimida turizm resurslari, dam oluvchilar guruhi, tabiat majmualari, infratuzilmalar, xizmat ko‘rsatish sohalari, mehnat resurslari, tashkiliy-iqtisodiy va tashkiliy-axborot tizimlari o‘zaro aloqada, o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishini, ushbu hamkorlikni shakllantirib yuzaga chiqargandagina turizmning rivojlanishini ta’minlash mumkin.

O‘zbekistonda milliy turizmni barqaror rivojlantirish uchun butunlay yangi yondoshuvlarni, yangi tadqiqotlarni amalga oshirish talab qilinmoqda. Chunki xalqaro turizm bozoridagi yangi turistik ehtiyojlarning talablari turizmning yangi texnologiyalarini, ustivor tajribalarini, yangi turlarini, yo‘nalishlarini tashkil qilish va rivojlantirishni, yangi turistik mahsulotlarni izlashni, yaratishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Shuning uchun mamlakatimiz xalqlarining milliy merosi boyliklaridan turizmda foydalanishning eng istiqbolli yo‘li, eng qulay tashkiliy-iqtisodiy usuli-milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: zarurat, yangi tur, festival, simpozium, pirlar, gastronomiya, milliy meros, kulinariya, assotsiatsiya, milliy nomoddiy meros.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1. Turizm sohasida yangi turlar qanday paydo bo‘lgan?.
2. Prezidentimiz nima uchun turizmda yangi turlarni tashkil qilishni gapirdi?.
3. Gastronomiya turizmi haqida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering.
4. Milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanishning

ahamiyatini tushuntiring.

5. O‘zbekistonda yana qanday yangi turlarni rivojlantirish mumkin?.

6. O‘zbekistonning milliy turizmida turizmning qaysi turlari ichki turizmda va qaysi turlari xalqaro turizmda rivojlantirilmoqda?

III BOB. TARIXIY-MADANIY TURIZM VA BU TURNING RESURSLARI

3.1. Tarixiy-madaniy turizm turi

Ma’lum hududda rivojlantirishda u joyning tarixiy–madaniy yodgorliklari salohiyati asosiy o‘rinni egallaydi. Madaniy–tarixiy yodgorliklardan ko‘p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi ularning tarixiy va tasviriy bahosiga, foydalanish qulayliliga bog‘liq. Tarixiy-madaniy yodgorliklardan inson faoliyatida intensiv foydalanish, ya’ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tarixiy-madaniy yodgorliklari ifloslanishiga, tarixiy obidalarning tez buzilishiga olib keladi. Bunday noxush holatlar so‘ngi 20-yilliklarda tarixiy-madaniy turizmning rivojlanishi bilan kuchayib bormoqda. Shuning uchun ham turizmga oid Gaaga deklaratsiyasida qo‘yidagi takliflar bildirilgan:

- turistlarni mamlakat ichkarisida yoki chet elda borgan joylarida madaniy meros va atrof–muhitni saqlashga, ularga nisbatan hurmatda bo‘lishga o‘rgatish, hamda targ‘ib qilish;
- joylarda turistlarni qabul qilish darajasini aniqlash, me’yordan ortishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim deb ta’kidlanadi.

Mintaqalarning arxitektura yodgorliklariga boyligi turizm ning rivojlanishiga ham sabab bo‘ladi. Ammo oxirgi paytlarda turistik oqimning oshishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Madaniy–tarixiy resurslarni turizm maqsadida saqlashni quyidagicha amalga oshirish taklif qilinadi:

-mavjud tarixiy joylar, binolar va yodgorliklarni turistik qiziqish ob’ektlari sifatida qayta tiklash;

-tabiiy resurslarni muhofaza qilishni faollashtirish;

-turistik ehtiyojni qondirish maqsadida atrof–muhitni saqlash va yaxshilashda boshqaruv tashkilotlari ma’suliyatini oshirish.

Tarixiy-madaniy yodgorliklar ichida jahon ahamiyatidagi madaniy ob’ekt va yodgorliklar asosiy o‘rinda turadi va ular milliy-madaniy meros yodgorliklari deyiladi. «Madaniy meros» deyilganda qo‘yidagilar tushuniladi:

-yodgorliklar:arxitektura binolari, arxeologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g‘orlar, tarixiy yozuvlar;

-ansambllar: ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o‘zaro bog‘langan binolar guruhi. Masalan, Registon ansambli;

-inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘ziga jalb qiluvchi o‘ziga xos joylar.

Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritiladigan ob’ektlarning qo‘yidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

-inson ijodining noyob namunalari;

-ajoyib madaniy, arxitektura ob’ektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;

-zamonaviy taraqqiyotning noyob namunalari, qurilishlari;

-inson tarixi bilan bog‘liq binolar yoki arxitektura ansambllari, landshaftlari;

-asrlar davomida g‘aroyib shakllarni olgan tabiatning turli mo‘jizaviy ko‘rinishini olgan tabiat haykallari.

O‘zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko‘plab arxitektura yodgorliklari mavjud. Xiva, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, qadimiy Samarqandning tarixiy yodgorliklari YUNESKOning “Jahon merosi” deb nomlangan ro‘yhatiga, Boysun tumani aholisining folklor ansambli “Jahon nomoddiy merosi xazinasi” ro‘yxatiga kiritilgan.

Qadimgi zamonlardan boshlaboq, O‘zbekiston jahonning ko‘plab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlik ka kirishib kelgan. Savdo karvonlari orqali Sharq va G‘arbni bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘li ham aynan O‘zbekistondan o‘tgan, O‘zbekiston uning eng muhim markazlaridan biri hisoblangan. Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan xilma-xil mahsulotlardan tashqari turli madaniyatlar, an’analar, kasb-hunarlar va dinlar ham tarqalgan. Ma’naviy qadriyatlarbilan almashinuvlar amalga oshirilgan.

Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi jahon madaniyatining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan Buyuk Ipak Yo‘li uzoq mamlakatlardagi yangi ixtirolar, ilm-fan yutuqlari va madaniy-ma’rifiy qadriyatlarni qo‘lga kiritish imkoniyatini berganki, bu xalqaro

aloqalarda faol ishtirok etayotgan barcha davlatlarning ijtimoiy – iqtisodiy yuksalishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbekistonda turizmni rivojlatirish va uni yangi bosqichlarga ko‘tarish borasida, avvalo ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Toshkent, Farg‘ona kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarimizda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar beqiyos ko‘p.

Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish orzusida yashaydilar. Ko‘p mamlakatlarda O‘zbekiston o‘zining ana shu shaharlari bilan mashhurdir. O‘zbekistonning ana shu tarixiy shaharlarini ko‘pincha «Sharqning javohirlari» deb atashadi.

3.2. Tarixiy-madaniy turizm turining resurslari

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunida belgilanganidek, madaniy meros ob’ektlari quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

I. ***Moddiy madaniy meros ob’ektlar***-tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar[29].

II. ***Nomoddiy madaniy meros ob’ektlari*** -tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunar mandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar[30].

Birinchi guruh madaniy meroslar-*Moddiy madaniy meros ob’ektlari-Tarixiy-madaniy turizm turining resurslari hisoblanadi.*

1. ***Ansambllar*** **–** tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga

[29]O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy me’ros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh.,2001 yil 30 avgust, 269-II-son

[30]O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy me’ros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh.,2001 yil 30 avgust, 269-II-son

tashlanadigan,atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me’moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta’lim, istehkom, saroy, turar joy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar, imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘-rog‘ san’ati, asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

2. ***Diqqatga sazovor joylar*** – Inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan, xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar ijro etiladigan joylar.

3. ***Yodgorliklar****-tarixiy,* ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san’at asarlari, fan va texnika ob’ektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san’at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari.

Keltirilgan axborotlardan ma’lum bo‘ladiki, milliy madaniy

meros-keng qamrovli tushuncha. U arxeologiya yodgorliklaridan boshlanadi. Arxeologiya yodgorliklariga qazilmalar jarayonida topilgan va tanilgan san’at asarlari (masalan, haykallar, xalq amaliy san’ati va zargarlik buyumlari, Afrosiyob va Panjakent freskalari kabilar), ayrim ro‘zg‘or buyumlari va mehnat qurollari kiradi. Albatta, butun qazilma majmuasining o‘zi ham arxeologiya yodgorligi-madaniy merosni tashkil etadi. Arxeologiya yodgorlik laridan keyin madaniy merosga me’morlik yodgorliklari va qadimgi qo‘lyozmalar, manuskriptlar kiradi. Qo‘lyozmalarning mazmuniga qarab, ularni din, falsafa,tabiiy ilm-fanning turli yo‘nalishlari, tarix, ilohiyat, axloq, huquq, adabiyot va san’at kabilarga bo‘lish mumkin.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy madaniy meros ob’ektlaridan foydalanishning maqsadi va vazifalari aniqlanganda e’tibor berish kerak-ki, har bir davlat o‘z xalqining o‘tmish madaniy merosining boshqa xalqlarda uchramaydigan ko‘rinishlarini, milliy an’analarini jahondagi boshqa xalqlarga ko‘rsatishni, va o‘tmishidagi voqe’liklar va jarayonlar bilan tanishtirishni hoxlaydi. Chunki, hozirgi globallashuv jarayonida geosiyosatning xalqlarni, millatlarni kamsituvchi yo‘nalishlari ham shiddat bilan ishlamoqda.

Toshkent shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Ko‘kaldosh madrasasi (XIV asr);
2. Kaffol Shoshiy maqbarasi (XV asr);
3. Xazrati Imom arxitektura majmuasi (XVI asr);
4. Abulqosim madrasasi (XIX asr);
5. Baroqxon madrasasi (XVI asr);
6. Jome’ masjidi (XIX asr);
7. Zangi ota majmuasi (XV-XX asr);
8. Amir Temur va Temuriylar muzeyi;
9. Amir Temur hiyoboni;
10. Mustaqillik maydoni;
11. Xalqlar Do‘stligi maydoni;
12. Jasorat monumenti;
13. Xasti Imom maydoni;

14. Tilla Shayx masjidi;
15. Xadra maydoni;
16. Sufi Ota maqbarasi.
17. Shoirlar xiyoboni
18. O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi

Samarqand shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Afrosiyob (eramizdan oldingi VIII asr);
2. MirzoUlug‘bek rasadxonasi (1428 y.);
3. Shoxi Zinda arxitektura majmuasi;
4. Hazrati Hizr masjidi (IX asr o‘rtalari);
5. Bibixonim masjidi (1399 y.);
6. Ulug‘bek madrasasi (1417y.);
7. Sherdor madrasasi (1619 y.);
8. Tillakori madrasasi (1647 y.);
9. Chorsu bozori (XVIII asr oxiri);
10. Ruxobod maqbarasi (1380 y.);
11. Oksaroy maqbarasi (1470 y.);
12. Amir Temur maqbarasi (1404 y.);
13. Namozgoh masjidi (XVIII asr);
14. Ishratxona maqbarasi (1464 y.);
15. Xoja Axror majmuasi (XV-XX asrlar);
16. Chupon-Ota maqbarasi (1430 y.);
17. Xoja Abdu Darun qabristoni (XV asr).
18. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi (XX asr)
19. Doniyor payg‘ambar majmuasi
20. Imom al Moturidiy yodgorlik maqbarasi
21. Islom Karimov yodgorlik majmuasi

Buxoro shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Ark (XI asr)
2. Bolo-Hovuz majmuasi (XVIII asr)
3. Ismoil Somoniy maqbarasi (IX asr)
4. Chashmai-Ayub (1380 y.)
5. Abdullaxon madrasasi (1596 y.)

6. Modari-Xon madrasasi (1556 y.)
7. Masjidi Baland (XVI asr boshlari)
8. Gavkushon majmuasi (masjid, minora, madrasa), (XVI asr)
9. Zayniddin Xoji xonaqosi (1555 y.)
10. Poyi-Kalon majmuasi (XII asr)
11. Labi-Xovuz majmuasi (XVI asr)
12. Ko‘kaldosh madrasasi (1568 y.)
13. Nodir Devonbegi xonaqosi (1620 y.)
14. Ulug‘bek madrasasi (1417 y.)
15. Abdulazizxon madrasasi (1652 y.)
16. Boloxovuz masjidi (1712 y.)
17. Sayfiddin Boharziy maqbarasi (XIII asr, ikkinchi yarimi)
18. Bayonkulixon maqbarasi (XIV asrning ikkinchi yarimi)
19. Namozgox masjidi (XII asr)
20. Fayzobod xonaqosi (1598 y.)
21. Chorminor madrasasi (1807 y.)
22. Sitorai Mohi-Xosa saroyi (XIX asr oxiri)
23. Chor-Bakr majmuasi (1560 y.).
24. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy yodgorlik majmuasi
25. Bahovuddin Naqshband yodgorlik majmuasi
26. Buxorolik yetti pirlarning yodgorlik majmualari

Xiva shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Ichan-qal’a, Saidboy madrasasi (XVIII asr boshi)
2. Polvon Darvoza atroflari,
3. Olloqulixon madrasasi (1834 y.)
4. Qutlug‘murod-inoq; madrasasi (1804 y.)
5. Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi (XIX asr)
6. Abdullaxon madrasasi (1865 y.)
7. Anushaxon masjidi va harami (1657 y.)
8. Toshxovli (Olloqulixonning saroyi) (1830 y.)
9. Oqmasjid (1832 y.),
10. Juma masjidi va minorasi (1788 y.)
11. Said Olovuddin maqbarasi (XIV asr)
12. Muhadmmad Aminxon madrasasi (1851 y.)

13. Kaltaminor (1855 y.)
14. Ko‘hna Ark (1868 y.)
15. To‘ramurod minorasi (1888 y.)
16. Sherniyozxon madrasasi (1718 y.)
17. Borlandi masjidi (XIX asr)
18. Arabxona madrasasi (1838 y.).
19. Mahlavon Mahmud maqbarasi
20. Jaloliddin Manguberdi yodgorligi majmuasi
21. Najmiddin Kubro yodgorligi majmuasi

Shahrisabz shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Oqsaroy (1380 y.)
2. Dorus–Saodat majmuasi (XIV asr)
3. Xazrati Imom masjidi (XIV asr)
4. Jahongir maqbarasi (XIV asr)
5. Dor-ut-Tilovat arxitektura majmuasi,
6. Ko‘kgumbaz masjidi (1435 y.)
7. Gumbazi Saidon (XV asr)
8. Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr)
9. Amir Temur daxmasi yodgorligi(XIV asr)
10. Amir Temur xiyoboni

Termiz shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Qirqqiz saroyi (IX asr)
2. Termiz hukmdorlari saroyi (XX asr)
3. HakimatTermiziy arxitektura majmuasi (X asr)
4. Sulton – Saodat arxitektura majmuasi (X asr)
5. Qoratepa ibodatxonasi (II asr)
6. Fayoztepa ibodatxonasi (I asr)
7. Alpomish yodgorlik majmuasi

Farg‘ona vodiysining asosiy tarixiy va me’morchilik yodgorliklari:

1. Xudoyorxon saroyi (1870 y.)
2. Rishtlik masjidi (1913 y.)
3. Jome masjidi va minorasi (1809 y.)

4. Mulkobod masjidi (1913 y.)
5. Said Ahmadxoji madrasasi (XIX asr boshlari)
6. Chokar masjidi (1911 y.)
7. Xuja Magiz maqbarasi (XVIII asr)
8. Mullo Digriz madrasasi (XX asr boshlari)
9. Axsikent qadimiy shaharchasi (eramizdan avvalgi II asr).

3.3. YUNESKOning “Jahon merosi ob’ektlari” ro‘yxatiga O‘zbekistondan kiritilgan tarixiy yodgorliklar

Tarixiy obidalarning YUNESKO “Jahon merosi” ro‘yxatiga kiritilishining asosiy maqsadi-o‘z xududida mashhur bo‘lgan ob’ektlarni dunyoga tanitish va muhofaza qilishdir. Ma’lumki, O‘zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarga boy mamlakat. Mana shu bebaho merosimizning ko‘pgina qismi butun insoniyat mulkiga aylanganligiga ko‘p vaqt bo‘lgan. YUNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatiga Xivadagi Ichan Qal’a 1990-yil, Buxoroning tarixiy markazi 1993-yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000-yil kiritilgan. 2001-yil 12-16-dekabr kunlari Finlyandiyaning Xelsinki shahrida YUNESKOning Jahon merosi Qo‘mitasining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib, unda Samarqand shahari YUNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatiga kiritildi. Ushbu ro‘yxatga respublika mizdan “Boysun bahori” nomi bilan Surxondaryo mintaqasi ham kiritildi. Endilikda mazkur to‘rtala tarixiy maskan xalqaro hamjamiyat muhofazasida bo‘ladi. Hozirgacha dunyodagi 721 ta madaniy va tarixiy yodgorliklar YUNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatiga kiritilgan.

Milliy taomimiz – palovning 2016-yil 1-dekabrda YUNESKO ning reprezentativ nomoddiy madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritilgani shoh taomimizning dunyo nazdidagi yuksak o‘rnini ko‘rsatib turibdi. Yosh avlodlarda yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va g‘ururni uyg‘otishda, Ularni Vatan, millat va Istiqlol tag‘diri uchun faol kurashchi qilib o‘stirishda, tarbiyalashda tarixiy-madaniyo yodgorliklarning ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Cho‘llardagi sardobalar – tarixiy madaniy turizm resurslari. Ma’lumotlar, manbalar bo‘yicha O‘zbekistonda va unga chegaradosh

hududlarda 57 ta sardoba ro‘yxatga olingan. Shulardan bittasi Toshkent viloyatida, beshtasi Sirdaryo viloyatida, beshtasi Jizzax viloyatida, uchtasi Navoiy viloyatida, sakkiztasi Buxoro viloyatida, shulardan uchtasi Buxoro shahrida, 31 tasi Qashqadaryo viloyatida, to‘rttasi Xorazm viloyatida, bittasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida va uchtasi Turkmaniston hududida mavjud bo‘lgan. Hozirgi kungacha 28 ta sardoba saqlanib qolgan, shundan 9 tasi davlat muhofazasiga olingan. Toshkent viloyatidagi Qaynar sardobasi hozircha Respublikamizda suvi ichishga yaroqli bo‘lgan yagona sardobadir[31].

Ma’lumotlar bo‘yicha sardobalar bir necha ming-yillik tarixga ega bo‘lib, asosan Osiyo mamlakatlarida, Shimoliy Afrika mamlakatlarida ham keng tarqalgan.Shu kitobdan “O‘zbekistonning sardobalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar”ni va olimning sardobalar haqidagi xulosasini keltiramiz -*“Tarixiy qadriyatlarimiz barcha qadimgi gidrotexnik inshootlar kabi sardobalar ham tabiiy-geografik muhit bilan nihoyatda uyg‘unlashtirilib qurilganligi uchun ham asrlar osha tabiat tanloviga dosh berib kelgan. Ularning o‘lkamizni chuchuk suv bilan ta’minlashdagi roli beqiyos bo‘lgan va bu ahamiyat hozir ham yo‘qolgan emas. Tarixiy qadriyatlarimiz biz uchun nafaqat san’at, arxitektura yodgorligi yoki osori-atiqa, balki ularni tiklash, chuchuk suv resurslarini boyitish yo‘lidagi omilkor yumushlardan biridir”.*

Ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, jami 57 ta sardobalardan 48 tasi cho‘llarimizda joylashgan. Cho‘llarimizda ichki va ayniqsa xalqaro turizmni, xalqaro madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirishda qiziqarli turistik resurs bo‘lgan sardobalardan foydalanish muammolarining yechimlarini topish qanchalik zarur ekanligini anglay olsakgina, o‘zimizni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishning fidoyi mutaxassislari deb nomlasak bo‘ladi. Cho‘llarimizda sardobalardan tashqari o‘tmish avlodlarimizning suvga bo‘lgan oliy darajalardagi mehri-e’tiqodini, muhabbatini, muhandisligini bildiruvchi qadimiy hovuzlar, Markaziy Osiyoga uch ming-yil oldin kelgan Aleksandr Makedonskiy va uning lashkarlarini, qadimdagi sayyoh olimlar, savdogarlarni hayratlarga solgan korizlar suvlari tizimi, quduqlar,

[31] Nizomov A. O‘zbekistonning qadimiy gidrotexnik inshootlari geografiyasi. Toshkent, 2008-235 b.

to‘g‘onlar, bandlarning joylari juda ko‘p.

Vatanimizning cho‘llari qadimgi suv inshootlari bo‘lgan sardobalardan turizmni rivojlantirishda foydalanish uchun bizningcha quyidagi muammolarning yechimlarini topish lozim bo‘lmoqda:

- cho‘llarimiz va adirlarimiz hududlaridagi sardobalardan turizmda foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish;
- turizmda foydalanish rejalashtirilgan sardobalar haqida barcha ma’lumotlarni o‘rganish, to‘plash, axborot-targ‘ibot bukletlarini yaratish va turizm bozoriga chiqarish;
- turizmda foydalanish rejalashtirilgan sardobalarga turistik marshrutlar ishlab chiqish va bu turistik marshrutlarda turistik xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlarini o‘rganish;
- turizmda foydalanish rejalashtirilgan sardobalarda cho‘llarning iqlim xususiyatlarini hisobga olib dastlabki holatlarda turistik lager-turistik palatka yoki turistik yurtalar (cho‘pon uyi) infratuzilmalarini yaratish;
- turizmda foydalanish rejalashtirilgan sardobalarda turistlarni ovqatlantirish imkoniyatlarini o‘rganish;
- turizmda foydalanish rejalashtirilgan sardobalarga borishdagi turistik marshrutlarning cho‘l tabiatining o‘ziga xos bo‘lgan biologik xilma-xil resurslari-florasi, faunasi, turli-tuman tabiiy landshaftlari-dan o‘tishligini turistik marshrutlarning reklamalarida tasvirlash;
- cho‘llarimiz va adirlarimizdagi sardobalar, quduqlar va korizlardan turizmda foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish uchun davlat grantlarini, innovatsion loyihalarni ajratish**.**

Xorij davlatlaridagi tarixiy - madaniy turizm resurslaridan namunalar:

1. *Ozodlik haykali*[32]*.* Nyu-York-dunyodagi Tokio, Pekin, Syurix, London kabi iqtisodiy rivojlangan, kuchli moliyaviy shaharlardan biri. Bu shaharni yanada mashhur qilgan Ozodlik orolidagi “Ozodlik haykali” hisoblanadi. Bu haykal haqida-Amerikaliklarning ozodlik ruhi mujassamlangan deyishadi. Haykalning poyida shunday yozuv bor-

[32]https://www.nps.gov/stli/index.htm

“Kambag‘alligingizni, charchog‘ingizni menga bering va erkin nafas oling” (3.1-Rasm).



3.1-rasm. Ozodlik haykali[33]

Qo‘lida mash’ala ushlab turgan ayol tasviridagi bu haykal AQSH hukumatining buyurtmasi bilan Fransiyada tayyorlangan. Haykal boshidagi qalpoqda 7 xil nur taraladi (7 qit’a deyilgani, ikkinchi qo‘lida Amerikaning mustaqilligi deklaratsiyasi, balandligi 93 m.). Haykalning ichida Amerikaning egallanishi tarixi muzeyi, shuningdek, haykalning eng yuqorisiga chiquvchi zinapoya qurilgan, yuqoridan butun Nyu-Yorkni tomosha qilish mumkin.

2. *Bruklin ko‘prigi.* Bu ko‘prikning yanada mashhurligi shundan iboratki, loyihani tayyorlagan Jon Rebling qurilishni boshlash arafasida – 1869-yilda vafot etadi. Loyihani amalga oshirishni o‘g‘li Vashington Rebling davom ettiradi. Qurilishda u yiqilib og‘ir jarohat oladi va vafot etadi. Qurilishni V.Reblingning xotini Emilya Rebling tugatadi. Bu haqida ko‘prikning ikkala tomonidagi marmar yodgorlikda yozilgan. Ko‘prikning uzunligi 2 ming m. Blandligi 70 m. Bu ko‘prikni Amerikaliklar “Amerikaning oltin darvozasi” deb atashadi (3.2-rasm). Bunday ko‘priklar ko‘p, eng muhimi Jon Reblingning farzandlarining otaga bo‘lgan cheksiz hurmati, farzand sifatidagi sadoqatini

[33]Rasm olingan manbaa: https://www.xabar.uz/xorij/aqshning-timsoli-ozodlik-haykali-misrda

Amerikaliklar ko‘prik misolida tarannum etib kelishmoqda.



3.2-Rasm. Bruklin ko‘prigi

3. *Rashmor tog‘i.* Millioner Charlz Rashmor nomiga qo‘yilgan. U birinchi bo‘lib, Amerikani mashhur qilgan prezidentlarning rasmini ulkan tog‘larda tarix uchun chizishga mablag‘ ajratgan. Bu tog‘ nafaqat Amerikada balki, butun duyoda mashhurdir. Sababi U tog‘ning granit toshlariga Amerikaning mashhur 4 ta prezidentining rasmi ishlangan(*3.3.3-rasm)*:

1.Vashington-AQShni demokratiyaga olib kelgan prezident.

2.Jefferson-AQShning Mustaqillik Deklaratsiyani yozgan.

3.Ruzvelt- Nobel mukofotini olgan prezident.

4.Linkoln-AQShda odam savdosi va qullikni tugatgan.



3.3-Rasm. Rashmor tog‘i[34]

[34]Rasm olingan manbaa: https://altgrunge.ru/history/bolshoj-sekret-skryvaetsya-za-golovoj-linkolna-na-gore-rashmor/

4. *Tauer ko‘prigi.* Angliyaning eng mashhur obidalaridan hisoblanadi. Temza daryosiga qurilgan Osma va ochiladigan ko‘prikdan har kuni 40 ming kishi Temza daryosining narigi qirg‘ogiga o‘tishda foydalanadi (ishga). Ko‘prikning uzunligi 244 m, arklarning balandligi 65 m., ko‘prikni haftasiga 4-5 marotaba ochadi[35]. Arklar 44 metr balandlikda galereyalar bilan ulangan (qurilgan), buyerda tomosha yo‘laklari va muzey bor (3.4-rasm.).



3.3.4-Rasm. Londondagi Tauer ko‘prigi[36]

5. *Stounxej yodgorligi.* Olimlarning yozishicha Stounxej astronomik soatlar bo‘lgan deyishmoqda. Chunki, Stounxej mukammal astoronomik markaz – Stounxejda quyosh va oyning tutilishi, mavsumlarning kelishi, dengiz suvlarining ko‘tarilishi va boshqalar o‘rganish mumkinligi tasdiqlangan. Isbotlangan javoblar hanuzgacha qayd qilingan emas. Eng og‘ir savollardan biri shundaki, og‘ir va yassi toshlar uzoq masofalardan qanday keltirilgan?. Bu toshlarning yoshi eramizdan 3-4 ming-yil oldingi muddatlarni bermoqda. Asosan ovchilik va qisman ibtidoiy dehqonchilik bilan yashagan qabilalar shunday og‘ir ishlarni qanday bajargan? Lekin, bu tosh imoratlar tabiatning minglab-yillaridagi “issiq-sovug‘i”ga chidadi va bizgacha yetib keldi. Angliyada eramizdan 3 ming-yil oldin qurilgan Stounxej yodgorligi qoldiqlari bilan bog‘liq ko‘plab savollarga hozirgacha javob topilgan emas. Katta

[35]Rasm olingan manbaa: https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-anglii/
[36]Rasm olingan manbaa: https://kk.traasgpu.com/tower-bridge

toshlarning og‘irligi 40 tonna (3.5-rasm.).



3.5-Rasm. Stounxej yodgorligi

6. ***Peruning Naska cho‘lidagi sirli petrogliflar – haritalar.*** Naska mo‘jizalarini 1939-yilda Amerikalik arxeolog Pol Kosok samolyotda cho‘l ustidan uchib o‘tayotganda ko‘rib qolgan. Keyinchalik ko‘p-yillar bu ulkan rasmlarni Mariya Rayxe tekshirdi. Cho‘lda 30 ta ulkan rasmlar v 788 ta gemetrik shakllar aniqlandi. Mariya Rayxe Naska rasmlari osmon jismlarining ulkan kalendari ekanligini isbotladi. Lekin hozirgacha nazariyalar va isbotlar davom etmoqda. 200metr uzunlikdagi va 1-2 metr chuqurlikdagi bu rasmlar eramizning I va Vasrlarida chizilgan. Bu rasmlar qanday qilib o‘taaniqliklarda chizilgan?.Chunki, rasmlarni faqat juda balanddan ko‘rish mumkin. Bu rasmlar hozirgacha “dunyoning eng kata kalendari”, “Astronomiya haqida eng katta gigant kitob” deyilmoqda (3.3.6-rasm.).



3.6-Rasm. Peruning Naska cho‘lidagi ajoyibotlar[37]

[37]Rasm olingan manbaa: https://celes.club/pictures/38500-peruanskoe-nagore-s-zagadochnymi-risunkami.html

Qanchalik taajublanarli bo‘lmasin turizmni o‘ziga tortuvchi kuchi barcha asrlarda mavjud bo‘lgan qabristonlar ham, Misrda qurilgan yuzlab piramidalar ham, turizm doirasida tasarruf qilinmoqda. Mavzoleylar ham turistlar tashrif buyuradigan ob’ektlar hisoblanib, ulardan ba’zilari o‘z me’moriy qurilish va nihoyatda katta o‘lchamlariga ko‘ra dunyo mo‘jizalariga kiritilgan.

“Dunyoning yetti mo‘jizasi”: Misr ehromlari, Bobilning osma bog‘lari, Artemida ibodatxonasi, Galikarnas maqbarasi, Quyosh xudosi - Gelios haykali, Aleksandr Mayoqi, Olimpiya xudosi-Zevs haykali ro‘yxati miloddan avvalgi ikkinchi asrda yashab o‘tgan grek arxitektori Antipar Sidonskiy tomonidan tuzilgan edi. Bugungi kunda YUNESKO mutaxassislari fikricha dunyoda 800 dan ortiq mo‘’jiza deb atashga loyiq yodgorliklar mavjud ekan.

Yozuvchi Asror Mo‘minning[38] “Dunyo mo‘jizalari” kitobida aytilishicha, bir yarim-yildan ko‘proq davr mobaynida jahondagi 100 milliondan ortiq odam maxsus ochilgan Internet saytida “Dunyoning yangi yetti mo‘jizasi” uchun ovoz berish natijalari bo‘yicha 2007-yil 7 iyul kuni Portugaliyaning Lissabon shahridagi 50 ming kishidan ziyod tomoshabin to‘plangan stadionda dunyoning yangi yetti mo‘’jizasi tantanali ravishda e’lon qilindi. Unga quyidagi tarixiy yodgorliklar kiritildi: *Buyuk Xitoy devori, Rio-de-Janeyrodagi Iso Masih haykali, Ay-Petra tosh shahari, Machu-Pikchudagi inklarning tosh shahri, Chichen-Itsadagi mayyalar ibodatxonasi, Rim Kolizeyi, Tojmahal.*

O‘zbekistonning yetti mo‘jizasi:

1. Registon ansambli (Samarqand);

2. Igor Savitskiy nomidagi san’at muzeyi (Nukus);

3. Toshkent teleminorasi(Toshkent);

4. Forumlar saroyi (Toshkent);

5. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi (Samarqand);

6. Ichan qal’a qadimiy shahri (Xiva);

7. Amir Temur maqbarasi (Samarqand).

[38]Asror Mo‘min. Dunyo mo‘’jizalari. Yangi nashr.T.: 2012., -8b.

Tayanch so‘zlar: sardoba, koriz, band, hovuz, osori-atiqa, YUNESKO, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savollar va topshiriqlar

1. Nima uchun tarixiy - madaniy turizm turi deb nomlanadi?
2. O‘zbekistondagi tarixiy obidalarga o‘sha vaqtdagi madaniyatning nima aloqasi bor?
3. Buyuk sohibqiron nima uchun Samarqandni poytaxt qildi?
4. Tarixiy-madaniy turizm resurslari haqida prezentatsiyali ma’ruza tayyorlang va amaliy darslarda ma’ruza qiling.
5. O‘zbekistonning florasi va faunasini tarixiy-madniy turizm resurslariga qo‘shish mumkinmi yoki yo‘q?. Isbotlab bering.

VI BOB. ZIYORAT TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

4.1. Ziyorat turizmi turi

Turizmning ma’lum bir davlatda rivojlanishining asosiy sabablari 3 ta deb ko‘rsatilmoqda: 1) Qadimiy, tarixiy mo‘jizakor binolar, inshoatlar; 2) Insoniyat tan olgan mashhur avliyolar, shayxlarning dahmalariga qurilgan xaziralar va 3) Betakror bioxilma–xillikka ega bo‘lgan so‘lim tabiat mintaqalari.

Turizmdagi turlarning kelib chiqishi jihatidan diniy-ziyoratgoh turizm eng qadimiy turlardan hisoblanadi. Chunki, dastlab inson o‘zida paydo bo‘lgan e’tiqod hissi nuqtai–nazaridan o‘z dinidagi barkamol insonlar, avliyo va shayxlar, keyinchalik ularning qabrlariga sig‘indi, bu harakatlari unga hotirjamlik, osoyishtalik keltirishni sezdi. Bunday sig‘inishlar ko‘chuvchan, harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lganligidan turizmda ziyoratgoh yoki diniy turizm nomini oldi.

Jaxondagi barcha davlatlarida o‘zlarining diniy–ziyoratgoh turizmi bor.Chunki har bir davlatlarda yashayotgan halqlarning o‘z diniy yo‘nalishlari va bu yo‘nalishlarda mashhur bo‘lgan dindorlar va avliyolar yashab o‘tgan. Bu kishilarning faoliyati boshqa ellarda, halqlarda mashhur, tanish bo‘lmaganligidan aynan shu davlatda diniy–ziyoratgoh turizm halqaro miqyosda rivojlanmasligi va diniy-ziyoratgoh turizm bir davlat ichidagina rivojlanishi mumkin.

Ikkinchidan, diniy – ziyoratgoh turizmda mashhur avliyolarning qabrlari joylashgan yerlar, maskanlar haqida dunyo bo‘yicha yetarli axborotlarning tarqatilmaganligi, ishonchli ma’lumotlarning reklama qilinmaganligi ham ushbu maskanlarda halqaro turistlarni jalb qila olmaydi.

Uchinchidan, ma’lum bir davlatda o‘z dinidagi mashhur avliyolar, ulamolar haqida, ularning qabrlari joylashgan maskanlar haqida davlat ichida ham ahborotlarni yo‘qligi, reklama qilinmaganligi, yaxshi o‘rganilmaganligi natijasida davlatlarda bir viloyatda yoki tumandagi mashhur diniy avliyolarning qabri joylashgan ziyoratgohni faqat shu viloyatda yoki faqat shu tumanda yashayotgan halqlar yoki aholi bilishadi va ziyoratga borishadi. Shuning uchun ham diniy–ziyoratgoh

joylardan ichki turizmda ham, halqaro turizmda ham foydalanish masalalarini, muammolarini o‘rganish turizmni rivojlantirishda juda dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirga kelib ma’lum bo‘lmoqdaki, Respublikamizda islom dini ta’limotining dunyoga mashhur bo‘lgan vakillarining juda ko‘pchiligi vatandoshlarimiz hisoblanadi va ularning mangulik bilan bog‘liq ishlari, faoliyatlari va qabrlari joylashgan ziyoratgoh joylarni halqimizning bilishi darajasi o‘rganilmagan. Yoshlarning aksariyat qismi bunday ulug‘ insonlar nomini ham sanab bera olishmaydi.

Respublikamizda diniy–ziyoratgoh turizmni rivojlantirish dagi yana bir muhim dolzarb masala shundan iboratki, Respublikamizdagi diniy–ziyoratgoh joylar, maskanlarga turistik marshrutlar, ekskursiyalar ishlab chiqilmaganligidan, bu turizm turi imkoniyatlarimiz darajasida rivojlanmasdan qolmoqda. Yana bir muhim masala shundan iboratki, diniy–ziyoratgoh turizm maskanlarida turistlarga xizmatlar ko‘rsatuvchi infratuzilmalar ning tashkil qilinmaganligidir.

Bu holatda muhim bir masalaga e’tibor berish zarurki, diniy–ziyoratgoh maskanlarga turistik marshrutlarga tashkil qilishgina bu joylarda turistlarga xizmat qiluvchi infratuzilmalarni yuzaga keltiradi. Chunki, ma’lum bir turistik ob’ektga turist oqimining ko‘payishi albatta ehtiyoj nuqtai-nazaridan ularga xizmatlar qiluvchilarni chorlaydi. Natijada turistlarning ehtiyojlarini sezgan mahalliy aholi turistlarga dastlab oddiy, sifatsiz xizmatlarni keyinchalik sifatli va majmuali xizmatlarni taklif qila boshlaydi. Shu holatda mahalliy aholi o‘rtasida turistlarga xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha o‘ziga xos raqobatbardoshlik hosil bo‘ladi. Natijada turistlarga xizmatlar ko‘rsatish sifati yaxshilanib xizmatlarning turlari ham ko‘payadi. Bu sharoitlar esa o‘z navbatida yanada turistlar oqimini kuchaytiradi.

Qayd qilinganlardan hulosalar shundan iboratki, Respublikamizda diniy–ziyoratgoh turizm ob’ektlarga turistik marshrutlar ishlab chiqish turizmdagi eng dozarb masalalardan hisoblanadi.

Diniy–ziyoratgoh turizm tushunchasi. “Din” so‘zi dunyo xalqlarida har xil ma’noda tarjima qilinadi (o‘zlari uchun tushunarli ma’noda) va har xil mazmunda tushuntiriladi yoki tushuniladi.

Manbalarga binoan ruschadagi “religiya” so‘zi lotin tili fe’lidagi “relegere”–“yana bog‘lashtirish, birlashtirish qayta birlashtirish” ma’nolarini anglatadi. Dastlab e’tiqod, ishonch keyinchalik din – “relegere” insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida paydo bo‘lgan ya’ni inson ongida shakllangan. Dinning kelib chiqishida insonlar jamiyatida ba’zi bir (shamanlar, avliyolar, karomat ko‘rsatuvchilar, qohinlar) kishilar ning tabiatdagi voqe’liklar va jarayonlarning mohiyati va mazmuniga yetish, bu voqe’liklar va jarayonlar bilan aloqalar bog‘lashga urinishlari, faoliyatlari bilan bog‘liq deb hisoblashadi.

Ko‘plab ishonch va e’tiqod yo‘nalishlari, diniy yo‘nalishlar avliyolar, qohinlar va shamanlarning atrofidagi kishilar ongiga o‘zlarining ruhiy ta’sirlarini o‘tkazishi, ularda ishonch yoki ixlos hosil qilishga urinishlari natijasida hosil bo‘lgan degan taxminiy xulosalar ham mavjud. Huddi ana shunday kishilar sharafiga ibodatxonalar, masjidlar va boshqa ko‘plab diqqatga sazovor inshoatlar qurildi va hozir ham qurilmoqda dunyodagi dinlarning barchasida olamning kelib chiqishi va undagi barcha hodisalarni dastlabki tushunishga urinish yo‘lida qayd qilgan qohinlar, avliyolar va shamanlarning ijodi, atrofidagi ommaga tabiat hodisalarini o‘zlari tushungan, tasavvur qilgan holda tushuntirishlari yotadi.

Bu tushuntirishlarda ular tabiat hodisalarini va Olamni, bu olamni yaratganlar boshqarishni (Alloh, xudo va boshq…), o‘zlari ana shu hudolar bilan aloqalar bog‘laganliklari va topshiriqlar olganliklarini izohlashgan. Din turli xalqlarda mohiyati va mazmuni jihatdan xudoga ishonish lekin ana shu Allohga yoki xudoga sajda, ibodat qilishi jihatidan turli – tumandir (namoz o‘qish, cho‘qinish, zikrga tushish, kuy chalish va boshq…)

Hozirgi vaqtda dinlar mayda, mahalliy (milliy) va dunyo dinlari kabi guruhlarga bo‘lingan. Mayda dinlar (totemizm, fetishizm, shamanizm, magiya) hozirda kam sonli xalqlar va qabilalarda saqlanib qolgan. Mahalliy (milliy) dinlar aksariyat hollarda bir davlatda yoki ikki, uch davlatda qabul qilingan bo‘lishi mumkin. Masalan, O‘zbekistonda islom dini asosiy din hisoblanadi. Lekin boshqa dinlar faoliyati ham to‘liq himoya qilingan. Shu bilan birga mahalliy din

yo‘nalishlari mazhablari, dunyoda juda katta oqimlarni hosil qiladi. Masalan, iudizm juhudlarda, sintoizm – Yaponiyada, buddizm– Hindistonda va Xitoyda (4.1-jadval).

4.1-Jadval

Dunyoda dinlarning tarqalishi (2021yil)[39]

T\S	Dinlar	E’tiqodchilar soni	% da
1	Xristianlik	2,4 mlrd	29,81
2.	Islom	1,9 mlrd	24,60
3	Ateistlar\Agnostiklar	1,2 mlrd	14,28
4.	Iudizm	1,15 mlrd	13,91
5.	Buddizm	521 mln	6,47
6.	Xitoy xalqi dini	394 mln	4,89
7.	Etnik dinlar	300 mln	3,37
8.	Afrika dinlari	100 mln	1,24
9.	Sikxlar	30 mln	0,37
10	Spiritualizm	15 mln	0,19
11	Iudaizm	14,5 mln	0,18
12	Baxai	7 mln	0,09
13	Jaynizm	4,2 mln	0,05
14	Sintoizm	4,0 mln	0,05
15	Kaoday	4,0 mln	0,05
16	Zaroastrizm	2,6 mln	0,03
17	Tenrikyo	2,0 mln	0,02
18	Yangi tilchilar dini	1,0 mln	0,01
19	Unitar universalizm	0,8 mln	0,01
20	Rastafarianchilik	0,6 mln	0,01

Dunyo dinlari asosan 3 ta yoki 3 katta yo‘nalishdagi (e’tiqoddagi kishilar soni bo‘yicha) dinlar hisoblanadi:

1. Buddaviylik dini – 6,0 ming-yildan oshdi. Uning asoschisi Siddharta Gautama (miloddan avvalgi 623–544-yillar) Budda – haqiqat najotkori ma’nosida. Hozirgi vaqtda 2,5 mlrd. kishi buddizm diniga e’tiqod qiladi.

2. Xristianlik dini – 2000-yildan oshdi. Bu din – xoloskorlik dinidir. Xozirgi Falastinda paydo bo‘lgan. Xudo o‘z o‘g‘li Iusis

[39] Internetdan m`lumotlari asosida tayyorlandi

Xristosni xaloskor qilib yerga yuboradi. Xristos o‘z ta’limotini targ‘ib qila boshlaganida 30 yoshda edi. Bu din 324 –-yilda Rimda davlat dini deb e’lon qilingan. Bu dinda 13 ta bayram bor. Eng katta bayrami – Rojdestvo – Iusis Xristosoning tug‘ilishi 25 – dekabr hisoblanadi. Xristian dini 3 yo‘nalishni tashkil qiladi. Pravoslavlar – 100 mln. kishi, protestantlar – 350 mln. kishi, katoliklar – 650 mln. kishi.

3. Islom dini – Saudiya Arabistonida dunyoga kelgan. Islom so‘zi – “itoat etmoqlik” degan ma’noda. Bu din payg‘ambari 570 –-yilda tug‘ilgan Muhammad sallollohu va sallamdir. Islom dining asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

1. Kalimai shahodat
2. Namoz o‘qish
3. Ro‘za tutish
4. Zakot berish
5. Haj qilish

Islom dinida hozir 2 mlrd. kishi e’tiqod qiladi.

Diniy – ziyoratgoh turizm tushunchasida yuqorida qayd qilingan dinlardagi kishilarning o‘z dinidagi ziyoratgohlar, o‘z dinidagi avliyolarga, payg‘ambarlariga, ushbu dindagi ta’limot yaratgan mashhur kishilarning qabrlariga, din bilan bog‘liq muqaddas joylarga harakatlanishi, ibodat, sig‘inish uchun o‘z yurtidagi muqaddas hisoblangan joylarga va boshqa o‘lka, davlatlardagi muqaddas joylarga borishi, kelishini tushunishimiz kerak.

Diniy – ziyoratgoh turizmni har bir davlatda ikki sohaga bo‘lish mumkin. Birinchi yo‘nalish – ichki diniy-ziyoratgoh turizmini tashkil qiladi. Bu yo‘nalishda bir davlat ichidagi halqlar, elatlar, millatlar o‘z davlati hududlaridagi diniy-ziyoratgoh maskanlarni yaxshi bilishadi va o‘z dinidagi mashhur avliyolar, ulamolar yoki muqaddas joylarga borib ibodat qilishadi, sig‘inishadi. Bir davlatdagi ichki diniy-ziyoratgoh turizmdagi yo‘nalishlar dinga e’tiqod qiluvchilar bo‘yicha ham yana tarmoqlarga bo‘linib ketadi. Masalan, O‘zbekistondagi barcha dindor kishilar o‘z diniy – e’tiqodlari bo‘yicha o‘z diniy marosimlarini erkin ravishda o‘tkazadilar.

Diniy–ziyoratgoh turizmdagi ikkinchi soha bir mamlakatdagi

dindorlarning boshqa bir davlatdagi o‘z dini rahnamolari, avliyolari qabrlari yoki boshqa muqaddas joylarga ziyorat, sig‘inishi uchun qilgan safarlari tushuniladi.

Islom dinidagi eng muqaddas joy Makka shahrida haj amallarini bajarish uchun qilgan safarlarini ham hozirgi vaqtda turizm safarlariga kiritishmoqda. Huddi shuningdek, xristian dinidagilarning muqaddas ziyoratgoh joylaridan biri Vatikan va Iyerusalim hisoblanadi. Bu joydagi aziz, muqaddas joylar-yil davomida diniy–ziyoratgoh, sig‘inish, ibodat qilish bilan kelganlar hisobiga gavjum bo‘lishadi.

Budda dinidagilarning Makka, Madina, Iyerusalim (Quddus), Vatikan kabi eng yirik diniy markazlari qayd qilinmagan bo‘lsada budda dinidagilar hayratomuz, ulkan ibodatxonalarga borib ommaviy holda sig‘inishadi va bir davlatdan ikkinchi bir davlatga safar qilib budda dinidagi diniy–ziyoratgoh turizmini hosil qilishadi.

Diniy–ziyoratgoh turizmidagi asosiy yo‘nalishlar. Diniy–ziyoratgoh turizmidagi asosiy yo‘nalishlar haqida mulohazalar bildirilganda e’tibor berish lozimki, bu yo‘nalishlar alohida – alohida ta’riflangan emas. Oldingi qaydlarda aytilganidek, diniy – ziyoratgoh turizmi asosan dunyodagi uchta dunyo dinlaridagi safarlar, sayohatlar tushuniladi. Agar chuqur mulohaza qilinganda turizmda diniy–ziyoratgoh yo‘nalishlari alohida–alohidasohalarga, tarmoqlarga bo‘lib diniy–ziyoratgoh maskanlarda foydalanishda quyidagi ish yuritish ob’ektlarini tashkil qilish va rivojlantirishda o‘rganish manbai bo‘lib hizmat qiladi.

1. Diniy–ziyoratgoh maskanlardan ichki turizmni rivojlanti rishda foydalanish. Diniy – ziyoratgoh maskanlardan ichki turizmda foydalanishda Respublikamiz hududlaridagi barcha ziyoratgihlar dan foydalaniladi. Bunda dindagi e’tiqodlarga qarab qaysi ziyoratgohga qancha turist kelganligini aniqlash, ularga hizmatlar ko‘rsatish,turistlarning ehtiyojlarini o‘rganish orqali kelgusidagi ishlarni rejalashtirish mumkin. Shuningdek, ba’zi bir ziyoratgohlardagi avliyolar qabrini 2– 3 e’tiqoddagi dindorlar ham ziyorat qilishadi. Bu holatda ziyoratgohga qaysi din vakillar qancha sonda keldi kabi hisob–kitoblarga aslo hojat yo‘q.

Diniy–ziyoratgoh maskanlardan ichki turizmda foydalanishda mamlakat aholisi qaysi ziyoratgohlarga ko‘proq borishadi? Ana shu savol o‘rganilib, aynan ana shu ziyoratgohga turitsik oqimni kuchaytirish chora –tadbirlarin ishlab chiqish tug‘ri bo‘ladi.

2. Diniy–ziyoratgoh turizmdan halqaro maqsadlarda foyda lanilganda mamlakatimizdagi diniy–ziyoratgohlardan qaysi birlari yoki qanchasi halqaro miqyosda tanish yoki ma’lumligi aniqlanadi. Masalan, islom dinidagi avliyolar yoki muqaddas joylar mahalliy ahamiyatga ega bo‘lsa bu ziyoratgohlarni halqaro miqyosda reklama qilishdan xech foyda bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, Respublikamizdagi diniy–ziyoratgoh maskanlar dindorlar, ziyorat chilarni jalb qilish darajalari bo‘yicha tasniflanish mumkin. Masalan, viloyatning ma’lum bir tumanidagi diniy – ziyoratgoh maskan o‘z ovozasi mavqei bo‘yicha faqat tumandagi ziyoratchi larnigina jalb qila oladi. Bu ziyoratgohga boshqa tuman va boshqa viloyatlardan ziyoratchilarni jalb qilish behuda urinish bo‘lishi mumkin.

Viloyat va tumanlardagi diniy–ziyoratgohlarga kelib–ketuvchilar ko‘p hollarda mavsumiy ham bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘plab oilalar o‘zlarining oldingi avlodlarining an’analariga binoan bir viloyatda yashab turib uzoq ikkinchi viloyatdagi eshon, sayyid va avliyolarning qabrlarini-yilda bir, ikki marotaba ziyorat qilishadi. Bu holat o‘tmishdagi qabila, urg‘chilik belgilari ning saqlanib qolayotganligining belgisidir.

Diniy–ziyoratgohlardan turizmda insonlar sog‘ligini tiklash, ruhiy xotirjamlikni hosil qilish maqsadida ham foydalanish mumkin. Bu holda Jizzax viloyatidagi diniy–ziyoratgoh maskanlarni kishilarning shifo topish, ruhiyatni sog‘lomlashtirish bo‘yicha tasniflash lozim bo‘ladi. Diniy–ziyoratgoh maskanlardan foydalanishda yana bir yo‘nalish har bir mamlakatda boshqa dindagi tarixiy obidalar yoki boshqa dindagi avliyolarning, payg‘ambarlar ning hayoti bilan bog‘liq joylar yoki dahmalarning borligini va bu ziyoratgohlarni boshqa xalqlarning qanchalik darajada bilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Har bir davlatda bunday joylardan turizmda foydalanish yaxshi daromad manbai ham hisoblanadi. Bunda eng birinchi navbatda mazkur

ziyoratgohlarni turistlar tashrifiga tayyorlash, atrofda xizmatlar infratuzilmalarini tashkil qilish va so‘ngra ichki va xalqaro turizm bozori uchun reklama axborot manbalarini tarqatish lozim bo‘ladi.

Masalan: Samarqand viloyatidagi Hazrati Dovud payg‘ambar g‘ori va Doniyor ota ziyoratgohlari ana shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan ichki va xalqaro turizm oqimini tashkil qilishga asos bo‘ladigan muqaddas ziyoratgohlardan hisoblanadi. Hazrat Doniyor otani boshqa millatlar, asosan ruslar, rus tilida gaplashuvchilar Otes Daniyel, prorok Daniyel deb atashadi va yuqori darajada bu ulug‘ inson ta’limoti va qabrini e’zozlashadi. Shu o‘rinda qayd qilish lozimki Hazrat Doniyor ota qabrini islom dinidagilar, xristianlar va pravoslavlar va iudizm e’tiqodidagi dindorlar yoki 3 dunyo dini e’tiqodidagilar ziyorat qilishadi. Ana shunday ulug‘ avliyolarning qabrlari vatanimiz tuprog‘ida ekanligi ham O‘zbekistonni Allohning nazari tushgan yurt degan hikmatli gapning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Rossiya davlatining prezidentlari V.V.Putin va V.Medvedovlarning ham Samarqandga kelib Doniyor ota qabrini ziyorat qilishi olamshumul ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning bu ziyoratini butun dunyo matbuoti o‘z sahifalarida yoritdi, ko‘rsatuvlar, eshittirishlar berdi. Huddi shunday ziyoratgoh misolida hazrati Dovud payg‘ambar g‘ori haqida ko‘rish mumkin. Dovud payg‘ambarni chet yelliklar prorok David deb atashadi. Bu payg‘ambarni Markaziy Osiyo xalqlari temirchilikning piri deb bilishadi. Bu g‘orda–ziyoratgohda bo‘lganlar Sobiq sovetlar respublikalaridan ayniqsa Boltiqbo‘yi dalatlaridan, Ukraina, Belorussiya va Rossiya davlatlaridan ko‘plab turistlar kelib ketishayotganligini, ular ham hazrat Dovud payg‘ambarni o‘zlarining temirchiligi piri deb bilishlarini hikoya qilishadi. Shuning uchun ham bunday muqaddas ziyoratgohlarni dunyo miqyosida reklama qilish respublikamizda xalqaro turizmning rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

4.2. Ziyorat turizmi turining resurslari

Diniy–ziyoratgoh maskanlardan halqaro turizmda foydalanish da Jizzax viloyatida juda katta imkoniyatlar bor. Birgina Sa’d ibn Abu

Vaqqos–Avliyo ota ziyoratgohi bu fikrimizga misol bo‘la oladi. Bu mo‘tabar insonning nomi butun islom olamiga tanish bo‘lganligi, Muhammad (s.a.s.) payg‘ambarimizning yaqin sahobalari dan biri ekanligi, payg‘ambarimiz bu ulug‘ zotni behad hurmat qilganligi va jasur lashkarboshi bo‘lganligi uchun ham bu ziyoratgohga halqaro islom olami miqyosida turistlarni jalb qilish mumkin. Sa’d ibn Abu Vaqqos bu joyda bo‘lgan va g‘ayridinlar bilan jang qilgan.

Viloyatning ko‘plab diniy–ziyoratgoh maskanlaridagi avliyoota qabrlarining ko‘pida islom olamidagi mashhur, taniqli kishilar bilan hamkorlik qilgan sayyidlar yoki xo‘ja va eshonlar dafn qilingan. Lekin hozirgacha viloyatda diniy turizmni rivojlan tirish masalalariga kirishilganicha yo‘q. Hozirgacha viloyatning tumanlarida 42 ta ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar ro‘yxatga olindi, ta’rif va tavsiflari yozildi. Bu ziyoratgohlardan xalqaro va ichki turizmda foydalanish imkoniyatlari juda katta. Tadqiqotlarimizning bosh maqsad va vazifalari ham viloyatda diniy ziyoratgoh turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini, tashkiliy iqtisodiy tarkiblarini ishlab chiqish hisoblanadi.

O‘zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda diniy turizm, ya’ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O‘zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko‘p. Ko‘pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta’mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Mahdumi A’zam, Shohizinda, al-Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go‘zal ziyorat qiladigan va ma’naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi.

Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi (4.1, 4.2-rasmlar). Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ya’ni infratuzilmani shakllantirish

bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchilik larsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning uchun Samarqand shahri aeroportini jahon andozalariga yarasha bo‘lishi, masalani asosiy yechimidir.

Mustaqallik-yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo‘nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta’mirlashga jiddiy e’tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 2 mlrd. kishidan iborat musulmon dunyosini o‘ziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.



4.1-rasm. Madinai sharif shahari

Xususan, Janubi– Sharqiy Osiyo va G‘arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, yo‘l qurish, transport imkoniyatlarni o‘rganish maqsadida muvofiq deb hisoblaymiz Diniy

ziyoratgohlar kam mablag‘ hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz.

Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o‘nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Achinarli holati shundaki, islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga ko‘tarilgan siymolarimiz abadiy qo‘nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya’ni tuman yoki viloyat miqiyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh ob’ektlariga aylantirish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng faol turi bo‘lib kelgan. Insoniyat borki, u e’tiqod qiladi, sig‘inadi, ruhan va ma’naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyoratni hoxlaydi. Buning uchun muqaddas ziyoratgoh bo‘lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e’tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma’naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.



4.2-Rasm. Makkai sharif shahari

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya’ni ziyorat turizmi bo‘lib hisoblanadi. Ziyorat turizmning shakllanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ya’ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to‘g‘ri keladi. Ziyorat turizmning asosiy paydo bo‘lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo‘lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig‘inishganlar.

Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy maqsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig‘inish chog‘ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko‘ngillarning poklanishi, og‘ir kasalliklardan xolos bo‘lmoqligi, qilib qo‘ygan gunoh ishlarini ollohdan so‘rab kechirishlarini, safar chog‘ida safdoshlari bilan ma’naviy yaqinlikda bo‘lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o‘z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o‘z ko‘ngillaridan o‘tkazadilar. Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo‘lib, ular yer sharining deyarli hamma qit’alarida joylashgandir.

Ziyorat turizmining O‘zbekiston cho‘llaridagi resurslari. Nurota ziyoratgohi. Nurota ziyoratgohi xalqaro islom olamida qadimdan ma’lum. Nurota ziyoratgohi ham, Nurota chashmasi ham yaxshi o‘rganilgan. Hatto eramizdan oldingi III-asrda o‘sha davr dunyosining egalaridan biri bo‘lgan Aleksandr Makedonskiy o‘z qo‘shinlari bilan Nurota ziyoratgohida bir vaqt yashab turganligi va Nurota atroflaridagi koriz suvlariga qiziqganligi va hatto o‘rganganligi haqida ham tarixiy ma’lumotlar mavjud.

Nurota-“nur” va “ato” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib “yorug‘lik”, “ro‘shnolik” taratadigan, ya’ni nur ato etadigan joy ma’nosini anglatadi. Nurotaliklar har ellik-yilda chashma uzra Nur taralishini so‘zlab berishadi. Bu holat 2005-yilning bahorida ham takrorlanganligi qayd qilingan. Chashma bo‘ylab nur taralishi Abdulla ibn Ma’sud tomonidan bayon qilinishicha payg‘ambarimiz Muhammad Alayhissalom davrlari (VI asr) da ham ro‘y bergan (Abdulla ibn

Ma’sud, 2005, 7-bet)[40]. Bu voqe’a Payg‘ambarimizning me’rojga chiqishi voqe’alari bilan bog‘liq holda yuz bergan. Me’rojga chiqish jarayoni E. Karimov tomonidan ham ta’kidlangan[41].

Tuman markazi bo‘lmish Nurota shahari o‘ziga xos boy va betakror tabiati, zilol hamda muqaddas buloqlar bilan mashhur. Shu bilan birga shaharning tarixi ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Nurato yoki Nuri Buxoro nomi bilan tarix sahifalaridan o‘rin olgan mazkur tarixiy shahar xaqida Abu Bakr Narshaxiy ma’lumot berib, uni Buxoro tarkibidagi tarixiy joy sifatida kayd etadi[42]. Narshaxiy IX-X asrlarda yashab o‘tganligini nazarda tutadigan bo‘lsak va uning bu hudud hakida o‘sha davrda ma’lumotlar yozib qoldirilganligini hisobga olsak, u xolda Nurning qadimiyligiga shubha qolmaydi.

O‘sha davrda ham bu maskan ziyoratchilar tashrif buyuradigan qadamjo bo‘lgan. Ziyoratgohning g‘arbiy qismidagi muqaddas chashma va chashmadagi muqaddas hisoblangan baliqlar kishi e’tiborini o‘ziga tortadi. Buloqdan yuqorida, uning g‘arbiy burchagida sag‘ana va qabrtosh qo‘yilgan. Bu yodgorlik Nuriy nisbasi bilan mashhur Sayyid ad-Din Abu Hasanga tegishli. Me’moriy yodgorliklar asosan Shayboniylar davrining mahsulidir va keyingi davrlarda ya’ni mang‘itlar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtda ta’mirlangan. Narshaxiyning yozishicha, Nurda jome’ masjidi va robotlar bo‘lgan. Ziyoratga keluvchilarning asosiy qismi Buxoro aholisi, shuningdek, boshqa joylardan ham bu yerga ko‘plab kishilar tashrif buyurishgan.

Hozirgi vaqtda ham bu yerga keluvchilarning aksariyati Buxoro va uning atrofidandir. Narshaxiy Nur ziyoratiga borib qaytganlarni hojilar fazilatiga ega bo‘lishi to‘g‘risida ham yozib qoldirgan. Nurning ziyoratgox bo‘lishi, bu joydagi yerda muqaddas qadamjolarning mavjudligi bilan bog‘likdir. Muqaddas buloq, baliqlar, tarixiy obidalar, Sa’id ad-Din Abul Xasan Nuriy, Ar-Rumiy singari tarixiy shaxslarning qabrlari mavjudligi, shuningdek, arablar istilosi davrida Movarounnahrga kelib qolgan va shu tuproqda foniylikdan boqiylikka

[40]Asror Nizomov. O‘zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi. Toshkent, 2008, 135-b.
[41]Karimov E. Me’rojnomatasvirlarda. «Fan vaturmush», № 6, Toshkent, 1997.
[42]Naraxshiy. «Buxoro tarixi», Toshkent,1991, 95 b.

ketgan hamda Nurda dafn etilgan tobeinlar[43] qabrlari borligi shundan dalolat beradi.

So‘ngi-yillarda Nurota ziyoratgohiga Yevropa davlatlaridan ko‘plab turistlar kelishmoqda. Chunki, Nurota ziyoratgohida ziyoratgoh bo‘ylab ma’lum bir-yillarda nur taralishi ham tasdiqlangan va suratga olingan. Bu xabarlar dunyo bo‘ylab tarqalgan. Oldindagi maqsad va vazifalar xalqimizning bu muqaddas ziyoratgohini xalqaro ziyoratgoh markazlaridan biriga aylantirilishi kerak.

Arab ota ziyoratgohi. O‘zbekistonning katta cho‘llaridan bo‘lgan Qarnobcho‘lning markazidagi Tim qishlog‘ida 1000 yoshli archa daraxti va shu qishloqning qabristonida 1000 yoshli Arabota maqbarasi bor. Qishloqdagi keksa kishilar va tarix o‘qituvchilarining xabar berishicha o‘tmishdagi “Buyuk ipak yo‘li” aynan ana shu qishloqdan o‘tgan. Tim qishlog‘ining hozir cho‘l sharoitidagi o‘rtacha kattalikdagi qishloq deyish mumkin. Lekin archa va maqbaraning 1000 yoshdaligi bilan bog‘liq ko‘plab rivoyatlar aytilib kelinmoqda. Maqbaraning o‘zi ham va uning ichidagi daxma ham hozirgacha o‘rganilmagan. Mahobatli bu maqbara zamonaning ne-ne to‘fonli-yillariga va iqlimiy o‘zgarishlariga bardosh berib, 1000-yildan beri mustahkam holatda saqlanib qolganligining o‘zi ham tarixchilarimizni qiziqtirishi kerak edi.

Maqbara bilan archaning cho‘l markazida ekanligi ham, aksariyat hollarda “Buyuk ipak yo‘li”dagi karvonsaroylari bo‘lgan kichik shaharchaning Tim qishlog‘i atrofida joylashganligi haqida ko‘plab afsonalar ham bor. Har holda Arabota maqbarasining qurilishi Tim qishlog‘ining qadimda aholi soni jihatidan yirik qishloqlardan bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu ikkala tarixiy va tabiiy yodgorlikni mukammal tadqiqot qilish ham “Buyuk ipak yo‘li”ning cho‘ldagi marshrutlaridan xabar berishi mumkin.

Sulton Uvays Qaraniy ota ziyoratgohi. Beruniy tumanining Qoratog‘ dahasidagi bu tarixiy-me’moriy obida islom olamida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Sulton Uvays Qaraniy obidasi tekis harsang toshlardan terilgan asosga bunyod etilgan. Devor bilan asos o‘rtasiga uch qator

[43].Tobeinlar-MuhammadPayg‘ambar(s.a.s.)ni ўzkўzibilankўrgansahobalarnikўrgankishilar.

qilib bordon joylashtirilganki, u devorlarni nurashdan himoya qiladi. Devorlari pishiq g‘ishtdan. To‘g‘ri burchakli bino masjid xonaqosi bo‘lib, u xochsimon shaklga ega. Shunga ko‘ra, butun devorlar bo‘ylab tokchasimon shakl paydo bo‘lgan. Janub tomonda bilinar-bilinmas mehrob bor. Uning orqa tomonida oshxona, ketidan ayvon, mehmonxona joylashgan. Masjidning janubi-sharqiy burchagi bo‘ylab yo‘lak hosil bo‘lib, u mehmonxonaga olib boradi.

Sulton Uvays–asl nomi Suhayl bin Omir bin Rumon bin Nohiya bin Qaran bin Murod. U Yaman mamlakatining Qaran qishlog‘i murodiy qabilasida milodning 625-yili tug‘ilgan. 659-yili (37 hijriy-yilning 17 shavvol kuni) Hazrati Alining Fors mamlakatiga islomni yoyish uchun qilgan yurishda Siffin jangida 40 yoshida shahid bo‘lgan.

Uvays Qaraniy nomi bilan mashhur bo‘lgan Suhayl bin Omir Muhammad Payg‘ambarimiz (s.a.s.) hayot vaqtida dunyoga kelgan. Payg‘ambar (s.a.s.) ummatning sarvari, avliyolar sultoni Uvaysning tavalludi haqida xabar bergan. Lekin u Payg‘ambar bilan diydor ko‘risha olmagan. Rivoyatlarda Rasulullоh bilan ko‘risha olmaganliklariga ikkita sabab keltiriladi. Birinchisi, ko‘zi ojiz (ko‘r) onasi bo‘lib, uni uyda yolg‘iz qoldirib kela olmagan. Ikkinchisi–shariat amrini tutib, onalik haqqini ado etgan. Rasulullohning vasiyatlariga ko‘ra, qoldirgan tabarruk xirqalari chohoryorlar tarafidan Sulton Uvaysga topshirilganligi to‘g‘risida rivoyat bor. Keyinroq bu hirqa qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, Usmonli sultonlari tomonidan Turkiyaga olib ketiladi. Hozir u Turkiyada saqlanmoqda.

Sahobai kiromning ko‘plari bilan ko‘rishgan Hazrati Uvays tobeinlarning ulug‘laridan. Chunonchi, Hazrati Umar ibn Xattobdan rivoyat qilinishicha, Rasulullоh (sollallohu alayhi va sallam) ora-sira Yaman tarafga yuzlarini burib, bunday der edilar: “Yaman tomondan rahmat shabadalari esmoqda. Ehson va ezgulikda tobeinlarning eng yaxshisi Uvays Qaraniydir”. Oradan-yillar o‘tdi. Payg‘ambarimiz Alayhissalom hayotlari so‘ngida muborak hirqalarini yechib, Hazrati Umar bilan Hazrati Aliga berdilar va: “Buni Uvays Qaraniyga beringlar!” dedilar[44].[45].

[44]© ShayxMuhammadSodiqMuhammad Yusuf © islom.uz 2003-2018.

Olloqulixon Peterburg safaridan qaytib kelayotganda o‘sha joyda tunaydi. Sulton Uvays uning tushiga kirib xon bo‘lishi haqida bashorat qiladi. Olloqulixon shayxga ta’zim bajo aylab, uning sha’niga katta masjid va alohida o‘nta chillaxona qurdiradi.

So‘filar an’analarida Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.s.) bilan Uvays Qaraniy o‘rtasida ruhiy aloqa bo‘lganligini keltirishadi. Shuning uchun ham, islom olamida, Markaziy Osiyo davlatlarida Uvays Qaraniyning shuhrati, obro‘yi juda katta hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘tmishdagi bobolarimiz Uvays Qaraniyga ulug‘ hurmati va e’tiqodi sifatida uning hozirgi ramziy qabrini va bu qabr ustiga uning nomidagi maqbarani qurishgan. Xuddi shu davrlarda alRakkeda (Suriya davlati) ham Uvays Qaraniy ziyoratgohi bo‘lgan. 1988-yilda bu ziyoratgoh ziyoratchilar uchun zamonaviy talablar asosida butun bir majmua holida qayta qurilgan. Ziyoratgohning ochilishida Eron va Suriyaning davlat rahbarlari qatnashgan. Bu muqaddas ziyoratgohni 2014-yil 23-iyun kuni Suriyalik qonxo‘r jangarilar portlatib, harobaga aylantirishgan.

Rivoyat bo‘yicha Uvays Qaraniy vafot etganida uning tilaklarini Oloh qabul qilishini bilgan 7 shoh o‘z mamlakatida uni dafn qilish uchun janjalashib qolgan va 7 ta tobutni tayyorlashgan, yani u qaysi tobutda bo‘lsa o‘sha mamlakatda dafn qilinadi. Tobutlarni ochib ko‘rishsa 7 ta tobutda ham Uvays Qaraniyni ko‘rishadi. Hozirgi kunlarimizda Uvays Qaraniyning 7 ta qabri borligini ham shu rivoyatga bog‘lashadi. U kishining maqbarasi turli davrlarda ta’mirlangan yoki buzib yangidan qurilgan: 998 milodiy-yili Sulton Muhammad Xorazmshoh tomonidan qurilgan. Chingiz istilosi davrida harob bo‘lgan. 1805–1806-yili Xiva xoni Elto‘zarxon qayta qurdirgan va uchinchi marotaba 1837–39-yillari Xiva xoni Olloqulixon qurdirgan. Mustaqillikning ilk-yillarida maqbara qayta ta’mirlanib, o‘z holiga keltirildi.

Tayanch so‘zlar: ziyorat, diniy ziyorat, islom dini, katolik dini, xristian dini, e’tiqod, iymon, ishonch, budda, umra, haj.

---

[45]No‘monAbdulmajid .“Hidoyat” jurnalining 2008 yil 5-soni.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1. Ziyoratni qanday tushunasiz?
2. Dunyoning eng katta ziyoratgohlari haqida prezentatsiyali ma’ruza tayyorlang.
3. Ziyorat odobi qanday jarayonlardan iborat?.
4. Insoniyat jamiyatida dinlarning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
5. Ziyoratning turlari haqida prezentatsiyali ma’ruza qiling.

V BOB. EKOLOGIK TURIZM VA BU TURNING RESURSLARI

5.1. Ekologik turizm turi

Ekologik turizmning mazmuni va va mohiyati bo‘yicha birinchi bo‘lib Meksikalik ekolog-iqtisodchi **Gektor Seballos Laskureyn** 1980-yilda o‘z tadqiqotlari natijalarini bildirgan edi. Uning xulosasi bo‘yicha– “Ekoturizm-bu tabiatga xushyor munosabatlar, tanishish quvonchini birlashtiruvchi va flora, fauna namunalarini o‘rganishga, himoya qilishga yordam berish imkoniyatlariga asoslangan turistik faoliyatdir”.

Gujin G.S.,M.Yu. Belikov va Ye.V. Klimenkolar 1997-yilda Rossiyada birinchilardan bo‘lib – “Ekoturizmning asosi-atrof muhit g‘amxo‘rligi va muhofazasidir” degan taklifni kiritdi va ekoturizmning o‘zlari belgilagan ta’rifga asoslangan ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqdi va o‘tkazdi[46]. O‘sha vaqt uchun ham, hozir ham ushbu ta’rif eng qulay va ekoturizmning haqiqiy mazmuni, mohiyatini anglatadi degan xulosalarni biz ham quvvatlaymiz. Mustaqil hamdo‘stlik davlatlarida Rossiyalik quyidagi olimlarni ekoturizm asoschilari deb tan olishadi:

Birjakov M.B. – “Ekoturizmda tabiatga minimum ta’sir qilib, tabiat bilan birga bo‘lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish, asrab qolish tuyg‘ulari hosil bo‘ladi”[47].

Drozdov A.V- “Eski va Yangi dunyoda deyarli bir vaqtda mahalliy aholining an’anaviy madaniyatini hurmat qilishga, sayohatchilarning ma’rifiy madaniyatini oshiruvchi, tabiat oldida ma’sullik va himoya qilishga, ijtimoiy va ekologik talablarini qondirishga qaratilgan va sayyoraviy ekologik inqirozning oldini olishga asoslangan ekoturizm shakllandi”[48].

Sergeeva T.S. - “Ekoturizm bu-mahalliy aholining an’anaviy turmush tarzini saqlagan, xo‘jalik faoliyati kam tasir qilgan betakror tabiiy hududlarni ko‘rish; bu-mahalliy aholining yashash darajalarini va turistik jarayondagi barcha qatnashuvchilarning ekologik madaniyati darajalarini oshirish, ekologik tur va dasturlarda tabiat muhofazasi

me’yorlari va texnologiyalariga rioya qilishdir”[49]

Pardayev M.Q. – “Ekoturizm deganda, tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni ko‘rish, tomosha qilish, ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning betakror jozibasi va o‘ziga xos tomonlaridan zavq olish maqsadida tabiat hududlariga ziyon yetkazmasdan, atrof-muhitni muhofaza qilgan holda sayohat va sarguzasht qilish orqali tabiatga ko‘maklashish, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashga qaratilgan turizmning turi tushuniladi”.

XX asr oxirlariga kelib AQSH, Kanada, Yevropa davlatlari, Avstraliya ekoturizmni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqdilar. Bu dasturlarda ekoturizmni rivojlantirish shiorlari va talablari quyidagicha edi:

Amerika Qo‘shma Shtatlari ekoturizmi jamiyati–“Ekoturizm– mahalliy aholi manfaatlarini e’tiborga oluvchi, tabiiy resurslarni muhofaza kiluvchi,ekotizmlarning butunligini saqlovchi, mahalliy madaniyat va tabiiy muhitni anglash uchun tabiiy hududlarga maqsadli sayohat”.

Avstraliya ekoturizmi milliy strategiyasi – “Ekoturizm – ekologik barqarorlik prinsiplariga va ekologik bilim, madaniyat dasturlariga amal qilishga asoslangan va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda tabiatga sayohat qilish turizmi”.

Germaniyada ekoturizmni rivojlantirishda moliyaviy hamkorlik Federal vazirligi – “Ekoturizmda tabiatga minimum ta’sir qilish hissi madaniyati va tuyg‘usi paydo bo‘ladi, qo‘riqlanadigan hududlarga moliyaviy yordam imkoniyatlari va mahalliy aholida qo‘shimcha daromad olish manbalari hosil bo‘ladi”.

Atrof muhit muhofazasi bo‘yicha Kanada davlati maslahat Kengashi – “Ekoturizm-turizmning turi bo‘lib, mahalliy xalq manfaatlarini hurmat qilish asosida tabiatni bilish, anglash va ekotizimlarni saqlashga yordam ko‘rsatish yo‘nalishidagi turistik faoliyat hisoblanadi”.

Ekoturizm jadal rivojlantirilayotgan davlatlarning ekoturizm dasturlari asosida xalqaro tabiat va turizm tashkilotlari ham

ekoturizmning ta’riflarini qabul qilishdi:

Butunjahon turizm tashkiloti – “Ekoturizm-tabiat turizmining barchasini o‘zida mujassamlashtirib, tabiiy hududlarga ma’suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza qilishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi”.

Xalqaro ekoturizm tashkilot(TIES) – “Ekoturizm-tabiat mintaqa lariga mahalliy aholining farovonligini quvvatlovchi, va atrof - muhitni saqlovchi masuliyatli sayohatdir”.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish – “Konsepsiyasi”da – “Ekoturizm deganda nafaqat ma’rifiy-ma’naviy maqsadlarni ko‘zlagan ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o‘simlik dunyosiga sayohat balki, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning amalga oshirilishi yordamida ekologiya muammolarini hal qilish bilan bir-biriga bog‘liq majmualar yig‘indisini tushunamiz”[50].

Xalqaro turizm jamiyati (XTJ) – “Ekoturizm-tabiiy hududlarga ma’suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi”.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi – “Ekologik turizm yoki ekoturizm– tabiat muhitiga nisbatan ma’suliyat bilan sayohat qilish, tabiat hududlariga ziyon yetkazmagan holda, hamda tabiatning betakror, jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilgan holda tabiatga ko‘maklashadi, atrof muhitga “yumshoq” ta’sir etadi. Mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta’minlaydi”[51].

Yuqorida keltirilgan mulohaza va fikrlarni jamlab bizningcha, ekoturizmning ta’rifi bo‘yicha quyidagi xulosaga kelish mumkin:- **“Ekoturizm**-faqat tabiat bag‘rida dam olish, o‘rganish, kuzatish, tomosha qilish va zavqlanish natijasida tabiatni, biologik xilma-xillikni saqlash, muhofaza qilish tadbirlariga ixtiyoriy moddiy yordam berishga qaratilgan, mahalliy aholining milliy madaniyatini, me’rosiy an’analarini, yashash tarzini hurmat qilishga asoslangan turistik

[50].O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi.Ekologiya xabarnomasi,№ 6,Toshkent,2007.6-7 b.

[51].Xalqaro tashkilotlarning ekoturizm bўyicha ta’riflari Hayitboyev R., Matyaqubov U., Ekologik turizm, uslubiy qўllanma, Samarqand, 2010, 60 b, bўyicha berildi.

faoliyatdan iboratdir”.

Ekoturizmning mohiyati va mazmuni haqida “Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi”, “Xalqaro turizm jamiyati”, “Yovvoyi tabiat umumjahon jamg‘armasi” va boshqa ko‘plab xalqaro tashkilotlar Butunjahon turizm tashkilotining ekoturizm haqidagi ta’rifini qabul qildi. Dunyo hamjamiyatiga xizmat qiluvchi yuqoridagi xalqaro markazlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari har xil bo‘lsada, ekoturizmning o‘rnini belgilashdagi xulosalari deyarli bir xil[52]. Chunki, ekoturizmni targ‘ib qilayotgan, BTT, XTJ tabiatni muhofaza qiluvchi–TMKHIning ish tartibi, maqsadlari doimo biri-biriga qarshi turadi. Dastlabki ikki xalqaro jamiyat tabiatdan turistik maqsadlarda foydalanish tarafdori, keyingi xalqaro tashkilot esa tabiatni muhofaza qilish tarafdori.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi mukammal ishlab chiqilgan. Bu muhim hujjatda ekoturizmning maqsadi va vazifalari ekoturizmning xalqaro talablari va huquqiy-me’yorlari berilgan. Ushbu konsepsiyada belgilanganidek: *Ekoturizmning maqsadi: Hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun tabiatdan turistik yo‘nalishda oqilona foydalanish hisoblanadi.*

Ekoturizmning turlari. asrning 80-yillarida ekoturizmni rivojlantirishni birinchilardan bo‘lib boshlagan AQSH, Kanada va Yevropa davlatlari bo‘ldi. Bu davlatlar hali ekoturizmning ilmiy nazariyasi, tamoyillari, amaliyoti va turlari to‘liq yaratilmagan ligidan ekoturizmni o‘z davlatlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha nomladilar[53];

-Yumshoq turizm- Germaniyada;

-Yumshoq turizm- Angliyada;

-Tog‘ turizmi-Fransiyada;

-Tabiat turizmi-Rossiyada, AQShda;

-Yashil turizm, Sarguzasht turizmi -Italiyada;

-Qishloq turizmi-Yevropa davlatlarida;

[52].Lindberg K., Hawkins D.E. (eds) Ecotourism: a Guide for Planners and Managers. North Bennington, Vermont. 1993,256 r.

[53].Aleksandrova A.Yu.,Geografiya turizma. KNORUS,.Moskva, 2010,592 str

-Ekologik turizm yoki ekoturizm-XX asr boshlaridan AQSH, Kanada va Yevropa davlatlarida, Avstraliya, Malayziya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1992-yildagi Rio-de-Janeyro konferensiyasida e'lon qilingan "Xalqaro ekoturizm-yili"dan keyin turizm rivojlangan davlatlar ekoturizmni nomlash haqida yagona fikrga kelishgan. Shunday qilib, asrimizning boshlanishidan jahondagi ko'pchilik davlatlar tabiat bilan bog'liq turizmni ekologik turizm yoki ekoturizm deb nomlashga o'tishdi. Ekoturizmning turlari haqida so'z yuritilganda ilmiy adabiyotlar dagi tasniflarni yaxshilab o'rganib olishimiz lozim bo'ladi. Chunki, ekoturizmning turlarini tasniflashda albatda ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi.

Hozirda ekoturizmni quyidagi 4 yo'nalishdagi turlarga bo'lishadi[54];

1. Ilmiy ekoturizm;
2. Tabiat tarixi ekoturizmi;
3. Tabiat qo'riqxonalari va rezervatsiyalari ekoturizmi;
4. Sarguzasht ekoturizmi:

5.2. Ekologik turizm turining resurslari

Ekoturizmning mohiyati, mazmuni, tamoyillari, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqgan holda uning asosiy resurslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Insonning xo'jalik faoliyati tegmagan tabiiy hududlar.
2. Insonning xo'jalik faoliyati qisman ta'sir qilgan ammo tabiiy ekologik muhit muvozanati saqlanib qolgan tabiiy hududlar.
3. Insonning xo'jalik faoliyati ta'sir qilmagan okeanlar va dengizlar akvatoriyasi.
4. Insonning xo'jalik faoliyati qisman ta'sir qilgan ammo tabiiy ekologik muhit muvozanati saqlanib qolgan okeanlar va dengizlar akvatoriyasi.
5. Dunyo davlatlaridagi milliy parklar.

[54].Zalatan A. and A. R. Gaston. Soft Ecotourism: the Substitution Effect. TheTouristReview, 4, 1996.

6. Dunyo davlatlaridagi tabiat qo‘riqxonalari, biosfera qo‘riqxonalari, tabiat rezervatlari.

7. Dunyo davlatlaridagi ekologik parvarishxonalar(ekologik, biologik pitomniklar)va tabiat buyurtmaxonalari(zakazniklar).

8. Dunyo davlatlaridagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar.

9. Sayyoramizning tabiat zonalari va uning tabiiy iqlim xususiyat lariga ega bo‘lgan landshaftlari, florasi va faunasi.

10. O‘rmonlar va uning landshaftlari, florasi va faunasi.

11. Daryolarning havzalari va ularning florasi va faunasi, sharsharalari.

12. Tog‘lar, tog‘ oldi zonalari va ularning tabiiy boyliklari, daralari, kan’onlari, flora va faunasi.

13. Arid(quruq iqlimli cho‘llar, yarim cho‘llar, sahrolar) zonalar va ularning landshaftlari, florasi va faunasi.

14. Suv omborlari, ularning sohillari, florasi va faunasi.

Yuqorida qayd qilinganlarning barchasi ekoturizmning resurslari hisoblanadi. Chunki, ekoturist tabiat va uning boyliklariga qiziqishi, zavqlanishi, dam olishi va tomosha qilishini o‘zi hal qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda va ekoturizmni dastlabki vaqtlarda rivojlantirish nuqtai-nazaridan hozirda ekoturizmning asosiy resurslari dunyoning barcha davlatlarida quyidagicha belgilangan:

1.Dunyo davlatlaridagi milliy parklar.

2.Dunyo davlatlaridagi tabiat qo‘riqxonalari, biosfera qo‘riqxonalari, tabiat rezervatlari.

3.Dunyo davlatlaridagi ekologik parvarishxonalar(ekologik, biologik pitomniklar)va tabiat buyurtmaxonalari(zakazniklar).

4.Dunyo davlatlaridagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar.

Ekoturizm resurslarining umumiy ro‘yxatining har bir nomlanishiga alohida-alohida to‘xtalish va izoh berish mumkin. Lekin, ularning barchasini institut va universitet talablari maktablarda, akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida o‘qib o‘rganishgan. Shuning uchun ham biz hozircha ekoturizmning xalqaro miqyosda qabul qilingan asosiy resurslarini o‘rganishimiz mumkin.

Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar (5.1-jadval) milliy

parklar, davlat tabiat qo‘riqxonalari, milliy va xalq bog‘lari ham alohida muhofaza qilinadigan hududlar tizimiga kiradi. Shuning uchun ham alohida muhofaza qilinadigan hududlarning ta’rifi milliy parklar va davlat tabiat qo‘riqxonalarining ta’rifiga tenglashtirilgan. Xorijiy davlat larda alohida muhofaza qilinadigan hududlardan chegaralangan tartiblarda turizmga, rekreatsiyaga ruxsat berilgan. Xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari bo‘yicha dunyoda alohida muhofaza qilinadigan barcha xil tabiiy hududlarning soni 10 mingdan oshadi.

Hozirda O‘zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar” bo‘limi tomonidan “O‘simlik olamini muhofaza qilish” bo‘limi bilan birgalikda 100 yosh va undan katta daraxtlarni hisobga olish va ularga “Davlat tabiat yodgorligi” maqomini berish uchun viloyat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalaridan kelgan axborotni jamlash va umumlashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ma’lumotlar asosida umumlashtirilgan jadval tuzildi va barcha daraxtlar hisobga olindi.[55]

Hozirgi axborotlarimizdan ma’lumki, hozirgacha vatanimizga kelib ketayotgan xalqaro turistlar Orol dengizi qoldiqlariga, Quyiamudaryo sohillariga, tog‘larimizdagi qadimiy shakllar va rasmlarga, ming-yillik daraxtlarga (chinorlar, archalar va boshq) va rekreatsiyali buloqlarga, sharsharalarga qiziqmoqdalar.

Mamlaktimizda ekoturizmni rivojlantirishda qayd qilingan ekologik resurslarni alohida - alohida ro‘yxatga olganimizda xalqaro turistlarni qiziqtiruvchi quyidagi ekologik turizm resurslar guruhlari tashkil topadi. Bu guruhlarda birinchi ahamiyatlisi O‘zbekistonning davlat tabiat qo‘riqxonalari va milliy parklari hisoblanadi (5.1, 5.2, 5.3, 5. 4-Jadvallar)[56].

[55]Milliy ma’ruza ma’lumotlari. 110 - 150 b.
[56].HayitboyevR., MatyaqubovU., Ekologik turizm,Samarqand,2010.-60 b.

5.1-Jadval

O‘zbekiston Respublikasining Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlari

METH toifasi	Toifa bo‘linmasi	Muhofaza qamraydigan daraja	Maqsadi
1.Davlat qo‘riqxonalari	Ajratilmaydi	Ekotizim	Fan va monitoring uchun tipik ekotizimlarni o‘zgarishsiz saqlab qolish
2.Davlat buyurtmaxonalari	Ajratilmaydi	Ekotizim	Tabiiy holida saqlash uchun muhofaza qilish.
3.Tabiiy bog‘lar	1.Milliy bog‘lar 2.Mahalliy tabiiy bog‘lar	Ekotizim	Tabiiy holda saqlash,muhofaza qilish va cheklangan holda foydalanish
4.Tabiat yodgorliklari	Ajratilmaydi	Noyob ob’ektlar	Noyob ob’ektni o‘zgarishsiz saqab qolish
5.Alohida tabiiy ob’ektlar va komplekslarni saqlash,ko‘paytirish va tiklash uchun hududlar	1.Buyurtmaxonalar 2.Tabiiy pitomniklar 3.Baliq xo‘jaligi zonalari	Alohida turlar va ular yashaydigan muhit	Turlarning muhitini saqlash va tiklash Turlarni saqlash va ko‘paytirish Suv organizmlarini saqlash va tiklash
6.Muhofaza etiladigan landshaftlar	1.Kurort zonalari 2.Rekreatsion zonalar 3.Suv muhofaza zonalari 4.Sohilbo‘yi polosalari 5.Suv ob’ektlarini sanitar muhofaza qilish zonalari 6.Yerusti va Yerosti suvlari shakllanishi zonalari	Alohida landshaftlar va ularning qismlari	Landshaftlarni sog‘lomlashtirish maqsadida tikla Landshaftlarni tiklash va saqlash Suv, sohil bo‘yi landshaftlarini suvni muhofaza qilish maqsadida saqlash
7.Alohida tabiiy resurslarni boshqarish uchun hududlar	1.O‘rmon xo‘jaliklari 2.Ovchilik xo‘jaliklari	Alohida resurslar	O‘rmon resurslarini saqlash va barqaror foydalanish Ovchilik resurslarini saqlash va barqaror foydalanish
7.Davlat biosfera rezervatlari	Ajratilmaydi	Barcha landshaft va biologik xilma-xillik	Hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun biologik xilma-xillikni saqlash va barqaror foydalanish

5.2-Jadval

O‘zbekiston Respublikasining davlat tabiat Qo‘riqxonalari

Qo‘riqxonalar	Ixtisoslashuvi	Maydoni, ga
1.Chotqol tog‘-o‘rmon-biosfera qo‘riqxonasi	Tog‘ o‘rmon landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni o‘rganish va muhofaza qilish.Qorqoploni muhofazasi.	35200
2.Hisor qo‘riqxonasi	Tog‘-o‘rmon landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni o‘rganish va muhofaza qilish.	80986,0
3.Nurota tog‘-yong‘oq o‘rmonlari qo‘riqxonasi	Tog‘-yong‘oqzor o‘rmonlari, Grek yong‘og‘i va yovvoyi arharlarning tabiiy populyatsiyalari muhofazasi.	21137,5
4.Surxon qo‘riqxonasi	Tog‘-o‘rmon landshaftlari. Burama shoxli echkining tabiiy populyatsiyalari tabiiy archazorlar muhofazasi.	23802,38
5.Baday- to‘qay biosfera rezervati	To‘qayzorlar. Xalqaro Qizil kitob»dagi Buxoro bug‘usining tabiiy populyatsiyasi, to‘qayzorlar o‘rmonlarining muhofazasi.	6462,1
6.Qizilqum qo‘riqxonasi	To‘qay- qumlandshaftlari. Buxoro bug‘usining tabiiy populyatsiyalari.	10311,06
7.Zomin qo‘riqxonasi	Archa o‘rmonlari va uning hayvonot olamini muhofaza qilish.	26848,6
8.Kitob geologik qo‘riqxonasi	Tog‘lar.Paleontologik- stragrafik ob’ektlarning muhofazasi. Xalqaro meridianning vatanimizdan o‘tishi belgisi qo‘yilgan.	5378,0

5.3-Jadval

O‘zbekiston Respublikasining tabiat Buyurtmaxonalari

Buyurtmaxonalar	Ixtisoslashuvi	Maydoni, ga
1.Arnasoy buyurtmaxonasi	Suv havzasi tabiati, Qushlar va qishlovchi qushlarning muhofazasi.	63300,0
2.Dengizko‘l buyurtmaxonasi	Suv havzasi tabiati, Qushlar va qishlovchi qushlarningmuhofazasi.	50000,0
3.Qoraqir buyurtmaxonasi	Cho‘l landshaftlari. Jayron va qishlovchi qushlarning muhofazasi.	30000,0
4.Qarnobcho‘l	Cho‘l.Tuvaloq, qorabovur va jayronlarni va	40000,0

buyurtmaxonasi	ularning yashash joylari muhofazasi.	
5.Qo‘shrabod buyurtmaxonasi	Cho‘l.Tuvaloq,qorabovur va jayronlarni va ularning yashash joylari muhofazasi.	16500,0
6.Nurobod buyurtmaxonasi	Cho‘l landshaftlari.Saksavulzorlar, tuvaloq va kobrani muhofaza qilish.	29000,0
7.Oqtog‘ buyurtmaxonasi	Cho‘l landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni muhofaza qilish.	2500,0
8.Saygachi buyurtmaxonasi	Cho‘l landshaftlari. Sayg‘oqlarni muhofaza qilish.	1000000,0
9.Sudoch’e buyurtmaxonasi	Suv havzalari tabiati. Baliqlar va ko‘chib o‘tuvchi qushlarni muhofaza qilish.	50000,0
10.Muborak buyurtmaxonasi	Cho‘l tabiati bioxilmaxilligi va yo‘rg‘a tuvaloqni saqlash, va ko‘paytirish.	219534

5.4-Jadval

O‘zbekiston Respublikasining milliy parklari

Milliy parklar	Ixtisoslashuvi	Maydoni, ga
Ugom-Chotqol milliy parki (Toshkent viloyatida)	G‘arbiy Tyan-Shan tog‘ ekotizmalaridagi tog‘ tabiiy resurslari muhofazasi, Xalqaro “Qizil kitob”dagi qor qoploni muhofazasi, rekreatsiya	574,6 ming ga
Zomin milliy parki (Jizzax viloyatida)	Pomir-Oloy tog‘ tizmasiga kiruvchi Turkiston tog‘ tizmasining G‘arbiy qismida joylashgan tog‘ archazor ekotizimlari muhofazasi	24110 ga
Zarafshon milliy parki (Samarqand viloyatida,2018-yil 18- mart)	Cho‘pon ota tog‘ining balandliklaridan boshlanib, Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘oqi bo‘ylab 47 kilometr masofada Zarafshon tustovug‘i va Chakanda dorivor daraxt hamda to‘qayzorlar tabiatini saqlash, muhofaza qilish va ko‘paytirish	2352 ga
Oq tepa milliy parki (Surxondaryo viloyatida, 2005-yil 9 mart)	Viloyatning noyob hayvonot va nobotot dunyosini tiklash va ko‘paytirish hamda O‘zbekiston va chet el ekoturizm sayohatchilarini yovvoyi tabiat bilan tanishtirish, dam olish, ov va baliq ovlash maskanini yaratish	1034 ga
Sarmishsoy milliy parki (Navoiy viloyatida, 21.04.1997)	Hudud sahro pasttog‘liklarini, ularning flora va faunasini muhofaza qiladi. Bu yerda qoyatoshlarga chizilgan 3000 dan ortiq qadimiy rasmlar-petrogliflar mavjud.	5000 ga

Vazirlar Mahkamasining “O‘rmon fondi yerlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bo‘yicha yana 5 ta milliy park tashkil qilindi (5.5-jadval).

5.5-Jadval

“Orolqum”, “Pop”, “Omonqo‘ton”, “Yuqori To‘palang” va “Bobotog‘” milliy tabiat bog‘larining yer maydonlari *(gektar)*

T/r	Milliy tabiat bog‘i nomi	Umumiy yer maydoni	Shundan:		
			qo‘riqxona zonasi	rekreatsiya zonasi	xo‘jalik maqsadida foydalanish zonasi
1.	“Orolqum” milliy tabiat bog‘i	1 000 000	700 000	200 000	100 000
2.	“Pop” milliy tabiat bog‘i	10 000	6 000	3 000	1 000
3.	“Omonqo‘ton” milliy tabiat bog‘i	1 500	1 000	400	100
4.	“Yuqori To‘palang” milliy tabiat bog‘i	27 851	18 000	6 851	3 000
5.	“Bobotog‘” milliy tabiat bog‘i	12 064	8 000	3 000	1 064
Jami:		**1 051 415**	**733 000**	**213 251**	**105 164**

Tayanch so‘zlar: milliy park, rezervat, biologik xilma-xillik, arid zona, Qizil kitob, ekotizim, biosfera.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savollar va topshiriqlar

1. Ekoturizm tushunchasini va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Ekoturizm jahon turizmida qanday shakllandi?
3. Xalqaro ekologik inqirozlarning ekoturizm bilan bog‘likligini tushuntiring.
4. Ekoturizmning vatanimizdagi rivojlanishini qanday baholaysiz?
5. Xalqaro ekoturizm-yili haqida prezentatsiyali ma’ruza tayyorlang.

VI BOB. ARXEOLOGIYA TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

6.1. Arxeologiya turizmi turi

Arxeologiya turizm - Samarqand, Buxoro, Xorazm, Termiz, Shahrisabz, Toshkent, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon shaharlarining qoldiqlari, qadimiy qalalar harobalari, ko‘hna qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari hayoti haqidagi arxeologiya topilmalariga qiziqish. Turistning, turistlarning arxeologiya makonlaridagi qazishma ishlariga, arxeologiya ilmiy tadqiqotlariga qatnashishga qiziqishi[57]. Keyinchalik, adabiyotlarni o‘rganish dan ma’lum bo‘ldiki, ilmiy adabiyotlarda ham arxeologiya turizmining tarifi shunday ekan. Arxeologiya turizmining quyidagi tavsiflari ham bor[58]:

1. Arxeologiya turizmi-tarixiy-madaniy turizmning bir yo‘nalishi bo‘lib, maqsadi turistni qadimiy arxitektura obidalari bilan tanishtirish, arxeologiya qazilmalariga qatnashtirishdir.

2. Arxeologiya turizmi-madaniy bilish turizmining alohida yo‘nalishi bo‘lib, turistni qadimiy madaniyat qoldiqlari, obidalari, qoyatoshlardagi rasmlar va shakllar, qoldiq qal’alar, g‘orlar, qadimiy uy ashyolari bilan tanishtiradi, arxeologiya ma’ruzalariga, yig‘inlariga taklif qiladi.

3. Arxeologiya turizmi-ilmiy turizmning alohida yo‘nalishi bo‘lib, turistni arxeologik ilmiy tadqiqotlarga, arxeologiya qazishma dala ishlariga qiziqtiradi va qatnashtiradi.

Haqiqatan ham arxeologiya turizmi quyidagi turizm turlari bilan birga ishlaydi:

1. Ilmiy turizm:
2. Ekskursiya turizmi;
3. Tarixiy-madaniy turizm;
4. Etnografiya turizmi;
5. Diniy turizm.

So‘ngi o‘n-yilliklarda arxeologiya turizmi Misr Arab respublikasi,

[57].Hayitboyev R., Sattarov A., Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Samarqand, 2009, 87 b.
[58] Trofimov Ye.N. i dr. Osnovi turizma: uchebnik. M.: Federalnoye agentstvo po turizmu, 2014. S. 26.

Gresiya, Hindiston, Ispaniya, Livan, Isroil, Turkiya davlatlarida kuchli rivojlanmoqda. Chunki, bu davlatlarda eramizdan oldingi ming-yilliklarda qurilgan qal'alar, ibodatxonalar va boshqa inshoatlarning qoldiqlari yaxshi saqlanib qolgan. O'zbekistonda ham xalqaro arxeologiya turizmini rivojlantirishning juda katta salohiyatlari bor. Bu salohiyatlar dan foydalanish uchun birichi navbatda saqlanib qolgan arxeologiya obidalarida arxeoturizm infratuzilmalarini yaratishimiz lozim. Ikkinchidan, arxeologiya ob'ektlarimizning reklamalarini va marshrutlarini xalqaro turizm bozoriga taklif qilishimiz kerak.

6.2. Arxeologiya turizmi turining resurslari

O'rta osiyoda antik davr yodgorliklari[59]**.** O'rta Osiyo hududida mil. av. IV–milodiy IV asrlarga oid yodgorliklarda keng miqyosda arxeologik tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston hududida M.Ye.Masson rahbarligida Termiz arxeologiya ekspeditsiyasi, Ya.G'.G'ulomov nomidagi Arxeologiya institutining arxeologiya guruhi O'zbekistonning barcha viloyatlarida, S.P.Tolstov rahbar ligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, Xorazm vohasida V.M.Masson rahbarligida Baqtriya ekspeditsiyasi, G.A.Pugachenkova rahbarligida Hamza nomidagi san'atshunoslik ekspeditsiyasi xodimlarining Surxondaryo viloyatidagi faoliyatlarini qayd etish mumkin. M.Ye.Masson rahbarligida Turkmaniston hududida Turkmaniston arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari arxeologik tadqiqotlarni olib bordi. Tojikiston hududida A.N.Bernshtam, Pomir-Oloy tog' tizimi atroflarida A.M.Mandelshtam, Beshkent cho'lida arxeologik tadqiqotlarni olib bordilar.

O'zbekiston hududida antik davr yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar. O'zbekiston hududida antik davrga oid yodgorlik larni o'rganish Surxondaryo hududida olib borildi. XX asrning 30-yillari boshlari va o'rtalarida M.Ye.Masson rahbarligidagi Termiz arxeologiya-kompleks ekspeditsiyasi xodimlari eski Termizning qal'a qismida qazish ishlarini olib borib, mil. avv. III asrga oid ashyolarni olishga muvaffaq bo'ldilar. Shu bilan birga, Kushon davriga oid

[59] www.xorazmiy.uz

Ayritomda qazish ishlarini olib bordi, natijada noyob ashyolar, ya’ni «arfa chalayotgan ayol» haykali topilgan.

1937–1940-yillarda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya- etnografiya ekspeditsiyasi Amudaryoning qurib qolgan o‘zani Aqchadaryo havzasidagi tarixiy obidalarni ro‘yxatga oldi, arxeologik haritaga joylashtirdi, Jonbos qal’a, Tuproq qal’a yodgorliklarida qazish ishlarini olib bordi. Ekspeditsiya a’zolari 1946-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan tarixiy davrda Qo‘yqirilgan qal’a, Ko‘zaliqir, Ayozqal’a 1,2,3, Qalaliqir, Quyisoy-2 yodgorlik larida keng miqyosda qazish ishlarini olib bordi. S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari keng miqyosda tarixiy obidalarni ro‘yxatga olishni olib bordi, natijada 400ga yaqin obidalar topilib, ular antik va o‘rta asrlarga oiddir.

Amudaryoning o‘ng sohili hududidagi qal’alar: Jonbosqal’a, Qo‘yqirilgan qal’a, Ayoz qal’a 1, 2, 3, Katta va Kichik Qirqqiz qal’a, Qul qal’a, Qumbosganqal’a, Dumanqal’a, Akshaxon, Tuproq qal’a, Qizil qal’a, Qo‘rg‘oshin qal’a, Aqchungul, Kuyuk qal’a, Gaur qal’a (Sulton Uvays tog‘i), Tukqal’a, Jildik qal’a, Burgut qal’a, Ellik qal’a, Uy qal’a, Katta Guldursun, Bozor qal’a, Angka qal’a, Pil qal’a, Odamli qal’a, Dosh qal’a-2 , Tuproq qal’a, Eres q al’a.

Amudaryoning so‘l sohili hududidagi qal’alar: Gurganch, Davkasgan, Shoxsanam, Shexrlik, Yarbekirqal’a, Zamaxshar, Ichanqal’a, Bo‘ldimsoz, Gaurqal’a (Xo‘jayli), Ketmenchi, Tuprokqal’a (Xiva), Tuproq qal’a (Yangiariq), Tuproq qal’a (Kushko‘pir), Kuna qal’a, Tuproqqal’a (Shovot), Katqal’a (Shovot) Kalajik, Xazorasp, Chingiztepa 1, 2, 3, Xumbuztepa, Tuprok qal’a (Qo‘ng‘irot), Sadvar, Jig‘arband, Elharos, Dargon, Gaur 1, 2 (Sariqamish havzasi) va boshqalar.

Yonboshqal’a – To‘rtko‘l tumani hududida joylashgan, to‘g‘riburchak shaklda (200x170 m. 3,4 ga) to‘rt tomonini ikki qatorli devor o‘rab olingan. Avval paxsadan keyin esa to‘rt tomoni teng xom g‘ishtdan tiklangan (40x40x10 sm). Devor pastki qismi qalinligi – 5 m, balandligi 5-10 m.

Qo‘yqirilgan qal’a – To‘rtko‘l tumani hududida joylashib, aylana shaklda qurilgan, hajmi 86,5 m mudofaa devor bilan o‘rab olinib, 9 ta kungur bilan mustahkamlangan. Kungurlar yon tomonga emas, devordan ancha baland qilib qurilgan. Yodgorlik markaziy qismida silindr shaklida (hajmi 42m) ikki qavatli inshoot qurilgan. Yodgorlikda astronomik kuzatishlar olib borilgan, keyingi tarixiy davrda qabristonga aylangan (loydan yasalgan ossuariylar ko‘plab topilgan).

Tuproqqal’a – Ellikqal’a tumani hududida joylashgan, to‘g‘ri burchak shaklda, umumiy maydoni – 17ga: Tuproqqal’a yodgorligining qurilishi tarixi masalasida turli fikrlar mavjud. Tuproq qal’ada eng qadimiy madaniy qatlamgacha tadqiqot ishlari olib borilgan emas, shuning uchun ham uning qurilish xronologiyasi munozarali bo‘lib qolmoqda. Bizningcha yodgorlik mil. av. IV asrda qurilgan bo‘lsa kerak. Saroyda bir necha “Katta zallar” ochilgan bo‘lib, ularning devorlarida turli haykal tasvirlari tushirilgan, topilgan ashyolarga qarab uyxonalari “Podsho zali”, “Askar zali”, “Bug‘u zali” nomini olgan. Saroy xonalaridagi katta ahamiyatga ega bo‘lgan ashyolardan biri teri va yog‘och taxtachalarga yozilgan 120 ga yaqin podsholik arxiv hujjatlari olinganligidir.

Xazorasp – Xorazm vohasining janubiy darvozasi bo‘lib, eng qadimiy shaharlardan biridir. Yodgorlik tekislikka qurilgan, uning rejalashtirilishi to‘rt tomoni teng (10,8ga), qadimda ikki qatorli devor bilan o‘rab olingan, ular o‘rtasida kengligi 2,10 m bo‘lgan yo‘lak o‘tgan. Qal’aning masjid qismida, shimoliy-g‘arbiy, g‘arbiy qismda mudofaa devorini kesishishlari olib borildi. Natijada shaharning qurilish tarixini mil. av. VII asr bilan belgilash imkonini berdi.

Katqal’a (Shovot) – Shovot tumanidagi Beruniy nomli shirkat xo‘jaligi Kat qishlog‘i hududida joylashgan, rejalashti rilishi noto‘g‘ri to‘g‘ri burchak, umumiy hajmi 10,8 ga, qadimda ikki qatorli devor o‘rab olgan bo‘lib, ular o‘z navbatida yarim aylanali kungurlar bilan kuchaytirilgan, ular o‘rtasidagi oraliq – 27 m. Yodgorlik mil. av. IV asrda qurilgan.

Akshaxon – Beruniy tumanidagi “Ozod” fermer xo‘jaligidagi qumliklar o‘rtasida tekislikka qurilgan. Rejalashtirilishi to‘g‘ri burchak

shaklda, umumiy maydoni–45 ga, qadimda ikki qatorli devor o‘rab olgan, kengligi – 6m. Devor bo‘ylab to‘g‘ri burchakli kungurlar, burchak qismida esa to‘rt tomoni teng kungurlar joylashgan. Yodgorlik mil.av. IV–milodiy III asrlarda Xorazmning poytaxti bo‘lgan.

Buxoro viloyatidagi antik davr yodgorliklari. Buxoro viloyati hududida R.Sulaymonov rahbarligida, Buxoro shahrining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini o‘rganish maqsadida A.R.Muhammadjonov rahbarligidagi arxeologik guruhlar tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Romish–I, II, III, Setalak, Buxoro keng miqyosda o‘rganildi. Buxoro– Zarafshonning Rudizar va Zarirud ismli ikki sohilida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan, alohida-alohida qishloqlar asosida paydo bo‘lgan. Shaharning yetti joyida keng ko‘lamda arxeologik tadqiqotlar olib borilgan, undagi madaniy qatlam 20 metrdan oshiq. Devor avval paxsadan, keyin to‘rt tomoni teng xom g‘ishtdan qurilgan, to‘g‘ri burchakli kungurga ega. Shahar uch qismdan iborat, ya’ni ark, shahriston va shahar atrofidan iboratb o‘lib, turli arixiy davrda shakllangan. Shu bilan birga, Kozimontepa,Chordira,Qo‘shrabod, Arabop-1, Arabop-2, Varaxsha-ning quyi qatlami, Xo‘ja bo‘ston, Beshtepa yodgorliklari o‘rganildi.

Qashqadaryo viloyati hududida antik davr yodgorliklari S.K.Kabanov, R.Sulaymanov rahbarligidagi arxeologik guruhlar Yerqo‘rg‘onda, Toshkent Davlat Milliy universiteti arxeologiya guruhi Keshda, M.To‘rabekov rahbarligidagi guruh Qarshi shaharida arxeologik qazish ishlarini olib bordi. Shu yodgorliklardan Yerqo‘rg‘onda keng miqyosda arxeologik qazishishlari olib borildi. Yerqo‘rg‘on–Nautaka viloyatining markazi bo‘lgan (A.Makedonskiy shu shaharda to‘xtagan degan taxminlar bor). Rejalashtirilishi aylana shaklda, umumiy maydoni–70 ga. Antik davrga oid qal’a devori, ark devori va ibodatxona o‘rganildi. Shu bilan birga, Qal’ai-Zaxoki Maron, Tillatepa, Kasantepa yodgorliklari ham o‘rganilgan.

Samarqand viloyati hududida antik davr yodgorliklari. Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Afrosiyob ekspeditsiyasi Afrosiyobda keng miqyosda arxeologik tadqiqotlarni olib bordi. Shaharning mudofaa devori va ichki qismida qadimiy madaniy qatlam o‘rganildi,

natijada yodgorlikning qurilishi mil.av. 2500-yilga oidligi aniqlandi. Bu yodgorlikda O‘zbekiston-Germaniya, O‘zbekiston - Fransiya arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari faoliyat olib bormoqdalar. R.Sulaymonov rahbarligidagi arxeologik guruh Ko‘ktepada arxeologik qazishishlarini olib borib, qadimiy shahar ekanligini aniqladi. Shaharning hajmi 100 ga, ark, ibodatxona, uy, mahallalar o‘rganilgan.

Farg‘ona vodiysida antik davryo dgorliklari. Farg‘ona vodiysida Yu. A. Zadneprovskiy, G. Abulg‘oziyeva, A.Anorbayev, B.Matbabayev, N. G.Gorbunova rahbarligidagi arxeologik guruhlar tarixiy obidalarda arxeologik qazishishlarini olib bordilar. Antik davrga oid 20 ga yaqin yodgorlik qayd etilgan, Xitoy yozma manbalaridagi ma’lumotlarga qaraganda, Farg‘ona vodiysida 70 dan ortiq shaharlar bo‘lgan.

Eylatan–rejalashtirilishi to‘g‘ri bo‘lgan shaklda, ikki qatorli devor bilan o‘rab olingan, umumiy maydoni – 200 ga. Ark mil.av IV – III asrlarga oid.

Mingtepa–rejalashtirilishi to‘g‘ri burchak shaklda, umumiy maydoni – 40 ga. Mingtepa yoki Marhamat shahri ikki qatorli devor bilan o‘rab olingan, devor o‘z navbatida to‘rtburchakli kungurlar bilan kuchaytirilgan, ular o‘rtasidagi oraliq 30–40 m. Shaharni Ershiga o‘xshatishadi.

Ko‘rgantepa–rejalashtirilishi to‘g‘ri burchak shaklda (250x230 m), 5,7 ga, qadimda devor bilan o‘rab olingan.

Axsikent-1 A, Axsikent 1 V – rejalashtirilishi to‘g‘ri burchak shaklda, umumiy maydoni 35 ga, mil.av. III–II asrlarga oid, qalinligi 5 m devor bilan o‘rab olingan.

Ershi –shaharning joylashish o‘rni mulohazali. N.Ya.Bichurin Ershini Qo‘qon shahri o‘rnida, A.N.Bernshtam esa Mingtepa yodgorligida degan fikrni bildiradilar. Yangi ma’lumotlarga qaraganda, Ershi – Eski Axsi degan fikrlar paydo bo‘ldi. Mil. av. III–I asrlarda Ershi Axsi o‘rnida bo‘lgan shahar 40 ga bo‘lib, ark ikki qismdan iborat bo‘lgan devor bilan o‘rab olingan, qalinligi – 5 m, balandligi – 3 m.

Quva (Kubo) – hozirgi Quva shahri markazida tepalik mavjud bo‘lib, mahalliy aholi o‘rtasida “Shahriston” nomi bilan ma’lum.

Yodgorlikni B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, V.A. Bulatova, I.Axrorov, Yu.A.Zadneprovskiy, B.Matbabayevlar arxeologik jihatdan o‘rgandilar. Yodgorlikni 1956-yildan Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligidagi arxeologik guruh o‘rganishni boshlagan. Yodgorlikning qurilishi milodiy I–IIIasrlarga oid bo‘lib, paxsa devor bilan o‘rab olingan. Tadqiqotchi B.Matbabayev shaharning dastlabki qurilish davrini mil. av. V asrga oid ekanligi to‘g‘risida xulosalar chiqargan.

Surxondaryo viloyati hududida antik davr yodgorliklari. **Eski Termiz.** 1936–1938-yillarda M.Ye.Masson rahbarligida Termiz arxeologiya ekspeditsiyasi shaharni arxeologik jihatdan o‘rganishishini olib bordi. Uning “qal’a” qismida qazishishlarini olib bordi va shaharning yoshini mil. av. III asr bilan aniqladi. 1981-yildan Arxeologiya institutining arxeologiya guruhi arxeologik qazishishlarini olib bordi. Keyingi-yillarda O‘zbekiston - Yaponiya arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Eski Termizda arxeologik qazish ishlarini olib bormoqda, olingan natijalar shaharning qurilish davri mil. av. V asrga oidekanligini isbotladilar.

Dalvarzintepa–Sho‘rchi tumani hududida joylashgan, to‘g‘ri burchak shaklda, umumiy maydoni – 30 ga, qadimda to‘rt tomoni devor bilan o‘rab olingan, devor o‘z navbatida to‘g‘ri burchakli kungurlar bilan o‘rab olingan, ular orasidagi maydon 27–30 m. Yodgorlik 1967-yil L.I.Albaum tomonidan topilib, 1970-yildan boshlab G.A.Pugachenkova rahbarligidagi Hamza nomli san’atshunoslik institutining arxeologik guruhi yodgorlikda tekshirishishlarini boshlab yubordi. 1971-yilda Dalvarzintepa uy xonalaridan birida kichik tuvakchada oltindan yasalgan 115 ta ashyolar topilgan. Ular xotin-qizlarning bezaklari, ya’ni bilaguzuklar, baldoq, tumor, turli shakldagi buyumlardan iborat bo‘lgan.

Zartepa–Surxondaryo viloyati Angor tumani hududida Sherobod-Termiz yo‘lining o‘ng tomonida 200 m uzoqlikda joylashgan. Rejalashtirilishi to‘rt tomoni teng, umumiy maydoni – 16 ga. 1972–1974-yillarda Q.Sobirov rahbarligidagi guruh Zartepaning mudofaa tizimini o‘rganishishlarini olib borib, 4 ga qurilish davridan iborat ekanligini aniqladi. Shaharning markazida saroy, sharqiy qismi

devorining ichki qismida budda ibodatxonasi qoldig‘i o‘rganildi. Shaharning qurilishi mil. av. I asrda, uning inqirozi esa milodiy IV asrga oid bo‘lgan.

Qoratepa – Eski Termiz hududida joylashgan, 1972-yildan B.Ya.Staviskiy rahbarligidagi Moskva san’atshunoslik muzeyi arxeologik guruhi yodgorlikda qazish ishlarini olib bordi, natijada budda ibodatxonasi topib o‘rganildi.

Fayoztepa – Eski Termiz hududida joylashgan. L.I.Albaum rahbarligida arxeologik guruh yodgorlikda qazish ishlarini olib bordi. Natijada budda haykallari, buddistlar to‘planadigan joy o‘rganildi. Bu yodgorliklardagi O‘zbekiston–Yaponiya davlatlari birlashgan arxeologik guruhi qazish ishlarini olib borishmoqda, topilgan ashyolar bir necha marta Yaponiyadagi ko‘rgazmada namoyish qilingan. E.Rtveladze tomonidan Surxondaryo viloyati bo‘ylab arxeologik qidiruv ishlari olib borilib, 130 dan ortiq yodgorliklar viloyat arxeologik haritasiga qayd etilgan, ularning aksariyati antik davrga oid bo‘lgan.

Toshkent viloyati hududida antik davr yodgorliklari. Viloyat hududidagi tarixiy obidalarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi arxeologiya institutining Yu.F.Buryakov, M.I.Filanovich, K.Abdullayev, X.Duke rahbarligidagi arxeologik guruhlari qazish ishlarini olib bordilar, natijada antik davrga oid ashyolar olindi.

Shoshtepa – Salor kanali sohilida joylashgan, to‘g‘ri burchak shaklda 300x150 m, 4,5 ga. 1978–1979-yilda yodgorlikning janubi-sharqiy qismida joylashgan arkda qazish ishlari olib borildi, natijada III qurilish davri aniqlandi. Arxeologik ashyolarga qarab Shoshtepaning xronologik davri aniqlandi.

Shoshtepa I - (mil.av. V – IV asrlar)

Shoshtepa II - (mil.av III – II asr boshlari)

Shoshtepa III - (mil.av II – I asrlar)

Kanka – Ohangaron daryosi sohilida balandlikka to‘g‘ri bo‘lmagan to‘g‘ri burchak shaklda qurilgan, umumiy maydoni 150 ga. Qadimda devor bilan o‘rab olingan. Shimol tomon burchagida ark

joylashgan. Devor avval paxsadan, keyin xom g‘ishtdan tiklangan. Devorda aylana shaklda kunguralar mavjud, uning hajmi 9 m.

O‘zbekistonning cho‘l mintaqalaridagi eng yirik qadimiy. Arxeologik ob’ektlar:

1.1. Eski Buxoro-Vardanza shahri.

1.2. Qadimgi Nurota qal’asi.

1.3. Rahimxon(Feruz)ning eski saroyi qoldiqlari.

1.4.Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududlarida eramizdan oldingi 20 dan ziyod qadimiy shaharlar va qal’alarning qoldiqlari yaxshi saqlangan va hozirda turizmda foydalanilmoqda. Bu shaharlar va qal’alarning eng kattalari quyidagilar:

1.5. Tuproq qal’a.

1.6. Qo‘y qirilgan qal’a.

1.7. Yakkaparson qal’asi.

1.8. Qozoqli shahri harobalari.

1.9. Tog‘ qal’a.

10. Ayoz qal’a.

11. Ust-yurtning tosh haykallari.

12. Guldursin qal’asi.

13. Bozor qal’asi.

14. Qum bosgan qal’asi.

15. Kanga qal’asi.

16. Gaur qal’asi.

17. Burgut qal’asi.

18. Janbas qal’a.

19. Baraktam qal’asi.

20. Shox sanam qal’asi.

21. Daryalik qal’asi.

22. Kyat qala’si.

23. Qavat qal’asi va boshqalari.

Xorazm tarixini jahonda tanilgan, mashhur olimlar- Yahyo G‘ulomov S.P.Tolstov, A.Yu.Yakubovskiy, M.V.Voyevodskiy, Yu.A.Rapoport, V.A.Livshits, Ye.Ye.Nerazik, U.Karimov, P.G.Bulgakov va ularning shogirdlari, taniqli olimlar - S.K.Kamalov,

V.N.Yagodin, G.Xo‘janiyozov, M.Mambetullayev, S.Baratov va boshqalar o‘rganishgan. Ularning umumiy xulosalari bo‘yicha bu qal’alar eramizdan oldingi IV-II asrlardagi Xorazmshohlarning saroylari va shaharlarning markazlari ekanligi arxeologik tadqiqotlar natijasida tasdiqlangan. Yana bir ishonchli taxminlar bo‘yicha bu qal’alar va shaharlar o‘tmishda Amudaryo o‘zanini o‘zgartirib Kaspiy dengiziga quyila boshlagandan keyin, suvsizlik tufayli harobalarga aylangan

Arxeologiya turizmiga qiziquvchilarni quyidagi ikki guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq qadimiy inshoatlarni izlash, topish, ularning hozirgacha saqlanib qolgan qoldiqlarining yoshini aniqlash, qurilish usullarini, qurilish ashyolarini aniqlash va ushbu joylarda moziyda yashagan xalqlar, ularning madaniyati, dini va yashash tarzi haqida xulosalarni keng ommaga e’lon qiluvchi tarixchi olimlar. Hozirda dunyoning yangi 7 mo‘jizasiga kiritilgan inklarning Machu-Pikchu tosh shahri shu tariqa topilgan edi. Bunday joylarning mavjudligi haqidagi afsonalar, qadimiy qo‘lyozmalar ko‘pincha xalqaro fondlar, davlatlar va tarixga qiziquvchi boylarning mablag‘ ajratishidan keyin izlanadi, tekshiriladi, natijalar dunyo matbuotida e’lon qilinadi.

2. Arxeologik ob’ektlarning hozirgi holatini ko‘rishni hohlagan qiziquvchilar.

O‘zbekistonning cho‘llaridagi qadimiy inshoatlarning saqlanib qolgan harobalari hozirning o‘zidayoq 80 dan ziyod mamlakatlarning (O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati departamentlari ma’lumotlari) turistlarini jalb qilmoqda. Bu haqida quyidagi ikkita xalqaro turistik marshrutning qisqacha tavsiflarini keltiramiz.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistondagi eng yirik qadimiy, tarixiy obidalar joylashgan, Toshkent-Samarqand-Buxora-Shahrisabz-Xiva shaharlari ga 2 ta yirik- *“Tarixga sayyohat”* va *“Tarix va hozirgi davr”* deb nomlangan ichki va xalqaro turizmga mo‘ljallangan turistik marshrut (havo, avtotransporti va tuya transporti) muvaffaqiyat bilan ishlamoqda.

“Tarixga sayyohat” turistik marshrutida turistlar Xiva shaxridagi tarixiy obidalarni ko‘rib chiqandan keyin, ertasiga Xiva shahridan 95 km masofadagi “Ayoz qal’a” turistik lageriga (Qoraqalpog‘iston Respublikasida) taklif qilinadi. Turistlar uchun bu joylarda qadimiy “Guldursin qal’a”, “Qo‘yqirilgan qal’a”, “Bozor qal’a” va “Qumbosgan qal’a”larga ekskursiyalar uyushtiriladi.

Tunash “Ayoz-qal’a” harobalari yaqinida joylashgan “Ayoz-qal’a” turistik lagerida. Bu lager qoraqalpoq qora uy-yurtlaridan qurilgan. Tushlikdan kiyin turistlar tuyalarda “Ayoz-qal’a” ko‘liga borishadi. Qechqurin turistlarga qoraqalpoq miliy folklyor ansabli konsert berishadi. Ertasiga turistlar avtotransportda Qizilqum orqali 500 km lik yo‘l bosib Buxora shahariga yetib kelishadi. Buxoro shahridan turistlar Samarqandga yo‘l olishadi. Xuddi shu marshrut ”Tarix va hozirgi davr” xalqaro marshrutida ham takrorlanadi.Bu marshrutlarga batafsil to‘xtalishimizning sababi shundaki, marshrutda qatnashgan ichki va tashqi turistlarda qadimgi Xorazm davlatining harobalari(qal’alari), cho‘pon uyi-yurtlarda tunash, tuyalarda sayr qilish va avtotransportda Xivadan Buxorogacha Qizilqum cho‘li orqali kelishi unutilmas ta’surotlar qoldirgan.

Bundan xulosa shulki, cho‘llar va adirlardagi turistik resurslar ishlamoqda va turistlarni o‘ziga chorlamoqda. Bu yutuqning asosiy sababi shundaki, yuqorida qayd qilingan talablar bu ikkala turistik marshrutda to‘liq bajarilgan. Ikkala marshrutning ham bir xil turistik ob’ektlarni ko‘rsatishi vatanimizdagi tarixiy shaharlar va Orol dengizi bo‘yiga chet ellik turistlardan ushbu marshrutlarga talablarning ko‘pligi hisoblanadi.

Arxeologiya turizmining eng ko‘p resurslari Surxondaryo viloyatida ro‘yxatga olingan.Surxondaryoda Kushon davriga oid arxeologik yodgorliklar, Axomoniylar va Yunon-Baqtriya davriga oid 40ta shahar-manzil, Kushon davriga oid 120ta shahar va qishloqlarning qoldiqlari topildi. Bu viloyatdagi Ayritom, Dalvarzintepa, Teshiktosh, Xolchayon, Beshiktepa, Kampirtepa, Fayoztepa, Chog‘oniyon davlati qal’alari, eski Termiz shahari qoldiqlari, qadimiy Axsikent shahari harobalari, Varganza Samarqanddagi Afrosiyob shahari,

Xorazmshoxlarning eramizdan oldingi davrlarda qurgan saroylari, qal’alari asosida vatanimizda xalqaro arxeologiya turizmini rivojlantirishimiz mumkin.

Tayanch so‘zlar: milod, miloddan avval, Xorazmshohlar, qal’a, ark, madaniy qatlam, antik davr, ekspeditsiya.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Arxeologiya va arxeologiya turizm tushunchalari nimalardan iborat?.

2.Arxeologiya turizmining maqsadi va vazifalarini, ob’ektini tushuntiring.

3.Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarid qanday arxeologik yodgorliklar bor?.

4.Samarqand va Buxoro viloyatlarida qanday arxeologik yodgorliklar bor?.

5.Qoraqalpog‘iston arxeologik yodgorliklarining qadimiyligi sabablarini tushuntiring.

VII BOB. REKREATSIYA TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

7.1. Rekreatsiya turizmi turi

Rekreatsiya turizmining maqsadi - insonning ruhiy va jismoniy jihatdan tiklanishi sharoitlarini yaratishdir. Bu o‘rinda qisqa muddatli rekreatsiyadan doimiy foydalanish tizimi rekreatsiya turizmini hosil qilishi alohida ta’kidlanadi.

Rekreatsiya turizmining vazifasi-jamiyatning har bir a’zosini jismoniy va ruhiy jihatdan qayta tiklash, insonning jismoniy holatini dam olish yo‘li bilan oldingi holatiga qaytaruvchi turistik rekreatsiyali tizimlarni yaratishdan iboratdir. Shuning uchun ham turistik rekreatsiyali tizimlarni yaratish va bu tizimlarda rekreatsiya sharoitlarini tashkil qilish rekreatsiya turizmini rivojlantirishdagi eng dolzarb muammolar dan hisoblanadi. Rekreatsiyali turizm tizimlarini yaratishda albatta turizmda rekreatsiya faoliyatni hisobga olish va unga asoslanish birinchi navbatda talab qilinadigan turizm rekreatsiyali infratuzilmalarni ishlab chiqishni kun tartibiga qo‘yadi.

Rekreatsiyali faoliyat: birinchidan insonning madaniy-ijtimoiy tizimidagi standartlarga mos keladigan o‘z jismoniy kuchlarini tiklashga mo‘ljallangan turli-tuman dam olish faoliyati; ikkinchidan, insonning rekreatsiya faoliyatiga yo‘naltirilgan, sog‘ligi va jismoniy holatini qayta tiklashga qaratilgan o‘zidan chiqgan rekreatsiya faoliyati tashabbusi hisoblanadi.

Rekreatsiya turizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy–iqtisodiy hayotidagi ahamiyati. Hozircha ilmiy tadqiqotlarda rekreatsiyaning jamoaviy faoliyatlarini tasniflash amalga oshirilmagan. Ko‘plab olimlar, ayniqsa geograflar rekreatsiyani betakror tabiat bag‘ridagi qisqa dam olish deb ta’riflashgan.

O‘tgan asrning 70-yillarida mamlakatimizning geograf olimlari respublikamiz xududlariga rekreatsiyali baho berish va rekreatsiyada foydalanishda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Bu tadqiqotlar asosan O‘zbekistonning tog‘ va tog‘ oldi mintaqalarida qisqa muddatli dam olish, rekreatsiya manzillarini yaratishga

bag‘ishlangan. Shu nuqtai-nazardan bizda rekreatsiya deganda faqat tabiatning so‘lim go‘shalarida qisqa muddatli dam olish tushinilishi lozim.

Hozirgi vaqtda rekreatsiya butunjaxon turizmida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yetakchi yo‘nalishga aylanib bormoqda. Chunki, globallashuv jarayonida insonning ruhiy va jismoniy dam olishi turizmning asoslari hisoblanadi. Biz faqat rekreatsiyaning asl mohiyatini bilganimiz holda aholining dam olishidagi asosiy yo‘nalishlar, manbalar, ob’ektlarini aniqlashimiz, respublikamiz aholisining ruhiy va jismoniy dam olishi hozirgacha qanday amalga oshirilgan, aholi ruhiy va jismoniy dam olishda qanday ob’ektlarni tanlagan va tanlanmoqda?.

Hayotimizdagi eng ko‘p voqe’liklar va jarayonlarda ham, ilm-fanda ham eng ko‘p ishlatiladigan “dam” va “bo‘sh vaqt” atamalari hisoblanadi. Bu so‘zlar biri-birini to‘ldiradi,biri-biriga yaqin,lekin ma’no jihatidan maxsus adabiyotlarda biri-biridan ma’lum bir masofada ajralib turadi. “Dam” so‘zi ma’lum ma’noda chegaralangan, qaram so‘z. Bu so‘zning ma’nosi «mehnat» so‘zi bilan birgalikda ancha oydinlashadi. Ya’ni mehnatsiz dam bo‘lmaganidek, dam ham mehnatsiz yuzaga chiqmaydi.

Mutlaq mehnat tananing bioenergiyasini yo‘qotadi va tana organizmini sog‘lomlik bahosidan kasallik inqiroziga, hatto o‘limga ham olib keladi. Bu inqiroz yo‘lida unga charchoq, holsizlanish qarama-qarshilik qiladi-bu dam olishdir. Faqatgina dam olish va tiklanishdan tana organizmi ishga yaroqlilik qobiliyatini saqlab qoladi. Yana shuni ham ta’kidlash kerak-ki, patalogiyadagi mutlaq dam olish ham tana organizmi uchun xavfli hisoblanadi. Charchoq, holsizlanish faqatgina mutlaq mehnatdan emas «faqat dam» olish natijasida ham kelib chiqadi, tana organizmi kuchsizlanib qoladi.

Shuning uchun ham organizmdagi moddalar almashinuvini, bioenergiyani saqlash uchun mehnat qilish talab qilinadi. Mehnat va dam olishni juft, biri-biridan ajralmagan holda qabul qilish insonning biologik tur sifatida yashash shakllaridan eng muhimi hisoblanadi. “Dam”ga nisbatan “bo‘sh vaqt” tushunchasi o‘zida ijtimoiy mazmunni

anglatadi, insonning jamoadagi o‘rni va ruhiy holatini bildiradi.

Bo‘sh vaqtning tavsifi odamlarning hayoti faoliyati jihatlari bilan, estetik dunyoqarashlari, ijtimoiy me’yorlari va qoida-yu-huquqlari, an’analari va urf-odatlari bilan bog‘lanib ketadi va bu xususiyatlarni umumlashtirishaga, saqlashga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo‘sh vaqtning klassik, gumanistik konsepsiyasi ruhiy g‘oya sifatida o‘zining boshlanishini qadimgi grek falsafasida topadi. Bo‘sh vaqt Aristotel asarlarida ham rivojlantirilgan.

Bo‘sh vaqt- insonni aqliy va ruhiy dam oldiruvchi, axloq-odob, ma’naviy jihatdan yuqoriga ko‘taruvchi, fan bilan shug‘ullanish, san’at bilan bahramand bo‘lish imkoniyatlarini yaratadi.Bo‘sh vaqtning quvonchi- bekorchilik emas balki, shaxsning kamol topishida, ichki va tashqi hissiyotlari, tuyg‘ularini takomillashtirishda va rivojlantirishda eng bebaho va e’zozli vaqt hisoblanadi. Bu esa Aristotel bo‘yicha erkin insonning yashashidagi bahoni va oliy maqsadni tashkil qiladi.

“Shaharlarda aholining to‘planishi odamlarda rekreatsiyaga talabni kuchaytirdi va ular bu talabni-ehtiyojni qondirish uchun so‘lim tabiat va iqlimiy qulay joylarni izlay boshladi. Bu izlanishlar turistik harakatning hududiy joylanishini keltirib chiqardi. Natijada oddiy qishloqlar bo‘lgan Sopot, Kann, Monte-Karlo, Nitssa, Shamoni, Davoslar hozirga kelib halqaro turizm markazlariga aylandi”[60].

Germaniyalik olim Kol I.T.o‘zining - “Jamovaiy harakat va ular yaratgan ko‘ngil ochish xizmatlari va suv kurortlari” asarida dam olish eng mahsulli usuli *rekreatsiyani* amalga oshirish ekanligini mukammal tadqiq qilaganlardan biri hisoblanadi. Kol I.T. bo‘yicha “rekreatsiya” mehnatdan keyin imkoni boricha tabiat bag‘rida qisqa(asosan yakshanba kuni,yoki bir necha kunlar) muddatli dam olish hisoblanadi.

Rekreatsiya atamasi lotin tilida - “recratio” - “tiklanish” ma’nosini bildiradi. Fransuzlar bu so‘zni “recreation” deb yozishadi va tarjimasini - ko‘ngilxushlik, dam olish, ishdan xoli holda harakatlarni o‘zgartirish va bu harakatlarni amalga oshiruvchi manzillarning tavsiflarini keltirishni tushunadi. Ikkala holatda ham rekreatsiya atamasi insonning

[60].Kol I.G.-«Jamovaiy harakat va ular yaratgan ko‘ngil ochish xizmatlari va suv kurortlari», tarjima Yerdavletov S.R.Geografiya turizma: istoriya, teoriya, metodika, praktika.Almati,2000.-330 s.

hayoti faoliyatini tiklash (bo‘sh vaqtda) bilan birga o‘sha bo‘sh vaqtni o‘tkazish makonini, manzilini ham bildiradi.

Turizm faoliyati asosan bo‘sh vaqtda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham *rekreatsiya* va *turizm* so‘zlarining ma’nolarini ko‘rib chiqishda-vaqtni samarali o‘tkazish bo‘yicha-ularning biologik va ijtimoiy-iqtisodiy mazmunlarining mohiyatini anglab olishni talab qiladi. “Dam olish” va “bo‘shvaqt” har xil nisbatlarda- biologik va ijtimoiy mazmunga ega. Ya’ni, “dam olish” - ijtimoiy muhitda, “bo‘sh vaqt” biologik muhitda amalga oshiriladi.

Rekreatsiya keng chegaralarni hosil qiladi. Rekreatsiya qisqa muddatli (ish vaqtida qisqa muddatli dam olish) va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin (ta’tillar, bayramlar, hafta oxiridagi dam olish). Birinchisida ma’lum bir qolip-chegaradan chiqilmaydi (kundalik ishdagi qisqa dam olish). Ikkinchisida har kunlik bir xil odatiy faoliyat butunlay o‘zgaradi. Ya’ni rekreatsion faoliyat rekreatsion sharoitga boradi.

Turizmning ijtimoiy iqtisodiy mohiyati, uning ta’sir doirasining kengligi, ommaviyligi va ahamiyati-bularning hammasi turizmni tushinish iboralari – “dam olish”, “bo‘sh vaqt”, “rekreatsiya”, “turizm” to‘planib hozircha bita tushuncha-turizmni-tashkil qilmoqda. Lekin turistik faoliyat hamma vaqt ham rekreatsiya bo‘lmaganidan, rekreatsiya ham hamma vaqt turizm bo‘la olmaydi. Masalan, ishchanlik turizmi ishlab chiqarish talablaridan kelib chiqib asosan ish vaqtida bajariladi. Bu turizm. Bu yerda turizm ishchanlik turizmini, rekreatsiyani, bo‘sh vaqtni qamrab olgan. Bularning qisman uchrashuvi rekreatsiya turizmini tashkil qilmoqda.

“Rekreatsiya”, “rekreatsiya faoliyati” va “rekreatsiya xizmatlari” tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini anglashda-insonning dam olish faoliyati bilan bog‘lik hodisalarni tushunish lozim. Bu hodisalar esa insonning dam olish faoliyatining tasniflari deb tushintiriladi[61]:

1.Aniq jismoniy yuklama bilan bog‘langan faoliyat (sport bilan shug‘ullanish, sayrga chiqish).

[61].YerdavletovS.R.Geografiyaturizma.istoriya, teoriya, metodika, praktika.Almati,2000.-330 s.

2.Havaskorlik mashg‘ulotlari faoliyati (ovga chiqish, baliq ovlash, qo‘ziqorin va mevalar terish, har xil buyumlarni to‘plash-koleksiya qilish).

3.San’at dunyosi bilan bog‘lanish (teatrlarga, konsertlarga, muzeylarga, badiiy galereyalarga borish.

4.Intellektual faoliyat (o‘z ustida ishlash, gazetalar, jurnallar, adabiy kitoblar o‘qish, televideniya ko‘rsatuvlarini kuzatib borish).

5.O‘z qiziqishi va tanlashi bo‘yicha bo‘sh vaqtni o‘tkazish.

6.Faol ko‘ngilochish (o‘yinlar, raqs) va sust ko‘ngil ochish tomosha.

7.Qiziqish va qoniqish-zavq-shavq olish uchun sayohatga chiqish.

Yuqorida qayd qilingan dam olish turlari majmuali holda yuzaga chiqadi yoki biri-biri bilan bog‘lik holda faoliyat ko‘rsatadi, ayniqsa sayohat vaqtida biri-biri bilan bog‘liq holda birdaniga yoki ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham “rekreatsiya”, “rekreatsiya faoliyati” va “rekreatsiya xizmatlari” atamalari mehnat qilish xususiyatlari o‘zgarganda, bo‘sh vaqtdan foydalanish tarkibi va shakllari o‘zgarganda jismoniy jihatdan eng yaxshi dam-tinchlik emas, faoliyatning o‘zgarishi deb tushunilgandagina alohida–alohida ma’nolarga ega bo‘ladi.

Og‘ir mehnatdan keyin quvvatni tiklash, tiklanish uchun dam olish asosan yashash joyida amalga oshirilib kelinardi, hozir ham shunday. Asta-sekinlik bilan sutkalik, haftalik, oylik va-yillik mehnat qilishning to‘planib borishi natijasida inson o‘zini-o‘zi avaylashi nuqtai-nazaridan dam olishni tobora samaraliroq o‘tkazishni hohlaydigan va bu “samarali o‘tkazish” uchun moddiy-iqtisodiy sharoitlar yaratilganidan keyin sanatoriya-kurortlarni tanlay boshladi. Shuning uchun ham bo‘sh vaqtni samarali o‘tkazishni, insonning hayotiy faoliyatlaridan kelib chiqgan tanlash xususiyatlarining paydo bo‘lishiga – “rekreatsiya”, “rekreatsion faoliyat” deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, turizm tushunchasi rekreatsiya tushunchasiga nisbatan ancha tor ma’noni, tor doirani hosil qiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, insonning rekreatsiya faoliyati bo‘sh vaqt davomida amalga oshirilganligidan “dam olish” yoki “dam”

turizm, rekreatsiya,ekskursiya tushunchalaridan yuqorida turadi.

Dam olish rekreatsiya mashg‘ulotlaridan iborat bo‘lib, bu mashg‘ulot bilan uyda ham, uydan boshqa joyda ham shug‘ullanish mumkin. “Rekreatsiyada” inson albatda o‘z uyidan rekreatsiya makoniga borishi kerak. Bu borish o‘zida “turizm va ekskursiyani” birlashtiradi. Turizm esa+dam olish turi + rekreatsiya turi, aniqrog‘i - turizm rekreatsiyaning bir qismi. Ekskursiya ham, dam olish ham rekreatsiya-turizm.

Hozirda turizm sohasidagi tadqiqotchilar, turizm ta’limidagi tadqiqotchilari nsonning “rekreatsion faoliyat” atamasini ko‘proq ishlatishmoqda. “Rekreatsion faoliyat” ruscha va o‘zbekcha so‘zlardan iborat bo‘lganligidan, ikkinchidan “rekreatsion faoliyat”- insonning “rekreatsiya faoliyati”ni anglatgani uchun- “rekreatsiya faoliyati” atamasini ko‘proq adabiyotlarga kiritishimiz to‘g‘riroq bo‘ladi. Agarda ikala atamani ham ishlatsak har ikala atamaning rekreatsiyadagi turli tavsiflarni yaratishga to‘g‘ri keladi. Bunday tavsiflarni yaratishning iloji yo‘q. Chunki, bu ikkalaatamaning tavsiflari aynan bir xil hisoblanadi.

Insonning rekreatsiya faoliyatlarini tasniflashni izohlash uchun juda ko‘p hajmdagi ma’lumotlarni yozish mumkin. Chunki, inson rekreatsiyani turizmning turlari bo‘yicha ham tanlashi mumkin. Bunday holatda rekreatsiyaning faoliyatlarini tasniflash qayd qilganimizdek, juda katta hajmlarni oladi. Shuning uchun ham rekreatsiya faoliyatini jamoaviy tasniflash-guruhlash ancha tushunarli hisoblanadi. Rekreatsiyaning jamoaviy tasnif-guruhlari[62].[63].[64]:

1.*Rekreatsiyaning tibbiy-biologik faoliyati*: rekreatsiyaning tibbiy-biologik guruhi faoliyati-sanatoriya va kurortlarda davolanish va sog‘likni tiklashdan iborat hisoblanadi. Ya’ni, insonni rekreatsiya turizmi orqali sog‘lomlashtirish va dam oldirishda ushbu jamoaviy guruh yordam beradi (rekreatsiya xizmatlari).

2.*Rekreatsiyaning ijtimoiy-madaniy faoliyati;* rekreatsiya ning ijtimoiy - madaniy faoliyatlari (yuqorida dam olish tizimining

[62].YerdavletovS.R.Geografiya turizma. istoriya, teoriya, metodika, praktika.Almati,2000.-330 s.
[63].KuskovA.S.,GolubevaV.L.,Odinsova T.N., Rekreatsionnaya geografiya, KnoRUS, Moskva, 2010-500 s.
[64].Aleksandrova A.Yu.,Geografiya turizma.KnoRUS,Moskva,2010.-592 s.

yo‘nalishlarida keltirildi) natijasida ishchi kuchi qayta tiklanadi. Ayniqsa, ijtimoiy turizmda (imtiyozli rekreatsiya), shuningdek, madaniy rekreatsiyada ham ishchining mehnat qilish qobiliyati oshadi, kengayadi, asabiy holatlar kamayib, ko‘plab xavfli kasallanishning oldi olinadi.

3.*Rekreatsiyaning iqtisodiy faoliyati:* Rekreatsiyaning iqtisodiy faoliyati bir necha yo‘nalishda amalga oshiriladi:

-mamlakatning aniq bir hududida aniq xo‘jalik tarkibining rivojlanishi kuchayadi;

-rekreatsiya xizmatlari natijasida aholining ish bilan bandligi oshadi;

-rekreatsiya markazlarida aholining iqtisodiy daromadlari oshib boradi;

-xorijiy turistlarga rekreatsiya xizmatlari ko‘rsatishda valyuta tushumlari hosil bo‘ladi.

4.*Rekreatsiyaning siyosiy faoliyati:* Siyosiy jihatdan rekreatsiyaning faoliyati shundan iboratki, u xalqlarni tanishtiradi, yaqinlashtiradi va do‘stlashtiradi.

5.*Rekreatsiyaning ekologik faoliyati:* rekreatsiyaning ekologik faoliyatida inson tabiat bag‘rida dam olishi bilan birga tabiatni asrash va muhofaza qilishga hissa qo‘shadi.

“Rekreatsiya” va “rekreatsiya faoliyati” ehtiyojlari hayotiy vositalar va almashinuv, ishlab chiqarish kuchlari bilan bog‘liq va tashqi muhitning ob’ektiv omillari ta’siridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda shakllanadi.

Rekreatsiya va turizm. Hayot insonning bebaho boyligi hisoblanadi va uni avaylash insonning doimiy tashvishi, o‘yi fikridir. Insonning hayotiy faoliyati uni o‘rab turgan muhitlarda o‘tadi. Bu muhitlar uch guruhga bo‘linadi:

1. Tabiiy muhit (inson hayoti uchun resurslar).

2. Texnogen muhit (inson hayoti uchun yaratilgan ishlab chiqarish faoliyati).

3. Ijtimoiy muhit (insonning dam olishi, dovolanishi, intellektual faoliyati).

Har qaysi muhit ham ijtimoiy jamiyat munosabatlarining yig‘indisi, shakllanishidir. Bu shakllanishda ustivor belgilar yig‘indisini (kuchlilik, aqillilik, mug‘ombirlik, ayyorlik, sezgirlik va boshqalar) o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, insondagi ustivor belgilar yig‘indisi uning mehnat qilish faolligini belgilaydi. Mehnat faoliyati insondagi ustivor belgilar (resurslarni)ni tiklash uchun tez-tez, ba’zida belgilangan muddatlarda to‘xtatiladi-*dam olish*.

Insonning dam olishi o‘z navbatida uning hayot xavsizligini ta’minlaydi. Chunki, resurslarini tiklay olmagan inson organizmini uning o‘zi hohlagan hayot faoliyatiga ayniqsa to‘liq mehnat faoliyatiga qarshilik qila boshlaydi. Insonning yashash faoliyatidagi muhitlar (tabiiy, texnogen va ijtimoiy)ning o‘zaro munosabatlarida ham uning hayotga xavf soluvchi vaziyatlar, xodisalar va boshqa ko‘ngilsiz, salbiy jarayonlar uning o‘zi bilan yonma-yon yuradi.

- Tabiiy muhitda - oziq-ovqat mahsulotlarini olishda, o‘zining hayoti uchun zarur bo‘lgan xom-ashyolarni izlashda va olishda va hakozo faoliyatida kutilmagan, qo‘qisdan keladigan xavf-xatarga duch keladi. Tabiiy iqlimiy hodisalar (dovul, sel, yong‘in, harorat, sovuq va boshqalar), geologik hodisalar (zilzila, o‘pirilish, surilmalar va boshqalar), gidrologik hodisalar (suv toshqini, musson yong‘inlari, sunami, suv ko‘tarilishi, qurg‘oqchilik va boshqalar);
- Texnogen muhitda - inson o‘zi uchun tayyor moddiy ne’matlar, resurslar olishdagi qayta ishlovchilar (zavodlar, fabrikalar, sanoat ob’ektlari, qayta ishlov korxonalari va boshqalar) ham hayotga xavf soluvchi xavfli va zararli ta’sirlarga duch keladi;
- Ijtimoiy-intellektual muhitda-inson aqliy faoliyati mahsulotlarini ishlab chiqarishda yanada xavfli xatarlarga (qo‘rqish, asabiylashish, bosimning oshishi, a’zolar faoliyatining buzila borishi, ritmiklikning susayishi, uyqusizlik va boshqalar) duch keladi.

Insonning hayot faoliyati muhitlaridagi munosabatlarining barchasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan xavf-xatarlar va zararli omillar majmuasi mavjud. Inson moddiy va nomoddiy materiallar zaruratidan texnogen muhitga, oziq-ovqatga muhtojligi-dan tabiiy muhitga va o‘zini boshqarishi zaruratidan intellektual ijtimoiy

muhitga o‘zi borishga majbur bo‘ladi.

Qayd qilingan muhitlar bilan insonning munosabatlari natijasida va har uchala muhitdagi xavf-xatarlarning inson faoliyati bilan yonma-yon yurishi natijasida insonning sog‘ligiga “salbiy ta’sirlar” o‘ta boshlaydi. Salbiy ta’sirlarni seza boshlagan inson endi o‘z sog‘ligi hayoti “xavfsiz”ligini himoya qilishni boshlaydi. Ana shu himoya qilish vositalarini rekreatsiya turizmi beradi degan ilmiy va amaliy qarashlar xalqaro turizmda ustivor bo‘lib bormoqda[65,66,67,68].



7.1-Rasm. Tog‘ bag‘ridagi qadimiy ziyoratgohda ziyorat va rekreatsiya amalga oshiriladi

Hozirgacha O‘zbekiston turizmida rekreatsiya turizmini davolanish uchun sog‘lomlashtirish, sog‘likni tiklash muassasalarida texnika va dori-dormonlar vositasida tiklash ustivor tushuncha bo‘limoqda. Shuning uchun ham rekreatsiya turizmining asl mohiyati va mazmunini tahlil qilishning zarurati bor. Rekreatsiya turizmi Rossiyalik mutaxassislar tomonidan ancha yaxshi o‘rganilmoqda[69,70,].

Turizmdagi barcha turlarda turist o‘ziga xos sharoitlarda dam

[65].Aleksandrova A.Yu. Geografiya turizma.Moskva, “KnoRUS”, 2010, str. 508-525.
[66]. Kuskov A.S., Golubeva V.L., Odinsova T.N. Rekreatsionnaya geografiya, Saratov, 2010, str. 503.
[67].Yerdavletov S.R., Geografiya turizma. istoriya, teoriya, metodika, praktika. Almati, 2000, str. 8-65.
[68].Hall C.M.,Pfge S.J., The Geography of Tourizm and Recreation. London_N.Y.: Routledge, 1999.
[69].Nikolayenko D.V. Rekreatsionnaya geografiya. Moskva, 2001.
[70].Nikolayenko D.V. Kartograficheskiy metod issledovaniya v rekreatsionnoy geografii. Rekreatsionnaya geografiya. Saratov, 2004.str. 25-36.

oladi (7.1, 7.2-rasmlar). Masalan, tarixiy-madaniy turizmda ham ziyoratgoh turizmda ham shuningdek, ekologik va boshqa turizm turlarida ham. Bu turizm turlaridagi turistik faoliyatda dam olish harakat davomida, harakatdan to‘xtash vaqtida amalga oshiriladi.



7.2-rasm. Shu ziyoratgohda ziyorat qilish va bir kunlik dam olish (rekreatsiya)

Rekreatsiya turizmida esa turistning dam olishi deyarli jismoniy harakatsiz amalga oshiriladi. Ya’ni ekoturizmda ekoturist harakat jismoniy harakati bilan tabiatda sayr qiladi, ziyoratchi ziyoratgacha harakat qiladi, ziyoratdan keyin dam oladi va hakozo. Turist rekreant esa o‘z hohishi, istagi bo‘yicha ma’lum ma’noda to‘liq dam oladi. Shu nuqtai-nazardan rekreatsiyaning mehnat, bo‘sh (bekor) vaqtini ijtimoiy muhit mazmuni va rekreatsiyani biologik muhit mazmuni deb qabul qilish, bu muhitlar rekreatsiya turizmini hosil qilishni A. Yu. Aleksandrova yaxshi tushuntirgan. Shuningdek, chet ellik mutaxassislar ham mehnat, bo‘sh vaqt, rekreatsiya va turizm tushunchalarining o‘zaro munosabatlarini biri-biriga bog‘langan holda tushuntiradi. Lekin, bu yerdagi o‘zaro munosabatlar sal murakkabroq ko‘rinishda ifodalangan[71].

Xulosa qilganimizda *rekreatsiya* turizmdan ancha ustun turadi. Chunki, turizmning barcha yo‘nalishlarida rekreatsiya bor. Lekin,

[71]. Hall C.M., Pfge S.J., The Geography of Tourizm and Recreation. London_N.Y.: Routledge, 1999.

turizm rekreatsiyasiga asoslangan turizm yo‘nalishlarini boshqargani uchun uni “bo‘sh vaqt industriyasi” deb ham atashadi. Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning keng qit’aviy chegaralarda ekanligi va ommaviyligi- “mehnat”, “bo‘sh vaqt”, “rekreatsiya” va “turizm” tushunchalari bilan asoslanadi. Ushbu asosda turizm bilan rekreatsiya o‘rtasidagi farq ularning umumiy bir maqsadini ko‘zlaganligi bilan farqlanadi.

Rekreatsiya yuqorida qayd qilinganidek, kundalik turmush hayot kechirish chegaralarida qisqa muddatli dam olishni quvvatlaydi. Turizm esa ancha qisqa muddatli rekreatsiya va rekreatsiyaning elementlari bo‘lgan ko‘ngil ochar o‘yinlar, ermak topish, sayr qilish, dam olishni ommaviylashtiradi, shu bilan rekreatsiyani o‘zining muhim tarmog‘iga aylantiradi.

Qayd qilinganlardan ma’lum bo‘ladiki, turistik faoliyat hamma vaqt ham rekreatsiya bo‘la olmaganidan rekreatsiya ham hamma vaqt turizm bo‘la olmaydi. Chunki, ish bekor vaqt (bo‘sh vaqt)dan umuman ajratilgan va bo‘sh vaqt, rekreatsiya, turizm va ishchanlik turizmning o‘zaro bog‘langanligi natijasida “jiddiy bo‘sh vaqt” hosil bo‘lmoqda (ijodiy, intellektual boy ish qobiliyati, malakaviy bilimning oshishi, jamoatchilik ishidagi faollikni ishdan boshqa vaqtda amalga oshirilishini ta’minlaydi).

7.2. Rekreatsiya turizmining resurslari

Rekreatsiya turizmining resurslari deyilganda insonning dam olishi, jismoniy holatini tiklash uchun tabiat va inson yaratgan butun bir majmuali ob’ektlar tushuniladi.Rekreatsiya turizmining resurslari ko‘plab ilmiy adabiyotlar bo‘yicha quyidagilar hisoblanadi:

-tabiatdagi ob’ektlar: o‘rmon, dengiz, ko‘l, daryo, okean, buloqlar, tog‘lar, flora, fauna;

-inson yaratgan ob’ektlar: dam olishni tashkil qiluvchi, sharoitli ob’ektlar, diniy, ziyoratgoh ob’ektlar, istirohat parklari.

Tabiat muhofazasi, rekreatsiya va ekoturizmni rivojlanti rishda xalqaro Amerika modeli. Tabiatni muhofaza qilish bilan birga aholi rekreatsiyasini tashkil qilish bo‘yicha milliy park tashkil qilishni

birinchi bo‘lib Amerika Qo‘shma shtatlari boshlagan. AQSH hukumati 1872-yilda hozirda dunyoga mashhur Yellouston milliy parkini tashkil qildi. AQSH va Kanada davlatlari bu modelda foydalanishda insonning xo‘jalik faoliyati kuchayib borayotgan bo‘lsa ham, o‘z hududlari chegarasida milliy parklarning maydonlarini tobora kengaytirib bormoqdalar (7.2-rasm).



7.2-rasm. Tabiat muhofazasi, rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro Amerika modeli

Bu modeldagi milliy parklarni moliyalashtirish juda baland. Milliy parklarni saqlash uchun davlat ham, federal shtatlar ham mablag‘ ajratadi. Bunga qo‘shimcha bo‘lib xususiy mulkdorlar ham mablag‘ qo‘shishadi (milliy parklardagi rekreatsiya xizmatlarining yarmi xususiy sektorda). Shuning uchun ham Shimoliy Amerika modelidagi milliy parklar dunyodagi eng boy milliy parklardir. Milliy parkni rivojlantirishda Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanada hukumati o‘zaro teng shartnoma asosida hamkorlik qilishadilar, milliy parkdan

dam olish va ekoturizmda foydalanishning zamonaviy, yangi texnologiyalarini yaratadilar.

Xalqaro ekoturizm rivojida Amerika modelining ko‘plab davlatlarda ishlatilayotganligi bu modelning jahonda birinchi marotaba mamlakat aholisining dam olishini va rekreatsiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish edi. Eng muhimi, Amerika davlati mahalliy aholini ish bilan ta’minlashning, har bir hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishni jahondagi boshqa davlatlarga qaraganda juda erta anglagan va boshlagan edi. Ikkinchidan, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanada davlatlarining maydonlarining kattaligi, bu hududlarda aholining keng tarqalganligi, ovchilikning juda kuchayib borayotganligi va tabiatni va tabiat resurslarini muhofaza qilish xalqaro miqyosda kuchayib borayotganligi ham bu ikkala davlatning o‘zaro hamkorlikda jahonda birinchilardan bo‘lib milliy parklarni tashkil qilish va ulardan dam olish, tabiatni muhofaza qilishda ekoturizmni rivojlantirishning zarurligini o‘z vaqtida tushunib yetgani edi.

Tabiat muhofazasi, rekreatsiya va ekoturizmni rivojlanti rishda xalqaro Yevropa modeli. Birinchi Yevropa milliy parki 1909-yilda Shvesiyada tashkil topgan. Bu modelning o‘ziga xos afzalliklari Buyuk Britaniyada ishlab chiqildi. Bu modelda ishlash g‘arbiy Yevropa va Yaponiyada tashkil qilindi va tobora rivojlanib bormoqda.

Etibor qiling-birinchi Yevropa milliy parki Shvesiyada tashkil qilindi.Buyuk Britaniyada amaliy jihatlardan ishlab chiqildi. Yevropa va Yaponiyada sinab ko‘rildi va muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Ekoturizmni rivojlantirishda davlatlarning hamkor ligidan namuna olishimiz kerak.

Bu modelning asosiy xususiyatlari milliy parklarning hududlari kichikligi va aholining ekologik bilim va madaniyat yuqori darajadaligi bilan farqlanadi.Bu modelni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham transport, yo‘l kommunikatsiyalari va ekoturizm infratuzilmalari juda yuqori darajalarda tashkil qilingan.

Yevropa modelidagi milliy parklarning yana bir xususiyati shundaki, deyarli 50% milliy parklar xususiy sektorda. Milliy parklarning eng katta shiori–mamlakat aholisining sog‘ligini tiklash va

dam olish sharoitlarini yaratish hisoblanadi. Shuning uchun ham ichki ekoturistlar oqimi juda katta, lekin tashqi ekoturizm oqimi ham katta miqdorlarni tashkil qiladi.

Yevropa davlatlaridagi milliy parklarning tashkil qilinishi muhitini va sharoitini hisobga olsak, dastlab shunday omilga e'tibor berish kerakki, Yevropaliklar ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotda boshqa xalqlarga nisbatan ancha oldinga chiqib olgan xalqlardir.Ularning aholi eng zich joylashgan materikda yashayotganligi ilmiy-texnika rivojlanib borayotganligi uchun ham ikkinchidan, bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ongi va madaniyatining juda yuqori bo‘lganligi ham o‘z davlatlari rahbariyati oldiga tabiat muhofazasini dadil qo‘yganligi, o‘zlarining ham global ekologik muammolarning tobora kuchayib borayotganligi o‘z vaqtida tushunib olganliklari edi.



7.2-Rasm. Tabiat muhofazasi,rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishning xalqaro Yevropa modeli

Yevropa davlatlari o‘z davlatlari tabiati va tabiiy resurslarini saqlab qolishda va ekologik turizm rivojlantirishda o‘zaro hamkorlikni

tashkil qilishdi. Chunki, Yevropa davlatlari biri- biri bilan chegaradosh davlatlar hisoblanadi va Yevropa qit'asi tabiati tabiiy geografik mintaqalarni tashkil qilganligidan bu davlatlarning chegaralariga bo'sinmaydi. Shuning uchun ham bu davlatlar ekologik tizimlarni birgalikda va o'zaro hamkorlikda muhofaza qilishadilar. Shul nuqtai nazardan ham bu davlatlar ekoturizmni rivojlantirishda hech ikkilanmasdan AQSH va Yevropa ekologik modellariga yangi texnologiyalar kiritishib amaliyotda qo'llay boshladilar.

Tabiat muhofazasi, rekreatsiya va ekoturizmni rivojlanti rishda xalqaro park-rezervat modeli. Bu xalqaro modelning konsepsiyasi butunlay boshqacha–bu milliy parklarni moliyalashtirish davlat hisobidan emas balki, aksincha davlatni quvvatlashdir. Bu milliy parklarning faoliyat ko'rsatishdagi bosh prinsipi- o'z kuchiga ishonish, g'oyasi- o'zini-o'zi ta'minlashdir. Bu model XX asr o'rtalarida shakllandi va hozirda rivojlanayotgan davlatlarda keng yoyilib bormoqda (7.3-rasm).

Milliy parkga kirish bahosi juda past va shuning uchun ham ichki va tashqi turistlar juda ko'p tashriflar qilishmoqda. Rezervat park modelidagi eng muhim omil Yevropaliklarning ekologik ong va ekologik madaniyatining juda yuqori bo'lganligi bilan belgilanadi. Bu milliy park tizimining ishlashida juda katta ma'no bor. Ya'ni Yevropaliklar "o'z uyingni o'zing pokiza tut" shiorini ommaviy ravishda qabul qilganliklariga ko'plab o'n-yilliklar o'tdi. Yevropaliklarning o'zaro hamkorlikda mustahkam , birodarlikda ekanligini jahondagi xalqlar tarix saboqlaridan juda yaxshi bilishadi.

Ikkinchidan, Yevropada yashayotgan xalqlar hayotning har qanday muammolarini birgalashmasdan hal qilib bo'lmasligigni ham juda yaxshi bilishadi.

Uchinchidan, park rezervat tizimini tashkil qilish yo'li bilangina zamonaviy sanoati kuchli rivojlangan Yevropaning hozirgi tabiatini saqlab qolish va kelgusi avlodlarga yetkazish mumkinligini ular ancha erta angladilar.

Turtinchidan, tabiat va uning resurslarini saqlab qolish va muhofaza qilishning yo'llarini birinchilardan bo'lib tadqiq qilganlar

ham Yevropaliklar hisoblanadi. Shu o‘rinda qayd qilish lozimki, Yevropaliklar oilasida ekologik madaniyatni o‘qish–o‘rgatish maktabgacha tarbiya ta’limiga kiritilgan.

Beshinchidan,Yevropa davlatlaridagi maktablarda, boshlang‘ich ta’limda “O‘lkashunoslik”, “Tabiatshunoslik”, “Tabiatga ekskursiya” fanlarini o‘qitish o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab juda kuchaytirilgan. Yevropaliklar insonda tabiatga mehr va uni asrash-avaylash his-tuyg‘ularini bolalikdan o‘rganadilar.



7.3-rasm. Tabiat muhofazasi, rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishning xalqaro park-rezervat modeli

Rekreatsiya turizmning barcha turlarida bor. Rekreatsiya turizmidan boshqa turlardagi rekreatsiya to‘liq emas, majburiy rekreatsiya hisoblanadi. Masalan, tarixiy-madaniy turizmdagi turlarda

turistlar dastlab tarixiy-madaniy obidalarni ko‘rib tushlik qilishga majbur. Xuddi shuningdek, ziyorat turizmida ham ziyoratchilar dastlab ziyoratni amalga oshiradi, keyinchalik rekreatsiyaga o‘tadi. Turizmning boshqa turlari haqida ham shunday fikrlarni keltirish mumkin. Toza, majmuali rekreatsiya esa faqat tabiatdagi ekoturizm va rekreatsiya turizmida mavjud.

Shuningdek, ko‘pgina mutaxassislar sog‘lomlashtirishdagi pansionatlar, sanatoriyalar va kurortlarni ham rekreatsiya turizmi resurslariga kiritishadi. *Bu joylar rekreatsiya turizmining emas, turizmsiz rekreatsiyaning ob’ektlaridir.* Chunki, ko‘p hollarda odamlar sog‘ligini tiklash uchun majburiy ravishda borishadi. Ikkinchidan, bu ob’ektlardagi rekreatsiya ham qisman chegaralangan (birovga parhez, birovga dori-darmonlar, birovga jismoniy harakatlardan tortinish va boshq..) bu chegaralanishlar majburiy bo‘lganligi uchun bu tartibdagi sog‘lomlashtirishni rekreatsiya turizmiga kiritib bo‘lmaydi. Turizmning ham, turistning ham xalqaro tarifida *majburiy* so‘zi keltirilmagan.

Ikkinchidan, rekreatsiya va rekreatsiya turizmining asl mohiyati va mazmunini ruslar ham[72], bizlar ham[73] Amerikaliklardan qariyib bir asr keyin o‘rganmoqdamiz. Shu tufayli bu mavzu bo‘yicha xato va kamchiliklarning bo‘lishi tabiiy hol hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: parhez, rekreatsiya, dam, bekor vaqt, bo‘sh vaqt, milliy park, flora, fauna, model, hayot xavfsizligi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Insonga texnogen muhit qanday ta’sir qiladi?.

2. Insonga tabiiy muhit qanday ta’sir qiladi?.

3.Rekreatsiya faoliyatini va insonning rekreatsiyaga ehtiyojini tushuntiring.

4.Rekreatsiyaning inson intellektiga ta’siri bormi?

5.O‘zbekistondagi rekreatsiya resurslari haqida taqdimot tayyorlang.

[72]Preobrajenskiy V,S.Fiziko-geograficheskiye aspekti i problemi organizatsii otdixa./Geograficheskiye problemi organizatsii turizma i otdixa.Vipusk 1.M.Sentralnoye reklamno-informatsionnoye byuro «Turist».1975.-28 s.

[73] Ziyamuhamedov B. Rekreatsion geografiya va uning muammolari. Toshkent,”O‘zbekiston”,1983.-83 b.

VIII BOB. QISHLOQ TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

8.1. Qishloq turizmi turi

Sayyoramizda insoniyatning tarqqiyoti tarixi qishloqlar bilan bog‘liq. Dunyodagi kattayu-kichik barcha shaharlarning asoslari ham qishloqlardan boshlanadi. Mamlakatimizdagi qishloqlarning turistik resurslarini o‘rganish va turizmda keng foydalanish insonni yerga va elatlarga yaqinlashtiradi, vatanimizning xalqlari, tarixi, tabiati va geografiyasi bilan tanishtiradi.

Qishloq va ovullarimizning turli–tuman tabiat mintaqalarida va balandliklarda joylashganligi, shu sababdan bu qishloqlarda yashayotgan xalqlarning moziyning asrlari davomida saqlanib, ardoqlanib kelinayotgan, biri-biriga o‘xshamagan, takrorlanmas hayoti, yashash tarzi, milliy urf-odatlari, milliy mahsulotlar ishlab chiqarishi, milliy madaniyati va milliy o‘yinlari, milliy qadriyatlarni ko‘rish, o‘rganish o‘zligimizni anglashda juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, vatanimining tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti, ma’naviy-ma’rifiy hayoti qishloqlar bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Shuning uchun ham vatanimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov – *“Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada faravon bo‘ladi”*[74] - deb ta’kidlagan edi. Hozirda O‘zbekistonda 10865 ta qishloqlar bor[75].

XX asrning ikkinchi yarmida atrof-muhitni toza saqlab qolish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, sayyoraviy muammolarga aylanib ketganligi ma’lum bo‘ldi. Shu bilan birga insoniyatning tarixiy, madaniy merosini saqlash ham sayyoraviy chegaralarda kun tartibiga chiqdi. Ushbu dolzarb muammolar natijasida jahonda qishloq turizmi o‘zining rivojlanish bosqichini boshladi[76].[77].[78]. Mamlakatimizda ham, ayniqsa qishloq joylarimizdagi mavjud turistik

[74].Karimov I.A.,O‘zbekiston konstitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqorolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.Xalq so‘zi ,2009 yil 6 dekabr.
[75].Soliyev A.,Nazarov M.,O‘zbekiston qishloqlari.Toshkent. «Fan va texnologiya»,2009,210 b.
[76].Tourism. Development and Growth: the challenge of sustainability. London. 1998.246 p.
[77].Rural Tourism: Working for the Countryside. London.Countryside Agensi. 2000.151 p.
[78].Birjakov M.B.,Novikova O.A., Istoricheskiye predposilki derevenskogo turizma. Turisticheskiye firmi, 2002,№ 28.

resurslardan turizm faoliyatida keng foydalangan holda turizmni tashkil etish va rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda katta samaralar berishi isbotsiz jarayon. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2009-yilni “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi-yili”, 2013-yilni “Obod turmush-yili” deb e’lon qilishi qishloq turizmini rivojlantirishda katta imkoniyatlarni yaratib berdi.

Hozirgi kunda hukumatimiz qishloq joylarda yangi ish o‘rinlarini yaratish va bu omil orqali aholining yashash darajasini yaxshilashga katta e’tibor bermoqda. Bu yo‘nalishda qishloq joylarda turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning salohiyatli imkoniyatlari ham bor. Bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

-qishloq joylarda joylashish va ovqatlanishning shahardagiga nisbatan 2-2,5 marotaba arzonligi;

-qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi;

-ekologik toza oziq-ovqat turlarining mavjudligi;

-xalqimizning qadimiy milliy merosining saqlanib qolganligi;

-jozibador turistik resurslar, milliy belgilar, xususiyatga boy bo‘lgan xizmat turlarining ko‘pligi va rang-barangligi va boshq;

-milliy meros mahsulotlari ishlab chiqishning saqlanib qolganligi (milliy hunarmandchilik, ustachilik mahsulotlari va boshqa…).

Qishloq joylarda turizmni rivojlantirishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Shu sababli so‘ngi-yillarda qishloq turizmi dunyoning ko‘plab mamlakatlarda jadal ravishda rivojlanmoqda. Qishloq turizmini tashkil qilishda yuqorida qayd qilingan turizm turlarining barcha resurslari majmuali, birikkan holda ishlaydi va har qanday turistni ko‘proq muddatlarga ushlab qoladi. Shuning uchun ham Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirishga o‘tgan asrning 60-yillaridan kirishdi.

Hozirga kelib, Yevropa davlatlarida qishloq turizmidagi turistlarning oqimi 60 mln. turistni tashkil qilmoqda. Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya davlatlarida qishloq turizmi xizmatlarini ishlab chiqaruvchi 10 minglab turistik firmalar va turistik tashkilotlar muvaffaqiyat bilan ishlashmoqda. Biz mamlakatimizda qishloq turizmining mohiyati, maqsadi va vazifalarini tadqiq qilishga endigina

kirishayapmiz.

Jahonda qishloq turizmiga har bir davlatlar o‘zlaridagi imkoniyatlariga qarab har xil mazmunda qaramoqda. Masalan, Angliyada aholisi 7000 kishilik qishloqlarni qishloq turizmini rivojlantirish rejasiga kiritishadi, Avstriyada bu sonlik aholisi bo‘lgan qishloqlarni shahar turizmini rivojlantirish rejalariga qo‘shishadi. Shuningdek, qishloq turizmini, agroturizm ni Rossiyalik olimlar ekologik turizmning tarmog‘i deb bilishadi. Yevropa davlatlarida aksincha agroturizm-dehqonchilik bilan bog‘liq turizm, ekologik turizm esa tabiat bag‘rida bo‘lish va uni muhofaza qilishga ko‘maklashish deb belgilangan.

Vatanimizda qishloq joylardagi resurslardan turistik maqsadlarda foydalanishni majmuali tashkil qilish qulayligini hisobga olib yuqorida keltirilgan turizm turlarini jamlagan holda qishloq turizmi deb atasak, bu turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish ancha oson kechadi. Shuning uchun ham, qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirish tadqiqot larini boshlashdan oldin, dastavval qishloq turizmining mohiyatini, maqsadi va vazifalarini belgilab olishimiz lozim bo‘ladi.

Jahondagi ko‘plab davlatlarda “Qishloq joylardagi turizm” atamasi ham bor va ular qishloqlardagi turizm resurslarga bog‘liq holda turistik infratuzilmalarni yaratadilar. Bu holat ularda qishloq turizmining juda rivojlanganligini va ayrim–ayrim yo‘nalishlarni hosil qilganligini ko‘rsatadi. Biz uchun eng muhimi, qishloq turizmini rivojlantirish mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish asoslari ekanligini anglab olishimizdir. Ma’lumki, ichki turizm Butunjahon turizm tashkilotining tasnifi bo‘yicha bir mamlakat aholisining o‘z davlati hududlaridagi turistik faoliyati deb belgilangan.

Qishloqlardagi turistik resurslar ichki turizmning asosiy ob’ektlari hisoblanadi. Shuning uchun ham, AQSH, Kanada, Angliya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya kabi davlatlar dastlab (o‘tgan asrning 70-yillaridan) o‘z davlatlarida ichki turizmni rivojlantirganlar, butun aholini yangi ijtimoiy-iqtisodiy sohaga-turizm jarayonlariga ko‘p-yillar davomida tayyorlaganlar. Shu tariqa turizmdagi tadbirkorlik ayniqsa,

qishloq turizmidagi tadbirkorlik kuchayib ketgan. Lekin biz, ko‘proq holatlarda ichki turzmni ham xalqaro turizmni ham tarixiy obidalari bor shaharlarga sayohat deb tushunmoqdamiz.

Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirish zarurligining eng asosiy, dolzarb yana bir masalasini–shahar aholisining qishloqlarda dam olishini tashkil qilish deb tushunmog‘imiz lozim.Qayd qilganimizdek, dunyoda qishloq turizmin rivojlantirish orqali ichki turizmni so‘ngra xalqaro turizmni rivojlantirgan va jahon turizmida “lider” o‘rinlarni egallab kelayotgan AQSH, Kanada, Fransiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Avstraliya va Ispaniya davlatlari jahon turizmidagi hozirgi mavqe’lariga dastlab qishloq turizmini rivojlantirish orqali erishdilar.

G‘arbiy Yevropaning barcha davlatlari ham qishloq turizmini jadal rivojlantirishmoqda. Sharqiy Yevropa davlatlari ko‘p-yillar sobiq sovetlar ta’sirida bo‘lganligidan qishloq turizmini ishlab chiqish dasturlarini tuzaolmadilar.

Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirishning ***mohiyati–*** qishloqlarimizga ichki va xalqaro turistlarni jalb qilish asosida qishloqlarimizdagi obodonchilikni kuchaytirish, qishloqlarimiz aholisini xalqaro hamdo‘stlik jarayonlariga qo‘shish va qishloqlarimizni va qishloqlarimizda yashayotgan xalqimizni xalqaro miqyosda dunyoga ko‘rsatish hisoblanadi.

Qishloq turizmini rivojlantirishning ***maqsadi***–qishloq aholisining ish bilan bandligini qo‘shimcha imkoniyatlar asosida oshirish, qishloqliklarning ijtimoiy-iqtisodiy darajalarini oshirish, qishloq aholisi mahsulotlarining ko‘proq sotilishini ta’minlashdir.

Qishloq turizmini rivojlantirishning asosiy ***vazifasi***– qishloqlarda turizmni rivojlantirish tadbirkorligini tashkil qilish asosida qishloq turizmi xizmatlari va servisni, qishloq turizmi infratuzilmalarini yaratishdan iboratdir deb belgilasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Qishloq turizmi rivojlangan davlatlarning tajribalari va yutuqlarini o‘rganishdan ma’lum bo‘ldiki, qishloq turizmi qishloq aholisining ish bilan bandligini ta’minlash va qishloq hududlarini rivojlantirishda eng istiqbolli sohaga aylanib ulgurdi. Qishloq turizmi qishloqdagi aholi

uchun-bu o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash natijasida qo‘shimcha daromad olish, mahalliy hokimiyat va hudud uchun qo‘shimcha mablag‘larningkirib kelishi, mahalliy infratuzilmalarning rivojlanishi, mamlakat uchun mehmonxonalari mavjud bo‘lmagan shaharlar tashqarisida turizmni rivojlantirish, qishloqlar va shaharlar o‘rtasidagi tafovutlarga barham berish, turistlar uchun ekologik toza muhitda arzon narxlarda o‘ziga xos bo‘lgan dam olishdir.

Qishloq turizmini rivojlantirish quyidagi ko‘plab umumhududiy va milliy vazifalarni ham hal qilishi bilan davlat uchun juda muhim hisoblanadi[79]:

-kichik qishloqlarni va ularning aholisini, madaniyatini saqlab qolishi;

-qishloq aholisining yashash sharoitlarini yaxshilashi;

-qishloq aholisining daromadlarini oshirishi;

-qishloq yoshlarini o‘z qishloqlarida ishlab va yashab qolishiga sharoitlar yaratishi;

-qishloq aholisining milliy merosi boyliklarining saqlanib qolishi va rivojlanishi;

-milliy ishlab chiqarishning rivojlanishi;

-qishloq atrof muhiti va tabiiy resurslarining saqlanib qolishi;

-hududlarning tarixiy va madaniy merosining saqlanib qolishi.

Yevropadagi mamlakatlardagi qishloq turizmidagi turistik talab va takliflarning o‘sishi istiqbollarini tahlil qilganimizdan ma’lum bo‘ladiki, bu davlatlardagi 30 % shahar aholisi aynan qishloqlarda dam olish ham qishki mahsulotlarni g‘amlash orkali kishlok turizmini kuchli rivojlantirishning maqsadli yo‘nalish ekanligidan dalolat beradi. Qishloq turizmini rivojlantirishda jahonning ko‘plab davlatlari Yevropa modellaridan, dasturlaridan, strategik rejalaridan nusxa olmoqdalar. Chunki, hozirda qishloq turizmi faqat Yevropa davlatlarida barqaror rivojlanmoqda.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro modellar, tan olingan texnologiyalar va strategik rejalarni qo‘llash

[79]Карпова И.М., Организация селского туризма на базе крестянского (фермерского) Личного подсобного хозяйства и селскохозяйственних кооператива. Метод. реком.,М.: ФГНУ, «Росинформагротех», 2011.-122 с.

masalasini tahlil qilganimizda shunday xulosa kelib chiqadiki, ushbu modellar, texnologiyalar va strategik rejalarda biron bir qoyil qiladigan yoki hayratga tushadigan tomonlari yo‘q. Bu texnologiyalar va strategik rejalarda belgilangan jarayonlar va voqe’liklar, tashkiliy jihatlarni hech qiynalmasdan tashkil qilishimiz va bajarishimiz ham mumkin. Bu sohada eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda ijobiy o‘zgarishlar yaratadigan ushbu muhim sohani tashkil qilish va rivojlantirish rejalari, dasturlarini ishlab chiqish jarayon larini boshlashimiz kerak.

Yevropa davlatlarining qishloq turizmi o‘tgan asrimizning davomida hozirgi taraqqiyotiga erishgan. Qishloq turizmini tashkil qilishda 1970-yillarda dastlab Fransiyaning “Turizm va qishloq joylarni rivojlan tirish agentligi”, Avstriyada–“Avstriya fermerlik turizmi assotsiyasi”, 1990-yilda Yevropa Ittifoqining- “Qishloq joylarni majmuali rivojlantirish Umum Yevropa “Lider dasturi” tashkilotlari muvaffaqiyat bilan ishlab kelmoqda.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi tarkibida “Qishloq turizmi” bo‘limini tashkil qilishimiz zarur. Bu bo‘lim qishloq turizmini rivojlantirish uchun qo‘yidagi vazifalarni bajarishi qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi maqsadli yo‘nalish bo‘ladi:

- qishloqlardagi turizm resurslarining ro‘yxatini olish, ulardan ichki va xalqaro turizmda foydalanish darajalari, tasniflari, tariflari, tavsiflarini ishlab chiqish;
- qishloq turizmida atrof muhitni muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirish dasturlarini yaratish;
- qishloqlarda yetishtirilayotgan va ishlab ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlarning sifatini ko‘tarish va iste’molchini taklif qilish;
- qishloq turizmida marketingni tashkil qilish va talab-taklif-iste’molchi tizimidagi ishlarning strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- qishloq turizmining infratuzilmalarini yaratish usullarini ishlab chiqish va qishloq turizmi infratuzilmalarini yaratish.

O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish naqadar istiqbolliligi va hozirgi erkin bozor ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarining bajarilishida davlatimizning iqtisodiy siyosatiga mos kelishi quyidagi tahlillardan ham tushunib olish

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirish asosida qishloqlarimizdagi mavjud ishsizlikni yechish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqishni ko‘paytirish va sifatini oshirish, qishloqlarning iqtisodini ko‘tarish, savdoni tashkil qilish, milliy ishlab chiqarishni tashkil qilish, xalqaro hamdo‘stlikni kuchaytirish kabi muhim masalalarda katta yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Ikkinchidan, shaharlarimizda yashayotgan aholining dam olishini tashkil qilish, shaharliklarni qishloqlar bilan bog‘lash, ularning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qishki mavsumga g‘amlab olishi sharoitlarini yaratish, ayniqsa shaharlik bolalarning qishloqlarda hordik chiqarishini, tabiat bag‘rida bo‘lib tabiatni anglashni, ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirishimiz tabiatga mehr uyg‘otishimiz osonlashadi.

Uchinchidan, qishloq turizmini rivojlantirishda soliq tushumlarining ko‘payishini ta’minlash va ushbu mablag‘lar asosida qishloq joylarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish imkoniyat-lari paydo bo‘ladi.

To‘rtinchidan, qishloq turizmini rivojlantirish asosida qishloq tabiatini muhofaza qilish, tarixiy obidalarni muhofaza qilish, ta’mirlash, muqaddas ziyoratgohlarni obod qilish va ko‘kalamzor-lashtirish, ulardan xalqimizning erkin foydalanishini ta’minlash masalalari hal bo‘ladi.

Beshinchidan, jahon xalqlari qishloqlarimizda saqlanib qolingan va mustaqilligimiz tufayli tobora sayqallanib borayotgan milliy merosimiz, milliy san’atimiz va madaniyatimiz bilan yaqindan tanishadi. Nazariy jihatlardan olganimizda O‘zbekistonda qishloq turizmni rivojlantirishda davlat ahamiyatiga molik 3 ta manfaat va 3 ta siyosat hal qilinadi (8.1.1-rasm).



8.1-Rasm. Qishloq turizmni rivojlantirishda davlatimiz miqyosida 3 ta manfaat va 3 ta siyosatning hal qilinishi

8.2. Qishloq turizmi turining resurslari

Turizm resurslarining keltirilgan tasniflaridan keyin vatanimiz qishloqlaridagi turizm resurslari nimalar ekanligi aniq ayon bo‘ladi. Yana ham aniqrog‘i, qishloqlarimizda turist yoki turistlarni qiziqtiradigan barcha ob’ektlar (moddiy va nomoddiy ob’ektlar) qishloq turizmining resurslari hisoblanadi. Bu resurslarni quyidagi guruhlar bo‘yicha tasniflashimiz, tasvirlashimiz va ta’riflashimiz mumkin:

-tarixiy–madaniy turizmining resurslari–tarixiy obidalar, tarixiy joylar, arxeologik qoldiqlar, topilmalar; tarixiy joylar;

-milliy meros turizmining resurslari(xalqimizning milliy merosi boyliklari)–ana’naviy mahalliy hayot tarzi, milliy folklor, milliy urf-odatlar, milliy madaniyat va milliy san’at, turli marosimlar, milliy o‘yinlar;

-qishloq xo‘jalik–agroturizmning resurslari – qishloq bog‘lari, dehqonchilik, madaniy landshaftlar va qishloq xo‘jalik ishlari, polizchilik, fermer xo‘jaliklari, qishloqning o‘ziga xos ko‘rinishi va qurilishi;

-*Qishloqdagi diniy–ziyorat turizmining resurslari*–muqaddas qadamjo lar, aziz-avliyolarning qabrlari, shifobaxsh buloqlar, turli-tuman ziyorat goh joylar;

-*Qishloqdagi ekologik turizmning resurslari*–qishloq joylarning vatanimizning barcha tabiiy– geografik mintaqalarida (tog‘, tog‘ oldi, cho‘l, adir, suv havzalari) joylashganligi, qishloqlarning tabiati, mavsumiy iqlimiy xususiyatlar, tog‘lar, adirlar, to‘qayzorlar, flora, fauna, daryolar, o‘rmonlar, davlat tabiat qo‘riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari, milliy parklar;

-*Qishloqdagi rekreatsiya turizmining resurslari*- pansionat lar, sog‘lom lashtirish markazlari, kurortlar, mineral suvlar, betakror tabiiy go‘shalar, ko‘llar, buloqlar, o‘rmonlar, to‘qayzorlar, sharsharalar, daryo sohillari, suv omborlari.

-*Qishloqdagi milliy meros boyliklari resurslari*- urf-odatlar, milliy san’at va milliy madaniyat,milliy hunarmand chilik, milliy o‘yinlar, milliy marosimlar.

Qishloq turizmining keltirilgan resurslaridan ma’lum bo‘ladiki, vatanimizning har bir qarich yeri, tuprog‘i, toshlari, chumolisi-yu, pashshalari o‘zimiz uchun ham, xalqaro turistlar uchun ham qiziqarli hisoblanadi.

Xorij davlatlarining qishloq turizmni rivojlantirish modellari. Jaxonda qishloq turizmini tashkil qilishning ancha mukammal modellari Yevropa davlatlarida ishlab chiqilgan. Bu modellar deyarli biri–biriga o‘xshamaydi. Eng muhimi, quyida qayd qilingan modellar xozirda Yevropa davlatlarida muvaffaqiyat bilan ishlamoqda va jahondagi ko‘plab davlatlar bu modellar asosida o‘z mamlakatlarida qishloq turizmini rivojlantirmoqda lar.

Britaniya modelida asosan qishloq turizmida turistlarni joylashtirishga ko‘proq e’tibor berilgan. Boshqa jihatlar esa Yevropadagi davlatlar tajribasidan olingan hisoblanadi.

Turistlarning ommaviylashgan, ular yaxshi ko‘radigan yashash tarzi 3 tipga bo‘linadi:

1. Fermerning uyida yashash va uning oilasi bilan faqat nonushta qilish. Bu sharoitda fermer bilan, uning oila a’zolari bilan do‘stona

aloqalarni boshlash imkoniyatlari, sharoitlari yuzaga keladi;

2. Alohida binoda, qisman qulaylik sharoitida o‘z–o‘ziga xizmat qilish bilan yashash;

3. Atroflari o‘ralgan, o‘rtacha 8 – 15 turistni joylashtiradigan binoda, o‘z-o‘ziga xizmat qiladigan sharoitda yashash.

Uchinchi variant Britaniya modelida juda daromadli hisoblanadi. Bir kunlik tunash har bir turist uchun 10 yevro miqdorida. Bu variantning daromadliligining asosiy sababi yoshlarga va guruhlarga mo‘ljallanganligidadir. Bu sharoitni o‘quvchilar va ayniqsa studentlar ma’qul ko‘rishadi. Shu bilan birga Britaniya modelida qishloqda joylashishning 3 xil darajasi bor: lyuks – boylar uchun maxsus qurilgan uylar; o‘rtacha boylar uchun maxsus qurilgan hovli va yuqoridagi 3 ta sharoitli yashash tarzi.

Britaniya modelida yana bir muhim xizmatlar borki, qishloqlardagi tadbirkorlar turstlar uchun mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan milliy va sport o‘yinlari, bolalar uchun poni(pakana) otda sayr, otlarda sayr, golf o‘yinlarini tashkil qilishadi. Shuning uchun ham shaharliklar bahor va yoz oylarida qishloqlarga shoshilishadilar.

Britaniya modelidagi yana bir muhim jixatlar shundan iboratki, ota–onalar bolalarini ekologik madaniyat, bilim ruxida tarbiyalash uchun ham bolalarini qishloqlarga olib borishadilar va qishloq tadbirkorlari maxsus tayyorlangan maydonchalarda (og‘il, molxona) chorva mollarining bir–ikki oylik uloqchalar, buzoqchalar, qo‘zichoqlar bilan birga o‘ynashadi, quyonlarga, qushlarga ovqat, don berishadi. Bu jarayonlarda bolalarda hayvon va parrandalarga mehir tuyg‘ulari hosil bo‘ladi.

***Fransiya modeli*.** Fransiya jaxonda qishloq turizmini rivojlantirgan birinchi mamlakat hisoblanadi. Bu davlat XX–asrning o‘rtalarida qishloq turizmini rivojlantirishning davlat dasturini ishlab chiqgan edi. Xozirga kelib qishloq turizmi Fransiyaning barcha departamentlarida yaxshi tashkil qilingan. Fransiya modelida qishloq turizmi ancha murakkab va maxsus ixtisoslashtirilgan hisoblanadi.

Mamlakatning janubida qishloq–cho‘milish plyaj turizmi infratuzilmalari yetarli darajada yaratilgan. Bu qishloqlarda turistlar

uchun maxsus kottedj uylari qurilgan. Markaziy rayonlarda agroturizm yaxshi rivojlangan. Bu yerdagi qishloqlarda turistlar uchun kichik uylar barcha sharoitlari bilan turistlarning ixtiyoriga beriladi. Chunki, faranglar ovqatni o‘zlari tayyorlashni xush ko‘rishadi. Fransiya vino va gastronomiya turizmi bo‘yicha ham jahonda oldingi o‘rinlarda turadi. Bu turizmda asosan boy turistlar dam olishadi. Ular qishloq uylarda joylashib kuniga uch mahal (to‘liq pansion) ovqatga buyurtmalar berishadi va bu ovqatlarning tayyorlanish jarayonlariga qatnashadilar.

“Vino turizmi” shaharlik faranglarning eng yaxshi ko‘rgan qishloq xo‘jalik turizmi yo‘nalishiga kiradi. Ma’lumki, faranglar eng ko‘p vino ichadigan xalqlardir. Vino turizmidagi turistlar vinoning ta’mini sinab ko‘rishga qatnashadilar, shampan vinosidagi farqni bilish uchun ko‘plab vinochilik xo‘jaliklariga borishadilar, vino tayyorlashni o‘rganishadilar, vinoni mehmonlarga uzatishni mashq qilishadi, vinoning navlarini to‘plab uylariga olib ketishadilar.

Ko‘plab turistlar qadimiy qal’alar, tarixiy ibodatxonalar, arxeologik topilmalar joylashgan qishloqlarda hafta – o‘n kunlab qolib ketishadi. Ular qishloq uylarida joylashib kuni bilan piyoda sayrga chiqishadi, ibodatxonalar, tarixiy joylarni o‘rganishadi va ovqatlanishga to‘liq xaq to‘lashadi, o‘zlari ovqat tayyorlashmaydi. Alp tog‘laridagi qishloqlar esa asosan chang‘i sporti havaskorlariga turistik xizmatlar ko‘rsatishadi.

***Germaniya modeli*.** Germaniyada qishloq turizmini fermer turizmi deb nomlashadi. Tabiiylikka intilgan nemislar imkoni boricha qishloqlardagi eski uylarda yashashga intiladilar. Shuning uchsn ham nemislar qishloqlarda zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan uylarni qishloqlarda qurishmaydilar. Nemis turistlari qishloqlarda dam olishda yerda ishlash, hayvonlarni boqish, madaniy o‘tirishlar, suhbatlar va baliq ovlashga qiziqishadi.

Qishloq turizmi tashkilotchilari asosan yozgi – kanikul mavsumidaga to‘g‘ri keladigan xalqning milliy bayramlari, milliy folklor festivallariga moslab turmahsulot tayyorlashadi, qishloqlarda xalqaro ko‘rgazmalar ko‘plab tashkil qilinadi. Masalan, “Oktoberfast” bayramiga jahonning deyarli barcha mamlakatlaridan 6 mln. turistlar

kelishadi. Shuningdek, nemis qishloqlarida 100yillab o‘z tarkibini o‘zgartmasdan tayyorlanayotgan pivo ichimligi bayramlari ham ko‘plab uyushtiriladi.

Italiya modeli. Italiyada qishloq turizmi ko‘pincha dehqon turizmi deb ataladi va turistik dasturlar asosan 3 mavzuda tuziladi va ishlab chiqiladi:

1. Tabiat va sog‘lik
2. An’anaviy gastronomiya
3. Sport

Qayd qilingan tur mahsulotlar ishlab chiqilgan maxsus, ixtisoslashgan qishloqlar bor. Masalan, K’yaniy, Umbriya va Sitsiliya provinsiyalari faqat “tabiat va sog‘liq” yo‘nalishiga moyil turistlarni qabul qilishadi. Vinochilik turizmi ham xuddi Fransiyadagidek, turistlar vino tayyorlash uchun bog‘bonga yordam beradi, bog‘bon esa ish haqqiga uzum beradi va uzumni achitish jarayoni, uzumning vinoga aylanish texnologiyasini o‘rgatadi va boshqalar. Dengiz yoqasiga asosan baliq ovlashga chiquvchi turistlar, Abruppoga – zaytun yog‘iga qiziquvchi turistlar tashrif qilishadi.

Qishloq turizmida joylashish vositalarini tanlash tarkibi quyidagicha: appartamentlarda -44%, xona -appartamentlarda -22%, faqat xonalarda -4 %.

Italiyaliklarning dunyoning gastronomiya turizmida yetakchilik qilishining bosh sababi ham bu davlatga keluvchi turistlarni o‘ta ustachilik bilan qishloq turizmiga jalb qilishidir. Bunda ularning xalqaro turistlarga qishloqlarida noyob, qadimiy taomlarning saqlanib qolganligi, bu taomlarning shifobaxshligi haqidagi reklamalari juda samarali chiqmoqda.

Qishloq turizmini rivojlantirishda asosan Yevropa davlatlaridagi modellarni keltirishimizning asosiy sababi shundan iboratki, dunyodagi ko‘plab mamlakatlar o‘zlarida qishloq turizmini rivojlantirish uchun xozirda asosan qayd qilingan modellarni joriy qilishmoqdalar.Eng muhimi shundaki, Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirish uchun hamkorlikda “Qishloq turizmini rivojlantirish strategiyasi va dasturi”, “Qishloq turizmi bozorida takliflar va talablarning o‘zgarish

istiqbollari”ni ishlab chiqdilar. Ushbu hamkor dasturlar asosida Buyuk Britaniya davlati har-yili qishloq turizmida 250 minggacha mavsumiy va domiy ish o‘rinlarini tashkil qilmoqda.

Qayd qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda Yevropa davlatlarining dasturlarini, dasturlarga kiritilgan rejalarni, modellarini yaxshi o‘rganishimiz, bu modellardan viloyatlarimizdagi qaysi qishloqlarimizda foydalanish imkoniyatlarining mavjudligini, kutiladigan natijalarni, foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy tarkiblarini o‘rganishimiz, hamda qishloq turizmini rivojlantirish Dasturini ishlab chiqishimiz kerak bo‘ladi.

Qishloq turizmi rivojlangan Yevropa davlatlaridagi tajribalarni o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonda qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishni quyidagi uchta bosqichda amalga oshirish mumkin:

Dastlabki bosqichda-“O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning davlat Dasturi”ni qabul qilish, qishloq turizmini rivojlanti rishdagi qishloq turizmining tashkiliy– iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ikkinchi bosqichda-ishlab chiqilgan tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlar asosida qishloq turizmini rivojlantirishning huquqiy–me’yoriy hujjat larini ishlab chiqish.

Uchinchi bosqichda-qishloqlarimizdagi turistik resurslarimiz ni ro‘yxatga olishimiz, ularning ta’rif–tavfsiflarini tayyorlashimiz, foydalanish imkoniyatlari ni hisoblab chiqishimiz, turistik ob’ektlarda turistik infratuzilmalar va turistik marshrutlar yaratishimiz lozim. Masalan, Yevropa davlatlari qishloq turizmni rivojlanishini bashoratlashda va istiqbolli strategik rejalar ishlab chiqishda doimiy ravishda sotsial so‘rov o‘tkazishadi. Yevropa ittifoqining statistik ma’lumotlari bo‘yicha 30 % aholi qishloq turizmida dam olishni hohlaydi.

Qishloq turizmi rivojlangan Yevropa davlatlaridagi ushbu usul–sotsial so‘rovni o‘tkazishimiz ham, mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda ko‘plab ijobiy xulosalarni berishi mumkin. Sotsial–so‘rov o‘tkazishdan oldin albatta qishloq aholisi o‘rtasida qishloq

turizmining mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari bo‘yicha jiddiy tashkiliy ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

Tayanch so‘zlar: qishloq turizmi, agroturizm, alternativa, qo‘shimcha ixtisoslik, kreditlar, dotatsiyalar, mintaqa,fermer.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun saollar va topshiriqlar

1.O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?.

2.Qishloq turizmini birinchilardan bo‘lib rivojlantirgan mamlakatlar haqida taqdimot tayyorlang.

3.Nima uchun Yevropadagi davlatlar qishloq turizmini rivojlantirishni o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlashdi?.

4.Yevropa davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirish dasturlari haqida taqdimot tayyorlang.

5.O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning qanday ahamiyatlari mavjud?

IX BOB. AGROTURIZM VA BU TURNING RESURSLARI

9.1. Agroturizm turi

Agroturizm - qishloq turizmining bir yo‘nalishi bo‘lib, u dam olish yoki qishloq xo‘jaligi ishlarida ishtirok etish uchun qishloq joylarida turistlarning vaqtinchalik qolishini nazarda tutadi, qishloq turizmida qishloq joylarining tabiiy, madaniy va tarixiy va boshqa resurslaridan foydalanishga qaratilgan faoliyatidir. Agroturizm qishloq turizmining mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘langan yo‘nalishi aniq bo‘lsada to hozigacha agroturizmning ta’riflari yozilmoqda.O‘zbekistonda agroturizmni, qishloq turizmini rivojlantirishga qiziqgan tadbirkorlar va turizmdagi mutaxassislar uchun bu ta’riflarni keltiramiz:

1. Yevropa komissiyasi*-qishloq turizmi*-qishloq joylardagi barcha turizm resurslari uchun turmahsulot-qishloq madaniyatini ko‘rsatuvchi tur. *Agroturizm*–turistlarning kelishi sababli mahsulotlarini sotishga imkoniyat yaratuvchi tur, bu yerda turmahsulotlarning qo‘shilishi yuzasidan bu turni-agro-eko-fermer turizmi deb nomlash mumkin[80].

2. AQShdagi Pudrdyu universiteti *–agroturizm* qishloq xo‘jalik turizmi hisoblanib, faoliyati fermerlar bilan yashash, ishlash, dam olish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini harid qilish yoki fermerga yordami tufayli bepul olish kabila bilan bog‘liq turizm[81].

3. Yevropadagi Euroter tashkiloti - *qishloq turizmi* davlat ning agrar hududlarini iqtisodiy quvvatlovchi, qishloqning madaniy merosi va ekologiyasini saqlovchi, mahalliy an’analarni qayta tiklovchi va turistlarning joylashish, ovqatlanish, dam olish va boshqa ehtiyojlarini, talablarini qondiruvchi, qishloqning ijtimoiy sohasini barqaror rivojlantiruvchi turdir[82].

4. Kloeze J. W.,- qishloq turizmi- qishloqda rivojlangan yoki

[80] Baltic Country Holidays. Professional information [Elektronniyresurs].- rejimdostupahttp: //www.celotajs.lv/cont/prof/assoc/definition_en.litml

[81]Universitet Purdyu, SSHA. Materiali issledovatelskoy programmi Discoveypark. [Elektronniy resurs].- rejimdostupa discoverypark.e-enterprise.purdue.edu

[82].BartmannV., VashpT., 1998, Promoting the Particular as a Niche Cultural Tourism Development Strategy in Small Jurisdictions, Progress in Tourism and Hospitality Research 1998,Proceedings of the Eighth Australian Tourism and Hospitality Research Conference, Bureau of Tourism Research, Australia.

rivojlanayotgan barcha turistik faoliyatni qamrab oluvchi tur hisoblanadi[83].

5. Nistureanu P.,-qishloq turizmi-bu tushuncha o‘zining tarkibiga mahalliy aholi tashkil qilgan va boshqargan, tabiiy muhit (tabiiy va antropogen) bilan uzviy aloqaga asoslangan turistik faoliyatni qamra oluvchi tur hisoblanadi[84].

6. Matei. D.,-qishloq turizmida- mahalliy fermerlar va dehqonlar xizmatlar to‘plami bilan, daromad olish maqsadida turistlarni o‘zlarining makonlariga kelishiga qiziqtiradi Qishloq turizmi taristni nafaqat tabiatda dam oldiradi, balki mahalliy aholining urf-odatlari, an’analariga qiziqishi uchun zamin, sharoit yaratadi, mahalliy aholining milliy madaniy tadbirlariga qatnashadi, barcha turstik xizmatlarni sotib oladi.

Agroturizm Yevropadagi barcha davlatlarda kuchli rivojlangan. Bunda sayyohlar ma’lum muddat qishloqda yashagan holda mahalliy urf-odatlar, yashash tarzi bilan tanishib, an’anaviy qishloq mehnatlarida ishtirok etadi. Yurtimizda ham turizmning mazkur yo‘nalishini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Boisi o‘ziga xos tabiatga ega so‘lim qishloqlarimiz, u yerdagi sayyohlar e’tiborini tortadigan turmush tarzi, mahalliy urf-odatlar ko‘pchilik uchun qiziq.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlanti rishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash-yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida namunali fermer xo‘jaliklarini sayyohlarga xizmat ko‘rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda xorijliklarning mamlakatimizda bo‘lish muddatlarini uzaytirish maqsadida agroturizmni rivojlantirishga doir vazifalar belgilangan.Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan xorijiy sayyohlarning yurtimizda bo‘lish muddatlarini uzaytirish, mahalliy sayyohlar uchun yangi dam olish turlarini tashkil etish maqsadida agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

[83] Department for food and rural affairs. Tourism statistic.[Elektronniyresurs].-rejimdostupawww. defra. gov. uk/statistics/rural/the-rural-economy/rural-tourism/

[84] Europe in figures. Eurostat Yearbook 2010 // URL: http://epp.eurostat.ec.europa.eu

Mamlakatimiz bo‘ylab agroturizm yo‘nalishida turistlarni qabul qiladigan ob’ektlar ro‘yxati shakllantirilmoqda, – deydi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bosh mutaxassisi Aziz Maxsumov.– Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida agroturizm ob’ektlari to‘g‘risida ma’lumotlar, turoperatorlar tomonidan turizm dasturlari shakllantirildi. Ular muctaqil ravishda tashrif buyuradigan sayyohlarga ham beriladi. Bu orqali sayyohlar ushbu ob’ektlarga borishi hamda turizmning yangicha yo‘nalishlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Agroturizm yo‘nalishida faoliyat olib borish istagida bo‘lganlar qo‘mitaning @Agroturizm telegram guruhiga a’zo bo‘lishi mumkin. Guruhda sohaga oid yangiliklar, agroturizm ob’ektlari ro‘yxati, xorij tajribasi, statistik ma’lumotlar, innovatsion g‘oyalar va tashabbuslar haqida ma’lumotlar e’lon qilib boriladi. Bugungi kunda agroturizmga sayyohlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Ushbu yo‘nalishda o‘z xizmatlarini taklif etayotgan maskanlardan biri Farg‘ona viloyati, Uchko‘prik tumanida joylashgan “Mehrigiyo” sihatgohidir.

Tajribali shifokorlar, fitoterapevtlar va xalq tabobati xodimlarini birlashtirgan ushbu maskanda mijozlarga zamonaviy dori-darmonlar hamda qadimiy sharq tabobati an’analari asosida xizmat ko‘rsatiladi. Maskanga qarashli xo‘jalikda 30 dan ortiq turdagi dorivor o‘tlardan choylar, shifobaxsh yog‘ va ekstraktlar ishlab chiqariladi. Bu yerda sayyohlar tabiiy yetishtirilayotgan dorivor giyohlar, jumladan, zaytun, rozmarin, guava va boshqa ko‘plab dorivor buta va o‘simliklardan shifobaxsh ichimliklar tayyorlash jarayonini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishi va tatib ko‘rishi, o‘ziga ma’qul bo‘lgan dori vositalarini harid qilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu maskandagi shinam tamaddixonalar, plantatsiyalar, dam olish xonalari ham sayyohlarga manzur bo‘lmoqda[85].

Dunyo hamjamiyati va O‘zbekistonda turizm xizmatlariga bo‘lgan talabning o‘sishi davom etayotgan tendensiya bilan qishloq turizmining

[85]Go‘zalSattorova, O‘zA, „Agritourism Safety - Integrating Safety into Agritourism“ (en-US). *Integrating Safety into Agritourism*.

bir yo‘nalishi bo‘lgan agroturizm xizmatlari tobora ortib bormoqda. Bu shahar tabiatining old shartlaridan kelib chiqadi va ta’tilning davomiyligi va odamlarning sayohatga qiziqishini oshiradi. Qishloq turizmi tashkil qilish, mamlakatimiz aholisining eng kichik daromadga qiziqishi ko‘pincha juda o‘rtacha ish haqiga ega shahar aholisini dam olishi va sayohati tashkil eitilishida muhim omildir. Agroturizmning rivojlanishi qishloq iqtisodiyotini ko‘tarib, ularning iqtisodiy tuzilishi takomillashtirilmoqda, mehmondo‘stlik sanoati bilan shug‘ullana digan tarmoqlarning rivojlanishi rag‘batlantirilmoqda, ilgari boshqa faoliyatni rivojlantirish uchun depressiv, umidsiz deb hisoblangan qishloq va qishloqlar hududlar iqtisodiyotida faol ishtirok etmoqda.

9.2. Agroturizm turining resurslari

Agroturizm - O‘zbekiston turizmida yangi yo‘nalish. O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi chet ellik sayyohlarning mamlakatimizda sayohat qilish vaqtini uzaytirish, mahalliy turistlar uchun dam olishning yangi turlarini tatbiq etish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan agroturizmni rivojlantirish ustida ishlar olib borilmoqda. 2018-yil uchun davlat dasturining 104-punkti - Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar ijrosi maqsadida 4 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Agroturizmni rivojlantirish dasturi» tasdiqlandi.

Agroturizm Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gresiya va Fransiyada yaxshir ivojlangan. Bu mamlakatlarga borgan sayyohlar muayyan vaqt davomida qishloq joylarda yashab, mahalliy xalq madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi bilan tanishishadi, an’anaviy qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etishadi. Masalan, Buyuk Britaniyada fermerlarning 60 foizi turizm sohasidan tizimli ravishda daromad olishni yo‘lga qo‘yishgan, o‘rtacha-yillik daromad 10-50 ming AQSH dollarini tashkil qiladi.

Hozirda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan agroturizm yo‘nalishi bo‘yicha sayyohlarni qabul qilish imkoniga ega ob’ektlarni o‘rganish ishlari boshlab yuborildi, shu asosda ularning ro‘yxati shakllantiriladi. Ta’kidlash joizki, qo‘mitaning rasmiy sahifasi

va ijtimoiy tarmoqlarda turoperatorlar dastur tuzishlari va sayyohlar mustaqil ravishda tashrif buyurishlari uchun agroturizm ob'ektlari haqida batafsil ma'lumotlar berib boriladi. Xorijiy va mahalliy sayyohlar bu ob'ektlarga bevosita tashrif buyurib, turizm sohasidagi yangicha yondashuvdan zavq olishlari mumkin bo'ladi.

Agroturizm sohasida o'z takliflariga ega bo'lgan va ushbu yo'nalishda faoliyat olib borish istagida bo'lganlar qo'mitaning telegramdagi @Agroturizmuzbekistan guruhiga qo'shilishi mumkin. Bu guruhda agroturizm sohasidagi yangiliklar, agroturizm ob'ektlari ro'yxati, statistik ma'lumotlar, innovatsion g'oyalar va tashabbuslarga oid xabarlar berib boriladi.

Agroturizmni rivojlantirish bizga nima uchun kerak?[86]. Agroturizm – bu aholi uchun qo'shimcha dam olish maskanlarining shahar markazlaridan tashqari hududlarda, xususan, tumanlarda bo'lishidir. Agroturizmdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlarni yurtimizda ko'proq va mazmunli vaqt o'tkazishini ta'minlash bo'lsa, yana bir tomondan mahalliy aholining maroqli hordiq chiqarishi uchun qo'shimcha imkoniyatdir.

Chet el mamlakatlari tajribasiga qaralsa, agroturizmdan ko'p hollarda mahalliy aholi foydalanadi, - deydi SamDU inson resurslarini boshqarish fakulteti doktoranti Akmal Amirov. - Ular o'zlarining ta'til davrlarini agroturizm obektlarida o'tkazishni xush ko'rishadi. Xususan, Italiya va Ispaniyada aholining 25-30 qismi o'z ta'tillarini agroturizm hududlarida o'tkazishni ma'qul ko'rishlarini bildirishgan.

Albatta, agroturizmni rivojlantirish uchun biz yo'llar infratuzilmasini yaxshilashimiz, tumanlarda ham yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish obektlari tashkil etishimiz, turistlar uchun turar-joy va mehmonxona xizmatlarini samarali yo'lga qo'yishimiz lozim. Tadqiqotlar doirasida viloyatimizning 14 tumanida turli izlanishlar va so'rovnomalar o'tkazdik. Bunda tumanlardagi xizmat ko'rsatish sifati, yer hududlari, o'rmonzorlari, investitsion salohiyati va boshqa omillar hisobga olinib, yakunda Samarqand, Jomboy, Urgut, Oqdaryo, Toyloq

[86]Otabek Sa'dullayev,Agroturizmni rivojlantirish bizga nima uchun kerak?, 1-07-2022, Jamiyat

tumanlari agroturizm uchun eng jozibador hududlar deya topildi (9.1-rasm).



9.1-rasm. Agroturizm resursi va hududi

Hozirda viloyatimizning boshqa tumanlarida agroturistik jozibadorlikni oshirish ustida tadqiqot olib bormoqdamiz.Tan olish kerakki, agroturizmni rivojlantirish–biz uchun yangi yo‘nalish hisoblanadi. U faqatgina turizmni emas, balki qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining ham rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hududning iqtisodiy o‘sishi uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shadi. Ma’lumot uchun, Samarqand davlat universiteti inson resurslarini boshqarish fakulteti doktoranti Akmal Amirov mazkur mavzu bo‘yicha o‘zining 20 dan ortiq maqolalarini Germaniya va Indoneziya hamda respublika nashrlarida chop ettirgan bo‘lib, jamoatchilikning e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda.

Ba’zi bir xulosalar bo‘yicha agroturizm qishloq turizmi turizmning bir yo‘nalishi bo‘lib, u dam olish yoki qishloq xo‘jaligi ishlarida ishtirok etish uchun qishloq joylarida turistlarning vaqtinchalik qolishini nazarda tutadi, qishloq joylarining tabiiy, madaniy va tarixiy va boshqa resurslaridan foydalanishga qaratilgan

turizm sohasi va kompleks sayyohlik mahsulotini yaratishi bilan o‘ziga xosdir.

Majburiy va shartli jihatlari: turistlarni joylashtirish vositalari, yakka tartibdagi yoki ixtisoslashtirilgan, qishloq joylarda yoki kichik shaharlarda joylashtirilgan bo‘lishlari zarur (sanoat va ko‘p qavatli binolardan ancha olis (30-40 chaqirim)da joylashishi kerak.Avvalo, qishloq turizmidan qishloq hayoti, toza havo, sukunat va tabiiy mahsulotlar, qulay yashash sharoitlari, uy-joy muhiti, maqbul narxlar, tabiat bilan yaqinlik hissi, yangi taassurotlar olish, mahalliy an’analar bilan tanishish, bolalar uchun o‘yin-kulgi imkoniyatlari va kattalar uchun dam olish. Dastlab, Rossiya Federatsiyasida qishloq turizmi yirik kurort zonalarida (Qora va Azov dengizlarining qirg‘oq dam olish maskanlari, sanatoriya markazlari) mehmonxona sanoatining rivojlandi.

Ayni paytda esa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan band aholi sonining kamayishi bilan harakterlanadi agrar sohasida iqtisodiy vaziyat, o‘zgarishi munosabati bilan, u o‘rniga yoki qishloq xo‘jaligi faoliyatini to‘ldiruvchi yangi faoliyatini topish haqida keskin savol bor edi. Hududlarda agroturizmni rivojlantirish bu muammoni mukammal hal qiladi, chunki u qishloqning iqtisodiy o‘sishining “katalizatori” bo‘lishi mumkin bo‘lgan sayyohlik komponentidir. Bu borda bir nechta tushunchalar mavjud: Birinchidan, sayyohlik faoliyati kichik boshlang‘ich investitsiyalar uchun jozibador, chunki juda cheklangan mablag‘ga ega bo‘lgan qishloq aholisi uchun bu deyarli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ikkinchidan, turizm-yuqori rentabellik darajasi, eng kam harajatni qoplash muddati bo‘lgan iqtisodiyotning daromadli sektori, bu tez daromad olish uchun juda muhimdir.

Dunyo hamjamiyati va O‘zbekistonda turizm xizmatlariga bo‘lgan talabning o‘sishi davom etayotgan tendensiya bilan qishloq turizm xizmatlari tobora ortib bormoqda. Bu shahar tabiatining old shartlaridan kelib chiqadi va ta’tilning davomiyligi va odamlarning sayohatga qiziqishini oshiradi. Qishloq turizmi tashkil qilish, mamlakatimiz aholisining eng kichik daromadga qiziqishi ko‘pincha

juda o‘rtacha ish haqiga ega shahar aholisini dam olishi va sayohati tashkil eitilishida muhim omildir. Agroturizmning rivojlanishi qishloq iqtisodiyotini ko‘tarib, ularning iqtisodiy tuzilishi takomillashtirilmoqda, mehmondo‘stlik sanoati bilan shug‘ullanadi-gan tarmoqlarning rivojlanishi rag‘batlantirilmoqda, ilgari boshqa faoliyatni rivojlantirish uchun depressiv, umidsiz deb hisoblangan qishloq va qishloqlar hududlar iqtisodiyotida faol ishtirok etmoqda.

Farg‘ona viloyatining agroturizm maskanlari sifatida Farg‘ona tumaniadagi malina bog‘lar, Oltiariqdagi uzum bog‘lar, Quva va Quvasoydagi qulpnoy, gilos va anorchilikka ixtisosolashtirilgan qishloq va qishloq xo‘jaligi korxonalari ishlab turibdi (*Vodil, Arsif, Uzumchi, Soykeldi va h k*).

AQSH O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Amerika Qo‘shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) O‘zbekistondagi ichki va mintaqaviy turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi xususiy agroturizm korxonalari o‘rtasida konseptual takliflar tanlovini e’lon qildi, deb xabar bermoqda. Tanlovni USAID loyihasi yaqinda asos solgan “Agrobiznesni rivojlantirish jamg‘armasi” o‘tkazadi.

“Butun jahonda agroturizm qishloqlarni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi isbotlandi. Kichik qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun qo‘shimcha daromad manbai bo‘lmish agroturizm hudud infratuzilmasini yaxshilash va yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Aholisining deyarli yarmi qishloqda yashovchi mamlakat – O‘zbekistonda agroturizm katta salohiyatga ega va u qishloqni rivojlantirishning asosiy dvigatellaridan biriga aylanishi mumkin”, deyiladi AQShning O‘zbekistondagi elchixonasida.

Mahalliy xususiy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shilgan qiymatli agroturizm mahsulotlari va xizmatlarini yaratish borasida jamg‘arma konseptual takliflar tanlovini e’lon qildi. Bundan maqsad, savdoni ko‘paytirish, sayyohlar tashrifini oshirish, ayollar va yoshlarni ish bilan ta’minlash imkonini beradigan tadbirlarni birgalikda moliyalashtirishdir. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan USAID Agrobiznesni rivojlantirish

loyihasi besh-yilga mo‘ljallangan bo‘lib, tanlangan meva-sabzavot mahsulotlari ning barcha qo‘shilgan qiymat zanjiriga yangi texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etish orqali mamlakat qishloq xo‘jaligida xususiy sektor ulushining o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. “Mazkur sa’y-harakatlar O‘zbekistonda qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar hajmini oshirish, xotin-qizlar va yoshlarni ishga jalb qilish, ta’lim muassasalarini xususiy sektor ehtiyojlari bilan bog‘lash va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga ko‘mak beradi”, deya xulosa qildi AQSH elchixonasi.

Tayanch so‘zlar: plantatsiya, ekstraktlar, depressiv, umidsiz, alternativa, stress, mehmondo‘stlik, agrodastur, rancho.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudmi?

2.Agroturizm turizmdagi alohida turmi?

3.O‘zbekistonda agroturizmning resurslari mavzusida taqdimot tayyorlang.

4.Xorij davlatlarida agroturizmning rivojlanishi mavzusida taqdimot tayyorlang.

5.Agroturizm-qishloq turizmining muhim yo‘nalishi mavzusida taqdimot tayyorlang.

X BOB. GASTRONOMIYA TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

10.1. Gastronomiya turizmi turi

Gastronomiya turizmi-mamlakatlardagi aholining milliy oshxonasi bilan tanishish, gastronomiya bilan bog‘liq tadbirlarni ko‘rish va unda ishtirok etish maqsadida o‘zi tanlagan joyga (mamlakatga) sayohatga chiqish hisoblanadi. Gastronomiya turizmi ixlosmandlari nafaqat boshqa davlatlardagi xalqlarning taomlariga qiziqishadi, ular ushbu taomlarning tayyorlanishi, qanday masallig‘lar qo‘shilishi, xazm bo‘lishi, foydaliligi, shifobaxshliligi va taomlarning boshqa xususiyatlariga ham qiziqadigan turistlar hisoblanadi, ularni gastroturistlar deb atashadi.

So‘ngi-yillarda gastronomiya turizmi turizmning innovatsion sohasida o‘zining jadal rivojlanishini boshlamoqda. Turizmga globallashuv jarayoni katta tasir qilayotganligi ma’lum. Insonlarda hududiy turizmning jozibadorligiga, hududlarning madaniyatiga qiziqish tobora kuchayib borayapti. Hududlarda yashayotgan aholilarning, millatlarning yashashi tarzi va ularning taomlari, madaniyati albatda hammada qiziqish uyg‘otadi. Ikkinchidan, qandaydir taomlarning va ichimliklarning shifobaxshligi, tetiklashtirishi va sog‘lomlashtirishi haqidagi axborotlar va reklamalar ham juda ko‘p kishilarni sayohatga chorlaydi. Bunday axborotlarga hammamiz ham qiziqamiz. Shuning uchun ham, gastronomiya turizmi turizm sohasining yangi bir turi sifatida shakllandi. BTTning eksperti Mariya Izabel Ramos Abaskalning so‘zlari bo‘yicha turistlarning hohish-istaklarida global o‘zgarishlar kuzatilmoqda va bu o‘zgarishlarda gastronomiya turizmi toboro oldingi o‘rinlarga ko‘tarmoqda.

Birinchi marotaba culinary tourism atamasini insonlar muomilasiga Ogayyo shtatidagi (AQSH) Bowling Grin universiteti dagi “Xalq madaniyati” kafedrasining dotsenti L.Long 1998-yilda kiritgan. Uning xulosalari bo‘yicha odamlar mahalliy ovqatlarni tayyorlanishini ko‘rish, tanovul qilish orqali ularning madaniyatini o‘rganadilar va bilib

oladilar[87].

Gastronomiya turizmining tarixi. Turizm sayohatlarida yangi tur-yangi yo‘nalish bo‘lgan gastronomiya turizmi haqida 2001-yillardan axborotlar chiqa boshladi. Aynan shu-yili “Xalqaro kulinariya turizmi assotsiatsiyasi” (ISTA) ning asoschisi va prezidenti Erik Vulf kulinariya turizmi haqida qandaydir hujjatni e’lon qilgandi. Keyinchalik bu hujjat vinoga va taomlarga, kulinariyaga qiziqish va talab tobora kuchayib borayotganligini, mahalliy ovqatlantirish tizimlari bunga e’tibor berish kerakligini isbotlovchi katta kitobga aylandi.

Erik Vulf gastronomiya turizmini quyidagicha tavsiflaydi- *“Gastronomiya turizmi-bu qo‘shni ko‘chadami yoki Yer sharining boshqa bir oxirida unutilmas, g‘aroyib ichimliklar va taomlarni tatib ko‘rishdan lazzatlanishni izlashdagi turistik faoliyat hisoblanadi”.*

Gastronomiya turizmi (kulinariya turizmi) ning maqsadi-lazzatli taomlar va xushta’m ichimliklarni (xorijda-vinoni va pivoni) sevuvchilarga (turistlarga) mahalliy taomlar va ichimliklar tayyorlaydigan manzil va makonlar haqida, mahalliy aholilarning ovqatlanishi an’analari, bu mazali taomlar va ichimliklarning tayyorlanishining tarixi va hakozolar haqida bilimlar, axborotlar berish, ularni ruhlantirish hisoblanadi.

Erik Vulfning xulosalari bo‘yicha - “turist o‘zining sayohatlari davridayoq o‘zi bilmagan holatlarda gastronomiya turizmining iste’molchisi bo‘lib qolishi mumkin. Chunki, boshqa davlatlarda sayohatda bo‘lgan turist albatda shu davlatda yashayotgan xalqlarning milliy taomlari bilan qiziqib qolishi muqarrar holatlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham, bizlar-mazali taomlar va ichimliklarni sevuvchilar gastronomik turistlarmiz”[88].

Biz turistlar–ta’kidlaydi E.Vulf o‘zimizning davlatimiz da, hatto davlatimizning shaharlarida yoki qishloqlarida ham gastronomiya turizmiga qiziqib qolamiz. Chunki, ba’zi bir mazali milliy taomlar faqat aynan bir shaharda yoki aynan bir huddudda yoki qishloqda milliy

[87].Dracheva Ye.L.,Xristov T.T.,Gastronomicheskiy turizm: sovremennie tendensii i perspektivi. Ros. regionvzglyad v budushee-2015.-№ 3(4).-s. 36-50

[88].Vulf Erik «Chto takoye gastronomicheskiy turizm» //http:// www. World of travel. org/ what-is-food-tourism.

usullarda tayyorlanadi. Shuning uchun ham, jahon turizmida yangi tur-gastronomiya turizmi shiddat bilan rivojlanmoqda. Shu sababli ham, *gastronomiya turizmining yana bir maqsadi* har qanday turistni mahalliy taomlarga qiziqtirish, mahalliy taomlar va ichimliklarni tatib ko‘rishga ruhlantirish, mahalliy taomlar haqida maxsus axborotlarni tayyorlash va reklama qilish bo‘lishi kerak.

Gastroturistlar dunyodagi ko‘plab xalqlarning milliy madaniyati va yashash tarzlarini ularning taomlari va ichimliklari orqali bilib olishadi. Bu yerda shunisi e’tiborliki, gastroturislar dastlab o‘z oldilariga aholining milliy madaniyati va yashash tarzlarini o‘rganishni maqsad qilib qo‘yishmaydi balki, ularning taomlari va ichimliklari va ularni tayyorlash texnologiyalari va jarayonlarini kuzatish, o‘rganish natijasidan ularning milliy madaniyati an’analariga qiziqib qolishadi.Yana shuni qo‘shimcha qilish lozimki, gastronomiya turistlari o‘z davlatlarida va dunyoning boshqa davlatlarida urf bo‘lgan “restoranlar haftasi”, “taomlarni tayyorlash musobaqalari”, “meva va sabzavot sayillari”, ”taomlarni va ichimliklarni degustatsiya qilish(vinolar, pivolarni ta’tib ko‘rib baholash-degustatsiya) tadbirlariga ham qiziqishidan sayohatga chiqishadi.

“Ovqat- bu millatning eng muhim mohiyati, uning harakteri va tarixi”. Bu so‘zlar “Butunjahon gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi” ning “Manifesti” hisoblanadi. “Xalqaro kulinariya turizmi instituti” 2006-yilda tashkil qilindi. Bu institut “Xalqaro gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi”ning ta’lim dasturlari va o‘quv dasturlari bo‘yicha faoliyat yuritadi. Kulinariya turizmida juda katta faoliyat ko‘rsatadigan va oziq-ovqat turizmida liderlik mavqe’ini egallab kelayotgan yana bir notijorat va hukumatsiz tashkilot-World Food Travel Association (WFTA) –“Butunjahon gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi” hisoblanadi. Bu assotsiatsiya ovqatlar va ichimliklar uchun eng zamonaviy resurslarga ega bo‘lgan holda sayohatlar, shuningdek, mehmondorchilik va Ommaviy axborot vositalarining kuchli vakillari uchun xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha gastronomiya turizmining rivojlanishida jahonda yetakchi-lider tashkilot hisoblanadi.

Ko‘plab mamlakatlardagi gastronomiya turizmi milliy

tashkilotlari ham hozirgi vaqtda bu turizm turini jadal rivojlantirish yo‘lini tanlashgan. Masalan, Ispaniyada notijorat, milliy professional maqomga ega bo‘lgan“Ispaniya vino va kulinariya turizmi assotsiatsiyasi” ((Spanish Association of wine and culinary tourism) jahon gastronomiya turizmida tanilgan tashkilot hisoblanadi. Bu assotsiatsiya Ispaniyaning vinooziq-ovqat turizmini rivojlantirishga ixtisoslashgan bo‘lib, mamlakatdagi kulinariya turizmiga xalqaro turistlarni jalb qilish bo‘yicha eng kuchli tashkilotlar ro‘yxatida turadi.

Ispaniya oshxonasini dunyo bo‘ylab reklama qiluvchi yana bir tashkilot- Tasting Spain Association- “Ispaniyaning turli-tuman tabiiy va milliy boyliklarini milliy madaniyati, hayot kechirishi tarzlarini ko‘rish Ispaniyaning milliy oshxonasining mahsulotlari, ovqatlari, ichimliklarini tatib ko‘rish va bu oziq-ovqatlarni yetishtiradigan, tayyorlaydigan hududlarda bo‘lish orqali yuz beradi” mavzularidagi turistik mahsulotlarini reklama qiladi va bu xizmatlarni amalga oshiradi.

“Rossiya gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi” 12.01.2015-yilda tashkil qilingan bo‘lib, Rossiyada gastronomiya turizmini rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan hozircha yagona tashkilot. Bu assotsiatsiya World Food Travel Association (WFTA)–“Butunjahon gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi” bilan o‘zaro hamkorlik va hamdo‘stlik shartnomalarini tuzgan va hozirga kelib, Rossiya iqtisodiyotidagi 19 ta tarmoqlar bilan muvaffaqiyatli ishlamoqda. “Rossiya gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi” haqida ma’lumotlar keltirishimizning sababi shundaki, bu assotsiatsiya Rossiyada gastronomiya turizmi bo‘yicha ommaviy bayramlar, oziq-ovqat ko‘rgazmalari va festivallarini tashkil qilish va o‘tkazish, xalqaro miqyoslarda reklama qilish yo‘nalishida o‘tgan qisqa vaqt davomida jahonga tanildi.Chunki, bu assotsiatsiyaning maqsadi-dunyo ahli Rossiyaning kulinariyasi, oshxonasining, gastronomiyasining hozirgi va tarixiy an’analarini haqqoniy, do‘stona xolisona baholashiga erishish hisoblanadi.

Jahonning xalqaro obro‘ga ega bo‘lgan tashkilotlari ham gastronomiya turizmining rivojlanishiga katta e’tibor berishmoqda. Masalan, YUNESKO Meksika davlatining oshxonasini, O‘rta yer

dengizi parhezini va Fransiya oshxonasini dunyo xalqlarining “Butunjahon nomoddiy madaniyat merosi” ro‘yxatiga kiritdi.Shuningdek, YUNESKO dunyo bo‘yicha “Eng yaxshi gastronomiya shahari” tanlovini ham doimo o‘tkazib bormoqda. Bu faxrli nom hozirgacha Kolumbiyaning Popayan shahari, Xitoy respublikasining Chendu(mashhur Sichuan oshxonasining poytaxti) va Shvesiyaning Esterund shaharlariga berildi. Hozirda bu nomni turk, arab va Fransiya oshxonalarining an’analarini birlashtirgan va o‘ta mazali, mo‘jizaviy taomlar tayyorlab, jahon miqyosida ko‘plab tilga olinayotgan Xatay shahriga (Turkiya) berishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Kulinariya turizmining tobora faollashib borishi natijasida ko‘plab davlatlarda gastronomiya turizmiga ixtisoslashgan turistik firmalar, hatto xalqaro gastronomiya turizmiga ixtisoslashgan turistik firmalar va tashkilotlar tashkil qilinmoqda. Masalan, AQShda-“Gourmet on Tour” va “The International kitchen”, Avstraliyada-“Gourmet Getaways”.

Kulinariya va gastronomiya turizmlarining mohiyati va mazmuni. Kulinariya turi-taomlar va ichimliklarning ta’mini, mazasini tatib ko‘rish, ularni tayyorlash texnologiyalari va jarayonlari bilan tanishish, bu jarayonlarda qatnashish, shuningdek, professional oshpazlarni tayyorlashga mo‘ljallangan, kulinariya dam olishini tashkil qilish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan dastur. So‘ngi-yillarda gastronomiya turizmida kulinariya ko‘rgazmalari, festivallari va bayramlariga qiziqish ortib bormoqda.

Kulinariya turizmining obyekti:

- Kulinariya turizmi kulinariya maktablarini, gastronomiya turizmiga oshpazlarni tayyorlaydi, gastronomiya festivallarini, ko‘rgazmalarini tashkil qiladi, gastronomiya turizmining axborotlarini tayyorlaydi, tarqatadi;
- Dunyo miqyosida oshxonasining taomlari eng ommaviylashgan mamlakatlar.Bunday davlatlarning ro‘yxatiga hozircha Fransiya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya va Xitoy kiritilgan;
- Faqat ma’lum bir joyda, hududda taniqli, nomi chiqgan mahsulotlarni ishlab chiqaradigan hududlar.Masalan, Fransiyaning

Bordo, Burgundiya, Elzas, Shampan hududlari. Bu hududlar Appelation d'Origine Controle (mahsulotning ishlab chiqariladigan joyi nomi bilan atalishi) xalqaro tasnifiga kiritilgan bo‘lib, bu joylar g‘aroyib vinolari bilan dunyoga tanilgan. Gollandiyaning Gauda va Edam shaharlarida ishlab chiqariladigan pishloqlar ham o‘zining ovozasiga ega.

Gastronomiya turizmi rivojlantirishning tashkilotchilari va tarafdorlari hozirga kelib dunyo bo‘yicha "Restoranli shahar" faxriy o‘rinlarini o‘ylab topishdi. Bunday nomni olishning bosh mezoni shahardagi restoranlarning oshxonalari turli shakllarda, turli usullarda bo‘lishi va bir restorandagi taomlar ikkinchi bir restoranda takrorlanmasligi kerak. Jahon gastronomiya turizmida hozirgacha "Restoranli shahar" nomlari Nyu-York, London, Parij, Tokio, Rim, Bryussel, Barselona, San-Fransisko va Yangi-Orlean shaharlariga berildi.

Xalqaro miqyosda "Restoranli shahar" nomini olishning asosiy mezonlari quyidagicha belgilangan:

- Shaharda taomlar madaniyatini bildiruvchi g‘aroyib oshxona bo‘lishi;
- Mahalliy aholi va turistlar orasida restoranlarda ovqatlanish uchun mablag‘ini ayamaydigan guruhlarning borligi aniq bo‘lishi;
- Shahardagi restoranning maqomi, nomi qandaydir shubha va gumonlardan xoli bo‘lishi, haqiqatdan ham dunyoda yagona bo‘lishi;
- Shaharda standart sifatli, dizayni va hashamatliligi jihatlaridan oliy klassli restoranlarning ma'lum miqdorlarda bo‘lishi;
- Shaharda taomlar menyusi bo‘yicha "eng yaxshi" restoranning bo‘lishi. Masalan, "Mishlen"(Rim), La-Pergola (Italiya), "Fet Dak"(Buyuk Britaniya), "Kodju" (Tokio) shunday restoranlardan hisoblanadi.

"Qizil gid" tashkilotining ekspertlari restoranlarni baholashga o‘ta jiddiy qarashadi va ob'ektiv mezonlar bo‘yicha baho beradi. Shundan keyingina restoranning reytingi aniqlanadi. Masalan, "Mishlen" restoranining "yulduzlari" quyidagicha beriladi:

- Bitta yulduz-yo‘l-yo‘lakay kirib o‘tiladigan restoran;

- Ikkita yulduz- mijozlarda-yaxshi restoran deyishmoqda, bir kirish kerak degan xulosalar hosil bo‘ladi;
- Uchta yulduz-mijozlar bu restoranga borish uchun maxsus, kelishilgan rejalarni tuzishadi va borishadi.

“Mishlen” restoranlari qurilishining, oshxonalarining va taomlarining g‘aroyibliligi, xizmatlarining oliy darajalarda kafolatlanganligi bilan dunyo restoranlarining baholarini berishda eng obro‘li ma’lumotlarni berishi tan olingan. Masalan, “Alprouz” (Shveysariya), mashhur monastr pivolarini pishiruvchi “Andeks” va “Ettal”restoranlari (Germaniya)“Mishlen” yulduzlari bo‘yicha baholangan. Shuningdek, gastronomiya va kulinariya yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumotlarni beruvchi ta’lim markazlari ham jahon miqyosida tobora tanilib borayapti. Masalan, Fransiya kulinariya san’ati akademiyasi-“La Cordon Bleu”, Italiya oshxonasi oliy maktabi-“Italian Cuisine High School”.

Kulinariya tadbirlarini: festivallar, ko‘rgazmalar, kulinariya bayramlari, taomlar va ichimliklarni tatib ko‘rish tadbirlari, koferensiyalarni o‘tkazuvchi shaharlar dunyo miqyosida gastronomiya turizmini rivojlantirish markazlariga aylanishmoq da. Masalan, “Rojdestvo ko‘rgazmalarini tashkil qilish bo‘yicha Keln,Drezden, Nyurnberg (Germaniya), Budapesht (Vengriya) shaharla ri jahonda lider davlatlar hisoblanadi.

Gastronomiya turizmining faoliyatlari. Gastronomiya sayohat larining barchasi asosan taomlar va ichimliklar bilan bog‘liq hisoblanadi. Biz quyida gastronomiya turizmidagi sayohatlarni ko‘rib chiqib, gastronomiya turizmining turlarini yoki alohida yo‘nalishlarini ajratishimiz mumkin. Masalan, faranglarning oshxonasini xush ko‘ruvchilar Parijdagi kulinariya klasslarini tanlashi yoki “Fransiya kulinariya maktabi”ning mehmoni bo‘lishi mumkin.

Italiya, Ispaniya va O‘rta yer dengizi mamlakatlari xalqaro turistlarga o‘z ta’tilini qishloqlaridagi “turist uylari”da o‘tkazishib mahalliy, hududiy taomlar va ichimliklarni nafaqat ta’tib ko‘rish balki, tayyorlash jarayonlariga qatnashishni ham tavsiya qilishadi.Ko‘plar hatto “Amerika kulinariya institutiga” nomdor oshpazlar va prof-

o‘qituvchilarning taomlar va ichimliklar haqidagi ma’ruzalarini eshitishga ataylab borishadi. Italiyaning “Xalqaro” va “Milliy kulinariya tashkilotlari” va gastronomiya turizmi tashkilotchilari dunyoda birinchilardan bo‘lib gastronomiya turlarini tashkil qildilar. Aynan, italyanlar o‘zlarnining savdo va texnologik ishlab chiqarish sohalariga “mazali taomlar va ichimliklar, sog‘lom ovqatlanish” shiorlarini qo‘shdilar va bu mamlakatga har-xil maqsadlar bilan kelayotgan turistlarni o‘zlarining oshxonalariga, ovqatlantirish korxonalariga qiziqtirishni uddaladi. Bugungi kunda “Turizm bo‘yicha Italiya milliy boshqarmasi”ning ma’lumotlari bo‘yicha 10% dan ortiq turistlar Italiyaga gastronomiya va vino turlari bo‘yicha kelishmoqda.

Erik Vulfning tashabbusi va rahbarligida 2003-yili “Xalqaro kulinariya turizmi assotsiatsiyasi “(The International Culinary Tourism Association) tashkil qilindi. Bu tashkilotning shiori- “Ovqatga va ichimlikga ommaviy qiziqtirishga asoslangan, o‘zaro foydali munosabatlarni, o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish yo‘llari bilan odamlarga, jamiyatga va korxonalarga yordam berish”deb belgilangan. Bu xalqaro tushkilotning yana bir shiori-“Mamlakatlarning madaniyatini, ularning milliy oshxonalari orqali bilish insonning qobiliyatini aks ettiradi”deyilgan.

Keltirilgan ma’lumotlar asosida dunyo gastronomiya turizmida faoliyat ko‘rsatayotgan gastronomiya turizmi marshrutlari bo‘yicha gastronomiya turizmining turlarini tartibga solish mumkin. Gastronomiya turlarining maqsadli auditoriyasi quyidagicha:

- mamlakatning madaniyatini uning taomlari bo‘yicha o‘rganish, ko‘rishni, ushbu jarayonlarga qo‘shilishni istovchi turistlar;
- “turist-gurman”- bu insonning ovqatlanishga juda katta talablari vao‘ta darajada nozik ishtahali, “turist-gurman”-katta ishtaha bilan ko‘p ovqatni xush ko‘ruvchi va yeyuvchi. Bu ikkala atama ko‘p hollarda bir xil ma’noda ishlatilmoqda;
- bir mamlakatning taomlariga qiziqishi yoki kulinariyaga, oshpazlikga, tatib ko‘ruvchi bo‘lishga, restorator, bufetchi bo‘lish uchun professional ta’lim olishni istovchi turistlar;

- turistik firmalarning gastronomiya turizmi yo‘nalishi bo‘yicha safarlarga chiquvchi vakillari;
- mamlakatlardagi sayohatlar vaqtida mahalliy taomlarni tatib ko‘rish va yeyishga qiziqib qoluvchi turistlar.

Hozirga kelib gastronomiya turizmining faoliyat turlari ancha tartiblashtirildi.Uning davlatlardagi faoliyat turlari Yevropa adabiyotlarida ham Rossiya davlatining adabiyotlarida ham gastronomiya turizmining faoliyat turlari asosan quyidagi ikki guruhli turlarga bo‘lishadi[89]:

- Qishloq gastroturlari.
- Shahar gastroturlari.

Qishloq gastroturlarida tanlov asosan biron-bir modda qo‘shilmagan ekologik toza taomlar bo‘ladi. Shuningdek, qishloq gastroturlarida gastroturistlar o‘rmonlardagi yovvoyi shifobaxsh mevalarni, ziravorlarni terib olishi, fermerlarning poliz va sabzavot ekinlaridan bahramand bo‘lishni hohlashadi, vino tayyorlashni ko‘rish ekskursiyalariga chiqishadi. Eng muhimi, xalqaro gastronomiya turizmi xulosalari bo‘yicha gastronomiya turizmi marshrutidagilar o‘zlari birinchi marotaba kelgan davlatlarning oshxonasi taomlariga, qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan harqanday oziq-ovqat mahsulotlariga qiziqadi lar.

Shahar gastronomiya turizmiga qiziquvchi gastroturistlar shaharlardagi restoranlarning firma taomlariga qiziqishadi, ular shahardagi barcha restoranlarning taomnomalari bilan tanishadi va navbati bilan restoran taomlarini iste’mol qilishadi. Shuningdek, ular shaharlardagi konditer fabrikalarini, kolbasa va sosiska sexlarini, mahalliy aholinining yoki turoperatorlar ning tansiq taomlari bo‘yicha axborotlaridan hatto umumiy ovqatlanish oshxonalarini ham surishtirib yurishadi. Shuning uchun ham, turoperatorlar gastronomiya turizmining yo‘nalishlarini yaxshi o‘zlashtirib olishlari lozim.

[89].Aleksandrova A.Yu. Mejdunarodniy turizm. Moskva, Norma,2008.-450 s.; Gonca G. S. Gastronomy tourism as an alternative tourism; 2015. 83 b;KlyapM. P.Sovremennieraznovidnostiturizma / uchebnoyeposobiye /M.: Znaniye, 2011.-334 s.; Sajna, S. Shenoy *Food tourism and the culinary tourist.* A thesis presented to the Graduate School of Clemson University. AdvisorDr. William C. Norman, 2005. -210 p.; Sicheva V. O,Shpenkova K. S. Usloviya razvitiya gastronomicheskogo turizma v Rossii i v mire // Jurnal Konsept, № 7.. Saratov. 2014- 126-130 s.;Shenikova N. V.Traditsii i kultura pitaniya narodov mira / uchebnoye posobiye /M.:Infra-M, 2015.-296 s.

Gastronomiya turizmining turlari quyidagicha ta’riflanadi:

1. Restoran gastroturi-milliy yo‘nalishlarga ega, ekslyuziv oshxonalari bo‘lgan, taomlari yuqori sifatliligi bilan ajralib turadigan, mashhur restoranlarga sayohat. Masalan, mashhur restoran shaharlarning birinchi o‘rinini Parij egallab turibdi. Faranglar –»Parij – moda va kulinariya poytaxti» deyishni juda yoqtirishadi.

2. Ta’lim gastroturi-bu turning maqsadi-maxsus ta’lim muassasalarida kulinariya mutaxassisligiga va master-klass kurslarida o‘qish. Masalan, Fransiyaning mashhur kulinariya maktabi-»Le Cordon Bleu» yanada mashhur mehmonxona «Four Seasons Hotel George V» bilan birgalikda- «Fransiya oshxonalarining ochilishi», «5 tun va 5 kun Parij mehmonxonasida» mavzularidagi kulinariya kurslari va dasturlarini doimo taklif qilishadi.

3. Ekologik gastrotur-bu turda gastroturistlar ekologik toza ishlovchi xo‘jaliklarda va ishlab chiqarish korxonalarida bo‘lishadi, ekologik toza, organik mahsulotlar va ularning ishlab chiqarilishi bilan tanishadi. Ekologik gastrotur yo‘nalishi Fransiyada, Germaniyada, Angliyada, Shveysariyadava AQShda juda rivojlangan.

4. Qishloqlarga gastrotur-xalqaro gastronomiya turizmida eng kuchli rivojlangan va rivojlanayotgan yo‘nalish hisoblanadi. Yevropa davlatlarining gastronomiya turizmida bu yo‘nalishni shaharliklar uchun maxsus yo‘nalish deb qabul qilishadi va “Gastroturlar+qishloq turizmi+ekologik turizm” dasturi asosida rivojlantirishadi. Qisqacha izoh berganimizda, Shahar ob–havosi va “zo‘riqishdan-stressdan” charchagan shaharlik turistlar (ko‘p hollarda oilali) fermerning dalalarida butun yozi bilan mehnat qilganidan xursand bo‘lishadi.

Yana ham muhimi, o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarning biri qismini o‘zlari bilan olib ketishadi. Shuning uchun ham, shaharlik amerikaliklar asosan uzoq chet mamlakatlariga kamroq chiqishadi. Buning asosiy sabablaridan biri mehnat qilish orqali dam olishsa, jismoniy jihatdan kuch to‘playdi, bolalari qishloq hayotidan mamnun bo‘lishadi, qishlik qishloq xo‘jalik mahsulotlarini g‘amlab olishadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida qishloq turizmining eng ko‘p turistik oqimini tashkil qiluvchilari 17% (ichki turizmning umumiy

ko‘rsatkichidan) asosan Amerika fermer xo‘jaliklarida turistik faoliyatda bo‘lishadi. Ular Amerika fermer xo‘jaliklari ning turli(dehqonchilik,chorvachilik,-yilqichilik va boshqalar) sohalarga ixtisoslashgan “rancho”larida oylab fermerlar ish uslublarini o‘raganishadi, ular bilan birga ovqatlanishadi. Bular asosan shaharlik oilaviy yoki “guruhli” turistlardir. Yevropa davlatlari qishloq gastronomiya turizmida dunyoda eng kuchli davlatlar hisoblanishadi.

5. Voqe’ali gastrotur-gastroturistlar gastronomiya turizmi bo‘yicha tashkil qilingan tadbirlar:ko‘rgazmalar, yarmarkalar, festivallar, gastronomiya bazmlari va gastronomiya bayramlariga qatnashishni xush ko‘rishadi.Masalan, birgina pivo festivallarini keltirish mumkin:

- Osiyo pivo festivali (Singapur, iyunning oxiri);
- Dunyoda eng katta va hozirda afsonalarga aylangan Oktoberfest festivali (1810-yildan boshlab sentyabrning oxiri 6-7 mln. gastroturist);
- Pivoli yoz festivali (Tallin, Estoniya, iyulning boshlarida);
- Pivo birjasi festivali (Firzen, Dyulken, Germaniya, iyulning boshlarida);
- Pivoli milya festivali(haryili avgust oyiningoxirida);
- Xalqaro pivo festivali (Sietl, AQSH, iyulning birinchi dekadasi);
- Chexiyaning Jatese shahridagi xmel va pivo festivali;
- Buyuk Britaniyaning pivo festivali
- Xalqaro pivo festivali (Portlend, AQSH, iyunning oxiri).

6. Kombinatsiyalashgan gastroturlar-dasturlariga yuqoridagi gastroturlarning barchasi kiritilgan gastrotur yo‘nalishi. Kombinatsiyalashgan turlarni ba’zi bir davlatlarning gastronomiya si bilan tanish bo‘lgan gastronomiyada ancha tajriba orttirgan gastroturistlar tashkil qilishadi. Masalan, gastroturistlar birinchi ikki kunlikda Parij restoranlarida bo‘lishadi, keyingi ikki kunda kulinariya maktabining mashhur, malakali oshpazlaridan bilimlar olishadi, uchinchi ikki kunlikda Fransiya ning shifobaxsh, ziravor o‘tlarini yetishtiruvchi Provansisida bo‘lishadi yoki olmadan tayyorlanadigan vinoni ichish uchun Normandiyaga yo‘l olishadi.

Gastronomiya turizmidagi yo‘nalishlarini, gastroturlarni va gastronomiya turizmining turlarini o‘rganishdan kelib chiqadigan xulosa shulki, gastronomiya turizmi turizmdagi barcha xizmatlarni, faoliyatlarni va turizmning boshqa turlarini ham o‘z ichiga oladi va turizm turlari ichida majmuali tur hisoblanadi. Chunki, turizmning harqanday turi bilan vatanimizga kelgan xalqaro turistlar albatda milliy oshxonamizga, milliy taomlarimizga, milliy ichimliklarimizga qiziqishadi.

Gastronomiya turizmi, gastrotur-bu boshqa davlatlarning milliy oshxonasidagi asosiy xususiyatlar bilan tanishish, milliy taomlari va milliy ichimliklarini iste’mol qilish, tatib ko‘rish bilan bog‘lik turistik faoliyatlarning, rejalar va tadbirlarning butun bir majmuasi hisoblanadi. Shuning uchun ham biz gastroturistlardagi asosiy xususitlarni yaxshilab o‘rganishimiz zarur.

Gastronomiya turizmida gastroturistlar o‘zlarining taomlarini tanlash bo‘yicha quyidagi xususiyatlarga ajraladi:

-milliy taomlar va milliy oshxonalar gastroturistik sayohatga chiqishning dastlabki omili;

-milliy taomlar bilan ovqatlanish va milliy ichimliklarni ichish unutilmas sayohat ekanligi;

-yangi taomlarni tayyorlash tajribalarini olganligi;

-yangi mahalliy oziq-ovqatlarni iste’mol qilishning yaxshi kayfiyatlar keltirganligi va boshq.

Gastronomiya turizmining tasifidagi birinchi navbatda gurmanlar (8,6%), ya’ni mazali taom istovchilar uchun jozibador bo‘lib, ularga tansiq taom, bu nafaqat yegulik balki, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlovchi lahzalar hisoblanadi Ikkinchidan, gastrono mik sayohatlar ish faoliyati ovqat tayyorlash va tanovul qilishga bevosita bog‘liq bo‘lgan kasb egalarini, xususan restoran boshqaruvchilarini, tatib ko‘ruvchilar, restoran tanqidchilari, gastronomiya havaskorlari, yangi taomlarga qiziquvchi oshpazlar, hatto taom tayyorlashni miriqib tomosha qiluvchilvr kabi insonlarni o‘ziga jalb qiladi.

Hozircha gastroturlarning yo‘nalishlarini gastroturistlar ning tasnifi bilan chalkashtirilmoqda. Gastroturlar turizm firmalarining

gastroturlar bo‘yicha ishlab chiqilgan turlari hisoblanadi. Gastroturistlarning tasnifidan ma’lum bo‘ladiki, gastroturlarning faoliyatlari biri-biriga yaqin bo‘lganligidan gastronomiya turizmida alohida, katta quyidagi yo‘nalishlarni ham tashkil qiladi:

- gurman turizmi-faqat tansiq va mazali taomlarga qiziquvchilar turizmi;
- gastronomiya turizmi-boshqa davlatlarning milliy ovqatlari va milliy ichimliklariga qiziquvchilar turizmi;
- oshxona turizmi-boshqa davlatlarning milliy oshxonalariga (taomlar va ularning tayyorlanishi) qiziquvchilar turizmi;
- kulinariya turizmi-boshqa davlatlarida gastronomiya turizmiga mutaxassislar tayyorlash, mashhur oshpazlarda tajriba orttirish, milliy kulinariya maktablarida o‘qish, kulinariya festivallariga, ko‘rgazmalariga, konferensiyalariga qatnashish;
- degustatsiya turizmi-yangi taomlarni va yangi ichimliklarni tatib ko‘rishga qiziquvchilar.

10.2. Gastronomiya turizmining resurslari

O‘zbekistonda gastronomiya turizmining resurslari haqida fikrlar bildirilganda ko‘pchilikda osh, tandir kabob, somsa, dimlama, tabaka kabi taomlar tansiq taomlarimiz hisoblanadi. Lekin xorijiy gastroturistlar uchun ham shunday bo‘ladimi? Turizm ta’limida yaratilayotgan darsliklarda ham gastronomiya turizmi uchun ancha unutilgan milliy taomlarimizning ro‘yxatlari ham e’lon qilinmoqda[90]. Ushbu jadvalni qo‘shimcha taomlarni, milliy shirinliklarni va milliy ichimliklarni kiritish bilan keltiramiz (10.1-jadval).

10.2.1-jadval

O‘zbekistonning gastronomiya turizmi resurslariga tavsiya qilinadigan qadimiy milliy taomlar[91]

№	Taomlar nomi	Tayyorlanadigan manzillari	Taomlarningasosiyxususiyatlari Haqida
1.	Osh (palov)	O‘zbekistonliklar-ning milliy taomi	O‘zbekistonliklarning har bir xonadonida tayyorlanadigan milliy taomimizning

[90].Tuxliyev I.S.,Hayitboyev R.,va boshq..Turizm asoslari.Darslik, «Fan va texnologiya», Toshkent, 2014.-331 b.
[91]Tuxliyev I.S.,Hayitboyev R.,va boshq.Turizm asoslari, Darslik, «Fan vatexnologiya»,Toshkent,2014.-331 b.

			hozirga kelib 60 xili ro‘yxatga olingan. To‘y-tantanalari- mizning sevimli taomi.
2.	Atala	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi. (Sut atala, un atala, ko‘k atala)	Atala–yurtimizdagi eng qadimiy taomlardan biri hisoblanadi. Qadimdan ota bobolarimiz atalani quvvat bag‘ishlovchi darivor taom sifatida iste’mol qilishgan. Bu taom to‘yimliligi bilan bir qatorda, oshqozon kasalliklariga davo hisoblanadi.
3.	Qurtoba	Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tayyorlanadi.	Qurtoba–qadimiy taomlarimizdan biri hisoblanadi. Bu taom barcha xonadonlarda tayyorlangan.Chunki qurtoba inson organizmiga nixoyatda foydali, tanani qizdiruvchi va qo‘shimcha quvvat beruvchi taom.
4.	Shirchoy	Bu taom ham yurtimizning barcha viloyatlari dasturxoniga nonushtasiga tayyorlanadi.	Shirchoy–ham qadimdan xalqimiz orasida eng mashxur taomlardan biridir. Chunki bu taom oson tayyorlanishi bilan birga yengil xazm bo‘luvchi taom hisoblanadi. Oshqozon, buyrak va yurak kasalliklariga davo hisoblanadi. U o‘zining badanga tez singishi, ko‘p quvvatlililigi bilan mashhur.
5.	G‘ilmindi	Surxandaryo va Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Qo‘shrabot tumanlarida, Jizzax viloyatining G‘allaorol, Baxmal, Zomin tumanlarida maromiga yetkizib tayyorlanadi.	G‘ilmindi- qadimdan ota-bobolarimiz dalada ishlab xoldan toyganlarda shuningdek, mo‘tabar mehmonlarga tayyorlab berilgan. Chunki xalqimiz orasida juda kuchli taom hisoblanadi. Bu taomni faqatgina ustasigina maromiga yetkazib tayyorlashi mumkin. Tayyorlash usuli murakkabligi bois xalqimizning barcha xonadonlarida ham tayyorlanmaydi. Taom kam quvvatlilarga tavsiya etiladi. Yengil, ishtahani ochuvchi, kishini uzoq muddat to‘q tutish xususiyatiga ega.
6.	Yupqa	Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Qo‘shrabot tumanlarida, Jizzax viloyatining G‘allaorol tumanlarida maromiga yetkazib tayyorlanadi.	Yupqa – xalqimizda qadimda asosan qish oylari juda sovuq kelganda, oiladagilardan biri qattiq shamollaganda tayyorlangan. Janglarda askarlarga ham aynan shu taom ko‘pincha tayyorlab berilgan. Bu taom nixoyatda kuchli taom hisoblanadi. Hamma organizm ham bu taomni ko‘tara olmaydi. Faqat kuchli organizmli insonlargina bu taomni ist’emol qila oladi.

7.	Go‘ja	Yurtimizning tog‘ oldi tumanlarining barchasida tayyorlanadi.	Go‘ja xalqimizning yozning issiq oylarida chanqovbosdi taom sifatida iste’mol qilinadigan taomi hisoblanadi. Sutli go‘ja Toshkent va Farg‘ona vodiy tomonlarda tayyorlanadi. Shuning uchun ham bu taom jo‘xori, makkajuxori va bug‘doy yetishtiriladigan joylarda ko‘proq tayyorlanadi. Ushbu taom holsizlikning oldini oladi.
8.	Tandir kabob	Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarining tog‘li tumanlarida tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining eng mazali taomi sifatida iste’mol qilinadi.
9.	Kulchatoy	Yurtimizning barcha tumanlarida tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining eng sevimli taomlari sifatida iste’mol qilinadi. Ko‘pincha mehmonlar taomi deb yuritiladi.
10.	Mosh kichiri	Yurtimizning barcha tumanlarida ayniqsa Toshkent viloyatida ko‘p tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining eng sevimli taomlari sifatida iste’mol qilinadi, parhez taomlari turiga kiradi.
11.	Moshxo‘rda	Yurtimizning barcha tumanlarida ayniqsa Toshkent viloyatida tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining eng sevimli taomlari sifatida iste’mol qilinadi. Ayniqsa, Toshkent shahri va Toshkent viloyatlari aholisi sevib iste’mol qiladigan taom hisoblanadi.
12.	Ugra palov	Samarqand viloyati va unga yaqin joylarda tayyorlanadi.	Samarqand viloyati va unga yaqin joylar aholisining eng sevimli taomlari sifatida iste’mol qilinadi.
13.	Sumalak	Yurtimizning barcha tumanlarida tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisi bahor faslida pishiradigan milliy taomi sifatida qadrlanadi. Bu taom insonlarga kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Musulmon dunyosida Navruz taomi deb yuritiladi.
14.	Qatlama	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining sevimli non mahsulotlari sifatida iste’mol qilinadi. Aholi orasida mashhur non mahsuloti bo‘lib, ko‘pincha to‘y va marakalarda pishiriladi.
15.	Norin	Yurtimizning Toshkent shahri va Toshkent viloyatlari xududlarida tayyorlanadi.	Sumalak va xalimdan (xalisa) keyin eng uzoq tayyorlanadigan taomlardan biri, taomdagi turli tuman maza-ta’m hozirgacha norinning dovrug‘ini, sirliligini saqlab kelmoqda.
16.	Xasip	Yurtimizning barcha joylarida, turli	Bu taom ham xalqimizning eng sevimli taomlaridan bo‘lib, asosan so‘yilgan

		usullarda tayyorlanadi.	molning kalla, oyoqlari, oshxozon va ichaklaridan tayyorlanadi hamda to‘yimli, quvvat bag‘ishlovchi taom hisoblanadi.
17.	Qiyma kabob	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi.	Bu taomning dovrug‘i butun mamlakat va hattoki xorijlik mehmonlarga ham yetib borgan. O‘zining pishirilish jarayoni, ta’mi, ko‘rinishi har qanday kishining ishtahasini ochadi.
18.	Chalop	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi.	Yurtimizning hamma viloyatlarida ayniqsa yoz mavsumida tayyorlanib iste’mol qiladigan asosiy suyuq taom hisoblanadi. Chalop issiq kunlarda ishtaha ochuvchi va tez hazm qiluvchi taomdir.
19.	Tuxum barak (Xorazmcha taom)	Yurtimizning Xorazm, Buxoro va Navoyi viloyatlarida tayyorlanadi.	Tuxum barak asosan Xorazm, Buxoro va Navoyi viloyatlarida tayyorlanadi gan taom bo‘lib, milliy oshxonamizda qadimiyligiga va o‘z muhlislariga ega bo‘lgan quvvat bag‘ishlovchi mazali taomlardan hisoblanadi.
20.	Cho‘pon kabob	O‘zbekistonning tog‘li aholisi tayyorlaydigan mazali qadimiy taom.	Hizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo tog‘li xalqlari asosan qo‘y go‘shtidan tayyorlaydigan ekologik toza taom.
21.	Qozon kabob	O‘zbekistonning cho‘l mintaqalarida yashovchi xalqlar ko‘pincha mehmonlar uchun tayyorlaydi	Ziravorlar qo‘shilgan go‘shtning faqat o‘zining tarkibidagi yog‘ va suv hisobidan dimlab tayyorlanadigan juda mazali ekologik toza taom.
22	Qotirma non	O‘zbekistonning barcha hududlarida uyda non yo‘qligidan tezkor usulda o‘choqdagi o‘tin cho‘g‘i taftida tayyorlanadi.	Tegirmon unidan tayyorlangan hamir achitilmaydi, la’li kengligida kattartilib, qizigan qozonda biroz qotirildadi va o‘tin cho‘g‘i atrofida aylantirilib pishiriladi. O‘rtasi ga uyda tayyorlangan sarig‘ yog‘ qo‘yiladi va atrofidan sindirilib yeyiladi. Juda mazali, ekologik toza non.
Milliy ichimliklar:			
1.	Qimiz	O‘zbekistonning tog‘li hududlaridagi aholilar tayyorlaydi	Biya sutidan achitilib, maxsus shifobaxsh o‘tlar bilan tayyorlanadigan shifobaxsh ichimlik. Nafas olish yo‘llarini, o‘pkani har xil kasalliklardan forig‘ qiladi.
2.	Shubat-qimiz	O‘zbekistonning cho‘l mintaqalaridagi aholilar tayyorlaydi	Tuya sutidan tayyorlanadi. Shifobaxsh, chanqov bosdi, dorivor sifatida keng iste’mol qilinadi.
3.	Qo‘y qatig‘i	O‘zbekistonning barcha hududlarida asosan buyurtma va	Qo‘y sutidan maxsus resept bilan tayyorlanadi va sog‘lom kishilarga tavsiya qilinadi.

		mehmonlar uchun tayyorlanadi.	
4.	Ayron	O‘zbekistonning barcha hududlarida tayyorlanadi	Yoz oylarida ayronga talab juda kuchayadi, chanqov bosdi ichimligi, oshqozon faoliyatini me’yorash tiruvchi xususiyatlari ham mavjud
Shirinliklar:			
1.	Asal	O‘zbekistonning barcha viloyatlarida yetishtiriladi	Ming bir dardga davo deb tariflana digan asalimiz gastronomiya turizmidagi sevimli shirinliklari mizdan bo‘lishi tabiiy hol.
2.	Nisholda	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi.	Nisholda ota-bobolarimizdan qolib kelayotgan, to‘y va marakalarda tortiladigan shirinliklardan biri bo‘lib, hozir ham iste’mol qilinadi. Nisholda oppoq piyolaga solib qo‘yilsa dasturxonni bezatadi, hazm qilish xususiyatlari kuchli.Muqaddas ramazon oyida eng ko‘p iste’mol qilinadigan eng muhim shirinlik.
3.	Xolva 1-(kunjutli 2-oq holva	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining sevimli shirinliklari sifatida iste’mol qilinadi. Aholi orasida mashhur shirinlik bo‘lib, ko‘pincha to‘y va marakalarda, bayramlarda pishiriladi. Ayniqsa, ramazon oyida juda ommaviylashadi.
4.	Soch holva	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining sevimli shirinliklari sifatida iste’mol qilinadi. Aholi orasida mashhur shirinlik bo‘lib, ko‘pincha to‘y va marakalarda, bayramlarda pishiriladi. Ayniqsa, ramazon oyida juda ommaviylashadi.
5.	Rangli qand holva	Yurtimizning barcha joylarida, turli usullarda tayyorlanadi.	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining sevimli shirinliklari sifatida iste’mol qilinadi. Aholi orasida mashhur shirinlik bo‘lib, ko‘pincha to‘y va marakalarda, bayramlarda pishiriladi. Ayniqsa, ramazon oyida juda ommaviylashadi.
6.	Parvarda	O‘zbekistonning barcha hududlarida tayyorlanadigan eng qadimiy shirinlik	Choy bilan, ovqatdan keyin choy bilan istemol qilinadi, tarkibiga shifobaxsh, ovqat xazm qiluvchi ziravor o‘simliklar qo‘shilganligi dan keksalar ko‘p iste’mol qilishadi. Ramazon oyining sevimli shirinligi.
7.	Novvot	O‘zbekistonning barcha hududlarida	O‘zbekistoning barcha viloyatlari aholisining sevimli shifobaxsh shirinliklari

		tayyorlanadigan eng qadimiy shirinlik	sifatida-yil davomida iste’mol qilinadi.

Tayanch so‘zlar: gastronomiya, kulinariya, taom, marakalar, ramazon oyi, manifest, festival, sayil, rancho, gurmanlar.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Gastronomiya so‘zining kelib chiqishini tushuntiring.

2.Gastronomiya birinchi bo‘lib qaysi davlatda tashkil qilindi va asoschisi kim?.

3.Nima uchun O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlan tirishimiz kerak?.

4.O‘zbekistonning qaysi taomlari xalqaro gastronomiya turizmida ommaviylashi haqida isbotlaringizni tushuntirib bering.

5.Siz yashab turgan joydagi milliy taomlar haqida ma’lumot lar bering.

XI BOB. MILLIY MADANIY MEROS TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

11.1. Milliy madaniy meros turizmi

O‘zbek xalqining madaniy merosi boy va ko‘hna tarixga ega. Shu bois mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, eng avvalo, tarixiy merosimiz, ma’naviy qadriyatlarimiz va an’analarimizni tiklashga katta e’tibor qaratildi. Ayniqsa, nomoddiy madaniy meros namunalarini o‘rganish, targ‘ib qilish borasidagi ishlar dunyo hamjamiyati e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Milliy madaniy meros boyliklari millatning aql-idroki, madaniyati va yaratuvchilik ijodi, taraqqiyot salohiyatining mevasi hisoblanadi.

Milliy madaniy meros millat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelib millatning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan boylik hisoblanadi. Shuning uchun ham, u millatning o‘z kelajagini yaratishda tayanch va tajriba manbai bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklari haqida mukammal asarlar bitilgan. Bu asarlar, xalqimiz o‘zining qadimiy an’analari, urf-odatlari, milliy qurish san’ati, milliy madaniyati va milliy o‘yinlarini ko‘z qorachig‘idek saqlab kelayotganligi haqidagi tarixiy hujjatlardir.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o‘zining mustahkam o‘rnini egallashi jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoi-iqtisodiy, ma’naviy–ma’rifiy sohalarda kishilar tafakkurida ijobiy taraqqiyot tomoniga o‘zgarish, shakllanishi jarayoni kechmoqda. Bor narsani izlash, ma’lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf etish kerak bo‘lmaganidek, o‘tmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib, jamiyat o‘z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo‘llarini tanlaydi, hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘tmishdan qolgan barcha narsalar butunlay o‘zlashtirilmaydi, balki yangi davr va talabiga, ruhiy javob beruvchi, mohiyatan zarur narsalargina olinadi.Hozirda eskirgan va kerakmas deb hisoblangan narsalar, kelajakda balki, yangi mohiyat va muhim ahamiyat kasb etar.

Har bir millatning milliy madaniy merosi o‘sha millat tomonidan

yaratilgan moddiy ma’naviy va boshqa barcha turdagi merosni qamrab oladi. Ularning ayrimlari umumjahon mezonlariga ega bo‘lsa, ba’zilari shu millat e’tiboridagi meros sanaladi. Milliy meros millatning tafakkuri, dahosi, dunyoqarashi va yaratuvchilik salohiyatining mahsulidir. O‘zbek xalqining madaniy merosi ming -yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O‘zbekiston hududida etiqod qilingan zardushtiylik, buddizm, islom dini va boshka dinlar yaratgan ma’naviy-axlokiy qadriyatlar majassamlangan.

Unda butun dunyoga mashhur imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahoviddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Aburayhon Beruniy, Ibn Sino, Ulugbek, A.Navoiy kabi ko‘plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati gavdalangan, bu merosda Amir Temur va Zahiriddin Boburlarning davlatchilik va siyosiy qurilish tajribalari; buyuk me’morchilik yodgorliklari, tasviriy san’at, musiqa, amaliy san’at asarlari: xalq urf-odatlari va an’analari, marosimlari, milliy sport turlari uyg‘unlashgan.

Har bir xalqning o‘zi uchun e’zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg‘iz xalqi “Manas” dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o‘zbeklar Samarqandu Buxoro va Shahrisabz va Xiva shaharlari bilan haqli ravishda faxrlanadilar.Millat va elatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.

Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning tarkibi quyidagilarni kiritishgan:

- Tarixiy meros va tarixiy xotira;
- Madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo‘lyozmalar;
- Ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- San’at va milliy adabiyot;

- Axloqiy fazilatlar;
- Diniy qadriyatlar;
- Urf-odat, an’analar va marosimlar;
- Ma’rifat, ta’lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy ma’naviy qadriyatlarning ana shu har bir ko‘rinishi muhim ahamiyatga ega. Milliy an’analar-milliy qadriyatlarning bir bo‘lagi bo‘lib, u millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va islohotlarning avloddan-avlodga o‘tish hamda meros bo‘lib qolish tarzi.

Mustaqillik-yillarining mevasi sifatida kelib chiqgan an’analarga aylanib borayotgan bayramlar ham mavjud:

- 1 yanvar - Yangi-yil;
- 8 mart - Xalqaro xotin - qizlar kuni;
- 21 mart - Navro‘z bayrami;
- 9 may - Xotira va qadrlash kuni;
- 31 avgust - Qatag‘on qurbonlari shahidlari kuni;
- 1 sentyabr - Mustaqillik kuni;
- 1 oktyabr - O‘qituvchilar va murabbiylar kuni;
- 8 dekabr - Konstitutsiya kuni;
- “Ramazon hayit”i (Iyd al-Fitr);
- “Qurbon hayit”i (Iyd al - Adha).

O‘zbekiston milliy turizmida yangi-milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda milliy madaniy meros turizmining tushunchasi,mazmuni, mohiyati, tarifini keltirishdan oldin albatda milliy madaniy meros boyliklarini tushunib, bilib olishimiz lozim. Chunki, bizning tadqiqotlarimizda umummilliy madaniy merosimizning bir guruhidan-nomoddiy milliy meros boyliklari dan turizmda foydalanishning istiqbolli yo‘llarini tadqiq qilish maqsad qilib qo‘yilgan. Shuning uchun ham, O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish nomoddiy madaniy meros boyliklarining, ob’ektlarining guruhlari va tasniflari bilan tanishish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini

muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunida belgilanganidek, madaniy meros ob’ektlari quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

1.Moddiy madaniy meros ob’ektlari-tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

2.Nomoddiy madaniy meros ob’ektlari-tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar[92].

Xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy madaniy meros ob’ektlaridan foydalanishning maqsadi va vazifalari aniqlangan da e’tibor berish kerak-ki, har bir davlat o‘z xalqining o‘tmish madaniy merosining boshqa xalqlarda uchramaydigan ko‘rinishlari ni, milliy an’analarini jahondagi boshqa xalqlarga ko‘rsatishni, va o‘tmishidagi voqe’liklar va jarayonlar bilan tanishtirishni hoxlaydi. Chunki, hozirgi globallashuv jarayonida geosiyosatning xalqlarni, millatlarni kamsituvchi yo‘nalishlari ham shiddat bilan ishlamoqda.

Hozirda jahon turizmida milliy madaniy meros boyliklarining moddiy madaniy meros ob’ektlari tarixiy-madaniy turizm turining asosiy resurslari hisoblanadi. Shuning uchun ham, mamlakatimizda yangi milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda biz milliy meros boyliklarining ikkinchi guruhi-nomoddiy madaniy meros boyliklaridan foydalanish tadqiqotlarini amalga oshirdik.Aniqrog‘i-xalqimizning nomoddiy madaniy meros boyliklaridan ham turizmda foydalanishning dolzarbligini, istiqbolli ekanligini o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari bo‘yicha asosladik.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy meros ob’ektlari dan foydalanishning maqsadi va vazifalari bu milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanib faqatgina daromad olish emas. Aksincha:

[92] O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy me’ros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh.,2001 yil 30 avgust, 269-II-son

-vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan dunyo xalqlarini tanishtirish, ularda xalqimizga bo‘lgan hurmat va ehtiromni shakllantirish, ularning xalqimizga nisbatan etik-estetik tushunchalarini shakllantirish;

-mustaqil davlatimiz–O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga qiziqishni oshirish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirish;

-tarixiy joylar, osori atiqalar, yodgorliklar, ziyoratgohlar bilan tanishtirib xalqimizning o‘tmishiga va hozirgi hayotiga havaslarini kuchaytirish;

-“Mening davlatim”, “Mening xalqim”, “Mening Vatanim” kabi hayotiy g‘ururimizni ko‘rsatish;

-tuman, shahar, viloyat va respublika ma’naviyat-ma’rifat markazlari, oliygohlar, ilmiy tekshirish institutlari, muzeylar, sayohat muassasalari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlashlarini, do‘stona hamkorlik qilishlarini yo‘lga qo‘yish;

-muzeylar, tarixiy joylar, zavod-fabrikalar, san’at dargohlari, konsert zallari, teatr, televideniye va hokazolarga sayohatlari tashkil etish;

-qayd qilingan manzillar, obidalar, tabiatning mujizaviy haykallari, milliy ishlab chiqarish, milliy uyinlar, arxeologik manzillar, tarixiy ekologik asrlar-yilnomasidan o‘tib, hozirgi ko‘rinishini olgan tavsiflar, yo‘nalishlar sabr-toqatli, chidamli xalqimizning asrlar davomidagi ijodi, mehnati, butun boyliklarini asrab-avaylab, saqlab kelayotganligi, o‘ziga xos bo‘lgan turmush kechirishini ko‘rsatish.

Turizmning aniq bir turini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda dastlab ana shu turning mohiyatiga, maqsad va vazifalariga to‘xtalish o‘rinli bo‘ladi.Turizmdagi turlarning mohiyatini, mazmunini, tushunchasi va faoliyatini aniq qilib tariflash, tasniflash natijasida turizmni rejalashtirish ishlari osonlashadi, aniq rivojlantirish yo‘nalishlari paydo bo‘ladi.

Milliy madaniy meros turizmining tarifi “Tarixiy va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro Kengashi”da (ICOMOS International Council on Monuments and Sites) qabul qilingan “Xalqaro turizm hartiyasi” (International Tourism Charter, 2002)da keltirilgan. Bu tarif quyidagicha berilgan-*“Madaniy meros turizmi-bu madaniyat va tashrif joylaridagi madaniy muhit, aholining an’analari, ularning yashash tarzlari, badiiy madaniyati va san’ati, mahalliy aholining bo‘sh vaqtlarini o‘tkazish shakllarini bilan tanishishdan iborat turizmdir”*. Xorij davlatlarida milliy madaniy meros turizmini madaniy meros turizmi deb nomlashgan[93].

O‘zbekistonning milliy turizmida hozirda xalqimizning milliy meros boyliklaridagi moddiy meros boyliklaridan turizmda foydalanmoqdamiz. Bu yo‘nalishda tarixiy-madaniy turizm va ziyorat turizmi tobora rivojlanib bormoqda. Moddiy meros boyliklaridan turizmda foydalanishda-zahirada arxeologik turizmni tashkil qilish va rivojlantirish o‘zining tadqiqotchi-tashkilotchi-tadbirkorlarini kutib turibdi. Milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanish bo‘yicha vatanimizda almiy tadqiqotlar boshlanmagan-ligini qayd qilgan edik.

Xorijiy davlatlarda xalqlarning milliy merosi boyliklari dan turizmda foydalanishda moddiy meros boyliklari dan foydalanish ustivor ekanligi ma’lum bo‘ldi[94]. Rossiyada milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanishni - “madaniy bilish turizmi”deb nomlashadi[95], Yevropada esa, asosan tarixiy madaniy turizmga kuchli e’tibor berishgani ma’lum[96]. Madaniy bilish turizmining mohiyatiga to‘liq ta’rif berganimizda bu turizm turining ijtimoiy-iqtisodiy-madaniy jihatlarida baho berish to‘g‘ri bo‘ladi.

Turizmning har bir turlariga qiziquvchilar, ishqibozlar bor. Birovlar faqat tarixiy obidalarga qiziqadi, ikkinchi bir turist esa faqat tabiat bag‘rida bo‘lishni xo‘sh ko‘radi. Hayotni xavf ostida qo‘yib

[93] Romania: geography a. tourism / [Mihai Ielenicz a. o. ; ed. by: Ioan Mihailescu; pict.: Felics Florian Munteanu a. o.]. Bucharest : Royal Company, [2001]. 327 p. : col. ill., maps.; Vsemirnoye kulturnoye i prirodnoye naslediye: Dokumenti, kommentarii, spiski ob’ektov. M., 1999.- 267- 31 s

[94]Aleksandrova A.Yu. Struktura turistskogo rinka. M.: Press-Solo, 2002.-384 s.

[95]Korjanova A.A.,Perspektivi napravleniya razvitiya kulturno-poznavatelnogo turizma v Rossii. Fundamentalnie issledovaniya., № 2-18,M.:2015.-S. 4044-4047.

[96] Romania : geography a. tourism / [Mihai Ielenicz a. o. ; ed. by: Ioan Mihailescu ; pict.: Felics Florian Munteanu a. o.]. Bucharest : Royal Company, [2001]. – 327 p. : col. ill., maps.

dengiz va okayenlardagi g‘orlarga sayohat qiluvchilar ham anchagina va hokazolar. Lekin insonlarning ko‘pchiligi har qanday sohaga qiziqadi, ko‘rishni, o‘rganishni, xullas bilishni, bilim olishni hohlaydi. Turizmdagi bu yo‘nalish alohida-madaniy bilish turizmi yo‘nalishini hosil qilgan. Bu insonlarning maqsadi dunyodagi har xil davlatlar va xalqlarning ma’naviy boyliklarini va moddiy boyliklarini o‘zida boyitish hisoblanadi. Madaniy bilish turlarida turist alohida xalqlarning, elatlarning madaniyati, bu madaniyatning tarixi, hozirdagi holatlari bilan tanishadi.

Madaniy bilish turizmi insonning dunyoqarashini kengaytiradi, o‘rganayotgan xalqlarning madaniyati, yashash tarzi, maishiy yashashi, urf–odatlari, hozirdagi rivojlanishi darajalari bilib olishga yordam beradi. Inson bilish qobiliyatini kuchaytirgani sari dunyodagi jarayonlar, hodisalar va voqe’lik ning mohiyatiga, sabab va oqibatlariga tezroq tushunib yetadi. Bilish faoliyati natijasida inson dunyoning ichki va tashqi omillarining kelib chiqishini sezadi, hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlaydi. Insonning bilishga qiziqishi uning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan jismoniy yoki aqliy harakati hisoblanadi. Lekin, bu harakatni amalga oshirish uchun insonga u hohlagan sharoit, muhit yaratilishi kerak bo‘ladi.

Madaniy bilish turizmida inson o‘z xalqi, millati madaniyatini, ko‘rib, bilib, kelgan xalqlar, ellar madaniyati bilan solishtiradi, taqqoslaydi va o‘z hayoti, oilasi hayotida qandaydir qulay yo‘llarni kashf qiladi. Bundan tashqari boshqa davlatlar bilan, boshqa xalqlar bilan tanishishi natijasida u kitoblarda aynan shu davlatlar va xalqlar haqida xulosalar chiqaradi. Bu bilan u nazariy bilimlarining amaldagi holati haqida o‘zi uchun kerakli xulosalar chiqarib oladi.

Inson o‘zining madaniy bilish turizmi faoliyatida jamiyatdagi o‘rnini anglaydi, u dunyoni his qilishini belgilaydi va dunyo xalqlari madaniyatiga baho beradi. Bu xulosalarga kelish esa har bir inson uchun juda muhim hisoblanadi. Arablardagi madaniyat va taraqqiyot albatda yaqin Sharq va Vizantiya madaniyatiga suyanish, Ruslarning Konstantinopolga sayohatlari Rusda xristian likning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Ko‘plab sayohatchilar o‘z sayohatlari natijasida

dunyodagi ko‘plab xalqlar madaniyati, yashash sharoitlari haqida asarlar qoldirib ketgan.Bu ilmiy manbalar albatta ko‘plab xalqlarning iqtisodiy va ma’naviy yaqinlashishiga keyincha lik xizmat qildi. Ko‘plab xalqlar o‘rtasida iqtisodiy, madaniy aloqalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Madaniy bilish turizmi turistlarning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari bo‘yicha 2 guruhga, ya’ni turizmda 2 yo‘nalishga bo‘linadi:

1.Ixtisoslashgan madaniy bilish turizmi.

2.Ixtisoslashmagan madaniy bilish turizmi.

Ixtisoslashgan madaniy bilish turizimidagilar o‘z maqsadlari, qiziqishlari bo‘yicha ham turli yo‘nalishlarga bo‘linib ketadi. Masalan, ko‘plab turistlar dunyodagi qadimiy tarixiy obidalarga qiziqadi, ko‘plab turistlar esa o‘zga xalqlarning yashash tarzi, milliy madaniyati, urf–odatlariga qiziqadi. Xuddi shuningdek, ko‘plab xalqlarning milliy san’atiga qiziqadi, boshqa jihatlari ular uchun hech qiziqarli emas. Bu yo‘nalishlarning barchasi ixtisoslashgan madaniy bilish turizmini hosil qiladi.

Ixtisoslashmagan madaniy bilish turizmida faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘zga davlatlardagi barcha narsalarga, tarixiy obidalarga ham, bu davlatning xalqiga ham, tabiatiga ham qiziqishadi. Ya’ni yo‘l–yo‘lakay, oldindan nima chiqsa qiziqadi, so‘rab – surishtiradi.

Keltirilgan tahlillardan xulosa qilib, xorij davlatlarida madaniy bilish turizmini o‘zimizning tilimiz, tushunchalarimizga moslab – milliy madaniy meros turizmi deb atashimizga hech qanday mone’lik kelib chiqmaydi. Bizning milliy madaniy meros boyliklari deyishimiz bilan ular nimalar ekanligi aynan shu so‘z va shu atama bilan bolaligimizdan ongimizga singdirilgan. Madaniy bilish turizmi deyishimiz bilan qanday madaniyatni bilish savoli kelib chiqadi. Ikkinchidan, hayotimizdagi har qanday yangilik, voqe’lik va jarayonlarni tilimizdagi o‘z so‘zimiz bilan nomlashga ham ma’sul bo‘lishimiz lozim. Shunday qilib, *milliy madaniy meros turizmining mohiyati* xalqning, millatning milliy merosi boyliklari orqali birinchi navbatda o‘zga davlatlar va o‘zga xalqlarning madaniyati, ma’naviyati va yashash tarzini, an’analarini o‘rganish, bilish va

bundan o‘zi uchun xulosalar olishdir.

Rossiyalik mutaxassislarning xulosalari bo‘yicha milliy madaniy meros turizmi XXI asrda xalqaro turizmda istiqbolli turlarning biriga aylanadi. Faqatgina milliy madaniy meros turizmi jahon xalqlarining, millatlarning biri-biri bilan o‘zaro tanishishiga olib keladi. Aynan milliy madaniy meros turizmi xalqlarning milliy an’analari bilan tanishish, milliy qadriyatlarini hurmat qilishga zamin yaratadi[97].

O‘zbekiston xalqlarida milliy meros boyliklarining turli-tumanligi, ko‘plab yo‘nalishlarining mavjudligi, hatto alohida sohalarni hosil qilishi bu boyliklardan turizmda foydalanish ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy jihatlardan faqat va yana faqat ijobiy va istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘ladi.

11.2. Milliy madaniy meros turizmining resurslari

Biz turizmda milliy madaniy meros turizmining sohalari, yo‘nalishlarining resurslari, ob’ektlari bu turizm turining kelgusidagi taraqqiyotida istiqbolli maxsus turlar bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi milliy etika, milliy madaniyat va milliy san’at sohalarini, milliy hunarmandchilik, milliy o‘yinlar va milliy ishlab chiqarish sohalarini milliy madaniy meros turizmining resurslari va ob’ektlari sifatida dastlab beshta yo‘nalish bo‘yicha guruhlandi (11.2.1-jadval).

Milliy madaniy meros turizmining resurlarini guruhlashdan-tasniflashdan ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekistonda yangi rivojlantirishga mo‘ljallanayotgan milliy madaniy meros turizmini turizmning katta turlariga aylantirishda juda katta turistik salohiyatlari borligi tasdiqlandi. Milliy madaniy meros turizmining 11.2.1-jadvalda keltirilgan 5 ta guruhlaridagi resurslarning barcha ob’ektlarida milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish mumkin. Bu turlar ham ko‘p

[97]Korjanova A.A.,Perspektivi napravleniya razvitiya kulturno-poznavatelnogo turizma v Rossii. Fundamentalnie issledovaniya., № 2-18,M.:2015.S.4044-4047.;Gorbunova M.Yu. Organizatsionnie osnovaniya kulturnogo turizma // Problemi i perspektivi razvitiya kulturnogo turizma Saratovskoy oblasti. Saratov, 2006.-21-223 s.;Otnyukova M.S. Kulturniy turizm i sotsialnoye konstruirovaniye dostoprimechatelnostey // Problemi i perspektivi razvitiya kulturnogo turizma Saratovskoy oblasti. Saratov, 2004.-125-136 s.

qirraliligi va ko‘p variantliligi jihatidan o‘ziga xos milliy betakrorlik va milliy ijodiy yaratuvchanlik yo‘nalishlariga, tarmoqlariga bo‘linib ketadi. Masalan, xalqimizning milliy madaniy meros boyliklaridagi birgina milliy ustachilik temirchilik; misgarlik; musiqasozlik; beshiksozlik; aravasozlik; sandiqsozlik; egarsozlik; pichoqchilik kabi alohida-alohida yo‘nalishlarga ega.

11.1-jadval

Milliy madaniy meros turizmi resurslarining guruhlari va guruhlardagi turizm ob’ektlari

Milliy madaniy meros turizmi resurslarining guruhlari	**Milliy madaniy meros turizmi resurslarining guruhidagi ob’ektlarga qiziqish**
1. Milliy madaniy meros turizmining milliy madaniyatdagi resurslari	Xalqimizning urf-odatlari, tildagi shevalar, oila hayoti, kattalar va yoshlar munosabatlari, salomlashish, mehmon kutish va mehmondorchilik, to‘y va diniy marosimlar, oila bayramlari, oiladagi huquqlar, kelin va sunnat to‘ylari, uy tutish va hokazolarga qiziqish.
2. Milliy madaniy meros turizmining milliy etnik hayotdagi resurslari.	Xalqlar, ellar, urug‘lar, ular ning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o‘zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo‘ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog‘inishi, qo‘msashi hayotiy jarayonlarga qiziqish
3.Milliy madaniy meros turizmining milliy san’atdagi resurslari	Milliy sanat, milliy folklor, qo‘shiqchilik, milliy raqslar, askiyalar, laparlar, aytishuvlar, rassomchilik va haykal taroshlik, baxshilar, o‘lan aytish qo‘shiqchiliklari kabi sanat turlariga qiziqish. Bu tur quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi: 3.1.Qo‘shiqchilik va raqs sanati yo‘nalishlari. 3.2.Baxshilar qo‘shiqchiligi maktablari. 3.3.Askiyalar, laparlar, aytishuvlarga qiziqish. 3.4.Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik. 3.5. Milliy folklor turlari.
4.Milliy madaniy meros turizmining milliy hunarmandchilikdagi resurslari	Milliy hunarmandchilikning turlari, milliy hunarmandchilikdagi yo‘nalishlar, xalq memor, xalq-usta shiori va reklamasi, milliy hunarmand-chilik buyumlarining mukammal va mo‘jizakor-ligiga qiziqish. Bu turizm turi quyidagi tarmoqlarga bo‘linib ketadi: 4.1.Duradgorlik va uning maktablari 4.2.Kulolchilik va uning maktablari 4.3.Kashtachilik, zardo‘zlik, gul do‘zlik, milliy liboslar (do‘ppi, to‘n, belbog‘lar, milliy ko‘ylaklar) tikishdagi yo‘nalishlar. 4.4. Mahsido‘zlik, poyafzallar Milliy ustachilik: 4.5.Temirchilik; 4.6. Misgarlik; 4.7. Musiqasozlik; 4.8. Beshiksozlik;

	4.9.Aravasozlik; 4.10.Sandiqsozlik; 4.11. Egarsozlik; 4.12 Pichoqchilik 4.13. Mahsidoʻzlik; 4.13.Gilamchilik va palos toʻqish
5. Milliy madaniy meros turizmining milliy oʻyinlardagi resurslari	Oʻzbekiston xalqlarida milliy oʻyinlar nomini olgan oʻziga xos musobaqalari, mardlik, jasurlikni namoyish qiluvchi bellashuvlar va Dunyo xalqlarida koʻplab uchraydigan hayvonlar va parrandalarning jangiga qiziqish. 5.1.Koʻpkari-uloq 5.2.Milliy kurash 5.3.Qoʻchqorlar va Parrandalar jangi 5.5.Dorbozlik

Milliy madaniy meros turizmi resurslariga ichki va ayniqsa xalqaro turistlarni jalb qilish, taklif qilishdagi tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilsa, bu resurslardan turizmda foydalanish ning dastlabki rejalari amalga oshirilgan boʻladi. Milliy madaniy meros resurslaridan ichki turizmda foydalanishning ommaviy rivojlanmayotganligining bosh sababi milliy meros ob'ektlariga, manzillariga aniq axborotlarning, ekskursiyalar ning, marshrutlarning yoʻqligi, bu turlar manzillarini hatto ekskursiyaga chiquvchilar ham, shuningdek, shaharlarda yashayotgan aholining ham koʻpchiligi bilmasligidir. Chunki Samarkand shahariga boshqa viloyat va shaharlardan kelgan mehmonlar albatta xalq ustalari, hunarmandlarining ishlarini tomosha qilishga qiziqish tufayli bunday joylarga ekskursiyalar, tashriflar qilishi mumkin edi. Oʻzbekiston azaldan xalk hunarmandchiligi bilan mashhur boʻlib kelgan.

Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik, sovgʻa buyumlar ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol oʻyinchoqlar, zardoʻzi mahsulotlar, gilam, poloslar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Milliy madaniy meros turizmidagi ayrim turlarni hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik oʻyinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni

bu o‘yinlarga taklif qilish vaqtlari aniq bo‘ladi. Xuddi shuningdek, ko‘pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, ichki va xalqaro turistlarning katta oqimlarini o‘ziga jalb qiladigan g‘oyat qiziqarli turistik obekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish, ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir.

11.3. Milliy madaniy meros turizmi resurslarining geografiyasi

Milliy madaniy meros turizmi resurslarining geografiyasi. Milliy madaniy meros turizmidagi resurslar va ob’ektlar ko‘pchiligi hozirgacha aniq manzillar bo‘yicha aniqlanmagan. Mazkur resurslar va ob’ektlarning geografiyasini biz to‘plangan va tarixiy ma’lumotlar asosida viloyatlar bo‘yicha guruhladik. Milliy madaniy meros turizmining har bir viloyatlardagi, viloyatlarning tumanlari va qishloqlaridagi resurslari va ob’ektlarining aniq manzillari (xususiy hunarmandchilik uylari, milliy madaniy meros turlarining ommaviy o‘tkaziladigan joylari, vaqtlari, mavsumlari va boshqa..) o‘rganish davom etmoqda. Bu tadqiqotlarning yo‘nalishida milliy madaniy meros turizmi ning resurslari va ob’ektlari, milliy meros boyliklarini ishlab chiqarish sohalari, xalq hunarmandchiligi uylari, markazlari, milliy o‘yinlar rayonlari va hokazolarning aniq manzillari ro‘yxatga olinmoqda[98].

Ayniqsa, milliy madaniyat, milliy san’at, milliy urf-odatlar, milliy marosimlar va milliy o‘yinlar saqlanib qolgan oddiy bir qishloqlarimiz, ovullarimiz ham bor. Qishloqlarimizga majmuali ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil qilish biz unutilgan deb hisoblagan ko‘plab milliy madaniy meros boyliklarining turlaridan ma’lumotlar berishi mumkin.

Samarqand shahridagi o‘lkashunoslik va O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyidan ham O‘zbekistonda hunarmandchilik rivojlangan tumanlar, yoki milliy folklor guruhlari, zardo‘zlik yoki milliy o‘yinlarning geografik manzillari aniqlash davom ettirilmoqda. Milliy

[98].Samarov X.,Samarov X.Q., Milliy madaniy meros turizmi, “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, Toshkent, 2022.-188 b.

madaniy meros turizmining resurslari va ob’ektlarining geografiyasi asosan so‘rov, savdo-tijoratdagi axborotlar, amalga oshirilgan ekspeditsiyalar asosida tuzildi (11.2-jadval).

11.2-Jadval

Milliy madaniy meros turizmi resurslarining geografiyasi[99]

T\R	Milliy madaniy meros turizmi resurslarining guruhlari	Milliy madaniy meros turizmi resurslarining guruhidagi ob’ektlarning manzillari
I.	**Milliy madaniy meros turizmining milliy madaniyatdagi resurslari**	O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, shaharlari, tumanlari, qishloqlari
II.	**Milliy madaniy meros turizmining milliy etnik hayotdagi resurslari**	1.O‘zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida 2.O‘zbekiston Respublikasi va qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari
III.	**Milliy madaniy meros turizmining milliy san’atdagi resurslari**	O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida, tumanlarida va qishloqlarida
3.1.	***Milliy qo‘shiqchilik san’ati yo‘nalishlari:*** 3.1.1. Xorazm yo‘nalishi 3.1.2. Buxoro yo‘nalishi 3.1.3. Farg‘ona yo‘nalishi 3.1.4. Toshkent yo‘nalishi 3.1.5. Qoraqalpoq yo‘nalishi 3.1.6. Samarqand yo‘nalishi 3.1.7.Katta ashula 3.1.8. Maqom yo‘nalishi 3.1.9.Baxshilar san’ati	 Xorazm viloyati Buxoro viloyati Farg‘ona vodiysi Toshkent viloyati Qoraqalpog‘iston respublikasi Zarafshon vodiysi Farg‘ona fodiysi Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlari
3.2.	***Baxshilar qo‘shiqchiligi san’ati yo‘nalishlari:*** 3.2.1. Qashqadaryo- Surxondaryo yo‘nalishi 3.2.2. Zarafshon – Nurota yo‘nalishi 3.2.3. Xorazm yo‘nalishi 3.2.4.Qoraqalpoq yo‘nalishi	 Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Samarqand va Navoiy viloyatlari Xorazm viloyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi
3.3.	***Milliy folklor san’ati yo‘nalishlari:*** 3.3.1.”Lazgi” folklori 3.3.2. «Boysun» folklori 3.3.3. «Oyguloyim» folklori	 Xorazm viloyati Surxondaryo viloyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi

[99]Hayitboyev R., O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari, MCHD “Navro‘z poligraf”, Samarqand, 2021.-175 b.

3.4.	***Milliy raqs san'ati yo'nalishlari:*** 3.4.1. Xorazm yo'nalishi 3.4.2. Qoraqalpoq yo'nalishi 3.4.3. Buxoro yo'nalishi 3.4.4. Farg'ona yo'nalishi	Xorazm viloyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Buxoro va Samarqand viloyatlari Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati,
3.5.	***Milliy askiya va milliy aytishuv san'ati:*** 3.5.1. Milliy askiyalar 3.5.2.Milliy aytishuvlar	 Farg'ona vodiysi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi
3.6.	***Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik san'ati:*** 3.6.1. Milliy rassomchilik 3.6.2.Milliy hakaltaroshlik	 Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva shaharlari Samarqand va Toshkent shaharlari
3.7.	***Qadimiy, milliy tarixiy tasvirlar san'ati:*** 3.7.1. Qoyatoshlardagi qadimiy rasmlar 3.7.2. Tarixiy muzeylar	 Navoiy, Surxondaryo va Jizzax viloyatlari O'zbekistonning barcha viloyatlarida
IV	**Milliy madaniy meros turizmining milliy hunarmandchilikdagi resurslari**	
4.1.   <

		vodiysi, Xiva, Toshkent shaharlari
	4.3.3.Musiqasozlik	Samarkand, Xiva, Toshkent, Buxoro shaharlari, Farg‘ona vodiysi
	4.3.4. Beshiksozlik	Samarkand, Buxoro, Toshkent shaharlari, Urgut tumani, Farg‘ona vodiysi
	4.3.5. Aravasozlik	Qo‘qon shahri, qishloqlar Urgut tumani, Samarkand, Buxoro,
	4.3.6. Sandiqsozlik	Toshkent, Xiva shaharlari, Farg‘ona vodiysi
	4.3.7. Egarsozlik	Baxmal Tumani, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari
	4.3.8. Mahsido‘zlik va poyafzallar	Namangan shahari, O‘zbekistonning barcha viloyatlari G‘allaorol, Baxmal, Nurota
	4.3.9. Gilamchilik va palos to‘qish	tumanlari Xorazm, Jizzax, Samarqand viloyatlari, Cho‘l
	4.3.10.Ganchkorlik	xalqi. Barcha viloyatlarimizda
V	**Milliy madaniy meros turizmining milliy o‘yinlardagi resurslari**	
5.1.	***Milliy uyinlar:***	
	5.1.1. Ko‘pkari- uloq	O‘zbekistonning barcha viloyatlari
	5.1.2. Milliy kurash	Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo
	5.1.3. Darbozlik	Xorazm viloyatlari, Farg‘ona vodiysi
	5.1.4. Qo‘chqorlar jangi	Toshkent viloyati, Farg‘ona vodiysi
	5.1.5. Parrandalar jangi	Xorazm, Buxoro viloyatlari, Qoraqalpog‘iston respublikasi Samarkand, Buxoro shaharlari, Farg‘ona vodiysi

Milliy madaniy meros turizmidagi resurslarning geografiyasini o‘rganishdan quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

1. O‘zbekistonning milliy turizmida yangidan rivojlantirila digan milliy madaniy meros turizmidagi resurslar Respublikamizning barcha viloyatlarida, shaharlarida, tumanlar va qishloqlarida bor. 9-Jadvaldagi malumotlar dastlabki kuzatuvlar natijasi bo‘lib, bu kabi resurslar va ob’ektlarning biz bilmagan manzillari ham juda ko‘plab tumanlar, shaharlar va qishloqlarda faoliyat ko‘rsatib kelayotganligini anglash, tushunish qiyin emas.

2. Respublikamizda milliy madaniy meros turizmidagi resurslarning barcha yo‘nalishlari va ob’ektlari shaharlarimizda va

tumanlarda joylashgan. Ayniqsa, Buxoro, Samarkand, Toshkent, Xiva shaharlarida boshqa xalqlarda, mamlakatlarda uchramaydigan mo‘jizaviy, insonni hayratga soladigan, sovg‘abop va umumiy foydalanishga juda zarur bo‘lgan osori-atiqa buyumlar, qadimiy asbob-uskunalar ishlab chiqarilmoqdaki, ichki va xalqaro milliy madaniy meros turizmida bunday imkoniyatlardan hanuzgacha foydalanilmay kelinayotganligini e’tiborimizga olishimiz lozim.

3. Milliy madaniy meros turizmining Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva va Shaxrisabz shaharlaridagi resurslari va ob’ektlaridan turizmda majmuali foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqilishi kerak. Chunki, O‘zbekistonga kelayotgan xalqaro turistik oqim asosan shu shaharlarimizda qayd qilinmoqda. Bu xalqaro turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar.

Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi milliy madaniy meros turizmi resurslariga, ob’ektlariga va turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo‘llash vaqti keldi. Bunday maqsadlarni, rejalarni amalga oshirish uchun shaharlar dagi milliy madaniy meros turizmini resurslarining, ob’ektlari ning jahon andozalari bo‘yicha shakllantirilgan, sifatli naqshlangan buklov reklamalarini o‘zbek-rus, arab, Yevropa va ingliz tillarida axborot va tushuntirishlar bilan mehmonxona lar, turistik firmalarga tarqatish va bu buklovlarni xorij davlatlardan kelgan turistlar bepul yoki sovg‘a sifatida olishlarini taminlash amalda kutilgan usullardan bo‘lishi shubhasizdir.

4. Milliy madaniy meros turizmining ko‘plab resurslari, ob’ektlari, hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalar, kollej va akademik litseylar o‘quvchilarini shuningdek, atrof tumanlardagi maktablar o‘quvchilarini imtiyozli asosda ekskursiya usulida bu hunarmand chilik va ustachilik markazlarini ko‘rishlarini taminlash ichki milliy mavdaniy meros turizmning rivojiga ijobiy tasir ko‘rsatishini yaxshi anglashimiz kerak.

5.Milliy madaniy meros turizmidagi milliy o‘yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishiga aslo hojat yo‘q. Bu o‘yinlarni xalqimiz o‘z mavsumlarida doimo tashkil qilmoqdalar.

Turizm sohasidagi mutaxassislarning vazifasi turistlarni bu milliy o‘yinlarga taklif qilish hisoblanadi. Taklifgacha esa o‘yinlarga yetib borish marshrutlari aniqlangan va turistlarga ko‘rsatiladigan barcha xizmatlar ko‘rsatish majmualari, sharoitlari yaratilishi lozim.

6. O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish-da milliy madaniy meros turizmining 5 ta asosiy resurslari guruhidan foydalanish maqsadli bo‘ladi. Istiqbolda bu yo‘nalishlar milliy madaniy meros turizmidan alohida-alohida turizm turlari bo‘lib shakllanishining katta imkoniyatlari ham mavjud.

Tayanch so‘zlar: milliy meros, obida, antiqa, an’ana, milliy madaniyat, hunarmandchilik, milliy o‘yinlar, milliy san’at.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1. Xalqimizning milliy merosi boyliklari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Moddiy madaniy meros boyliklari nimalar?
3. Nomoddiy madaniy meros boyliklari nimalar?
4. Milliy meros turizmini rivojlantirishimizning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
5. Milliy madaniy meros turizmidagi resurslarni tushuntiring.

XII BOB. OVCHILIK TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

12.1. Ovchilik turizmi

Mamlakatimiz hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar ni oshirishda turizm sohasini jadal rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi hududlarini bir tekis, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirishda turizm turlarini rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari izlash va tadqiq qilish O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan[100]. Shu o‘rinda turizmning turlari ichida yangi rivojlantirish yo‘nalishlariga ega bo‘lgan ovchilik turizmini mamlakatimizda rivojlantirishning katta salohiyatlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan asrning 60-yillarida ovchilik va ovchilik xo‘jaliklari-yiliga millionlab donagacha sifatli mo‘yna yetishtirgan. Turizmning bu turini Prezidenti mizning qayd qilingan qarorlari asosida rivojlantirishni boshlash vaqti keldi. Lekin, bu yo‘nalishda hanuzgacha ilmiy-amaliy tadqiqotlar boshlangan emas. Biz vatanimiz ovchiligidagi mavjud imkoniyatlar bilan nafaqat ichki ovchilik turizmini balki, xalqaro ovchilik turizmini ham tashkil qilishimiz mumkin. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi ning Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida–“respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish” kabi muhim, davlat ahamiyatiga molik ko‘rsatmalar berilgan[101].

O‘zbekistonda ovchilik turizmi atamasiga biz o‘z xulosalarimizga binoan tarif berganmiz[102]. “Ovchilik turizmi-Respublikamizda ov qilishning huquqiy–qonuniy me’yorlari yaratilganligi, ovchilik

[100].Ўzbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari tўg‘risida»gi qarori.Toshkent sh.,2018 yil 7 fevral,PQ-3514 son.

[101].Ўzbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari tўg‘risida»gi qarori.Toshkent sh.,2018 yil 6 fevral,PQ-3509-son

[102].R.Xayitboyev., A. Sattarov, Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Samarqand, 2009, 87 b.

hududlarining katta maydonlarini egallashi, ovchilik resurslari va ob’ektlarining aniqliligi, ovda harakatlanishning erkinliligidan qurol va qurolsiz ovqilishga qiziqish”.

Ovchilik turizmini chet ellarda *ekosafari* turizmi deb ham nomlashgan. Mamlakatimizda ovchilik turizmini rivojlantirish masalalarini o‘rganishga hanuzgacha kirishilgan emas. Bu holatning asosiy sabablari vatanimizda ovchilikning ommaviylashmagani, ovchilikning reklamasi va zaruriy tashviqotlari, tadqiqotlari deyarli yo‘q hisoblanadi. Xuddi shuningdek, ovchilik turizmi haqida hattoki, ilmiy-amaliy maqolalar ham chop qilinmayapti. Lekin ovchilik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda, ovchilikning holati haqida axborotlar kamligidan ovchilik haqida to‘liq ma’lumotlarni keltirish ancha murakkab.

Ovchilik ov mavsumida yovvoyi hayvonlarni shaxsiy manfaat yo‘lida qirish emas balki, ma’lum bir ovchilik mintaqalarida yovvoyi hayvonlar va qushlarning o‘sha mintaqa hududlarida sonining ko‘paygani va sonlarni yashash mintaqalaridagi ozuqa miqdoriga moslashtirish, muvozanatlashtirish uchun va odamlarning quzgi-qishki mavsumlarda dam olishlari uchun tashkil qilinadi.

Ikkinchidan, ma’lum bir tabiiy mintaqalarda yovvoyi hayvonlarning shu mintaqadagi tabiiy oziq-ovqat miqdoridan ko‘p bo‘lishi ularning qishning suronli kunlarida oziq-ovqat yetishmasligi-dan yoppasiga qirilib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu tabiiy mintaqalarda albatda ovchilikka ruxsat beriladi. Ov natijasida ushbu tabiiy mintaqadagi yovvoyi hayvonlar va qushlar soni me’yorlashadi. Bunday rejalashtirishni O‘zbekistonning ovchilik jamiyati boshqarib boradi.

Mamlakatimizda ma’lumotlar bo‘yicha 3,8 mln.ga ovchilik maydonlari bor[103]. Aniqrog‘i, vatanimizdagi mahalliy ovchilar hozirgi kunda ushbu ko‘rsatilgan maydonlarda ov qilishmoqda. Ta’kidlaganimizdek, mamlakatimizda ovchilikning rivojlanganligi yoki ovchilik qanday darajalarda ekanligi haqida ommaviy axborotlarda maqolalar deyarli chop qilinmaydi. Dastlab shu holatni qayd qilish

[103].O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi.Ekologiya xabarnomasi, № 2, Toshkent, 2007.5-14 b.

kerakki, rejasiz ov qilish natijasida ovlanadigan hayvonlarning soni keskin qisqarib ketadi va bu hayvonlar darhol davlat muhofazasiga olinadi. Bundayin turlarni yana tiklash uchun ko‘plab mablag‘lar va uzoq vaqt muddatlari talab qilinadi. Ekosafarining-ovchilik turizmining birinchi navbatdagi vazifasi esa tabiatda ov qilishdan zavqlanish va dam olishdir.

Ekosafari tabiatda yovvoyi hayvonlar va parrandalarni faqat ovga ruxsat berilgan muddatlarda rejali, ruxsatli ov qilishga tarbiyalaydi va o‘rgatadi. Ovchilikning eng ashaddiy dushmanlari-bu brakonerlar-daydi, ovchilik jamiyatiga a’zo bo‘lmaydigan va ruxsat berilmagan vaqtlarda ham ov bilan shug‘ullanadigan, ruxsat berilmagan hayvonlar va parrandalar turlarini ham ovlaydiganlar-tabiatning ashaddiy dushmanlari hisoblanadi. Ularning yashirin faoliyati natijasida jamiyatga ham zarar yetadi. Hayvon turlarini rejasiz ov qilish natijasida ushbu hayvondan olinadigan mahsulotlar-ning narxi ko‘tarilib ketadi yoki umuman yo‘qoladi.

Respublikamizda ovchilikni rivojlantirishda birinchi navbatda ovchilik hududlaridan har-yili ovlanadigan hayvonlar va parrandalarning soni ovchilik maydonlari bo‘yicha tahlil qilinishi lozim. Ikkinchidan, O‘zbekistonning ovchilik hududlarida ovchilik turizmini rivojlantirishning mahalliy dasturlarini, rejalarini tayyorlash va boshqa ko‘plab tashkiliy–iqtisodiy ishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Ovchilik turizmini rivojlantirishning eng maqbul yo‘llari bu-ovchilikning reklamasi va axborotlari hisoblanadi.

Institutlarda “Ekologiya” va “Ekologik turizm” fanlaridan o‘qiladigan ma’ruzalarda va shu fanlarning amaliy mashg‘ulot larida talabalar Respublikamizda ovchilikning tartib-intizom lari va huquqiy me’yorlari haqida juda ko‘plab savollar berishadi. Bu holatdan xulosa chiqarish mumkinki, Respublikamiz tumanlari va viloyatlaridagi ovchilik jamiyatlari institutlar, universitetlar va qishloq fuqarolari yig‘inlari, shaharlardagi mahallalar aholisi bilan doimiy ravishda ovchilik, uning dam olish va foydali tomonlari haqida davra suhbatlari, uchrashuvlar o‘tkazishlari talab qilinmoqda. Ikkinchidan, ovchilikning moddiy jihatlardan foydali tomonlari -go‘sht va mo‘yna olishga ega

bo‘lishligining tartibotlari, huquqiy me’yorlarini tushuntirish ham ro‘yxatda turuvchi ovchilarning ko‘payishiga zamin yaratadi.

Ekosafarini rivojlantirish uchun biz birinchi navbatda Vatanimizning ovchilik hududlarida ovchilik turizmini rivojlantirishning istiqbolli imkoniyatlari mavjudaligi va bu imkoniyatlardan turizmda foydalanishning huquqiy-me’yorlarini yaratish talab qilinadi. Ikkinchidan, ovchilik turizmining tashviqot-targ‘ibot yo‘nalishini tashkil qilish, ovchilik turizmini tashkil qilishning viloyatlar va tumanliklar hokimliklarida ko‘ngillilar, havaskorlar ishtirokida axborotlash markazlarini tashkil qilish ham yaxshi natijalarni berishi aniq. Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligidagi “Turizm qo‘mitasi” ning viloyatlar dagi mintaqaviy boshqarmalari bu yo‘nalishda tashabbuskorlikni oshirish vaqti keldi. To‘rtinchidan, ovchilikning inson hayotidagi o‘rni va tabiatning biologik resurslarni muhofaza qilishdagi muhim ahamiyatini aholi orasida doimo tashviqot qilish ham ovchilik turizmining tadbirkorlarini tayyorlab beradi.

Ovchilikning maqsadi-tabiatdagi hayvonlarning yashash sharoitlarini va ko‘payishlaridagi muvozanatlarni o‘rganish natijasida ularni himoya va muhofaza qilish, ularning ma’lum bir areallarida-yil davomida oziqlanishi sharoitlari va sonining muvozanatini saqlab turish maqsadlarida ortiqchasini ovchilik yo‘li bilan ovlash natijasida shaxsning va jamiyatning manfaatdorligini ta’minlashda qo‘shimcha daromad olish.

Ovchilikning vazifalari- tabiatning yovvoyi hayvonlarini ov qilish qoidalarini va tartiblarini, usullarini yaratish, tabiatdagi hayvonlarni ov qilishda muhofaza sharoitlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tabiat va uning resurslari muhofazasiga yordam berish orqali ekologik bilim va ekologik madaniyatni targ‘ib qilish, shaxsning dam olishda qiziqishlariga sharoitlar yaratish tadbirlarini yaratish va boshq. Dastlab qayd qilish lozim ya’ni, O‘zbekistonda ovchilikning va baliq ovlashning hozirgi holatlarini o‘rganib chiqishdan ma’lum bo‘ldiki, hozirgacha mamlakatimizda ovchilik, ekosafari turizmlari tashkil qilinmagan. Bu yo‘nalishda biron-bir jiddiy tashkiliy harakatlar

yoki ilmiy-amaliy tadqiqotlar ham boshlangan emas.

Muzeylar ovchiligida yovvoyi tabiatdagi hayvon yoki qushlar turi ushlanib tuluplar yasash uchun amalga oshiriladi. Yuqorida ta’kidlangandek, insoniyatning yashab qolish uchun oziq-ovqat va kiyim-bosh topish uchun birinchi harakatlari tabiatdagi hayvonlarni ovlashdan boshlangan. Shuning uchun ham insoniyat jamiyatidagi qadimiy ibtidoiy odamlar faqat ovchilik bilan shug‘ullanganlar. Shu yerda insoniyatning rejasiz, ayovsiz ov qilishi natijalarini keltiramiz.

Inson bundan 250 ming-yil oldingi paleolit davridayoq, olov va har xil asboblar bilan qurollangan vaqtidanoq, hayvonot dunyosiga sezilarli ta’sir ko‘rsata boshlagan. Dastlab yirik hayvonlar faqat yirik bo‘lganligidan ovqat va kiyim uchun doimiy ravishda ovlangan. Masalan, Yevropada inson bundan 100 ming-yil oldin o‘rmon fillari, o‘rmon karkidonlari, ulkan bug‘ular va mamontlarni qirib bitirishgan. Amerikada esa bundan 3 ming-yil oldin mastodont, ulkan lama, qoratishli mushuk, og‘irligi 20 kg gacha keladigan yirtqich qush-teratorn yo‘q qilingan. Yangi Zelandiyada bundan 1000-yil oldin ulkan moa qushlarining 20 xili qirilgan.

“Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish halqaro ittifoqi”ning ma’lumotlari bo‘yicha 1600-yildan hozirgacha qushlarning 94 turi (1,09%) va sut emizuvchilarning 63 turi (1,48%) qirilib, yo‘q bo‘lib ketgan. Keyingi ma’lumotlar bo‘yicha bizning eramizda (2000-yil davrida) 106 tur sut emizuvchilar abadiy yo‘qotildi. O‘tgan 1800-yilda 33 tur sut emizuvchilar yo‘qotilgan bo‘lsa, huddi shuncha tur keyingi 100-yilda, 40 tur keyingi 50-yilda abadiy yo‘q qilindi.

O‘tgan 70-yilda O‘zbekiston hayvonot dunyosidan turon yo‘lbarsi va qoplonlarning eng so‘ngilari o‘ldirildi. Sayyoramizda bugunga kelib qushlarning 1211 turi (shundan 119 turi Braziliyada, 117 turi Indoneziyada yashaydi), sut emizuvchilarning 120 turi abadiy yo‘qotilish xavfi ostida turibdi. D. Fisher ma’lumotlari bo‘yicha yo‘q qilingan qushlarning 75 % i va sut emizuvchilarning 86 % i bevosita insoniyat aybi bilan qirib yuborilgan.

Ovchilikdagi me’yorlar.O‘zbekistonda ovchilik mavsumi boshlanishdan oldin O‘zbekiston Respublikasi ovchilik jamiyati

tomonidan ovlanadigan hayvonlar va qo‘shlarning me’yorlari belgilanadi. Respublikamizdagi har bir viloyatlarda faoliyat olib borayotgan ovchilik tashkilotlari o‘zlarining ovchilik hududlaridagi ov hayvonlari va qushlarning ov me’yorlarini belgilaydi. Viloyatning hududlarida ov qilish tartibini va nazoratini tashkil qiladi. Bu me’yorlar bo‘yicha ovlanadigan hayvonlar va qushlarning har bir ovchiga belgilangan sonlari va ulardan foydalanish tartiblari, bu ovlanadigan hayvonlar uchun litsenziya olish tartiblari va litsenziyaning narxlarini ham O‘zbekiston respublikasining ovchilik jamiyati belgilaydi (12.1-jadval).

Muzeylar ovchiligida yovvoyi tabiatdagi hayvon yoki qushlar turi ushlanib tuluplar yasash uchun amalga oshiriladi. Yuqorida ta’kidlangandek, insoniyatning yashab qolish uchun oziq-ovqat va kiyim-bosh topish uchun birinchi harakatlari tabiatdagi hayvonlarni ovlashdan boshlangan. Shuning uchun ham insoniyat jamiyatidagi qadimiy ibtidoiy odamlar faqat ovchilik bilan shug‘ullanganlar. Hozirgi, zamonaviy ovchilik O‘zbekiston Respublikasining mamlakatimiz hududlarida ov qilishning qonuni va qoidalari asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham har-yili ov muddatlari va ov qilish tartiblarini doimiy ravishda o‘rganib, kuzatib borish talab qilinadi.

12.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ov qilish muddatlari va ov me’yorlari

Ovlanadigan tur	**Ovchilikning muddati**	**Bir ovga chiqishda ovlanadigan tur soni**
Yovvoyi cho‘chqa	Qishloq xo‘jalik xodimlarining arizalari bo‘yicha 15-sentyabrdan to 30-dekabrgacha	Litsenziya bilan
Tog‘ echkisi	15-sentyabr-30-dekabr	Litsenziya bilan
Quyon	15-oktyabr-30-yanvar	2 dona
Jayra va Bo‘rsiq	15-sentyabr-30-noyabr	Bir donadan
Ondatra	1-oktyabr-15-noyabr	Sanoat uchun ov
Tulki, chiyabo‘ri, yovvoyi mushuk	15-noyabr-1fevral	Sanoat uchun ov
Tulki, chiyabo‘ri, yovvoyi mushuk	15-noyabr-1fevral	Bir donadan, Litsenziya bilan

Tulki, yovvoyi mushuk	15-noyabr-1fevral	Bir donadan, Litsenziya bilan
Bedana	Avgustning ikkinchi shanbasidan ikkinchi yakshanbagacha	Qiymatini to‘lash sharti bilan
Yovvoyi qundiz	15-oktyabr-15-dekabr	Litsenziya bilan
Yovvoyi kaptarlar	Avgustning uchinchi shanbasidan-dekabrning oxirgi yakshanbasigacha	Qiymatini to‘lash sharti bilan
Kaklik	Oktyabrning ikkinchi shanbasidan-30-dekabrgacha	Qiymatini to‘lash sharti bilan
Tustovuq	Oktyabrning ikkinchi shanbasidan-30-dekabrgacha	Litsenziya bilan
G‘ozlar, o‘rdaklar	Respublikaning viloyatlaridagi ovchilik jamiyatlari ob-havoning kelishi bilan ov qilish muddatlarini belgilaydilar	Qiymatini to‘lash sharti bilan
Churraklar	Respublikaning viloyatlaridagi ovchilik jamiyatlari ob-havoning kelishi bilan ov qilish muddatlarini belgilaydilar	Qiymatini to‘lash sharti bilan
Mayna, zag‘chalar, chug‘urchuqlar	Sentyabrning birinchi shanbasidan to dekabrning oxirgi yakshanbasigacha	Chegaralanmaydi

12.2. Ovchilik turizmining resurslari

O‘zbekistonning cho‘l va adir hududlari mamlakatimizning ovchiligidagi asosiy maydonlar hisoblanadi. Chunki, cho‘l va adir hududlarining maydonlari butun hududlarimizning 70 % ini tashkil qiladi. Cho‘l va adirlada joylashgan tabiat qo‘riqxonalari va tabiat buyurtmaxonalaridan tashqari cho‘lning va adirlar maydonlaridan ovchilikda foydalanishga ruxsat berilgan. Ov qilish uchun O‘zbekiston ovchilik jamiyatining a’zoligiga kirish talab qilinadi va Ichki ishlar vazirligi ruxsati bilan ov miltig‘i olinadi. Ovga chiqish oldidan ovlamoqchi bo‘lga hayvonlar yoki parrandalar uchun ruxsatnoma olish lozim.

O‘zbekistonda ovchilik+ekosafari turizmining resurslari va hududlari. O‘zbekistonda ovchilik maydonlari adabiyotlardagi

ma’lumotlar bo‘yicha 3,8 mln. ga deyilgan. Bu katta hudlarning asosiy qismini mamlakatimizning quruq iqlimli cho‘l hududlari tashkil qiladi. Ovchilikning maydonlari shartli ravishda quyidagi 3 ta tabiiy iqlim sharoitli hududlarga bo‘linadi:

-O‘zbekistonning tog‘ oldi ovchilik maydonlari;

-O‘zbekistonning suv havzalaridagi ovchilik maydonlari;

-O‘zbekistonning cho‘llaridagi ovchilik maydonlari.

-O‘zbekistonning cho‘l va adir hududlaridagi ov maydonlari quyidagilar hisoblanadi:

-Cho‘l va adir hududlarida ovchilikga ruxsat berilgan maydonlar;

-Dengizko‘l suv ombori;

-To‘dako‘l suv ombori;

-Ayozko‘l suv ombori;

-Amudaryo sohillari;

-Aydarko‘l-Arnasoy suv havzasi;

-Sho‘rko‘l suv havzasi;

-Cho‘llarning ichidagi to‘qayzorlar.

Ovchilik ov mavsumida yovvoyi hayvonlarni shaxsiy manfaat yo‘lida qirish emas balki, ma’lum bir ovchilik mintaqalarida yovvoyi hayvonlar va qushlarning o‘sha mintaqa hududlarida sonining ko‘paygani va sonlarni yashash mintaqalaridagi ozuqa miqdoriga moslashtirish, muvozanatlashtirish uchun va odamlarning quzgi-qishki mavsumlarda dam olishlari uchun tashkil qilinadi. Ikkinchidan, ma’lum bir tabiiy mintaqalarda yovvoyi hayvonlar ning shu mintaqadagi tabiiy oziq-ovqat miqdoridan ko‘p bo‘lishi ularning qishning suronli kunlarida oziq-ovqat yetishmasligidan yoppasiga qirilib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu tabiiy mintaqalarda albatda ovchilikka ruxsat beriladi. Ov natijasida ushbu tabiiy mintaqadagi yovvoyi hayvonlar va qushlar soni me’yorlashadi. Bunday rejalashtirishni O‘zbekiston Respublikasining ovchilik jamiyati boshqarib boradi.

Masalan, 1950-yillarda mamalakatimizga ondatra keltirildi va iqlimlashtirildi (Qoraqalpog‘iston, Orol dengizi qamishzor larida). Iqlim sharoitlariga qulay moslashagan bu mo‘ynali hayvon juda tezlik bilan ko‘paydi va Respublikamizning deyarli barcha suv havzalariga

tarqaldi. Natijada 1960-yillar oxiri va 1970-yillarda Qoraqalpog‘istonda ondatra mo‘ynasini tayyorlash yuz minglab donaga yetdi.

Keyinchalik suv pasayishi, qurishi va brakonerlar faoliyatining kuchayishi natijasida ondatra mo‘ynasini tayyorlash hajmlari keskin pasaya boshladi: 1988-yilda -30,8 ming dona, 1989-yilda-17,5 ming dona, 1990-yilda-7,5 ming dona, 1991-yilda-6,7 ming dona, 1992-yilda-9 ming dona, 1993-yilda-6 ming dona, 1994-yilda-5 ming dona, 1995-yilda-6 ming dona, 1997-yilda-1 ming dona. Hozirgi paytda ondatra ovlash to‘xtatilgan. Juda nafis bo‘lgan ondatra mo‘ynasidan tayyorlangan issiq kiyim boshlarning narxi bu hayvon soni keskin kamayishi bilan bozorlarda ko‘tarilib bordi. Hozirda brakonerlar tayyorlayotgan ondatra mo‘ynasidan tikilgan kiyim- boshlar esa juda qimmat hisoblanadi. Respublikamizda asosiy ovlanadigan hayvonlar va yovvoyi parrandalar: to‘ng‘iz, kaklik, o‘rdaklar, tulki, qirg‘ovul, quyonlar, bo‘rsiq, jayra, kaptarsimonlardir.

Respublikamizda ovchilik turizmini rivojlantirishda birinchi navbatda ovchilik hududlaridan har-yili ovlanadigan hayvonlar va parrandalarning soni ovchilik maydonlari bo‘yicha tahlil qilinishi lozim. Ikkinchidan, O‘zbekistonning cho‘l va adir hududlarida ovchilik turizmini rivojlantirishning mahalliy dasturlarini, rejalarini tayyorlash va boshqa ko‘plab tashkiliy–iqtisodiy ishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi.

Cho‘llarimizda ovchilik turizmini rivojlantirishning eng maqbul yo‘llari bu-ovchilikning reklamasi va axborotlari hisoblanadi. Institutlarda “Ekologiya” va “Ekologik turizm” fanlaridan o‘qiladigan ma’ruzalarda va shu fanlarning amaliy mashg‘ulotlarida talabalar Respublikamizda ovchilikning tartib-intizomlari va huquqiy me’yorlari haqida juda ko‘plab savollar berishadi. Bu holatdan xulosa chiqarish mumkinki, Respublikamiz tumanlari va viloyatlaridagi ovchilik jamiyatlari institutlar, universitetlar va qishloq fuqarolari yig‘inlari, shaharlardagi mahallalar aholisi bilan doimiy ravishda ovchilik, uning dam olish va foydali tomonlari haqida davra suhbatlari, uchrashuvlar o‘tkazishlari talab qilinmoqda. Ikkinchidan, ovchilikning moddiy jihatlardan foydali tomonlari-go‘sht va mo‘yna olishga ega

bo‘lishligining tartibotlari, huquqiy me’yorlarini tushuntirish ham ro‘yxatda turuvchi ovchilarning ko‘payishiga zamin yaratadi.

Ekosafarini rivojlantirish uchun birinchi navbatda Vatanimizning cho‘l va adir hududlarida ovchilik turizmini rivojlantirishning istiqbolli imkoniyatlari mavjudaligi va bu imkoniyatlardan turizmda foydalanishning huquqiy-me’yorlarini yaratish talab qilinadi. Ikkinchidan, cho‘l hududlarida ovchilik turizmning tashviqot-targ‘ibot yo‘nalishini tashkil qilish, cho‘l hududlarida ovchilik turizmini tashkil qilishning viloyatlar va tumanliklar hokimliklarida ko‘ngillilar, havaskorlar ishtirokida axborotlash markazlarini tashkil qilish ham yaxshi natijalarni berishi aniq. Uchinchidan, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining viloyatlardagi Boshqarmalari ning bu yo‘nalishda tashabbuskorligini oshirish vaqti keldi. To‘rtinchidan, ovchilikning inson hayotidagi o‘rni va tabiatning biologik resurslarni muhofaza qilishdagi muhim ahamiyatini aholi orasida doimo tashviqot qilish ham, cho‘llarimizda ovchilik turizmining tadbirkorlarini tayyorlab beradi. Beshinchidan, ovchilik daydi ovchilar (brakon’erlar) sonini keskin kamaytirish ovchilik turizmi rivojlangan davlatlarining tajribasi natijalari hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: ovchilik, brakoner, pitomnik, qo‘riqxona, mo‘yna, ondatra, ekosafari, ovchilik litsenziyasi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Ovchilik turizmining maqsadi va vazifalarini tushuntiring.

2.O‘zbekistonda ovchilik turizmini rivojlantirish mumkinmi?

3.O‘zbekistonning ov qilish maydonlarini bilasizmi?

4.O‘zbekistonda ov mavsum haqida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering.

5.Ovchilik turizmining O‘zbekistondagi yovvoyi hayvonlar va qshlarning saqlash va muhofaza qilish tadbirlariga ta’siri qanday?

XIII BOB. SPORT TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

13.1. Sport turizmi

Sport turizmi-xalqimizning hozirda jahon bo‘yicha ommaviylashib borayotgan milliy kurash, tennis, futbol, chang‘i sporti, boks, olimpiada, milliy va xalqaro sport va boshqa sport-bellashuv musobaqalariga qiziqishi.

Ma’lumki, mamlakatimiz sporti 1991-yilgacha sobiq Ittifoq bo‘yicha amal qilgan hukmron tizimning bir qismi bo‘lib, yurtimiz bu masalada xalqaro maydonga mustaqil chiqish va o‘z imkoniyatlarini namoyon etish huquqiga ega bo‘lmagan. Mustabid siyosat jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o‘z asoratlarini qoldirib, bular ayniqsa, quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikkalarga nisbatan past darajada yo‘lga qo‘yildi, sport harakatiga yerli aholi ommaviy ravishda jalb qilinmadi, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash borasida esa, aniq va maqsadli ishlar olib borilmadi, okibatda aksariyat yoshlarning jismonan sog‘lomligi talab darajasida bo‘lmay, ular orasidan katta sportga sanoqli sportchilar chiqa oldilar;
2. Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini qurish, umuman sportning moddiy–texnikaviy bazasini kengaytirish va moliyalashtirish ishlari faqat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshirildi;
3. Soha uchun oliy va o‘rta ma’lumotli kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, musobaqalarda milliy sportchi kadrlar turli sun’iy to‘siq va saralashlardan o‘tishga majbur edi. Milliy kadrlarni tayyorlash va mahalliy sportchilar iqtidorini ro‘yobga chiqarishdagi bunday noxolis siyosat asorati mustaqilikning birinchi-yillarida ko‘pchilik sportchi va murabbiylarning boshqa joylarga ketib qolishida o‘z aksini topdi;
4. O‘zbekiston sportiga adolatsiz munosabat tufayli juda ko‘p sportchilarimiz Yevropa, Jahon va Olimpiya musobaqalarida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum etildi;

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida-yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon. ma’naviy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishiga bog‘liqdir. Bu o‘rinda Respublikada talabalarning jismoniy tayyorgarligining rivojlanishi va ishchanlik qobiliyatlarini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport fani alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi Qonunining yangi tahriri 2015-yil 4-sentyabrda qabul qilindi[104]. Mazkur Qonunda O‘zbekiston hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy-me’yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” qonuni asosida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 27-maydagi 271-sonli qaroriga binoan, mamalakatimizda uch bo‘g‘inli sport tizimi yaratilib, uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirila boshlandi.

Birinchi bo‘g‘in. “Yoshlik” sport jamiyati doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9 sinflari o‘quvchilari qamrab olinadi. O‘quvchilar uchun har uch-yilda “Umid nihollari” o‘yinlari o‘tkaziladi-dastlabki bosqichda kuzgi ta’tilda maktablarda, tumanlarda, ikkinchi bosqich qishki ta’tilda viloyat miqyosida, uchinchi bosqich bahorgi ta’tilda mamlakat miqyosida bo‘lib o‘tadi. “Umid nihollari” o‘yinlari o‘quvchi yoshlarni foydali va mazmunli harakatga yo‘naltirish, kurashda chiniqtirish, jamoa bo‘lib harakat qilish, yoshlarda jismoniy tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojni paydo qilish va kuchaytirish, g‘alabaga intilish fazilatlarini tarbiyalash, ya’ni sportni yoshlarning hayotiy ehtiyojiga aylantirish maqsadiga xizmat qiladi.Shu bilan birga

[104] O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonunining yangi tahriri, 2015 yil 4 sentyabr.

o‘quvchilarning shaxsiy-ijtimoiy rivojlanishi, iqtidorli yoshlarni sport zahirasiga kiritishni ham nazarda tutadi.

Ikkinchi bo‘g‘in. “Barkamol avlod” sport jamiyati doirasida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o‘quvchilari qamrab olinadi.Kollejlar va akademik litseylar o‘quvchilari o‘rtasida-yiliga bir marta “Barkamol avlod” sport musobaqalari o‘tkaziladi. Mazkur musobaqalarning dastlabki bosqichi o‘quv muassasalari doirasida oktyabr-yanvar, viloyat bosqichlari yanvar-aprel, mamlakat yakuniy bosqichi uch-yilda bir marta aprel-may oylarida o‘tkaziladi.Bu musobaqalar o‘quvchilarni jismoniy va vatanparvar lik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatga tayyorlash borasida keng qamrovli ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga, sport zahirasini yangi iqtidorli yoshlar bilan muntazam to‘ldirib borishga yordam beradi.

Uchinchi bo‘g‘in. “Talaba” sport jamiyati doirasida oliy o‘quv yurtlari talabalari orasida “Universiada” sport musobaqalari o‘tkaziladi. Musobaqalar mamlakat miqyosida oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida har uch-yilda bir marta o‘tkazilib, mamlakat terma jamoalarini doimiy ravishda yurt sharafini nufuzli xalqaro musobaqalarda himoya qila oladigan sportchilar bilan to‘ldirib borish imkonini beradi.

13.2. Sport turizmining resurslari

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi. Vazirlik O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi, sport federatsiyalari va assotsiatsiyalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Vazirlik tarkibiga quyidagi OTMlar kiradi:

- O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning Nukus va Farg‘ona filiallari;
- “Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti” federal davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasi ning Samarqand filiali.

• Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda uning Nukus, Samarqand va Farg‘ona filiallari.

Yoshlar siyosati va sport vazirligining vazifalari:

Prezidentning “Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Prezidentning ayrim hujjatlariga quyidagilar ni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi:

• Yoshlar ishlari agentligining 21 nafar shtat birliklarini Yoshlar siyosati va sport vazirligi markaziy apparatiga o‘tkazish orqali yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha tarkibiy bo‘linmani tashkil qilish;

• Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan bog‘liq qo‘shimcha vazifalar yuklash, shuningdek, agentlikning yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ayrim vazifalarini Yoshlar siyosati va sport vazirligiga o‘tkazish;

• Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma lar bo‘yicha harid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatiga xalqaro sport federatsiyalari talab va tavsiyalariga asosan xalqaro sport musobaqalari hamda professional sportchilar uchun zarur bo‘ladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan sport anjomlari, uskunalari, kiyimlari va boshqa jihozlarni qo‘shish;

• “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o‘tkaziladigan musobaqalarda sport turlarini ko‘paytirish, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tegishli sport turlari bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilish;

• Har-yili Navro‘z umumxalq bayrami arafasida qorabayir zotli otlar ishtirokida xalqaro chavandozlar musobaqasini respublikaning qolgan hududlarida ham o‘tkazish;

- Qo‘l jangini yanada ommalashtirish, salohiyatli yoshlarni seleksiya qilish va professional sportga yo‘naltirish maqsadida sport maktablarida qo‘l jangi bo‘yicha to‘garaklar faoliyatini tashkil qilish;
- Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorga muvofiq Xanchjou shahrida (Xitoy) bo‘lib o‘tadigan XIX yozgi Osiyo va IV Paraosiyo o‘yinlarini 2022-yildan 2023-yilga ko‘chirish va shu munosabat bilan O‘zbekiston sportchilarining kompleks tayyorgarligini tashkil etish va boshqalar.

Jismoniy tarbiya va sport. O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi respublikada sportni rivojlantirish sohasidan asosiy ishlarga rahbarlik qiladi.Olimpiya harakatini rivojlanti rish va O‘zbekiston sporchilarining rasmiy xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi sohasidagi eng muhim ishlar bilan O‘zbekiston Milliy Olimpiada qo‘mitasi shug‘ullanadi. Bu qo‘mita 1993-yildan beri Xalqaro olimpiada qo‘mitasining a’zosidir. Sport turlari bo‘yicha 32ta o‘zbek federatsiyasi xalqaro federatsiyalar a’zosi bo‘lib, barcha xalqaro musobaqalarda qatnashish huquqini olgan.

-Mustaqil O‘zbekistonga Olimpiadadagi ilk medalni 1994-yilning qishida, Norvegiyaning Lillihammer shahrida bo‘lib o‘tgan qishgi Olimpiadada Lina Cheryazova fristayl sport turidan taqdim etgan;

-1996-yili Toshkentda “Olimpiya shon-shuxrati” muzeyi tashkil qilingan. Muzeyning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining o‘sha paytdagi prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etishgan;

-1996-yilda jahon va o‘zbek sporti rivojiga qo‘shgan hissasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining oltin medali taqdim yetildi;

-1997-2002-yillar davomida Toshkent sovrin jamg‘armasi 500 ming AQSH dollaridan yuqori bo‘lgan tennis bo‘yicha nufuzli turnir – “Prezident kubogi” musobaqasiga mezbonlik qildi. Ushbu musobaqalarda o‘sha paytdagi dunyoning yetakchi tennischilari tashrif buyurishgan;

-1998-yilda Toshkentda milliy sportimiz bo‘lgan Kurash xalqaro

associaciyasi tashkil qilindi. Oradan bir-yil o‘tib, poytaxtimiz kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionatiga mezbonlik qildi

Bu ishlar 552 ta bolalar – o‘smirlar sport maktablarining bazalarida, 63ta olimpiya zaxirasi ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar maktabida, 5ta olimpiya zaxirasi bilim yurtida, 7ta oliy sport mahorati maktabida amalga oshirilmoqda. Bu maktablarda sportning 32 turi bo‘yicha 1708 oliy darajadagi sportchi, 149 malakali mutaxassis rahbarligida tayyorgarlik ko‘rmoqda. O‘zbekiston hududida 415 stadion, 11mingdan ortiq sport zali, 328 ta suzish havzasi, 142 ta o‘q otish tir, 40mingdan ziyod turli sport maydonlari mavjud (13.1-Jadval).

13.1-Jadval

Sport inshootlari[105]

Yillar	2018	2019	2020	2021
Sport inshootlari	51 583	51 651	52 105	52 417
Shu jumladan:				
Stadionlar	411	417	415	415
Sport zallari	10 843	10 863	10 950	11 015
Suzish basseynlari	308	316	322	328
Otish tirlari	142	142	142	142
Sport maydonlari va maydonchalari	39 807	39 841	40 206	40 447
Otchoparlar	8	8	10	101
Manej va boshqalar	64	64	60	60

Pahlavon Mahmud (1247-1326)–ulug‘ shoir, mutafakkir, faylasuf. Shamsidin Somiyning “Qomus-ul-a’lom”, Lutf Alibek Ozarning “Otashkada” asarlarida shuningdek “Manoqiba”da yozilishicha, Pahlavon Mahmud olim, shoir, kuragi yerga tegmagan pahlavon, shu bilan birga po‘stindo‘z va telpakdo‘z usta bo‘lgan. Uning “Kanzul haqoyiq” (“Haqiqatlar xazinasi”) nomli masnaviy yaratgani haqida ma’lumot bor. Pahlavon Mahmudning ruboiylari mashhurdir. Bu durdonalar asrlardan asrga o‘tib, bir necha avlodni tarbiyalab, bizning zamongacha yetib keldi.

[105].O‘zbekistonda turizm, Statistik to‘plam.O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo‘llab-quvvatlash sho‘basi, Toshkent. 2022.-143 b.

Tarixda Pahlavon Abusaid Rumiy (XV asr), Pahlavon Mahmud Ushshoq (XV asr) kabi allomalar nomi ham ma’lumdir. Har ikkala Pahlavon musiqashunos, hofiz, bastakor sifatida dong taratgan. Pahlavon Mahmud Xorazmiy esa ruboiylari bilan tarixda qolgan. Har uchchalalari ham maydonlarda kurash tushgani uchun Pahlavon degan nom olganlar. Naql qilinishicha, Pahlavon Mahmud Eron va Hindistonda ancha-yillar yashagan. Marakalarda kurash tushgan va uni hech kim yenga olmagan. Pahlavon Mahmud oliyhimmat, mard, saxiy, vatanparvar inson bo‘lgan.

“Manoqiba”dagi xabarga ko‘ra, Pahlavon Mahmud Hindiston xalqi tomonida turib, Hindiston dushmanlariga qarshi jangda ishtirok etibdi. Jang payti o‘z jonini xatarga qo‘yib bo‘lsada, Hind shohi Ray Ropoy Cho‘pani o‘limdan qutqaradi. Shunda shoh Pahlavon Mahmudning bemisl bu jasorati, mardligini taqdirlamoqchi bo‘lib: “Tila tilagingni!”, debdi.

Pahlavon Mahmud: “Ey buyuk shoh! Bundan ancha-yillar muqaddam mening vatandoshlarim- xorazmiylar bu yerga asir qilib olib kelingan. O‘shalarni ozod etsangiz. Birdan bir tilagim shu!”, debdi. Shoh hayron bo‘lib: “Ey himmati baland pahlavon! Agar yarim davlatimni tilaganingda edi, uni gap-so‘zsiz senga in’om qilgan bo‘lurdim. Agar sohibjamol qizimni o‘z nikohingga olmoqni so‘raganingda edi, seni o‘zimga kuyov etib, toju taxtimni senga bag‘ishlagan bo‘lurdim. Zero, jasorating ulkan mukofotga munosibdir. Mayli, tilagingni bajo keltirdim. Vatandoshlaring ozod! Ularni Xorazmga borgunlaricha yegulik oziq-ovqat, kiyim-bosh, ulov bilan ta’minlashni ham buyuraman!”, debdi.

Pahlavon Mahmud Hindistondan o‘z vatandoshlarini olib, Xorazmga qaytgan. Mo‘g‘ul-totor bosqinchilariga qarshi jangda shahid bo‘lgan vatandoshlari qabri ustida shoir o‘z mablag‘i hisobidan maqbara qurdirgan va u yerni obod ziyoratgoh etgan.

Pahlavon Mahmud marhum bo‘lgandan so‘ng, qabri ustiga vatandoshlari purshukuh maqbara qurganlar. Butun olamdan yog‘ilib kelayotgan sayyohlar pirimiz, ulug‘ shoir, mard inson qabrini ziyorat qiladilar. Maqbara devorlariga, peshtoqlariga shoirning ruboiylari darj

qilingan. Bu ziyoratgoh Xivada Hazrati Pahlavop pir nomi bilan mashhur. Keyinchalik Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofida Xorazm xonlaridan Abdulg‘ozixon, Shohniyozxon, Muhammad Rahimxon I, Temurg‘ozixon va boshqalarni vasiyatlariga ko‘ra dafn qilganlar[106].

O‘zbekistonlik sportchilarining xalq orasida mashhur bo‘lgan nomlari[107]. Chempionlar, mahoratli sportchilar xalqning tom ma’nodagi “qahramon”lari sanaladi. Ma’lumki, ko‘zga ko‘ringan sportchilar muxlislar orasida o‘z ism-sharifidan tashqari boshqa nomlar bilan ham mashhur bo‘ladi. Biz jangovar sport turlarida o‘z vaqtida mashhur bo‘lgan sportchilarimiz barobarida hozirda ham faoliyat yuritayotgan yulduzlarimizning xalq orasidagi nomlari bilan tanishtiramiz.

Rufat Risqiyev – bokschi. Ushbu inson o‘zbek boksining tirik afsonasi ekanligini yaxshi bilasiz. To‘rt karra Sobiq Ittifoq chempioni, Jahon chempioni bo‘lgan Rufat aka **“Toshkent yo‘lbarsi”** nomi bilan mashhur bo‘lgan.



13.1-rasm. Rufat Risqiyev O‘zbekiston nomini dastlab dunyoga bildirgan yigitlardan bo‘ldi. Jahon chempionlari Muhammad Ali va Mark Taysonlar uning uyiga kelib ta’zim qilganlar.

Artur Grigoryan–bokschi. Havaskor boksda Sobiq Ittifoq spartakiadasi g‘olibi, MDH chempioni, Jahon chempionati sovrindori bo‘lgan bokschimiz professional yo‘nalishda WBO chempionlik kamari sohibi bo‘lgan va uni ko‘p bora himoya qila olgandi. U professional

[106] Internetdan olindi
[107] Internetdan olindi

faoliyatini Germaniyada olib borgan va aynan u yerda *“Qirol Artur”* nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Ruslan Chagayev – bokschi. Havaskor boksda Jahon chempioni, Osiyo chempioni professional yo‘nalishda WBA yo‘nalishida jahon chempioni bo‘lgan yurtdoshimiz *“Oq Tayson”* nomi bilan mashhur bo‘lganligidan ko‘pchilikning xabari bor...

Murod Xonto‘rayev – MMA jangchisi. Aralash jang san’ati bo‘yicha yurtimizdagi eng mashhur sportchilardan biri. Qozog‘iston ning “Alash Prayd”, Qirg‘izistonning WEF yo‘nalishlari chempioni bo‘lgan. Havaskor sport turlaridan, jumladan, universal jang, qo‘l jangi, kikboksing bo‘yicha juda ko‘p sovrinlarni qo‘lga kiritgan. Bu jangchimiz xalq orasida *“Osiyo ayig‘i”* nomi bilan shuhrat topgan.

Rustam Qosimjonov 2004-yilda Liviyada bo‘lib o‘tgan shaxmat bo‘yicha jahon chempionatida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Olimpiada cho‘qqisini zabt etgan O‘zbekiston sportchilari: Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston nomidan qatnashgan sportchilar hozirgacha jami 32 medallarni qo‘lga kiritgan. Tokioda start berilgan Yozgi Olimpiada o‘yinlari arafasida bugunga qadar O‘zbekistonga g‘oliblik sharafini olib kelgan barcha Olimpiada chempionlarini eslaydi. Bugunga qadar O‘zbekiston sharafini Olimpiada o‘yinlarida himoya qilgan sportchilar 10 ta oltin, 5 ta kumush va 17 ta bronza medallarini qo‘lga kiritgan.O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon Olimpiada o‘yinlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan O‘zbekistonlik sportchilarni eslaydi.

Lina Cheryazova. Lina Cheryazova 1989-yilda fristayl bo‘yicha Jahon kubogida Sobiq Ittifoq terma jamoasi tarkibida ishtirok etgan. Ittifoq parchalanganidan so‘ng O‘zbekiston nomidan xalqaro musobaqalarda faol qatnashgan. 1994-yilda Norvegiyaning Lillexemmerida o‘tgan Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston nomidan qatnashdi. U qo‘lga kiritgan qishki olimpiada o‘yinlari oltin medali hamon mamlakat tarixida yagonaligicha qolmoqda. Bundan tashqari, u akrobatikada fristayl bo‘yicha ham birinchi olimpiya chempioni hisoblanadi. Sportchi 1992−1994-yillarda Jahon kubogining 18 ta bosqichidan 13 tasida g‘alaba qozongan.

1994-yil Olimpiada o‘yinlaridan so‘ng u og‘ir tan jarohati olgan. Amerikaning Leyk-Plesid qishlog‘ida mashg‘ulot vaqtida 25 yoshida sportchi boshidan hayotiga xavf soluvchi jarohat oldi, biroq u nafaqat sog‘aydi, balki katta sportga ham qayta oldi. 1998-yilda Naganoda qishki Olimpiya o‘yinlariga saralash bo‘lib o‘tdi. Musobaqada 13-o‘rinni qo‘lga kiritgan Lina katta sportdagi faoliyatiga yakun yasagan. O‘zbekiston tarixidagi birinchi chang‘i akrobatikachisi Lina Cheryazova 2019-yil 23-mart kuni Novosibirksda 51 yoshda hayotdan ko‘z yumgan.

Oksana Chusovitina. Oksana Chusovitina yetti bor (1992, 1996, 2000, 2004, 2008, 2012, 2016) yozgi Olimpiadada ishtirok etgan holda Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Sportchi SSSR, Germaniya (2006−2012) nomidan Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etgan, ayni vaqtda esa O‘zbekiston sharafini himoya qilmoqda. Chusovitina -1992-yili jamoaviy bahsda olimpiya chempioni, uch karra jahon chempioni, Yevropa chempioni, Osiyo o‘yinlari chempioni bo‘lgan. Tokioda bo‘lib o‘tgan Olimpiada o‘yinlarida ham ishtirok etdi. Bu uning *sakkizinchi* Olimpiadasi.

Muhammadqodir Abdullayev. Muhammadqodir Abdullayev boks bo‘yicha Osiyo va jahon chempioni, Osiyo va Olimpiya o‘yinlari g‘olibi. 1999 va 2000-yillarda mamlakatimizda “Yilning eng yaxshi sportchisi” deb topilgan. Muhammadqodir Abdullayev 1995-yili Toshkentda o‘tkazilgan Markaziy Osiyo o‘yinlarida g‘olib chiqdi, Osiyo chempionatida ikkinchi o‘rinni egalladi, 1996-yili esa Atlantada o‘tadigan Olimpiya o‘yinlariga yo‘llanma oldi.U 1997-yili Malayziya poytaxti Kuala-Lumpurda Osiyo chempioni bo‘lgan. 1998-yili Xitoyning Chong-Ging shahridan jahon kubogi bilan qaytdi, Bangkokda o‘tkazilgan XIII Osiyo o‘yinlarida esa oltin medalga sazovor bo‘ldi. 1999-yili AQShning Xyuston shahrida jahon chempioni degan yuksak unvonga musharraf bo‘ldi. Toshkentda o‘tgan Osiyo chempionatida g‘olib chiqib, Sidney Olimpiadasi yo‘llanmasini qo‘lga kiritgan. Sidney Olimpiadasida Muhammadqodir “jang”larda raqiblari ustidan g‘alaba qozongan va yozgi Olimpiya o‘yinlarining birinchi chempioni sifatida O‘zbekiston sport tarixidan joy olgan.

Artur Taymazov. Artur Taymazov kelib chiqishi osetin bo‘lgan O‘zbekistonlik erkin kurashchi. U uch karra Olimpiada chempioni (2004, 2008 va 2012-yillar), Sidney-2000 Olimpiadasi kumush medali sovrindori, ikki karra jahon chempioni, ikki karra Osiyo chempioni, uch karra Osiyo o‘yinlari g‘olibidir. Artur Taymazov sportning erkin kurash turi bo‘yicha O‘zbekiston sharafini xalqaro arenalarda munosib himoya qilgan sportchilardan biri. O‘zbekiston Olimpiya tarixida qo‘lga kiritilgan 6 ta oltin medaldan 3 tasining egasi. 2000-yil Avstraliyaning Sidney shahridagi Olimpiada o‘yinlarida 2-o‘rin, 2004-yil Gresiyaning Afina shahrida, 2008-yil Xitoyning Pekin shahridagi Olimpiada o‘yinlarida 1-o‘rinni egallab, O‘zbekiston tarixida birinchi marta ikki karra olimpiada g‘olibi degan nomni qo‘lga kiritgan. 2012-yil Angliyaning London shahrida o‘tkazilgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida ham 1-o‘rinni egallagan.

Artur Dokturishvili. Artur Dokturishvili kattalar o‘rtasidagi musobaqalarda qatnashishni 2000-yilda boshlagan va ilk urinishda Yevropa chempioni unvoniga sazovor bo‘lgan. 2001-yildan O‘zbekiston terma jamoasi tarkibida gilamga chiqa boshlagan. 2003-yili Osiyo Kubogi sohibiga aylangan. 2004-yili Osiyo chempioniga aylangan, olimpiada arafasidagi saralash musobaqasida ikkinchi o‘rinni egallagan.Gresiya poytaxti Afinada o‘tgan Olimpiada o‘yinlarida yunon-rum kurashi bo‘yicha musobaqada 74kg vazn toifasida gilamga chiqqan. O‘zbek sportchisi Afinadagi olimpiada ning oltin medali egasiga aylangan.

Hasanboy Do‘smatov. *Olimpiada chempioni* Hasanboy Do‘smatov bokschilik faoliyatini 11 yoshida, Andijondagi boks maktabida boshlagan. U 2011-yilda yoshlar o‘rtasidagi mamlakat chempionida oltin medalni qo‘lga kiritadi va kattalarning O‘zbekiston boks terma jamoasi a’zosiga aylanadi. 2013-yilda Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan yozgi Universiadada g‘olib chiqadi. Do‘smatov 2016-yilgi Rio Olimpiadasi oldidan favoritlar qatorida e’tirof etilgan. 23 yoshli bokschi Rio-2016dagi boks turnirida ilk oltin medal egasiga aylangan. Do‘smatov O‘zbekiston tarixida boksi Muhammadqodir Abdullayevdan keyin Olimpiada chempioniga aylangan ikkinchi

bokschi hisoblanadi. Rio Olimpiadasi yakunlariga koʻra Hasanboy Doʻsmatov turnirning eng yaxshi bokschisiga beriladigan Vel Barker sovrini sohibiga aylangan.

Ruslan Nurudinov. Ruslan Nurudinov Oʻzbekistonlik ogʻir atletikachi. Xalqaro maydondagi dastlabki gʻalabasini 2009-yili Birlashgan Arab Amirliklarida oʻtgan oʻsmirlar oʻrtasidagi Osiyo chempionatida qoʻlga kiritgan va oltin medalga sazovor boʻlgan. Ruslan Nuridinov 2011-yili Fransiyadagi jahon chempionatida shtangani siltab koʻtarishda kumush medalni qoʻlga kiritgan. 2012-yili Janubiy Koreyada oʻtgan Osiyo chempionatida gʻolib chiqdi va London Olimpiadasida kuchli toʻrtlikdan joy oldi. Keyinroq ogʻir atletikachi Ruslan Nuriddinovning tekshiruvdan oʻtkazilgan 2012-yilgi doping namunasi ijobiy natija bergan. Xalqaro ogʻir atletika federatsiyasi uni vaqtincha sportdan chetlatib, Olimpiadada erishgan natijalari, jumladan ballari bekor qilinib, medal va sovrinlari musodara etilishi haqida maʼlum qilingan edi.

2013-yil ogʻir atletikachi uchun har tomonlama muvaffaqiyatli boʻldi. Dastlab mamlakat chempionatida gʻalaba qozongan Ruslan Osiyo chempionatida ham uchta oltin medalni qoʻlga kiritdi. Iyul oyida Jahon univesiadasida ikki marotaba rekord oʻrnatib, chempion boʻlgan.2016-yilgi olimpiadada ogʻir atletikachi Ruslan Nuridinov siltab koʻtarishda Olimpiya rekordini yangilab, Riodagi oʻyinlarda oltin medalni qoʻlga kiritgan.

Shahobiddin Zoirov. Shahobiddin Zoirov-oʻzbek bokschisi. Olimpiya chempioni (2016), jahon chempioni (2019), Osiyo oʻyinlari ning kumush medali sovrindori (2014), Osiyo chempioni (2021), Osiyo chempionatining ikki karra kumush medali sohibi (2013, 2015). Bokschi 2016-yildagi Rio Olimpiada oʻyinlarida 52 kilogramgacha vazn toifasida oltin medalni qoʻlga kiritgan.

Fazliddin Gʻoibnazarov. Fazliddin Gʻoibnazarov -birinchi yarim oʻrta vazn toifasida harakat qilayotgan Oʻzbekistonlik professional bokschi. Rio-de-Janeyroda boʻlib oʻtgan 2016-yilgi Olimpiya oʻyinlari chempioni, 2015-yilgi Jahon va Osiyo chempionatlarining kumush

medali sovrindori, havaskorlar o‘rtasidagi boks bo‘yicha bir qator milliy va xalqaro turnirlar g‘olibi va sovrindori.

O‘zbekistonda umrbod oylik to‘lanadigan sportchilar nomi e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10 avgustdagi “Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida” qaroriga asosan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari g‘olib va sovrindorlari uchun umrbod oylik to‘lovlar to‘lab borilishi belgilangan edi.Qaror ijrosini ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yilning 27-dekabridagi va joriy-yilning 7-fevraldagi tegishli farmoyishlariga asosan, umrbod oylik to‘lov oladigan sportchilar ro‘yxati tasdiqlandi. Hozircha umrbod oylik to‘lov to‘lab boriladigan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari g‘olib va sovrindori soni 57 nafar.

Ularga Jismoniy tarbiya va sport vazirligining har-yili tasdiqlanadigan Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan:

-oltin medal uchun -eng kam oylik ish haqining 10 barobari;

-kumush medal uchun -eng kam oylik ish haqining 5 barobari;

-bronza medal uchun-eng kam oylik ish haqining 5 barobari miqdorida umrbod oylik to‘lab boriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-oktyabrdagi 878-son qarori bilan tasdiqlangan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari g‘olib va sovrindorlariga to‘lanadigan umrbod oylik to‘lovlar to‘lash tartibi to‘g‘risida nizomga asosan, umrbod to‘lovlarni olish uchun har-yili 1-dekabrga qadar Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga ariza va pasport nusxasi taqdim etilishi shart.Sportchi O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsa yoki musobaqada boshqa davlat nomidan ishtirok etsa, butunjahon antidoping tashkiloti (WADA) tomonidan taqiqlangan dori vositalari qo‘llagani aniqlanib, Olimpiya va Paralimpiya g‘olib va sovrindorligidan mahrum etilsa, sud qaroriga muvofiq ozodlikdan mahrum etilsa, vafot etsa umrbod oylik to‘lov to‘xtatiladi. Ta’kidlash joiz, sportchi kelgusi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida yana g‘olib

va sovrindor bo‘lsa, unga umrbod oylik to‘lovlar oshirilgan miqdorda to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son qaroriga 1-Ilovada Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish Konsepsiyasida o‘zbek milliy kurashining xalqaro miqyoslardagi dovrug‘i quyidagicha keltirilgan[108]:

-1992-yilda O‘zbekiston kurash federatsiyasining tashkil etilishi muhim tarixiy voqea bo‘ldi;

-O‘zbekiston kurash Federatsiyasi tomonidan kurashni ommalashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida jahonning turli qit’alarida joylashgan xorijiy davlatlarda milliy kurash federatsiyalari tashkil etildi;

-1998-yil 6-sentyabrda dunyoning beshta qit’asidagi 129 ta milliy federatsiyalarni birlashtirgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi ta’sis etildi;

-2010-yilda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish uchun buyurtma berishda muhim talab hisoblangan Jahon dopingga qarshi agentligining e’tirofiga sazovor bo‘ldi;

-2017yil 20-sentyabrda bo‘lib o‘tgan Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh assambleyasida tarixda ilk bor kurash sport turi 2018-yilda Indoneziyada o‘tgan XVIII yozgi Osiyo o‘yinlari dasturiga alohida sport turi sifatida hamda 2022-yilda-Xitoyda, 2026-yilda - Yaponiyada o‘tadigan yozgi Osiyo o‘yinlari dasturlariga kiritildi.

-Kurash bo‘yicha xalqaro sport tadbirlarida sportchilarimiz sovrinli o‘rinlarni egallab, mamlakatimiz nufuzini munosib himoya qilib kelmoqdalar. Xususan, yurtimiz sportchilari 2019-yilda xalqaro sport tadbirlarida 1 231 ta, shu jumladan 378 ta oltin, 402 ta kumush, 451 ta bronza medallarini qo‘lga kiritganlar. Bunda, kurashchilar xalqaro sport tadbirlarida jami 73 ta, shu jumladan 37 ta oltin medalga sazovor bo‘lganlar.

Milliy xalq o‘yinlari-millat yoshlarining g‘ururi! O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tashabbusi bilan Zomin

[108]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qarori”ga 1-Ilova Kurash milliy sport turini 2025 yilgacha yangi bosqichga olib chiqish Konsepsiyasi, Toshkent sh.,2020 yil 4 noyabr,PQ-4881-son

tumanida “Milliy xalq o‘yinlari” festivali bo‘lib o‘tdi. Zomin tuman Madaniyat bo‘limi, O‘zbekiston “Yoshlar ittifoqi” tuman Kengashi, Respublika ma’naviyat targ‘ibot markazi tuman bo‘limi, tuman xalq ta’limi bo‘limi bilan hamkorlikda tashkil etilgan festivalda tumandagi 10 dan ortiq maktablar o‘quvchilari ishtirok etdilar.

O‘zbek xalq milliy o‘yinlari o‘zining uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan, ma’naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi, -dedi tadbirni ochib bergan O‘zMTDP Zomin tuman Kengashi raisi O‘rozali Berdibekov. Zero, bolalar va o‘smirlarni har tomonlama sog‘lom, jismonan baquvvat, ma’nan zukko va topqir bo‘lib ulg‘ayishlarida har bitta milliy o‘yinimizning o‘z o‘rni bor. Bugunda unutilib borayotgan qator milliy o‘yinlarni kengroq targ‘ib etish yo‘li bilan yoshlarimizni sog‘lom turmush tarziga targ‘ib etish, ularning intellektual salohiyati bilan birgalikda jismonan barkamol bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiluvchi qadimiy xalq o‘yinlarini yana bir bor yodga olish festivalning asosiy maqsadi (13.2.2-Rasm).



13.2-Rasm. Qayta tiklanayotgan milliy madaniy o‘yinlarimiz

Shundan so‘ng bolalar va o‘smirlar guruhlarga bo‘lingan holda ovchilik o‘yinlaridan “Oshiq-moshiq”, “Xappak tosh”, hunarmandlik o‘yinlaridan “Lanka”, “Ko‘z bog‘lar”, dehqonchilik o‘yinlaridan

“Qo‘riqchi”, taqlidiy o‘yinlardan “Kim oladi-yo shuginani-yo”, “Xo‘roz urishtirish”, harakatli o‘yinlar turkumiga kiruvchi “Halinchak”, so‘z-harakat o‘yinlaridan “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Arqon tortishuv”, kurash va u bilan bog‘liq o‘yinlar sirasiga kiruvchi “Milliy kurash”, “Elkada kurash”, “Bel olish kurashi”, chavandozlik o‘yinlaridan “Piyoda poyga”, “Eshak mindi” kabi asrlar elagidan o‘tib kelayotgan milliy o‘yinlarni mahorat bilan namoyish qila boshladilar[109].

Tayanch so‘zlar: olimpiada, chempionat, milliy o‘yinlar, xalq o‘yinlari, federatsiya, final, yarim final, start, finish.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savollar va topshiriqlar

1.Xalqaro sport o‘yinlari qayerda kelib chiqgan?
2.O‘zbekistonlik jahon chempionlarini gapirib bering.
3.O‘zbekistonlik olimpiada chempionlarini gapirib bering.
4.O‘zbekistonda birinchi jahon chempioni kim bo‘lgan?
5.Olimpiada o‘yinlarida bizning milliy o‘yinlarimiz bormi?

[109] Ehson Mirzo

XIV BOB. ILMIY TURIZM VA BU TURNING RESURSLARI

14.1. Ilmiy turizm

Ilmiy turizm-turizmning alohida turi bo‘lib, turistning moddiy manfaatdorligi chegaralangan holda tur dasturidagi ilmiy tadqiqotlarga bevosita qatnashuvi hisoblanadi. YUNESKO va BTT qabul qilgan turizm bo‘yicha Butunjahon Manila deklaratsiyasidagi Madaniy va ilmiy turizm Hartiyasida ilmiy turizmga quyidagi ta’rif berilgan*: - “Ilmiy va madaniy turizm o‘zining maqsadi-interalia-ilmiy yutuqlarni shaxsiy bilish va tarixiy joylarni, obidalarni ochish hisoblanadi”.*

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ilmiy turizm tushunchasi va mohiyati bo‘yicha quyidagi 3 ta yondoshuvni aniqlash mumkin:

1.*Texnik yondoshuv*-ilmiy turizmni amalga oshirishda foydalaniladigan resurslarni ro‘yxatga olish, ta’riflash.

2.*Konseptual yondoshuv*- ilmiy turlarga yo‘l olgan turistlar ning maqsadi va motivlarini aniqlash.

3.*Natijali yondoshuv*-ilmiy natijalar bo‘yicha turistning oxirgi natijalarini aniqlash.

Prezidentimizning ilmiy turizmni rivojlantiriga aloqador bo‘lgan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan maqsadni keltiramiz[110]:

50-maqsad:

-“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish.

-xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o‘tkazish;

-xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta’lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg‘arma

[110]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda imzolangan “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

tomonidan ochiq tanlov e’lon qilish va o‘tkazish. Bu maqsadda rejalashtirilgan loyihalar yangi O‘zbekiston ning istiqbolni belgilashidagi eng asosiy islohatlaridan hisoblanadi.

Ilmiy turizmning o‘ziga xos bo‘lgan belgilari, xususiyatlari shundan iboratki, bundagi turistlar-olimlar va tadqiqotchilardir. Ularning asosiy maqsadi tarixiy jihatlardan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy joylarni va obidalarni ochish, kashf qilish, shuningdek, fanning yangi yutuqlariga erishish hisoblanadi. Ularning tadqiqotlari ob’eklari-milliy parklar, qo‘riqxonalar, tabiiy buyurtmaxonalar va boshqa tabiiy ekotizimlardir[111]. Ilmiy turizmda har qanday ilmiy mavzu bilan shug‘ullanganda ilmiy izlanuvchi 5 bosqichdan iborat jarayondan o‘tishi kerak (14.1-Rasm).

Ilmiy turizm quyidagi turlarga bo‘linadi va bu yerda ilmiy turizmga yondosh ekoturizm, yondosh ishchanlik turizm va turizmning mustaqil turi sifatida qaraladi:

- Tanishuv tadqiqotlari;
- Yordamchi tadqiqotchi sifatida qatnashish;
- Mustaqil tadqiqotchi

Maqsadi va faoliyatlaridagi xususiyatlarga qarab ilmiy turistlarni quyidagi uch tipga bo‘lish mumkin;

1. “Professionallar”- aniq ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim tashkilotlarida, ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy markazlarda, dala tajriba labaratoriyalarida ishlovchi mutaxassis lar, olimlar(masalan, tabiatshunoslar, tarixchilar va boshq..);

2. “Fanatlar”-asosiy faoliyatlariga kirmaydigan ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchilar, turdagi asosiy maqsadi madaniyatlar va tabiatni o‘rganuvchi turistlar;

3. “Havaskorlar”- noodatiy turlarga qatnashishni maqsad qilgan turistlar.

[111] Клес И.А. Понятие и спесифика развития научного туризма http://edoc.bseu.by-452



14.1-Rasm. Hududda ilmiy turizmni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari[112].

YUNESKO ekspertlarining xulosalari bo'yicha 2020-yillarda ilmiy turizmning umumiy jahon turizmidagi hissasi 25% gacha yetadi.

Rossiya geografiya jamiyatining mutaxassislari ilmiy turizmning quyidagi turlarini yozishgan:

1. Ilmiy tashkilotning dala brigadasi tarkibida ekspeditsiyali ilmiy turizm. Ekspeditsiyali ilmiy turizm qatnashchilari ko'pincha flora va faunaga, iqlim mintaqalariga, etnografik, geologik, arxeologik va boshqa fanlarning tadqiqotlariga qiziqishadi.

2. Mustaqil, tavakkalchilikga asoslangan ilmiy turizm. Bu tipdagi

[112] Xolodilina Yu.Ye., VESTNIK OGU №13 (132)/dekabr`2011.-500-504 s.

ilmiy turizm qatnashchilari tadqiqot mavzusini o‘zlari tanlashadi.

Mutaxassislarning fikricha ilmiy turizmni rivojlantirish uchun quyidagi resurslar mavjud bo‘lishi kerak[113]:

1. Tabiiy resurslar (ekotizimlar, tabiiy landshaftlar, suv mineral resurslar, ekologik sharoit va boshq..).

2. Madaniy-tarixiy salohiyatlar (tarixiy arxitektura obidalari, muzeylar, tarixiy joylar, zamonaviy diqqatga sazovor joylar va dam olish ob’ektlari).

3. Moddiy texnik baza va turizm infratuzilmalari (mehmonxonalar, motellar, kempinglar, xizmatlar sohasi, umumiy ovqatlanish korxonalari, rayonning ijtimoiy infratuzilmalari).

4. Kadrlar, mutaxassislar resursi (turizm sohasini va turlarini yaxshi biladigan olimlar, tadbirkorlar, turizmning xizmatlarini yaxshi o‘zlashtirganlar).

5. O‘rganiladigan hududlarning tabiiy jihatdan g‘aroyibligi.

Ilmiy turizmning tobora ommaviylashib borishining asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, ilmiy turizm turlarida qatnashayotgan turistlar o‘zlarini qiziqtirgan tadqiqotlar ob’ektlarida oylab, ba’zida-yillab qolib ketishadi va mahalliy aholi bilan yaqinda tanishadi, birga yashashadi.



14.2-rasm

[113] Xolodilina Yu.Ye., VESTNIK OGU №13 (132)/dekabr`2011.-500-504 s.

“O‘qish davrimda onam meni deb hech qachon maoshini qo‘liga olmagan”. Rishtonlik Dostonbek Siddiqov qanday qilib Vetnamda “Yil o‘qituvchisi” bo‘lgani haqida. Yaqinda Facebook ijtimoiy tarmog‘ida Rishtonlik yigitning Vetnamda-yil o‘qituvchisi bo‘lgani haqida xushxabar tarqaldi. Tabiiyki, vatandoshimizni nafaqat tanigan, balki shaxsan tanimagan yuzlab odamlar tabriklashdi, havas qilishdi...

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iste’dodli yoshlarning chet ellarda o‘qishini qo‘llab-quvvatlovchi “Umid” jamg‘armasi. 1997-yilda tuzilgan. Faoliyatining asosiy yo‘nalishlari: talabalar orasidan chet el oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish maqsadida eng iste’dodli yoshlarni raqobat asosida tanlab olish. Jamg‘arma jyurisi respublikaning yetakchi olimlari, mutaxassis lari va xalqaro tashkilotlarning vakillaridan iborat. O‘qish shakli: bakalavriat (4-yil), magistratura (2-yil) va malaka oshirish (1-yil). Respublika oliy o‘quv yurtlarning tanlovida g‘olib deb topilgan talabalari jamg‘arma tomonidan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya va Yaponiyadagi eng yirik universitet larga o‘qishga yuboriladi.

“Iste’dod” jamg‘armasi negizida “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyat yuritadi[114]. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonini qabul qildi. Mazkur hujjat xorijda yashayotgan va ishlayotgan vatandoshlarimiz, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan olimlar, mutaxassislar va iste’dodli yoshlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi maqsadlarda qabul qilingan.

“Iste’dod” jamg‘armasi negizida tamoman yangi “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyat yuritadi. Jamg‘armaning shu paytga qadar bajarib kelgan funksiyasi bundan buyon ham davom etaveradi. Endilikda

[114]O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida multimedia markazi bilan hamkorlikda tayyorlandi

jamg‘arma zimmasiga xorijdagi vatandoshlar bilan muloqot qilish vazifa ham yuklandi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi magistratura va doktorantura dasturlari bo‘yicha tanlov o‘tkazish va tayyorgarlikni tashkil qilish, shuningdek, davlat tuzilmasi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta’lim va ilmiy muassasalarning istiqbolli mutaxassislarini rivojlangan mamlakatlar-dagi ilmiy va ta’lim muassasalariga malakasini oshirish va stajirovkadan o‘tkazishga ham jo‘natadi.

Farmon bilan yangi jamg‘armaning tashkiliy tuzilmasi, uning Nizomi, Vasiylik kengashi tarkibi hamda xorijda ta’lim olish, stajirovka o‘tash va malaka oshirish uchun nomzodlar o‘rtasidagi tanlov Tartibi ham tasdiqlandi.

Jamg‘arma stipendiyalari har-yili tasdiqlanadigan maqsadli dasturlarga muvofiq quyidagicha ajratiladi:

• xorijiy ta’lim va ilmiy muassasalarda malaka oshirishga – 2 oygacha;

•xorijiy ilmiy, ta’lim, ijod muassasalari, davlat idoralari, korxona va boshqa tashkilotlarda stajirovka o‘tashga – 6 oygacha muddatga;

•etakchi xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalarda magistratura dasturi asosida o‘qishga – 1-2-yil mobaynida;

• doktorantura dasturi bo‘yicha esa 1-4-yil mobaynida.

Tanlovdan o‘tgan stipendiatlarga jamg‘arma stipendiyalari quyidagi harajatlarni qoplash uchun ajratiladi:

• xorijiy ta’lim va ilmiy muassasalarda o‘qish qiymatining to‘lovi;

• stipendiatlarning viza olish harajatlari;

• barcha turdagi transport vositalari bilan o‘qish joyiga qadar –- yilda bir martadan ortiq bo‘lmagan yo‘lkira harajatlari;

• borgan mamlakatdagi o‘qish davrida yashash, ovqatlanish va transport harajatlari;

• zarur o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar harid qilish;

• xorijda o‘qish davrida stipendiatlarni tibbiy sug‘urtalash.

Jamg‘armaning moliyaviy ko‘magi bilan magistratura yoki doktorantura dasturlari bo‘yicha ta’lim olgan stipendiatlar tuzilgan shartnomada belgilab qo‘yilgan muddat davomida oliy ta’lim yoki

ilmiy muassasa, shuningdek, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlarida ishlab berish majburiyatini zimmalariga oladi. To‘g‘rirog‘i, chet elda malaka oshirib yoki stajirovka o‘tab kelgan stipendiatga, uni tavsiya etgan oliy ta’lim yoki ilmiy muassasada, shuningdek, davlat tashkilotlarida 3-yildan kam bo‘lmagan muddat davomida ishlab berish sharti qo‘yiladi. Basharti stipendiat magistratura yoki PhD dasturi bo‘yicha chet elda ta’lim olganda, egallagan mutaxassisligi bo‘yicha 5-yildan kam bo‘lmagan muddatda, stipendiatni o‘qitishga qilingan barcha harajatlar mikdori 75 ming AQSH dollaridan ortiq bo‘lsa, ularga 7-yilgacha uzluksiz ishlab berish majburiyati yuklanadi.

Endilikda jamg‘arma xorijdagi malakali vatandoshlarimiz hamda O‘zbekistondagi kadrlar zahirasiga ehtiyoji bor vazirlik va idoralar uchun o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Ilmiy turizm-mamlakat iqtisodiyoti va taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi[115]. Bugungi kunda mazkur sohaning o‘ziga xos tarmoqlari-ekoturizm, agroturizm, ziyorat turizmi yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Shu bois turizmni zamon talablari darajasida tashkil etish hamda uni malakali va ilg‘or tajribaga ega yosh mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash dolzarbdir. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti o‘rtasida imzolangan anglashuv memorandumi soha rivojini yangi bosqichga *olib chiqishga xizmat qiladi.*

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori Rustam Qosimov, Bosh vazir o‘rinbosari, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov yurtimizning turizm salohiyati, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ziyorat turizmini yanada rivojlantirish borasida ishlab chiqilayotgan “Yo‘l haritasi” hamda mazkur tarmoq uchun yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj va talab ortib borayotganini ta’kidladi.

Ma’lumki, dunyo aholisining katta qismini muqaddas islom diniga

[115] O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi matbuot xizmati

e’tiqod qiluvchilar tashkil etadi, – dedi R.Qosimov. Dunyo tamadduni beshiklaridan biri bo‘lgan ona Vatanimiz esa qadim tarix va ulug‘ allomalar yurti hisoblanadi. Shu bois yurtimiz tarixi, uning benazir tabiati va albatta, buyuk allomalari ma’naviy merosidan bahramand bo‘lishni istab butun jahon mamlakatlaridan sayohatga otlanuvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu o‘z navbatida, O‘zbekistonning jahonda o‘z imiji va mavqeini ham belgilab beradigan omillardan. Shu bois mazkur sohani rivojlantirishda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish mamlakatimiz taraqqiyotiga ham xizmat qilishi shubhasiz.

Tadbirda yurtimiz tarixi, boy milliy, madaniy-ma’naviy va buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur tadqiq etish, sohada faoliyat yuritayotgan turistik firmalar mutaxassislari bilim va malakasini yangi ilmiy tadqiqotlar asosida oshirish masalasi turizm, xususan, bugun dolzarb ahamiyat kasb etayotgan ziyorat turizmi rivojida muhim ekani qayd etildi.

Bugun imzolangan Anglashuv memorandumi Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, ziyorat turizmini ilmiy yondashuv asosida rivojlantirishda dastlabki va muhim bosqich bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi,– dedi A.Abduhakimov. Ma’lumki, o‘tmishning dolg‘ali davrlari tarixning ko‘plab zarvaraqlari o‘chishi, xalq xotirasidan ko‘tarilishi va oxir-oqibat unutilishiga ham sabab bo‘lgan. Shu bois ming afsuski, bugunda yurtimizning ko‘plab aziz qadamjolari va ulug‘ alloma hamda mutafakkirlari haqida ayrim holatlarda asosli-asossiz afsona va rivoyatlar asosida sayyohlarga ma’lumotlar taqdim etilishi kuzatiladi. Bu esa, ba’zan kishida yanglish fikr va xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi bilan imzolangan anglashuv memorandumi yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, qadimdan ilm-ma’rifat beshigi bo‘lgan ona zaminimiz nafaqat o‘z tabiati va benazir iqlimi, balki jahonga mashhur ulug‘ mutafakkir va allomalari bilan ham nom qozongan. Buni qadim Samarqand, Buxoro, Xiva, Kesh, Nasaf, Shoshu Huqand shaharlari-yu ularda kamolga yetib, ilm-ma’rifat tug‘ini baland ko‘targan Buxoriy, Nasafiy, Termiziy, Farg‘oniy va Shoshiylar qoldirgan bebaho ma’naviy

merosda ko‘rish mumkin.Turizm sohasini rivojlantirish borasida o‘zaro fikr almashish orqali mavjud muammolarga hamjihatlikda ilmiy yondashuv asosida yechim axtarish, hamkorlikni mustahkamlash borasida fikr yuritilgan anjumanda mas’ullar tomonidan turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi firma vakillari hamda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlari savollariga atroflicha javob berildi.

Oliy o‘quv yurtlari. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi ning dastlabki kunla ridanoq ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasi, yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi, intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishda islohatlarga zaruriyat sezildi. 1997-yil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirokida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi.Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va boshqa rasmiy hujjatlarga muvofiq, respublika viloyatlarida universitetlar va ixtisoslashtirilgan institutlar tashkil etildi. Barcha oliy o‘quv yurtlarida qabul imtihonlari test tizimiga o‘tkazildi. Oliy o‘quv yurtlarida ixtisoslashtirilgan litseylar tashkil qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi butun ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekistonda xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari soni so‘nggi 3-yilda ikki barobar oshgan. 2020/2021-o‘quv-yili boshida respublika bo‘yicha 20 ta xorijiy oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan. 2020/2021-o‘quv-yilida O‘zbekistondagi barcha oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar jami 571,5 ming nafarni tashkil etgan. Shundan, OTMlarda ta’lim olayotgan talabalarning 311,5 ming nafarini o‘g‘il bolalar, 260 ming nafarini qiz bolalar tashkil etmoqda.

Fan. O‘zbekistonda fan tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi, u chuqur ildizga ega. U asrlar davomida tabiat sirlari, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, geologiya, adabiyotshunoslikni bilishda o‘zbek millati butun insoniyatga katta xizmat qildi. Hozirgi O‘zbekiston hududida ilmiy markazlar va madaniyat markazlari qadimdan paydo bo‘lgan. O‘rta Osiyo ilmiy tafakkuri ning muhim markazlari sifatida Buxoro, Urganch, Samarqand doimo tilga olingan. Buyuk islomshunos olim Imom al-Buxoriy asarlarining ahamiyati

beqiyosdir. Uning “Al-jomi’ as-sahih” asari, dunyodagi ilohiyotchi olimlarning fikricha, qur’oni karim dan keyin ikkinchi kitob, butun dunyo musulmonlari tomonidan e’tirof etilgan islom manbaidir.

Hozirgi zamon matematikasining, astronomiya va geografiyasi-ni Muhammad ibn Muso Xorazmiysiz tasavvur qilish qiyin. U algebra faniga asos soldi va unga nom berdi.12-asrda Xorazmiy ning asarlari Yevropa mamlakatlarida asosiy qo‘llanma sifatida xizmat qildi. Xorazmiyning nomi matematikaga hind raqamlari yordamida arifmetika, keyinchalik algoritm sifatida kirib keldi. Xuddi shu davrda astronom, matematik, geograf Ahmad Farg‘oniy o‘zining “Madhal-un nujum” (Astronomiyaga kirish) asarini yaratdi. Bu kitob unga dunyoviy shuhrat keltirdi. Ahmad Farg‘oniy Ispaniyada ilmiy markaz tashkil etgan va universitetga asos solgan.

Olim tabib, faylasuf, musiqashunos Abu Ali ibn Sino insoniyat taraqqiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirdi. U sharq va g‘arbda mashhur edi. Uning “Tib qonunlari” ko‘p asrlar davomida butun dunyo tabobatida asosiy dastur bo‘lib kelgan. Taraqqiyparvar faylasuf, ensiklopedist–olim sharq aristotelchilarining asosiy vakillaridan biri, 160 dan ortiq asarlar yozgan. Abu Nasr Muhammad Farobiy Islom ta’limotining kuchli ta’sirida bo‘lgan holda Aristotel ta’limotiga tayanib ontologiya, gnoselogiya, mantiq masalalari va ijtimoiy bilimlarni o‘z ichiga olgan falsa fiy tizimni yaratdi. Aristotel asarlarini sharhlab bergani uchun Forobiy “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin) “Sharq Arastusi” deb atalgan.

Enseklopedist–olim Abu Rayxon Beruniy O‘rta Sharqda birinchi bo‘lib Yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrlarni aytdi. Geologiya, geodeziya, astronimiya, matematika, mineralogiya, farmokognoziya bo‘yicha muhim tadqiqotlari bilan mashhur. X- asrda Xorazmda tashkil etilgan “Ma’mun akademiyasi” rahbarlaridan biri.

Tabiiy fanlar ayniqsa, astronomiya va matematikadagi buyuk ilmiy kashfiyotlar davlat arbobi, olim, ma’rifatparvar temuriy lardan Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq. Fanning yorqin tashkilotchisi sifatida u o‘z davlatiga dunyoning turli tomonidan olimlarni taklif etdi. Uning tashabbusi bilan Samarqandda rasadxona qurildi. Rasadxona

tashkil etishda Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Muiniddin Koshoniy, Saloxiddin Musaviy, Ali Qushchi va boshqa buyuk olimlar qatnashdilar. Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” asari unga jahonshumul shuhrat keltirdi. Bu asar tom ma’noda insoniyat zakovatining buyuk yodgorligi hisoblanadi.

Ulkan davlat arbobi, shoir, olim Zahiriddin Bobirning “Boburnoma” asari XVI-asr ilmiy tafakkurining buyuk yodgorligi hisoblanadi. X-XI–asrlarda Movorounnahrda sufiylik keng tarqalgan. Sufiylik oqimlardan birining asoschisi o‘rta Osiyolik shoir va din targ‘ibotchisi “Devoni hikmat” she’rlar to‘plamining asoschisi Ahmad Yassaviy bo‘lgan.

Falsafiy–diniy harakterdagi 80dan ziyod asar, jumladan, sufiylik va sufiylar to‘g‘risidagi birinchi-tarixiy-biografik asar muallifi, sufiylikning “Hakimiya” tariqati asoschisi Hakim Termiziydir. Ijtimoiy-siyosiy tafakkurning rivojlani shida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodi ulkan ahamiyat ga ega. Ana shunday mustahkam ildizga ega fan O‘zbekistonda qudratli intellektual salohiyatni vujudga keltirdi.

Respublikaning ilmiy-tadqiqot majmui akademiya, oliy ta’lim va boshqa tarmoqlardagi 362 ta muassasini, jumladan, 101 ta ilmiy-tadqiqot institutini, oliy o‘quv yurtlaridagi 55 ta loyiha konstruktorlik tashkilotini, 32 ta ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va tajriba korxonasini, 50 axborot hisoblash markazini o‘z ichiga oladi. “Fan” nashriyoti, fundamental kutubxona ham Respublika FA tarkibiga kiradi. FA da 11 ilmiy, 1ta ilmiy-ommabop jurnal nashr etiladi. FA tarkibida 140 ta haqiqiy a’zo (akademik) bor. Hozirgi kunda 46 ming kishi fanning turli tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatmoqda, ulardan 2,8 ming kishi fan doktori va 16,1 mingdan ortiq kishi fan nomzodidir.

Tayanch so‘zlar: ilmiy turizm, “Umid” jamg‘armasi, professionallar, fanatlar, xorijiy ilm, ekspeditsiya, labaratoriya.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1. Ilm va ilmiy turizmni qanday tushunasiz?
2. “Xorijiy ilm” mavzusida taqdimot tayyorlang va amaliy

darslarda gapirib bering.

3. Ilmiy turizmni tashkil qilish bosqichlarida nimalar rejalashtiriladi?.

4. Ilmiy turizmning turlari haqida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering.

XV BOB. ISHCHANLIK TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

15.1. Ishchanlik turizmi

Ishchanlik turizmi bu - kompaniya yoki tashkilot xodimlari ning ish masalalarini hal qilishi uchun o‘z vataniyadagi tashkilotlarga, korxonalarga va chel el davlatlaridagi konferensiyalar, ko‘rgazmalar, forumlar, sammitlar va boshqa xalqaro yig‘inlarga qatnashish va biznes rejalarini hal qilish uchun safarni tashkil qilishdir. Ishchanlik turizmining maqsadi o‘z vatanidagi va chet davlatlaridagi ishlab chiqarish seminarlariga, yig‘ilishlariga qatnashib yangi texnologiyalarni o‘rganish va turizm bozorining yangi segmentlarini va mahsulotlarini aniqlash hisoblanadi.

Jahon bo‘yicha ishchanlik turizmini Association of Corporate Travel Executives, ACTE- “Ishchanlik safarlarini korporotiv boshqarish Assotsiatsiyasi va Global Business Travel Association GBTA- “Ishchanlik turizmi xalqaro assotsiatsiyasi” boshqarib boradi. Ishchanlik turizmi jahon turizm industriyasida jadal rivojlanayotgan va yuqori daromadli turizm turi hisoblanadi. Ishchanlik turizmi jahonning turizm sohasidagi umumiy daromadning 24%ini tashkil qilmoqda. Turizm va sayohatlar butunjahon Kengashining (WTTC) ma’lumotlari bo‘yicha 2019-yilda ishchanlik turizmi jahon ichki yalpi mahsulotlarning 0,7% tashkil qilgan. 2026-yilga borib ishchanlik turizmining global bozori 1,658 trln. AQSH dollariga yetadi[116].

Ishchanlik turizmining turlari:

-konvensiyalar va korporotiv uchrashuvlar;

-rag‘batlantiruvchi safarlar;

-komandani qurish elementlari bilan mazmunli turlar;

-seminarlar;

-kongresslar va s’ezdlar;

-yarmarkalar va ko‘rgazmalar;madaniy va ijodiy voqe’alar, yig‘inlar;

116.Beaverstock, Jonathan; Derudder, Ben; Faulconbridge & Witlox (2012), *International Business Travel in the Global Economy*, Ashgate Publishing, ISBN 9781409488439

-ishlab chiqarish uchrashuvlari;

-asbob-uskunalar va shartnomalar tuzish uchun muzokaralar.

Ishchanlik turizmining kongress-ko‘rgazmali turi ishchanlik turizmidagi bozorning asosiy segmentlaridan biri hisoblanadi. Kongress-ko‘rgazmali turga kongresslar, yarmarkalar, ko‘rgazmalar, konferensiyalar va boshqa tadbirlar kiradi. Bunday tadbirlarga qatnashishning maqsadlari ham har xil. Olimlar, biznesmenlar, vrachlar, madaniyat arboblari, quruvchilar, qishloqloq xo‘jaligi xodimlari va boshqalar yangi texnologiyalar, tajribalar, ixtirolar haqida axborotlar olish uchun, hamkasblari bilan tanishish va tajribalar almashish uchun qayd qilingan tadbirlarga muntazam qatnashadilar.

Ishchanlik turizmidagi kongress turining muvaffaqiyat bilan ishlayotganligining asosiy sababi kongresslar o‘tkazish uchun davlatlar, davlatlardagi vazirliklar, yirik korporotsiyalar va xoldinglardan buyurtmalarning ko‘pligi hisoblanadi. Davlatlar tashkil qiladigan kongresslar ishtirokchilarning ko‘payishini ta’minlaydi, shu o‘rinda ushbu davlatda turizmning barcha turlarining dollarga sotilishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham, davlatlardagi ko‘plab vazirliklar va yirik kompaniyalar davlatdan o‘zining hududlarida xalqaro kongresslar o‘tkazishga harakat qilishadi.

Kongress turidagi tadbirlar ichida turizm ko‘rgazmalari va birjalar kata e’tiborga loyiq hisoblanadi. Bunday tadbirlar 30-yildan beri o‘tkazilib kelinmoqda va-yildan –-yilga tadbirlarning turlari ko‘paymoqda. Faqat Yevropada har-yili 200 dan ziyod turizm ko‘rgazmalari va birjalar tashkil qilinadi. Eng katta xalqaro birja har-yili mart oyida Berlinda o‘tkaziladi. Madridda 22-yildan beri yanvar oyining oxiri-fevral oyining boshlarida turizm ko‘rgazmasi va birjalar o‘tkazilib kelinmoqda.

Ishchanlik turizmidagi kongress va ko‘rgazmalarda insentiv tur ham kuchli rivojlanmoqda. “Incentive” (inglz)-undovchi, rag‘bat-lantiruvchi ma’nosini beradi. Tashkilot, korxona, kompaniyalar, firmalar o‘zlarining yuqori natijalarni ko‘rsatgan xodimlarini kongress va ko‘rgazmalarga borish uchun mukofotlaydilar va ular ishonadiki bu

xodimlar kongresslar va ko‘rgazmalardan ko‘plab yangi tajribalar, texnologiyalar olib kelishadi.

Insentivning ikki yo‘nalishi mavjud:

-turlar;

-individual turlar.

Insentiv turizmda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

-yangi mahsulotlar yoki xizmatlarni harakatlantirish va taqdimot;

-ishlab chiqarish va sifatni oshirish;

-agntlik va dilerlik tarmoqlarini yaratish;

-sodiq va mustahkam birlashgan komandani shakllantirish.

Maqsadlarga bog‘liq holda 3 ta insentiv-dasturlar ajratiladi:

-rag‘batlantiruvchi dasturlar;

-motivlashgan dasturlar;

-komandani qurish.

Insentiv – dasturlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular aniq buyurtmani faqat individul holatda ishlab chiqadi. Bunday turlar yuqori klassli joylashtirish va xizmatlarni o‘z tarkibiga oladi. Oddiy qilib tushuntirganda insentiv tur 4 va 5 yulduzli mehmonxonada yashash va zichlangan ekskursiya dasturlaridir. Bunday turlarga Amerikaliklar ko‘proq buyurtmalar berishadi.

MICE-turizm. Ishchanlik turizmida gapirilganda, so‘zlanganda MICE atamasi ko‘p qo‘llaniladi. MICE (“inglz”-*uchrashuvlar, insentivlar, konferensiyalar*, *ko‘rgazmalar*) tashkilotlar bilan bog‘langan va turli-tuman korporativ tadbirlarni o‘tkazuvchi ishchanlik turizmining industriyasi hisoblanadi.

Meetings- korporotivli uchrashuvlar.

Incentives- komandani qurish va xodimlar uchun motivli turlar.

Conferences-ishchan konferensiyalar, s’ezdlar, forumlar, seminarlar.

Events -chiquvchi korporotivli bayramlar.

Ishchanlik turizmining zamonaviy industriyasi g‘arbda paylo bo‘lgan.Bugungi kunda MICE-turizm liderlari AQSH, Angliya, Avstraliya, Germaniya, Fransiya, Avstriya va Ispaniya. Sharqda Xitoy xalq Respublikasi.

Ishchanlik- biznes-turizmning yo‘nalishlari:

-shaxsiy ishchanlik safarlari-68%;

-ko‘rgazmalar-12%;

-kongresslar va konferensiyalar-3%;

-seminarlar va treninglar-14%;

-insentiv-3%

Ishchanlik turizmining faoliyatlari turli-tuman nomlanishlarga ega, masalan:

1. *Kongress*-aniq ilmiy tadqiqotlar yoki shu tadqiqotlar natijalari bilan shug‘ullanuvchilarning, delegatsiyalarning uchrashuvlari shakli. Ishchanlik turizmida kongresslarning ulushi-3%.

2. *Konferensiya*-uchrashuvda fikrlar, natijalar va takliflar almashinishi.

3. *Sammit*-konferensiyaga o‘xshash, lekin bu uchrashuvlar yuqori darajalarda o‘tkaziladi, mutaxassislarning yig‘ilishi va muzokaralari. Davlatlarning boshliqlari, xalqaro tashkilotlar va xalqaro jamiyatlar ham sammitni tashkil qilishi mumkin.

4. *S’ezd*-jamoat tashkilotlari, siyosiy yoki ijtimoiy partiyalar, professionallar, milliy gruhlarning yig‘ilishi. S’ezd qatnashchilari hududiy bo‘linmalardan saylanadigan delegatlardan iborat.

5. *Simpozium*-erkin yig‘ilishlarda mutaxassislar, qatnashuvchi lar o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildiruvchi, unchalik ham ma’sulli bo‘lmagan xalqaro tadbirlar.

6. *Seminar*-qatnashuvchilarning ma’ruzalarini tinglash va muhokama qilish yig‘ilishlari. Ishchanlik turizmida seminarlar 14% ni tashkil qiladi.

Zamonaviy dunyoda ishchanlik turizmining rivojlanishi tendensiyalari:

Xalqaro jarayonlar, voqe’alar va yig‘inlarni o‘tkazish bo‘yicha lider davlat *Germaniya* hisoblanadi. Har-yili 5 mln. nemislar xizmat safarlariga chiqishadi, bularning 3% chet ellarga borishadi, xizmat safarlarining 76% foizi Germaniyaning o‘zida amalga oshiriladi. Jahondagi yetakchi va tarmoqlar ko‘rgazmalarining 60% ini tashkil qiladi va o‘tkazadi. Germaniya ikkinchi ming-yillikning yakuniy

ko‘rgazmasi “Ekspo 2000”ni o‘tkazish huquqini qo‘lga kiritib, bu ko‘rgazmani 2000-yil 1-iyunda xalqaro kongresslar va ko‘rgazmalar markazi bo‘lgan Gannover shaharida tashkil qildi. Qo‘rgazmada 189 ta davlatning mahsulotlari 170 ga maydondagi 55 ta pavilionga qo‘yildi. Ko‘rgazmada tashkil qilingan “Insoniyat-Tabiat-Texnologiya” pavilioni asosan dam olish, madaniy va sport o‘yinlarini o‘tkazishga mo‘ljallandi.

Keyingi-yillarda Germaniyaga quyidagi raqobatchilar paydo bo‘ldi:

- *Kipr*-dam olish joylarining ishchanlik makazlariga yaqinligi, zamonaviy infratuzilmalar, baho siyosatidagi ustamonlik, doimiy reyslarning mavjudligi; biznesmenlarning soddalashtirilgan viza rejimiga qiziqishi;
- *Monako*-xalqaro moliyaviy oqimlarni boshqaradi;
- *Birlashgan Arab Amirligi* - Yevropa va Amerika, Osiyo va Afrika o‘rtasidagi xalqaro yo‘llarning kesishgan joydaligi(dunyo bo‘yicha 200 dan ziyod avia reyslarning mavjudligi, alohida iqtisodiy rayonlarning mavjudligi, korporotivli va daromad solig‘ining yo‘qligi.
- *Ishchanlik turizmini rivojlantirayotgan davlatlar* - Turkiya, Iordaniya, Tunis, Chexiya, Xorvatiya, Fransiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya, Tayland;
- *Kongress-ko‘rgazmalarni xalqaro miqyoslarda o‘tkazuvchi shaharlar* - Amsterdam, Barselona, Bryussel, Vashington, Vena, Jeneva, Kopengagen, London, Madrid, Parij, Strasburg, Shveysariya.
- Har-yili noyabr oyining o‘rtalarida Londonda «Xalqaro turizm ko‘rgazmasi World Travel Market, WTM) tashkil qilinadi.
- Ishchanlik turizmidagi safarlarning 14%i jahonda ko‘rsatiladigan 30 ming ekspozitsiyalarni ko‘rish uchun tashkil qilinadi.

“O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori loyihasi Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirildi. Unga ko‘ra, “2019-2025-yillarda O‘zbekistonda konferensiya, forum, kongress, ko‘rgazma, seminar va anjumanlar

(MICE) turizmini rivojlantirish bo‘yicha konsepsiya” tasdiqlanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining “O‘zbekiston kongress va ko‘rgazma” markazini tashkil etish taklifiga rozilik berilishi mumkin.

Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanadi:

-O‘zbekistonda tashkil etiladigan mahalliy va xalqaro darajadagi kongress va ko‘rgazmalar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan ob’ektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar reestrini yuritish;

-mahalliy va xalqaro darajadagi kongress va ko‘rgazmalarni tashkillashtirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlari reestrini yuritish;

-O‘zbekistonda tashkil etiladigan mahalliy va xalqaro darajadagi kongress va ko‘rgazmalar tashkilotchilari faoliyatini muvofiqlashtirish;

-O‘zbekistonning MICE turizmi salohiyatini jahon mamlakat lari orasida namoyon etish hamda mamlakat qiyofasini ijobiy tarzda targ‘ibot qilish;

-Respublikadagi vazirlik va idoralar tomonidan O‘zbekistonda tashkil qilinadigan MICE turizmiga ixtisoslash tirilgan xalqaro darajadagi ko‘rgazmalar, yarmarkalar va kongresslar faoliyatini muvofiqlashtirish;

“2019-2025-yillarda O‘zbekistonda konferensiya, forum, kongress, ko‘rgazma, seminar va anjumanlar (MICE) turizmini rivojlantirish bo‘yicha konsepsiyaga ko‘ra, 2019-2025-yillarda O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish konsepsiyasi turizmning ushbu turini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirishga erishish va turizmning mavsumiy omillarini minimallashtirish uchun zarur turistik infratuzilmani takomillash-tirishga qaratilgan.

MICE turizmini maqsadli vazifalari va xalqaro tajribalari ga kelib chiqib, kelgusi-yillarda faol ravishda qisqa muddatda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

1)Respublikada MICE turizmini rivojlantirish bo‘yicha strategiya va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan:

-turizmning mavsumiylik omilini hisobga olgan holda, xalqaro va mahalliy darajadagi tadbirlar o‘tkazish dasturini (yillik) tuzish;

-O‘zbekistonda MICE turizmi tadbirlarini o‘tkazish uchun ustuvor hududlar va mamlakatlarni aniqlash;

-mamlakatning hududlaridagi mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, MICE turizmi tadbirlarining yo‘nalishlarini aniqlash;

-MICE turizmi uchun mamlakatning milliy brendini ishlab chiqish;

-MICE turizmini rivojlantirish uchun O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

2) mamlakatda MICE turizmini rivojlantirish bilan bog‘liq alohida davlat muassasasi (Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi qoshida) tashkil etish. Uning vakolatiga quyidagi vazifalar kiritilishi mumkin:

-yagona (markazlashtirilgan) MICE turizmi siyosatini amalga oshirish;

-MICE turizmi jarayonida ishtirok etuvchi davlat va xususiy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

-MICE turizmi yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat yurituvchi mehmonxonalar, turoperatorlar, binolar va boshqa tashkilotlar ning ro‘yxatini tuzish va muntazam ravishda yangilab borish;

-MICE turizmi tadbirlarini, shuningdek, xalqaro bozorlarda mamlakat hududlarining ijobiy qiyofasini targ‘ib etish.

3) MICE turizmini rivojlantirish uchun mamlakatning hududlarida zarur infratuzilmalarni yaratish. Shu jumladan: 4-5 yulduzli mehmonxona va biznes-markazlarni qurish;

- bo‘sh turgan binolarni MICE turizmi tadbirlarini o‘tkazish uchun moslashtirish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash;

-mamlakatda MICE turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish maqsadida salohiyatli tadbirkorlarni va investorlarni jalb qilish;

-davlat va xususiy tashkilotlarning MICE turizm tadbirlarini onlayn-bronlash xizmatini yo‘lga qo‘yish.

4) Xalqaro kongress va konferensiya assotsiatsiyasi (International Congress and Convention Association, ICCA) bilan faol hamkorlikni

yo‘lga qo‘yish va mamlakatdagi MICE turizmida ishtirok etuvchi tashkilotlarni ICCA veb-saytida ro‘yxatdan o‘tkazish.

5) Mamlakatning MICE turizmi bo‘yicha salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilish hamda doimiy ravishda marketing tadqiqotlarini olib borish.

6) MICE turizmi sohasidagi professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. Shu jumladan:

-Turizm o‘quv-konsalting markazida sertifikatlar taqdim etuvchi maxsus kurslar tashkil etish;

-ta’lim muassasalarining o‘quv dasturiga MICE turizmi bo‘yicha o‘quv soatlarini kiritish.

O‘zbekiston turistik tashkilotlari uchun ilk marta MICE-turizm bo‘yicha mahorat darsi o‘tkazildi[117].

Toshkent shahrida UNWTO va ICCA vakillari ishtirokida biznes uchrashuvlar sanoati (MICE turizm) bo‘yicha mahorat darsi bo‘lib o‘tdi. Tadbir Gastro Bazaar—2019 xalqaro gastronomik festivali doirasida tashkil etildi. Bu haqda Turizmni rivojlantirish qo‘mitasi matbuot xizmati xabar berdi.

Xalqaro ekspertlar ishtirokidagi mahorat darsi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashabbusi bilan o‘tkazildi. Trening maqsadi-mamlakatda o‘tkazilayotgan xalqaro biznes tadbirlar darajasini oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi mutaxassislari tajribasini o‘rganish, O‘zbekistonning MICE turizm salohiyatini oshirish va loyihalarni amalga oshirishdan tushadigan daromadlarni ko‘paytirish. Mehmonxona xizmatini ko‘rsatuvchi xo‘jalik sub’ektlari hamda turoperatorlardan iborat tadbir ishtirokchilari o‘z yo‘nalishida ICCA va UNWTO akademiyasi vakillari tomonidan xalqaro darajali tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha bepul ta’lim hamda zarur bilimlarni olish imkoniga ega bo‘ldi (15.1-Rasm).

Mahorat darslari UNWTO Affillik dasturining doimiy vakili Dmitriy Ilin (Ispaniya), ICCA Yevropa mintaqaviy direktori Elif Balchi Fisinoglu (Turkiya) tomonidan o‘tildi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi “Ipak yo‘li” ofisi rahbari Mirtolib Mirzohidov

[117] 11.08.2019, 19:46 22067. Turizmni rivojlantirish qo‘mitasi matbuot xizmati

tadbirga moderatorlik qildi.



15.1-Rasm. Gastro Bazaar — 2019 xalqaro gastronomik festivali o‘tkazildi

UNWTO doimiy vakili Dmitriy Ilinning so‘zlariga ko‘ra, uchrashuvlar sanoati turizmning eng muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Zero, u iqtisodiyotga juda katta foyda keltiradi — mavsumiylik tushunchasini kamaytiradi, turistik yo‘nalishlarning yangilanishiga turtki beradi va umuman, innovatsiyalar va ijodiy yondashuvga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Bizning asosiy maqsadimiz — biznes uchrashuvlarni tashkil qilish bo‘yicha davlat turistik tashkilotlari bilan tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish. O‘zbekiston uchun bu birinchi tajriba, bunday mahorat darslari mamlakat turistik biznesini yangi darajaga olib chiqadi”, — dedi Elif Balchi.

Trening davomida ishtirokchilar MICE-turizm tushunchasi va uning asosiy tamoyillari, zamonaviy tendensiyalar hamda bu yo‘nalishdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan tanishdi, shuningdek, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga xalqaro ekspertlardan tegishli javoblar oldi. Turkiya gastronomik turizm uyushmasi boshqaruv raisi Go‘rkan Bo‘ztepe tadbir doirasida MICE-turizmni rivojlantirishda gastronomik turizmning ahamiyatiga doir intervyu berdi:

“Bugun Gastronomik turizm festivali doirasida MICE-turizm

mahorat darsi o‘tkazilmoqda. Ta’kidlash joizki, MICE-turizmni rivojlantirishda gastronomik turizm ham juda muhim. Nima uchun deysizmi? Chunki MICE-turizm maqsadida kelayotgan odamlar asosan yuksak didli va serdaromad odamlardir hamda ular o‘zlari xohlagan taomlardan tatib ko‘rish uchun hamma narsaga tayyor. Bunday kishilar kelgan joyida ovqat yeyishi tabiiy va qayd etish lozimki, ularning ba’zilari hatto oilalari bilan ham kelishadi. Ular uchun milliy madaniyat va an’analarga mos muhitda ovqatlanish muhim ahamiyat kasb etadi, shu jihatdan MICE-turizm va gastronomik turizm bir-biriga bog‘liqdir. Shunday ekan, bu kabi festivallarni o‘tkazish juda muhim”.

Tayanch so‘zlar: kongress, konferensiya, s’ezd, sammit, seminar, trening, ko‘rgazma, eksponat, insentiv, pavilion, safar.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1. Ishchanlik nima?
2. Ishchanlik turizmini tushuntirib bering
3. Ishchanlik turizmi qatnashchilari qanday uchrashuvlarni vayig‘inlarni tashkil qiladi?
4. Ishchanlik turizmini nima uchun Yevropa davlatlari jadal rivojlantirayapti?
5. Ishchanlik turizmi mavzusida davra stolini tashkil qiling.

XIV BOB. IJTIMOIY TURIZM VA BU TURNING RESURSLARI

16.1. Ijtimoiy turizm

Ijtimoiy turizm deganda sayohatlar va to‘laqonli dam olish uchun haridorlar (maktab o‘quvchilari, kam ta’minlangan oilalardagi ishlayotgan va o‘qiyotgan yoshlar, nafaqaxo‘rlar, veteranlar va nogironlar va x.z.) davlat tomonidan ijtimoiy maqsadlarga sarflaydgan mablag‘dan yordam oladigan turizmning ma’lum sektoriga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonuni ijtimoiy turizmni davlat tomonidan turizmning ijtimoiy zaruratlarga ishlatiladigan mablag‘ bilan ta’minlanishi deb belgilaydi.

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorning 5-Bandida aynan aholining ijtimoiy turizmdagi faoliyatini kuchaytirish belgilangan[118]:

5-Band: Belgilab qo‘yilsinki, Dastur doirasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga turistik-ekskursiya turlari uchun to‘lovlar bilan bog‘liq harajatlar:

- ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun - o‘z mablag‘lari va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi mablag‘lari hisobidan;
- tashkilotlar xodimlari uchun -o‘z mablag‘lari, ish beruvchi mablag‘lari (byudjet tashkilotlari uchun-tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag‘lari) va jamoaviy shartnomalarga muvofiq boshqa mablag‘lar hisobidan;
- etim bolalar, kam ta’minlangan oilalar farzandlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ularning umumiy sonidan kamida 20 foizi qamrab olinishi ta’minlangan holda - xayriya mablag‘lari, shuningdek, har-yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ko‘rsatkichlarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan;
- pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari uchun -o‘z mablag‘lari, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-

[118] O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror Toshkent sh.,2018 yil 7 fevral,PQ-3514-son*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.02.2018 y., 07/18/3514/0672-son)*

quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasining mablag‘lari va xayriya mablag‘lari hisobidan;

- faol xotin-qizlar uchun-o‘z mablag‘lari, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi mablag‘lari, “Mahalla” xayriya jamoat fondi mablag‘lari va xayriya mablag‘lari hisobidan;
- mahalla faollari va yosh oilalar uchun-o‘z mablag‘lari, “Mahalla” xayriya jamoat fondi mablag‘lari hisobidan tenglik asosida qoplanadi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbiroar to‘g‘risida” Farmonning 5-Bandida aholining ijtimoiy turizmdagi faolligini kuchaytirish belgilangan[119]:

5-Band: O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi hamda O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasining quyidagi aholi qatlamlari uchun respublika hududlari bo‘ylab turizm-ekskursiya turlari tashkil etilishini ko‘zda tutuvchi “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturini (keyingi o‘rinlarda - Dastur) amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin:

-ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun-ta’til davri va dam olish kunlarida;

-tashkilotlar xodimlari uchun-dam olish kunlarida, umummilliy bayramlar va ta’til kunlarida, ayniqsa turizm mavsumi sust davrda;

-aholining ijtimoiy zaif qatlamlari, pensionerlar, urush va mehnat faxriylari uchun-sanatoriy-kurortlarda dam olishdan faol foydalangan holda-yil davomida;

-keksalar, yosh oilalar, fuqarolar yig‘inlari faollari, xotin-qizlar va

[119]O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbiroar to‘g‘risida” Farmoni, Toshkent sh.,2018 yil 3 fevral,PF-5326-son

boshqa jamoat birlashmalari vakillari uchun - turizm mavsumi sust davrda.

3.O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonining aholining ijtimoiy turizm faoliyatini kuchaytirish uchun quyidagilar belgilangan[120]:

5-Band: *Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:*

- *Navro‘z umumxalq bayrami, Mustaqillik kuni va Yangi-yil bayrami hamda Ramazon hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) diniy bayramlarini nishonlash davrida qo‘shimcha va ko‘chirish hisobiga ishlanmaydigan kunlar uch kundan kam bo‘lmagan muddatga belgilanadi;*
- *ota-onalar, qarindoshlar, qariyalar va ustozlar bilan birgalikda sayohat qilishni nazarda tutuvchi besh ish kunidan kam bo‘lmagan “oilaviy sayohat ta’tili” tizimi joriy qilinadi. Bunda, “oilaviy sayohat ta’tili”-yillik asosiy ta’til hisobidan taqdim etiladi va jamoaviy shartnomalarga muvofiq ish beruvchining roziligi bilan amalga oshiriladi;*

O‘zbekistonda ijtimoiy turizm assotsiatsiyasi tashkil qilindi. O‘zbekistonda ijtimoiy turizm assotsiatsiyasi tashkil qilindi. Assotsiatsiya jismoniy holatlari chegaralangan va kam ta’minlangan fuqarolarning sayohatlarini tez-tez tashkil qilish va amalga oshirishga yordam beradi.

Assotsiatsiyaning vazifalari:

1. Jismoniy holatlari chegaralangan va kam ta’minlangan fuqarolar va ularning oilalari uchun xayriya tadbirlarini o‘tkazish;

2. Jismoniy holatlari chegaralangan va kam ta’minlangan fuqarolar uchun sayohatlarga chiqish sharoitlariga yordam berish;

3. O‘zbekistonda ijtimoiy turizmni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy-me’yoriy hujjatlarni tayyorlashda va amalga oshirilishida jamoat nazoratida qatnashish;

[120] O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, Toshkent shahri,2021 yil 9 fevral

4. Bolalar, yoshlar, keksalar, jismoniy holatlari chegaralangan va kam ta’minlangan fuqarolar, pensionerlar, mayib-majruhlar uchun ekskursiyalarga chiqishni tashkillashtirish, yordam berish.

Assotsiatsiyaning shiori “Sayohat hamma uchun”. Assotsiatsiya xalqaro ijtimoiy turizm tashkilotlari va davlatlar bilan hamkorlik dasturlari bo‘yicha ishlaydi.

Ijtimoiy turizmning xalqaro byurosi (ITXB) 1963 y. 7-iyunida Bryusselda tashkil topgan ITXB Butun jaxon turistik tashkilotiga (BTT) birlashgan a’zosi hisoblanadi BTT VA IXTB doimiy ravishda ijtimoiy turizm masalalariga bag‘ishlangan seminar va anjumanlar o‘tkazishadi. BTTijtimoiy turizm sohasidagi qarashlarini Maniladagi jahon turizmi deklaratsiyasi da (1980 y) shunday ta’kidlagan edi: *“Ijtimoiy turizm-bu jamiyat kam ta’minlangan fuqarolarining dam olishga bo‘lgan manfaatlari va huquqlurini ta’minlashga qaratilgan maqsadidir”.*

Turizmni insoniy va ijtimoiy jihatdan olib borishni targ‘ib etgan Monreal deklaratsiyasi, 1996 y. 12-sentyabrdagi to‘la ijtimoiy turizm sohasiga qaratilgan BTTning assambleyasida qabul qilingan. U yerda ijtimoiy turizm *“Ijtimoiy turizm-jamiyat dizayneri va iqtisodiy rivojlanishni harakatlantiruv chi kuch”* deb ta’kidlangan edi[121].

Ijtimoiy turizm faoliyati va Monreal deklaratsiyasi. Turistik xordik chikarishni aholning turli guruhlariga imkoniyat yaratib berish uchun (ko‘p bolali oilalar, yoshlar va katta yoshdagilar) davlat o‘zining ijtimoiy turistik siyosatini ishlab chiqishi kerak. Bunga qonuniy va me’yoriy aktlar, ijtimoiy infratuzilmani barpo etish, kam ta’minlangan aholi qatlamlari uchun mo‘ljallangan tizim va mexanizmlarni, ijtimoiy turizm xizmatchilarini tayerlash, informatsion ta’minot kabi masalalar kiradi. Dunyoda bir necha yuz million odam ijtimoiy turizm yordamida sayohat kilishadi.

Monreal deklaratsiyasining 13 bandida ITXB da ijtimoiy turizm bilan shug‘ulanishi mumkin bo‘lgan tashkilotlar kategoriyalari ko‘rsatib o‘tilgan: “Ijtimoiy turizm harakatiga har qanday turistik tashkilot (assotsiatsiya, kooperativ, o‘zaro yordam jamoasi, fond,

[121] buxdu.uz. http://elib.buxdu.uz › item

federatsiya, notijorat tashkiloti va x.z.), o‘zining ustavida yoki reglamentida aniq ijtimoiy harakterdagi masalalarni, sayohat va turizm sohasidagi xizmatlarida maksimal darajada ko‘p odamlarga imkon berishi, faqat daromadga qaratilgan faoliyat yuritmasligi zarurdir”. Ushbu tashkilotlarning ijtimoiy turizmga karshililigi quyidagi tekshirish mukin bo‘lgan sharoitlar bilan belgilanadi:

- Taqdim etilayotgan faoliyat turlari birgalikda ijtimoiy, ma’rifiy va madaniy masalalarni yechishga qaratilgan va insonni ezozlovchi va rivojlantiruvchi bo‘lishi kerak.
- Irsiy, madaniy, diniy, siyosiy, falsafiy va ijtimoiy dunyo qarashiga qarab diskriminatsiya qilish man e’tiladi.
- Taklif e’tilayotgan tur mahsulotda albatta noiqtisodiy qo‘shimcha qiymat kiritilishi lozim.
- Ijtimoiy turizmni mahalliy muhitga muvofiqlikkini ta’minlash zarur.
- Faoliyat turi va turmahsulot narxi muayyan hujjatlarda ko‘rsatiladi. Narxlar belgilangan ijtimoiy maqsadlarga mos tushishi kerak. Daromad qisman yoki to‘laligicha jamiyatga ko‘rsatiladigan turistik xizmatlarga qayta sarmoya etilishi lozim.
- Kadrlarni boshqarish ijtimoiy qonunchilik talablariga javob beradi va aholini ish bilan ta’minlashga qaratilgan va kadrlarni malakasini oshirishga qaratilgan.

Amalga oshirilgan muvafaqiyatlarga qaramasdan ijtimoiy turizm o‘zining mavqeini faqat o‘zoq muddatli milliy, mintaqaviy va xalqaro miqiyosdagi turizm sohasidagi dasturga ega bo‘lgandagina kuchaytirishi mumkin.

Ijtimoiy turizm asosan katta daromad olishga qaratilmagan faoliyat olib borayotgani uchun xalqaro miqiyesda ijtimoiy turizm ma’lum qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ular quyidagilar:

-faoliyat ko‘rsatayotgan ijtimoiy turizmning material bazasini zamonaviy talablarga moslashtirish yoki yangisini barpo etish muammosi;

-tegishli huquqiy va me’yoriy bazaning yo‘qligi;

-ijtimoiy turizm tizimida dam olayotganlarning informatsion va psixologik muammolar bilan tuqnashuvi muammolari;

-ijtimoiy turizdagi xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan standartlarining oshib borishi;

-ijtimoiy turizm mijozlariga ko‘rsatiladigan iqtisodiy yordam turlari va x.z.

Ijtimoiy turizm bir necha yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin, ularning har biri muayyan foydalanuvchilar guruhi uchun eng mosdir. Ushbu yo‘nalishlar sayyohlarning ehtiyojlari, ularning manfaatlari va afzalliklari bilan belgilanadi.

Dam olish uchun turizm **-** bu tananing ruhiy va jismoniy tiklashi bo‘lgan safar (uzoq yoki qisqa muddatli). Bu mikroiqlim, tuproq va dengiz suvining ma’lum xususiyatlaridan foydalanadigan kuch va davolashni tiklash uchun mo‘ljallangan dam olish bayramidir.

Madaniy sayyohlik **-** bu madaniyatni o‘rganish uchun qiziqarli dam olish, bu esa kognitiv yoki hajga aylanishi mumkin. Birinchi tur - madaniy, tarixiy yoki geografik joylar bilan tanishish. Haj safariga keladigan bo‘lsak, ushbu turizm maxsus diniy ahamiyatga ega bo‘lgan joylarni ziyorat qilishga qaratilgan.

Jamoatchilik yoki klub turizmi turli shaharlarda (mamlakatlarda) do‘stlar yoki qarindoshlarini ziyorat qilish uchun mo‘ljallangan sayohatdir. Bundan tashqari, klubning ijtimoiy sayyohlik turlari sayyohlarning ma’lum guruhlari - sport va o‘yin-kulgilar uyushmasini nazarda tutadi.

Ijtimoiy turizmda sayyohlik sporti bilan shug‘ullanish cheklangan va unchalik foydali bo‘lmaydi. Bu talabalar uchun eng ma’quldir, chunki u sport tadbirlarida ishtirok etishni yoki (shu qadar qulay shaklda) bunday ishtirok etishning passiv xususiyatini nazarda tutadi.

Iqtisodiy ijtimoiy turizm **-** ko‘rgazma, birja, do‘konlar va yarmarkalar kabi tadbirlarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi.

16.2. Ijtimoiy turizmning resurslari

Yevropa ittifoqi davlatlarida ijtimoiy turizm yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishni harid qila olmaydigan daromadi past odamlarni hisobga

oladi. Fuqarolarning bu kategoriyalari ijtimoiy harakterdagi imtiyozlarga muhtojdir. Bularga ko‘p farzandli oilalar, yetim bolalar, bolalar uylari o‘quvchilari, ishlaydigan va o‘qiydigan yoshlar, nafaqaxo‘rlar, nogironlar va kam ta’minlangan fuqarolar kiradi. Aholining eng kam ta’minlangan qatlamlariga yordam ko‘rsatishdagi asosiy ma’nbaa mahalliy va davlat byudjetlaridir (16.1-Jadval).

Ijtimoiy turizm xizmatlaridan foydalanayetgan shaxslarga ko‘rsatiladigan iqtisodiy yordam turlaridan biri, bu turmahsulot harid qilayotganida beriladigan ta’til cheklaridir. Ular Yevropaning ayrim mamlakatlarida keng tarqalgandir. Masalan, Fransiyada ta’til cheklarini “Ta’til cheklar Fransuz milliy assotsiatsiyasi” tarqatadi, Shveysariyada esa-Shveysariya sayohatlar kassasi bu bilan shug‘ullanadi.

AQSH va Germaniyaga o‘xshagan yuqori rivojlangan davlatlarda ijtimoiy turizm dotatsiya yordamida faoliyat ko‘rsatmaydi. 1989 y. Gaaga deklaratsiyasida ham davlat turizmga qancha mablag‘ sarflasa, shuncha foyda olishi kerak deb ta’kidlangan edi.

16.1-Jadval

Ijtimoiy turizmning asosiy iste’molchilari[122]

Iste’molchilar	Turizmning dam olish korxonalari	Foydalanish vaqti
Bolalar, o‘quvchilar, yoshlar	Dala, mehnat va dam olish, bolalar turbazalari, bolalarni sog‘lomlashtirish va markazlari, bolalar sanatoriyasi, eklogik lagerlar.	Ta’tillarda
Talabalar	Turizm mehmonxonalari, mehnat va dam olish lagerlari, tashkilotlarning mehmonxonalari va dam olish uylari, talabalar yotoqxonalari.	Ta’tillarda
Kam ta’minlanganlar qatlami	Turbazalar, korxonalarning mehmonxonalari va dam olish uylari, sanatoriyalar	Mavsum va mavsumdan tashqari
Pensionerlar	Pensionerlar uchun pansionatlar, Turbazalar, korxonalarning mehmonxonalari va dam olish uylari, sanatoriyalar	Mavsum va mavsumdan tashqari
Invalidlar	Turbazalar, dam olish uylari, sanatoriyalar	Mavsum va mavsumdan tashqari

[122] Nadejda Stasyukova, Sotsialniy turizm: osnovnie ponyatiya, yego rol i znacheniye v udovletvorenii rekreatsionnix potrebnostyax grajdan. https://travel247.ru/1911-sotsialnyj-turizm-chto-eto-takoe

Ijtimoiy turizmning markaziy muammolaridan biri moliyaviy mablag‘ manbaalarini topish va kam ta’minlangan aholi qismi ichida uni adolatli tarqatishdan iboratdir.Agar tegishli xuquqiy normalari, qonuniy bazasi, moliyaviy va kadrlar bo‘yicha hujjatlarga qayd etilmasa, ijtimoiy turizm ayrim nopok insonlar uchun boyish ma’nbayiga aylanib qolishi mumkin.



16.1-Rasm. To‘siqsiz turizm

Nogironligi bor shaxslar uchun “To‘siqsiz turizm” dasturi amalga oshiriladi. 2024-yil 1yanvardan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarning sayohat qilishlari uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan “To‘siqsiz turizm” dasturi amalga oshiriladi (16.1-Rasm).

Prezidentning “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, dastur doirasida har-yili “Sayohat barcha uchun!” loyihasi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ming nafardan nogironligi bo‘lgan shaxslarning respublikaning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan shaharlariga bepul sayohatlari tashkil qilinadi. Shuningdek, turizm, madaniy meros, konsert-tomosha ob’ektlari hamda aeroport, avto va temiryo‘l vokzallarida nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘siqsiz harakatlanishi uchun zarur infratuzilma yaratish mexanizmlari joriy qilinadi.

Tayanch so‘zlar: Iyd al-Fitr, Iyd al-Adha, veteranlar, nuroniylar, faxriylar, qariyalar, ustozlar, invalidlar.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savollar va topshiriqlar

1. Ijtimoiy turizmning tushunchasini, mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Prezidentimiz qabul qilgan qaysi farmonlari va qarorlarida ijtimoiy turizmni rivojlantirishga jiddiy e’tibor bergan?.
3. **“**Ijtimoiy turizmning asosiy iste’molchilari” mavzusida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering.
4. Muqaddas Iyd al-Fitr, Iyd al-Adha va Ramazon oyining ijtimoiy turizmga nima aloqalari bor?

XVII BOB. G‘OR TURIZMI VA BU TURNING RESURSLARI

17.1. G‘or turizmi

G‘or turizmi - sayyoramizdagi gorizontal va vertikal holatlardagi g‘orlarga qiziqish hisoblanadi. Bu turizm turiga o‘ziga xos bo‘lgan dam olishni, sarguzashtlarni izlaydigan, hohlaydiganlar qiziqadilar. G‘or turizmiga qiziquvchi turistlar-yil davomida qulay va noqulay bo‘lgan g‘orlarni izlashadilar, yer ostidagi tabiat saroylari bilan bog‘lik ko‘plab ma’lumotlarni o‘rganadilar. G‘or turizmini ko‘pincha sport turizmiga ham kiritishadi**.**

Speleologiya - lotin tilidan “speleo”, grek tilidan (“spelaion”)-o‘zbek tiliga g‘or (rus tilida-peshera) deb tarjima qilingan. Bu atamani fanga 1890-yilda farang tadqiqotchisi Ye. Rivera kiritgan. G‘orlar insoniyat taraqqiyotidagi birinchi uylar bo‘lib, fikrimizcha, insonning inson bo‘lib yetishishidagi muhim va sirli joylardir. Qadimiy odamlar aynan g‘orlarda yashagan, g‘orlar odamzotni issiq va sovuqdan, odamzotning dushmanlarida himoya qilgan, shu bilan birga ochko‘z bosqinchilarda bori-yog‘ini yashirgan. Insoniyat tarqqiyotining o‘tmishini, taraqqiyot yo‘llari haqidagi tarixiy, aniq ma’lumotlarni to hozirgacha faqatgina g‘orlar berib kelmoqda.

Tamaddunning 17-18 asrlarida inson g‘orlar bilan qiziqishini kuchaytirdi. Geografik tadqiqotlarning to‘lqini, tabiatga bo‘lgan qiziqishlarning rivojlanishi tadqiqotchilarni g‘orlarga boshladi. Ovchilar va cho‘ponlar, boylik izlovchilar va tavvakkalchi qalloblar, geograflar va kolonizatorlar.. yana kimlar tit-pit qilmadi odamzotning birinchi uylarini. Bu asrlarda g‘orlar haqidagi chala ma’lumotlar yuqorida qayd qilinganlarning chala va noaniq ma’lumotlari bo‘ldi.

Keyinchalik, g‘orlar haqida ilmiy ma’lumotlar to‘plana bordi. Rossiyada g‘orlar haqidagi ilmiy ma’lumotlar birinchi bo‘lib M.V.Lomonosov asarlarida qayd qilingan. 1723-yilda g‘orlar haqidagi tadqiqotlarda jahon rekordi o‘rnatildi-birinchi g‘orshunoslar Chexiyadagi Matsoxa g‘orining chuqurligini-138 m ekanligini qayd qilishdi. Ikkinchi rekord 19 asrda qayd qilindi- g‘orshunoslar1841-yilda Italiyadagi Trebich g‘orining chuqurligini -329 m aniqladi.

G‘orlar tadqiqoti 20 asrda ommaviy ko‘rinish oldi.

G‘or turizmi va g‘orlar haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi Xo‘ja G‘ur G‘ur ota g‘ori haqidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

Xo‘ja G‘urg‘ur ota g‘ori[123]-O‘zbekistonning “Yer osti Jomolungmasi” yoxud dunyoda eng chuqur g‘ori nomiga da’vogar. Satrlar muallifi 1988-yili jurnalistika so‘qmoqlarida Rossiyaning Sverdlovsk shahridan kelgan bir guruh yosh speleolog-g‘orshunoslarni uchratgandi. Ular Boysun tog‘larida sobiq Ittifoq hududida eng baland bo‘lgan, bir necha kilometrga cho‘ziluvchi va bir-biri bilan tutashuvchi g‘orlar silsilasini tadqiq qilgandilar. Ularning maqsadi eng chuqur va eng uzun g‘orlarni topish edi.

2017-yilning fevral oyida internet tarmog‘i bo‘ylab xalqaro National Geographic saytida e’lon qilingan bir maqolada Mark Sinott qalamiga mansub material “O‘zbekistondagi “er osti Everesti”-dunyodagi eng chuqur g‘or nomiga bosh da’vogar” deb ataladi.

Germaniyalik jurnalist O‘zbekistonning Boysun tog‘larida joylashgan, dunyodagi eng chuqur g‘orlardan biri hisoblanuvchi Dark Star-Qorong‘i yulduz (Boysun ahli uni azaldan Xo‘ja G‘urg‘ur ota deb ataydi) g‘origa tajribali speleolog Larisa Pozdnyakova bilan birgalikda yaqinda tushib chiqqan.

Keyingi o‘n-yillikda bu maskan butun dunyo speleologlarini o‘ziga jalb qildi, - deb yozadi xorijiy jurnalist. Bu ulkan tizim shunisi bilan ham jalb qiladiki, alpinistlar Yer yuzidagi eng baland tog‘ cho‘qqisi Everestda ekanini yaxshi bilishadi, lekin, tubsiz g‘orlar u qadar yaxshi o‘rganilmagan. Yer ostida nima yashirin ekanidan ko‘ra, Mars haqida ko‘proq narsa bilamiz. Bugungi kunda Gruziyadagi Kruber g‘ori eng chuqur g‘or hisoblanadi - 7,208 fut. Biroq Dark Star undan bu nomni tortib olishga da’vogar bosh nomzoddir.

Tarkibiga Rossiya, Italiya va Isroil speleologlari kirgan 31 kishilik xalqaro ekspeditsiya jamoasi o‘z texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib isloh qilgan “Yer osti Everesti”ning chuqurligi bir kilometrni tashkil qiladi. Tadqiqotchilar g‘orning tubi 2,650 metrdan iboratligini

[123] Internetdan olindi

aytishgan. Bu esa Gruziyadagi Kruberdan 500 metrga chuqurroq deganidir.

Ma’lumotlarga ko‘ra, g‘or 1984-yilda rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan topilgan, biroq unga kelib, tizimni o‘rganishda britaniyaliklar birinchi bo‘lishdi. Ular 1990-yilda uni tadqiq qilib, 70-yillarning ilmiy-fantastik filmi bo‘lgan Dark Star (Qorong‘i yulduz) nomini berishgan. Boysuntov tizmasining Xo‘ja G‘urg‘ur ota tog‘i 300 metrlik tik devorga egadir. Ana shu tik devorning qariyb o‘rtasiga, ya’ni 160 metr balandlikka chiqmoq lozim edi.

Xalqaro “Boysun-90” rus - ingliz speleoekspeditsiyasi tarkibida ishlayotgan “Aspeks-90” ingliz guruhi tadqiqotchilari ana shu tik qoya o‘rtasiga chiqib borish uchun-ko‘p emas, oz emas-uch kunlik vaqtlarini sarf etdilar. G‘or devorlari katta muz kristallari bilan qoplangan bo‘lgan, ko‘plab muzlagan ko‘llar uchraydi, havo harorati doimo ikki-besh daraja sovuqlikda turadi. Ular g‘or ichi bo‘ylab ikki kilometr yurishgach katta quduqqa duch kelganlar, ammo quduqqa tushishda asqatadigan asbob-uskunalar yetarli emasdi.

Kelgusi-yili esa... yuqorida eslatib o‘tganimiz ko‘plab ko‘llardagi yuza muzlar eruvchanligi sabab, tadqiqot ishlarini davom ettirishga imkon bo‘lmaydi. Bu orada qariyb o‘n-yil o‘tib ketadi. 2011-yilning avgusti. Xo‘ja G‘urg‘ur otaning tik devori poyiga Rossiya - Italiya ekspeditsiyasi qo‘r tashlaydi. Mazkur ekspeditsiya 25 metrlik yangi quduqni “zabt” etadi.

Quduq tubidan yonboshda yo‘lak bor edi, garchi uning davomi berk bo‘lib chiqqan yo‘lak adog‘ida yuqoriga o‘rlab ketgan bo‘shliq topiladi. O‘n metrlik bo‘shliqning yuqorisida g‘aroyib ko‘rinishli kattagina tim, ya’ni galereyaga chiqib oladilar.

Galereya tekshirib ko‘riladi va uning boshqa g‘orlar tizimiga ulanib ketgani ma’lum bo‘ladi-yer qa’ri bo‘ylab yanada yangi-bundan-da yirikroq galereyalar sari yo‘l ochilgan edi. Ammo, yer osti zimistonini yoritgan tadqiqotchilar ko‘z o‘ngilarida namoyon bo‘lgan yangi-yangi g‘or shoxobchalarini o‘rganishga kirishmasdan izlariga qaytadilar, chunki ekspeditsiya muddati tugagandi.

Kelgusi 2012-yili Xo‘ja G‘urg‘ur otada so‘nggi-yillarning eng keng miqyosli ekspeditsiyasi amalga oshiriladi: uning ishida dunyoning besh mamlakati hamda Rossiyaning bir necha shahridan kelgan 29 kishi ishtirok etadi. Oldingilar yo‘lini davom ettirgan speleolog-g‘orshunoslar keyingi davr amaliyotida necha bor sinovdan o‘tgan tajribani qo‘llab 240 metr chuqurlikda aniqlangan ko‘plab yonbosh yo‘lakchalardan biri - quduqli shoxobchani diqqat-e’tibor markaziga olganlar. Haqiqatan ham bu usul ularga 450 metr chuqurlikka qadar tushib borish imkonini beradi.

Xullas, tadqiqotlar 2013-yilda davom etadi. Rossiya (Ural) va Italiya speleologlari 850 metrgacha tushib borganlar. Ammo, qarangki, ularning o‘tish yo‘lini esa endigi safar sifon (yer ostidagi suv to‘la joy) to‘sdi va tabiiy bu yerdan o‘tib bo‘lmadi. Lekin galdagi urinishning arzigulik natijasi bor edi chunonchi, mazkur ekspeditsiya hisobotida “Dark Star g‘or tizimi chuqurlik va uzunlik bo‘yicha O‘zbekistonda oldingi o‘rinlardan birini (Surxontovning Cho‘li Bair massivida joylashgan Boybuloq (1415 metr) va qo‘shni Festivalnaya-Ledopadnaya (850 metr) g‘orlaridan keyingi o‘rinni) egalladi va nazariy jihatdan olganda chuqurlik bo‘yicha jahoniy rekord o‘rnatish uchun potensial imkoniyati yuzaga keldi.

Ammo, buni bo‘lg‘usi ekspeditsiyalar ko‘rsatadi” deyiladi. Yekaterinburg speleologiya klubi 2016-yilda Boysun tog‘lariga navbatdagi safar uyushtirdi. Ekspeditsiya tarkibida Rossiya, Ukraina va Italiya mutaxassislari, jami 26 kishi ishladi. Ular Xo‘ja G‘urg‘ur ota, Cho‘li Bair va Boybuloq tadqiqini davom ettirib, yonbosh ketgan g‘orlardan oltitasini to‘la o‘rganishdi, to‘rt kilometrdan oshadigan yo‘laklar ochishdi va hokazo...

17.2. G‘or turizmining resurslari

Hozirgi ma’lumotlar bo‘yicha O‘zbekistonda 1000 dan ziyod g‘orlar ro‘yxatga olingan. Mamlakatimizda g‘orshunoslikga qiziqgan olimlarimiz ancha keksa yoshda, yoshlari hozircha ko‘rinmayapti. Manbaalar bo‘yicha juda ko‘plab g‘orlarimiz hanuzgacha o‘rganilmagan. Lekin hozirgi ma’lumotlar bo‘yicha ham,

O‘zbekistondagi g‘orlar soni, hajmi va chuqurligi yig‘indisi hisobiga butun Markaziy Osiyodagi g‘orlar yig‘indisidan ustun turadi.

So‘ngi-yillarda Ural speologlari amalga oshirgan g‘orshunoslik ilmiy ekspeditsiyalarining katta mehnatlari natijasida Boysun, Sherobod va Surxon tog‘larida 10 ta yangi g‘orlar topildi bu g‘orlarning geografik haritalari ishlab chiqildi. Dunyoga mashhur Dark Star g‘orining 908 m chuqurligigacha borildi, qadam uzunligi 17 400m, boysundagi Boybuloq g‘ori chuqurligi bo‘yicha dunyodagi rekordni yangilamoqchi (17.1-jadval).

17.1-jadval

O‘zbekistonning eng katta g‘orlari

№	G‘orlarning nomi	Chuqurligi, m	Uzunligi, m
1	Boy-buloq	1435	14350
2	Vishnevskiy(CHB-15)	1283	8470
3	Kiyev	990	2340
4	Dark Star (Dark Star,Qora yulduz)	908	17400
5	Festival-Muztushar	625	13000
6	O‘ral	565	2500
7	Zaydman nomidagi-Po‘latxon	506	1500
8	Prima	305	1940
9	Ulug‘bek	240	1500
10	Ko‘l	225	270
11	Iset	220	1590
12	Yubiley	210	2200
13	Hisor	204	1761
14	Registon	190	1300
15	Olimpiya	160	215
16	Berloga	150	1600
17	Krok	150	220
18	O‘zbekiston	140	270
19	O‘qituvchi	135	2000
20	Gormomon	115	680
21	O‘zbekgidrogeologiya	102	233
22	Zarkent	102	200
23	Amir Temur	+83	1370

Amir Temur g‘ori. Dunyoga tanilgan Amir Temur g‘ori Hisor tog‘laridagi Toshqo‘rg‘on qishlog‘i yaqinida joylashgan. Ma’muriy jihatdan Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanida. G‘orga borish uchun albatta yo‘l boshlovchi kerak. Chuqurligi 200 m keladigan, turli-tuman butalar, bir-yillik va ko‘p-yilli o‘tlar va archalar bilan qoplangan tog‘ darasida adashish juda oson. Dara 10-12 m kenglikdan to 50-60 m gacha kengayadi. G‘orga kirish joyi qo‘ldan o‘yib yasalgan arkga o‘xshaydi, balandligi 6 m, kengligi 7 m ni tashkil qiladi. Birinchi zalning balandligi10-15 m bo‘lib, to 400 m gacha yon tomonda g‘orning shoxobcha lari yo‘q, bu joygacha adashmaslik mumkin. Keyingi masofalarda yurish ancha qiyin. G‘orning oxirgi qismida 10 m balandlikdan tushadigan sharshara ko‘l hosil qilgan. Bu ko‘l sentyabr-oktyabr oylarida qurib qoladi. G‘orga ekskursiyaga boruvchilar erkin yurish va tomosha qilish tartibi bilan 3 soatlarda g‘orni ko‘rib chiqishi mumkin (17.1-Rasm).



17.1-Rasm. Amir Temur g‘ori

Teshik tosh g‘ori. Dunyoga mashhur bu g‘or Surxondaryo violyatidagi Boysun tog‘ida joylashgan. G‘orni o‘tgan asrning 30-yillarida o‘lkashunos olim G.V.Parfyonov topgan va g‘or butunjahon arxeologik makonlar ro‘yxatiga olingan bo‘lib, bu g‘orda insoniyat tarixidagi Muste madaniyatining (eramizdan oldingi 100-40 mingginchi-yillar-neandertal odam) qoldiqlari topildi (17.2-Rasm). Keyinchalik arxeolog akademik A.P.Okladnikov rahbarligidagi

ekspeditsiya g‘orda 20 m kenglik, 21 m chuqurlik va 9 m balandlikdagi 5 ta madaniy qatlamda qazilma ishlarini amalga oshirgan. Yuqori qatlamda 8-10 yashar bolaning bosh va gavda suyaklarini, 2 859 ta qadimiy odamlarning tosh qurollarini topdi. Bu topilmalar arxeologiya fanidagi buyuk kashfiyotlar deb hisoblandi va jahondagi eng yirik olimlarning tasdig‘ini oldi. Antropolog akademik M.Gerasimov neandertal bolaning bosh suyagi bo‘yicha uning yuz tuzilishini tikladi (17.2-rasm). So‘ngi tekshiruvlar bo‘yicha u qiz bola bo‘lgan. Noyob bu topilma hozirda Termiz arxeologiya muzeyida saqlanmoqda.



17.2-Rasm. Teshiktosh g‘origa kirish qismining ko‘rinishi



17.3-Rasm. Teshiktosh g‘oridan topilgan neandertal qiz bolaning qiyofasi

Boybuloq g‘ori. Boybuloq haqida batafsil. 1985-yili edi. Xo‘ja G‘urg‘ur ota massivida ishlayotgan Urallik g‘orshunoslar Surxontov tizmasini ham tekshirishga qaror qildilar. Bu yerdagi Qo‘rg‘oncha qishlog‘i aholisi ularga 1971-yilda bir kishi kirib ketgan va qaytib chiqmagan tog‘dagi bir g‘or haqida gapirib berishdi. Ichidan mo‘lgina suv chiqib turgani uchunmi g‘orni Boybuloq deb atashardi. Bu xabar speleologlarni qiziqtirdi va ular g‘orga kirib, uning ichidagi o‘ttiz metrlik quduq tubidan odam suyaklarini topishdi. Oradan ikki-yil o‘tib, ya’ni 1987-yildagina suyaklar chiqarib olindi va Dehibolo qishlog‘idagi uning xonadoniga berildi.

Boybuloqning birinchi tadqiqotchisini Mustafoqul der edilar. U yer qa’ridan kelayotgan suvning chiqish joyini aniq bilish maqsadida bir necha bor g‘orga kirib chiqqan, ammo oxirgi marotabada uning kerosin lampasi nogahon o‘chib qolgan edi. G‘or ichini yaxshi biladigan Mustafo chirog‘i o‘chganidan keyin tashqariga chiqayapman deb hali o‘zi yurib ko‘rmagan quyi yo‘laklarga tushib qoladi. Zimiston uzra paypaslab siljir ekan, chuqurligi besh qavatli tomga to‘g‘ri keladigan quduq uni yutib yuboradi. Mustafoning eski kerosin lampasi hozir ham o‘sha topilgan joyida turadi. Yer osti g‘orlari haritasida endilikda jasur tadqiqotchi Mustafo nomi bilan ataladigan g‘or ham bor.

1986-yili ikkinchi ekspeditsiya tashkil etilib, ikkinchi quduq oxiriga qadar o‘rganib chiqildi. 1987-yilning oktyabrida, 1988-yilning avgustida ekspeditsiyalar davom ettirildi va 900 metrlik marraga chiqildi. 1989-yili esa tadqiqot ishlari italiyalik speleologlar bilan birgalikda davom ettirildi va 1158 metrlik quyi nuqta zabt etildi. Keyingi-yili esa sayyoramizning turli nuqtalarida yer ostida ishlash bo‘yicha ulkan tajriba orttirgan Angliya mutaxassislari hamkorlikka keladilar va ular birgalikda 1991-yilga kelib Boybuloqning jahonda chuqurlik bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinni egallashini ta’minlaydilar. Keyingi izlanishlar natijasida Boybuloq Markaziy Osiyoning eng chuqur g‘ori deb tan olindi.

Betakror, go‘zal yurtimiz tabiatining favqulodda nodir g‘aroyib hodisasi-Boysun tog‘larining yer osti saltanati bugun jahon OAV,

xususan internet sahifalarida “Teskari Everest: dunyoning eng chuqur g‘ori O‘zbekistonda joylashgan. O‘zbekistonning olis tog‘ tizmasida dunyoda eng chuqur g‘orni topish mumkin”, -degan sensatsiya-shov-shuv bilan ifoda topib turibdi.

Hisor g‘ori. Hisor g‘ori Hisor tog‘ining Qizil Shavar platosida, dengiz sathidan 3530m balandlikda joylashgan. Ma’muriy jihatdan Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumani hududida. G‘orni 1981-yilda Ternopol va Kiyev speleoklublarining olimlari topishgan. Hozirgacha aniqlangan chuqurligi-204m. uzunligi 1761 m. G‘orshunos mutaxassislarning xulosalari bo‘ycha Hisor g‘ori g‘orshunoslik faniga juda qiziqarli va shov-shuvli ma’lumotlarni berishi mumkin (17.4-rasm).

-g‘orshunoslar yangi g‘orlarni topishadi va tadqiq qiishadi, bu g‘orlarni dunyodagi insonlarga ma’lum qilishadi.Ular g‘orlarning g‘aroyibligini qalbdan his qilib, ularning saqlanishiga, muhofaza qilinishiga ma’sul bo‘lishlari kerak;

-har bir g‘orshunosning g‘orga kirishi, tadqiqot qilishi albatda unga zarar yetkazadi. Esingizdan chiqmasin, yetkazgan zararingiz minimal darajalarda bo‘lsin;

-g‘orlar haqida yangi kashfiyotlarni chop qilish, e’lon qilish har bir g‘orshunosning majburiy burchidir.



17.4-Rasm. Hisor g‘ori.

G‘orshunoslarning etikasi-kodeksi

G‘orlar-tabiatning g‘aroyibligi jihatlaridan o‘ta sirli va o‘ta nozik, tez ozorlanadigan ekotizimlar guruhiga kiradi. G‘orlardagi stalagtitlar va stalagmitlar ming balki million-yillar davomida shakllanadi, sindirilganlari qayta tiklanishi uchun yana shuncha muddatli-yillar o‘tishi kerak. G‘orlarda 100-yillab bir xil harorat va bir xil iqlim ko‘rsatkichlari bir maromda turadi. G‘orlardagi mikrofauna, ko‘rshapalaklar tashqi dunyodan mahrum bo‘lgan shu joy muhitidagina yashay oladi. Insonning g‘orlarga kirishi g‘orlardagi tabiiy muvozanatni buzib, g‘or ekotizimlarini buzishi, organizmlarning halok bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, g‘orlar tabiat qo‘riqxonalari, milliy parklar, qo‘riqlanadigan, alohida muhofaza qilinadigan tabiat yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

G‘or turizmining xususiyatlari:

- G‘orlardagi marshrutlarning murakkabligi, notanishligi, releflarning o‘ta xavfliligi(quduqlar, surilmalar, tor yo‘laklar, g‘orlardagi ko‘llar va daryolar, botqoqliklar, toshlarning tushib ketishi va boshq…;
- past haroratda namlikning juda balandligi;
- g‘orlarning qorong‘uligi;
- ekspeditsiyada majburiy qaramlilik (g‘orlardagi dam olish lagerlariga)
- g‘orshunoslarning o‘ta kuchli jismoniy tayyorgarligi va sog‘ligi.

Tayanch so‘zlar: speliolog, stalagtit, stalagmit, quduqlar, relef, yo‘lak, teskari Everest, qora yulduz, alpinistlar.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.G‘orlarning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyati qanday izohlanadi?

2.G‘orlarni birinchilardan bo‘lib tekshirganlarni gapirib bering.

3.Amir temur g‘ori haqida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering.

4.O‘zbekistonning eng kata g‘orlari haqida davra suhbatini tashkil qiling.

5.Nima uchun chet ellik g‘orshunoslar g‘orlarimizni teskari Everest, qora yulduz deb nomlashgan?

XVIII BOB. AGROEKOTURIZM VA UNING RESURSLARI[124]

Tayanch so‘z va iboralar: turizm, ekoturizm, agroturizm, agroekoturizm, xalq xo‘jaligi, turizm resurslari, madaniy resurslar, milliy madaniy meros turizmi, gastronomiya turizmi, qishloq xayoti.

18.1. Qishloq turizmining mazmuni va mohiyati

Turizm sayyoramiz va odamlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Murakkab xalq xo‘jaligining butun majmualarini qamrab oluvchi bu soha aholi bandligini, insonlar hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy faravonlikni ta’minlovchi, jahon iqtisodiyotining asosiy sektoriga aylangandi. Shuningdek, turizm davlatlarning iqtisodiy va madaniy birligini keltirib chiqaruvchi sharoitlar yaratmoqda.Turizmning haqiqiy mohiyati, bu sohaning rivojlanish manbai, o‘zagi, yadrosi birinchidan, turizm resurslar hisoblansa ikkinchidan, bu turizm resurslardan foydalanishda aniq mavzuli, resurs mazmunini, mohiyatini anglatadigan turni ishlab chiqish hisoblanadi.

Jahon integratsiyasida faoliyat ko‘rsatayotgan mamlakatimiz xalq xo‘jaligi rivojiga dunyoda yangi, iqtisodiy istiqbolli, samarali sohalarni kiritish va rivojlantirish zamon, vaqt talabidir. Bu yangi iqtisodiy tarmoqlardan eng muhimi turizm sohasi ham mamlakatimizda vatanimizning mustaqillik yillaridan keyin to‘liq shakllantirildi. Ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turizm eksporti 3,5 milliard dollarga yetgan, o‘tgan yili xorijiy sayyohlar oqimi 8 milliondan oshgan. Hozirda turizmning O‘zbekiston iqtisodiyotdagi ulushini 2040 yilgacha 7 foizga, eksportni esa 10 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha strategiya ishlab chiqilmoqda[125].

Jahonning hozirgi turizmi taraqqiyotida yana bir *tendensiya* davlatlar tomonidan tobora jiddiy e’tiborga olinmoqdaki, bu davlatlarda ichki turizmni va ichki turizmning turlarini rivojlantirish hisoblanadi. BTTning hisobotlari va tavsiyalari bo‘yicha pandemiyadagi cheklovlar olingandan keyin uning zararli oqibatlarini tugatish uchun davlatlar

[124] О.З.Ҳайдаровнинг “Агроэкотуризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш” авзусида иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация маълумотлари асосида тайёрланди.

[125] Ўзбекистон | 12:07 / 11.04.2025, 2513

ichki turizmni rag‘batlantirish yo‘liga o‘tishlari kerak. Chunki, pandemiyadan oldin jahonning ichki turizmida 9 mlrd. safar uyushtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich xalqaro turizmdan (1,4mlrd.) 6 karra ko‘p. Bu ma’lumotlar ichki turizm rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotiga juda katta mablag‘lar keltirayotganligidan dalolat beradi. *Ikkinchidan,* ichki turizmda turizmning ko‘plab turlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

O‘zbekistonning milliy turizmi uchun turizmning *yangi turlarini* tashkil qilish va rivojlantirish yo‘nalishida Samarqand iqtisodiyot va servis institutining olimlari jiddiy ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda. Xalqaro turizm mutaxassislari, ekspertlarining xulosalari bo‘yicha mamlakatda turizmning rivojlanganligining birinchi omillari turizmda rivojlangan turlarning ko‘pligi hisoblanadi. O‘zbekistonning milliy turizmida turizmning xalqaro miqyoslardagi istiqbolli turlarini rivojlantirish bo‘yicha Samarqand iqtisodiyot va servis institutida yangi-“milliy madaniy meros turizmi”, “gastronomiya turizmi” va “ekologik turizmni” tashkil qilish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqildi, O‘zbekiston milliy turizmi mintaqaviy rayonlashtirildi va amaliyotga joriy qilindi[126].

Hozirgi global turizm rivojlanish jarayonida qishloq turizmi (rural tourism) barqaror turizmning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Dunyodagi ko‘plab davlatlar qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va aholining turmush farovonligini oshirishda ushbu turizm turini samarali qo‘llamoqda. Shu bois qishloq turizmining nazariy asoslarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida qishloq turizmi qishloq joylarida yangicha mehnat bozorini shakllantirish, aholini qo‘shimcha daromad manbalari

[126]Самаров Х.Қ., Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда миллий мерос бойликларидан фойдаланишнинг истиқболли йўналишлари, автореф., PhD.,Смарқанд, 2023.-66 б;Қаҳҳаров Ж. А., Ҳудудий гатрономи туризмни самарали ривожлантиришнинг усулларини такомиллаштириш, автреф, PhD, Самарқанд, 2024.-63 б; Абдулазизов А.А., Ҳудудларда экотуризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш, автореф., PhD., Самарқанд,2024.-63 б.; Абдухамидов С. А., Абдухамидов С. А., Минтақавий туризмнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштири. Автореф,PhD,Самарқанд, 2021.-61 б.

bilan ta’minlash va qishloq infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qiladi. Turizmni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani, qishloq turizmida ham katta imkoniyatlar borligini ko‘rsatadi.

boyitadi, balki mamlakat imijini ham yuksaltiradi. Demak, agroekoturizm nafaqat dam olish va ko‘ngilochar sohalarning bir qismi, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida dolzarb ahamiyatga ega.

Agroekoturizm Yevropa davlatlarida quyidagi nomlanishda va yo‘nalishda jadal rivojlantirilmoqda[144]:

- *Fransuzcha turi* – agroekoturizmda-qishloq va plyaj, gastronomik (ovqat va masalliq ishqibozlari uchun), vinochilik turi (vino tayrlash jarayonlarida) qatnashish;

- *Nemischa turi* – qishloq agroekoturizmi maqsadi faqatgina dam olish emas, barcha oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash jarayonlarida shaxsan ishtirok etish, uy egalariga ferma va uchastkada yordam berish;

- *Italyancha turi* –agroekoturizmda- qishloq, ekologik, gastronomik va sport sayohatlari uyg‘unlashib ketishi;

- *Osiyo turi* – agroekoturizmda-ancha qimmat sayohatlar, faqat tabiat qo‘ynida, xizmat ko‘rsatish darajasi shunchalar yuqoriki, turist har qanday mayda maishiy kamchiliklarni o‘ylab o‘tirmaydi.

Yevropa davlatlarida agroekoturizm turli yo‘nalishlarda rivojlanib, har bir mamlakat o‘ziga xos uslub va an’analarga ega. Masalan, Fransiyada agroekoturizm qishloq va plyaj turizmini uyg‘unlashtirib, gastronomik turlar orqali ovqat va masalliq ishqibozlarini jalb qiladi. Shuningdek, vinochilikka oid turlar turistlarga uzumzorlarda qatnashish va sharob tayyorlash jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Bu nafaqat turizmning gastronomik salohiyatini, balki milliy mahsulotlarni targ‘ib qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Germaniyada agroekoturizmning asosiy xususiyati faqat dam olish bilan cheklanib qolmasdan, balki turistlarni qishloq xo‘jaligi mehnatiga bevosita jalb qilishidir. Mehmonlar qishloq uylari va fermer xo‘jaliklarida turib, mahsulot yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu orqali turistlarda mehnatga hurmat, tabiatga ehtiyotkorlik va qishloq hayotiga qiziqish kuchayadi.

[144] Ғозиев М.Ҳ.,Ўзбекистонда агротуризмнинг истиқболлари, admin Aprel 8, 2023

Italiyada esa agroekoturizm ko‘p qirrali yo‘nalishda rivojlangan: u yerda qishloq turizmi ekologik yo‘nalishlar, gastronomik sayohatlar va sport turizmi bilan uyg‘unlashib ketgan. Turistlar bir vaqtning o‘zida tabiatdan bahramand bo‘lib, milliy taomlardan tatib ko‘rib, turli sport va faol dam olish turlarida ishtirok etadilar. Bu mamlakatda agroekoturizm madaniy turizm bilan chambarchas bog‘liq holda xizmat qiladi.

Osiyo mamlakatlarida esa agroekoturizm ancha qimmat turizmi sifatida shakllangan. U asosan tabiat qo‘ynidagi dam olishni o‘z ichiga oladi va xizmat ko‘rsatish darajasi yuqori bo‘lgani uchun turist har qanday maishiy muammolardan xoli holatda bo‘ladi. Bu turdagi agroekoturizm ko‘proq yuqori daromadli turistlarga qaratilgan bo‘lib, tabiiy resurslardan maksimal darajada foydalanish va yuqori sifatli servis xizmatlari bilan ajralib turadi.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savollar va topshiriqlar:

1.Agroturizmning mazmuni, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

2.Ekoturizmning mazmuni, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

3.Qishloq turizmining mazmuni, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

4.Agroekoturizmning mazmuni, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

5.O‘zingiz yashab turgan tumaningizdagi agroekoturizm resurslaridan misollar keltiring.

XIX BOB. TURIZMNING TURLARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ DAVLATLARNING TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

19.1. Xorij davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirish dasturlari

Qishloq turizmini rivojlantirish mavzusida respublikamiz da hali jiddiy ilmiy-tadqiqotlarning boshlanmaganligini hisobga olib, qishloq turizmi bo‘yicha xalqaro texnologiyalar va dasturlarni o‘rganishimiz zarur bo‘ladi. Bunday texnologiyalar va dasturlarni Yevropadagi davlatlar hamkorlikda ishlab chiqishgan, Umum Yevropa dasturlariga asoslangan holda Yevropadagi har bir davlat o‘zlaridagi imkoniyatlari bo‘yicha qishloq turizmini rivojlantirish dasturlarini tayyorlashgan.

Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirish uchun, dastlab qishloq turizmini rivojlantirishning maqsadi va vazifalarini belgilab olishgan, so‘ngra qishloq turizmini rivojlantirishga javob beruvchi, davlat vakolatini olgan tashkilot tuzishgan (masalan, Fransiyada– “Turizm va qishloq yerlari assotsiatsiyasi”; Britaniyada–“Britaniya turistik kengashi” va “Qishloq yerlarini rivojlantirish agentligi”; Avstriyada–“Avstriya fermerlik turizmi assotsiatsiyasi” va boshqalar).1990-yilda Yevropa Ittifoqining– “Qishloq joylarni majmuali rivojlantirish Umum Yevropa “Lider” dasturi” tashkilotlari muvaffaqiyat bilan ishlab kelmoqda.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda albatda Yevropa Ittifoqining “Qishloq turizmini rivojlantirishning Dasturlari”i o‘rganishimiz lozim. Ular o‘zlarining qishloq turizmini rivojlantirish dasturlariga quyidagilarni kiritgan. Biz uchun bu dastur ancha muhim bo‘lishi mumkin;

- qishloq turizmini rivojlantirishning huquqiy va me’yoriy asoslarini takomillashtirish;
- salohiyatli turistlarga va rivojlanayotgan tarmoqlarning axborot byurolariga qishloq turizmi haqidagi barcha ma’lumot larni, axborotlarni bepul yetkazib berish;

- dasturda qatnashuvchi dehqon xo‘jaliklarini manzili bo‘yicha moliyaviy quvvatlash;
- qishloq infratuzilmalarini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli mablag‘lar ajratish;
- qishloq turizmi korxonalarini xususiylashtirishda davlatning foizli qatnashuvini ta’minlash;
- qishloq joylarining holati manitoringini doimiy o‘tkazib borish;
- fermerlarni dotatsiyalash va imtiyozli soliqlar belgilashda rag‘batlan tirish siyosatini qo‘llash;
- loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarni izlash.

Yevropa davlatlarida qishloq turizmini rivojlantirishdan 3 ta siyosiy xolatni tashkil kilish va 3 ta manfaatni hosil kilish hal qilinmoqda.

1.Qishloq joylarda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish asosida qishloq iqtisodiyotini ko‘tarish, qishloqda ishlab chiqarish va savdo – sotiqni kuchaytirish;

2. Shaharliklarning maqsadli dam olishini tashkil qilish orqali shaharliklarning mablag‘larini qishloqga yo‘naltirish;

3.Soliq tizimi orqali davlat xazinasiga qo‘shimcha mablag‘-larni tushirish hisobidan qishloqlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzor-lashtirish (turizm infratuzilmalmalari, transport kommunikatsiyalari, mehmonxonalar, ovqatlantirish korxonalari, sport inshootlari va boshq…).

Yevropadagi mamlakatlardagi qishloq turizmidagi turistik talab va takliflarning o‘sishi istiqbollarini tahlil qilganimizda ma’lum bo‘ladiki, bu davlatlardagi 30% shahar aholisi aynan qishloqlarda dam olish va qishki mahsulotlarni g‘amlash orkali kishlok turizmini kuchli rivojlantirishning maqsadli yo‘nalish ekanligidan dalolat beradi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda jahonning ko‘plab davlatlari Yevropa modellaridan, dasturlaridan, strategik rejalaridan nusxa olmoqdalar. Chunki, hozirda qishloq turizmi faqat Yevropa davlatlarida barqaror rivojlanmoqda. Bunday yutuqlarning bosh sababi shundaki, Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirishda o‘zaro

hamkorlikni, hamdo‘stlikni yaxshi yo‘lga qo‘yganlar. Yevropa hamkorligi natijasida 1990-yilda qishloq turizmini rivojlantirish maqsadida “Umumevropa Lider” dasturini” ishlab chiqdilar.

Dasturning loyihalari “Yevropa Ittifoqi” fondidan moliya lashtiriladi. Dastur loyihalari bo‘yicha Yevropadagi davlatlarining 2000 ta regionlarida qishloq turizmi maqsadli strategik reja bo‘yicha rivojlantiradi. Hozirga kelib ma’lumki, Yevropa davatlari qishloq turizmini rivojlantirish va undan daromadlar olish bo‘yicha jahondagi mamlakatlar ichida yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqdalar. Hozirga kelib, Yevropa davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirish dasturlarini jahondagi ko‘plab davlatlar qishloq turizmini rivojlantirishning xalqaro modellari deb qabul qilmoqdalar. Chunki, bu dasturlar qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ko‘tarishda, qishloqlar aholisini ish bilan ta’minlashda juda ustivor imkoniyatlarni yaratishi ma’lum bo‘ldi.

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro modellar, tan olingan dasturlar va strategik rejalarni qo‘llash masalasini tahlil qilganimizda shunday xulosa kelib chiqadiki, ushbu modellar, texnologiyalar va strategik rejalarda biron bir qoyil qiladigan yoki hayratga tushadigan tomonlari yo‘q. Bu texnologiyalar va strategik rejalarda belgilangan jarayonlar va voqe’liklar, tashkiliy jihatlarni hech qiynalmasdan tashkil qilishimiz ham, bajarishimiz ham mumkin. Bu sohada eng muhimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda ijobiy o‘zgarishlar yaratadigan ushbu muhim turni tashkil qilish va rivojlantirish rejalari, dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini boshlashimiz kerak. Yevropa davlatlarining qishloq turizmi o‘tgan asrimizning 70-yillaridan boshlanib hozirgi taraqqiyotiga erishgan.

Yevropa mamlakatlarida qishloq turizmining nihoyatda rivojlanib borayotganligining asosiy *sabablari* quyidagilardan iborat:

1.Yevropa davlatlari o‘zaro hamkorlikda har bir mamlakatda qishloq turizmini rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

2.Yevropa dablatlarida qishloq turizmini rivojlantirishda Yevropa Ittifoqining “Umumevropa “Lider dasturi” muhim rol o‘ynaydi va bu

dastur loyihalarini “Yevropa ittifoqi” moliyalashtiradi.



19.1-Rasm. Qishloq turizmini rivojlantirishda Buyuk Britaniya davlatining Dasturi

3.Qishloq turizmini rivojlantirishda asosan noqulay yerlarni o‘zlashtirish, iqtisodiy holati qoniqarsiz rivojlanayotgan rayonlar e’tiborga olinadi.

4.Qishloq turizmini rivojlantirishga davlat kreditlar va dotatsiyalar ajratadi, xususiy investorlar yordam beradi.

5.Qishloq turizmini rivojlantirishda qishloqlardagi barcha imkoniyatlardan foydalaniladi.

6.Qishloq turizmini rivojlantirishda qishloqliklar Yevropa standartlari asosida xizmatlar ko‘rsatishga davlat tomonidan o‘qitiladi.

7.Qishloq turizmini rivojlantirishda qishloq infratuzilma larini yaratish, transport yo‘llarini yaxshilash, joylashtirish vositalarini yaratish ishlariga davlat mablag‘lar ajratadi. Viloyatlarimiz Yevropa davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirish Dasturlaridan foydalanish uchun o‘zlarining viloyatlariga mos keladigan rejalarni

olishlari mumkin. Quyida Yevropa davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirish dasturlaridan namunalar keltiramiz[145].

Qishloq turizmini rivojlantirishning Buyuk Britaniya davlatining dasturi;

1.Qishloq turizmini rivojlantirishga asoslar;

-kelgusida qishloq xo‘jalik yerlarining olib qo‘yilishi xavfi;

-qishloq joylarda qadim madaniyat joylarining borligi.

2.*Asosiy vazifalar;*

-fermerlik turizmini rivojlantirish;

-qishloq turizmini rivojlantirishda notekislikni yo‘qotish.

3.*Asosiy instrumentlar;*

-qishloq turizmini rivojlantirish dasturini kreditlash, dotatsiyalash;

-turistik tashkilotlarning fermerlar manfaatini himoya qilishi.

4.*Moliyalashtirish manbalari;*

-davlat va xususiy investorlar.

5.Qishloq turizmining ahamiyati;

-agrar ixtisoslashtirishning alternativ yo‘nalishi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Fransiya dasturi:

1.Qishloq turizmini rivojlantirishga asoslar;

-noqulay va kam mahsuldor yerlarning borligi;

-qishloq turizmining bilish, sport va davolash turizmlari bilan qo‘shilish imkoniyatlarining borligi.

2.Asosiy vazifalar;

-qishloq turizmini rivojlantirish darajalarida hududiy farqlarni yo‘qotish;

-gastronomiya va vinochilik turizmlarini rivojlantirish.

3.Asosiy instrumentlar;

-shimoliy-g‘arbiy departamentlar turistik mahsulotlarini harakatga keltirish;

-fermerlar va ularning loyihalarini yakka tartibda quvvatlash.

---

[145]. Демишкевич, Г. М. Организация селского туризма на базе крестянского (фермерского) и личного подсобного хозяйства: методические рекомендации-Москва: ФГУР ССК, 2008.-63с: Воскресенский, В. Ю. Аграрний туризм: зарубежний опит и перспективи России. Международная экономика. - 2009. - № 8. - С. 68-72.; Горчаков, Я. В. Агротуризм в Йевропе и США: опит фермеров. Вестник овошевода. - 2009. - № 3. - С.38-43.;Яковенко, Н. В.Модел развития агротуризма,«Малое семейное хозяйство», Економика. Управление. Право. 2010. - № 5. - С. 35-37.

4.Moliyalashtirish manbalari;

-davlat va xususiy investorlar.

5.Qishloq turizmining ahamiyati;

-agrar ixtisoslashtirishning alternativ yo‘nalishi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Germaniya dasturi:

1.Qishloq turizmini rivojlantirishga asoslar;

-alohida federal viloyatlarning ijtimoiy-iqtisobiy rivojlantirish darajasidagi farqlar(yuqori,o‘rta,past);

-qishloq turizmining bilish, sport va davolanish turizmlari bilan qo‘shilish imkoniyatlari.

2.Asosiy vazifalar;

-voqealar, hodisalar turizmlari bazasida qishloq va fermerlik turizmlarini rivojlantirish.

3.Asosiy instrumentlar;

-fermerlar va ularning loyihalarini yakka tartibda quvvatlash;

-turistik mahsulotlarni past rivojlangan viloyatlarga yo‘naltirish.

4.Moliyalashtirish manbalari;

-fermerlarning o‘zi;

-xususiy investorlar va davlat(kam miqdorda).

5.Qishloq turizmining ahamiyati;

-rivojlangan viloyatlarga qo‘shimcha ixtisoslik;

-sobiq GDRning past rivojlangan viloyatlarida agrar ixtisoslashtirish alternativasi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Italiya dasturi;

1.*Qishloq turizmini rivojlantirishga asoslar;*

-janubdagi agrar rayonlarning depressiv holati;

-qishloq turizmining cho‘milish-plyaj, sport va davolanish turizmlari bilan qo‘shilishi imkoniyatlarining borligi;

2.Asosiy vazifalar;

-fermerlik va gastronomiya turizmlarini rivojlantirish;

3.Asosiy instrumentlar;

-kottejlar qurilishi va qishloq uylarini tiklashni rag‘batlantirish;

-qishloq turistik mahsulotini janubiy provinsiyalarga yo‘naltirish;

4.*Moliyalashtirish manbaalari;*

-davlat va xususy investorlar.

5.Qishloq turizmining ahamiyati;

agrar ixtisoslashtirishning alternativasi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Ispaniya dasturi;

1.Qishloq turizmini rivojlantirishga asoslar;

-janubdagi agrar rayonlarning rivojidagi sustlik;

-qishloq turizmining cho‘milish-plyaj, bilish, sport va davolanish turizmlari bilan qo‘shilish imkoniyatlarining borligi.

2.Asosiy vazifalar;

-bolalar lageri tarmoqlarini rivojlantirish;

-qadimiy tosh qal’alar bazasida mehmonxonalar tizimini yaratish;

-gastronomiya turizmini rivojlantirish.

3.Asosiy instrumentlar;

-kottejlar va qishloq uylarini tiklashni rag‘batlantirish;

-qishloq turistik mahsulotini janubiy provinsiyalarga yo‘naltirish;

4.Moliyalashtirish manbalari;

-davlat va xususiy investorlar.

5.Qishloq turizmining ahamiyati;

-agrar ixtisoslashtirishning alternativasi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Avstriya dasturi;

1.Qishloq turizmini rivojlantirishga asoslar;

-qishloq turizmining bilish, sport, davolanish turizmlari bilan qo‘shilishi imkoniyatlarining borligi.

2.Asosiy vazifalar;

-fermerlar turizmini rivojlantirish;

-qishloq va fermerlar daromadini oshirish.

3.Asosiy instrumentlar;

-qishloq turizmini rivojlantirish bo‘yicha ixtisoslashgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

-soliqlar qarzdorligini pasaytirish.

4.Moliyalashtirish manbalari;

-fermerlarning o‘zlari va xususiy investorlar.

5.Qishloq turizmining ahamiyati;

-agrar rayonlarni qo‘shimcha yo‘nalishlarga ixtisoslashtirish.

Qishloq turizmini rivojlantirishda Polsha va Ruminiya dasturi;

1. Qishloq turizmini rivojlantirishga asoslar;

-agrar rayonlarning depressiv holati;

-qishloq joylardagi boy rekreatsiya va ekologik turizm resurslarining salohiyati.

2. Asosiy vazifalar;

-joylashtirish vositalarini takomillashtirish;

-qishloq joylarda infratuzilmalarni rivojlantirish;

-dehqonning tadbirkorlik madaniyatini oshirish;

-qishloq turistik mahsulotlarini harakatlantirish.

3.Asosiy instrumentlar;

-qishloq turizmini rivojlantruvchi dehqon xo‘jaligini kreditlash;

-dehqonlarni Yevropa standartlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga o‘qitish;

-qishloq joylarda transport tarmoqlarini yaxshilash.

4.Moliyalashtirish manbalari;

-davlat(asosiy mablag‘lar).

5.Qishloq turizmining ahamiyati;

-agrar ixtisoslashtirishning alternativasi.

Tayanchso‘zlar: xususiy sektor,model, milliy park, Pan Yevropa strategiyasi, standart, korporatsiyalar, sivilizatsiya, park-rezervat.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Xorij davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirish dasturlarining tarkibi nimalardan iborat?

2.Xorij davlatlarining qishloq turizmini rivojlantirish dasturlaridan qaysi variantlarni mamlakatimiz qishloq turizmiga olishimiz mumkin?

3.Yevropa davlatlarining qishloq turizmi dasturlaridan qaysi biri sizga ma’qul bo‘ldi?

XX BOB. TURIZMDAGI TURLARNI RIVOJLANTIRISH DASTURLARI VA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH

20.1. Turizmdagi turlarning dasturlarini ishlab chiqish (Milliy madaniy meros turizmi bo‘yicha)

Milliy meros boyliklari turlarining tavsifi, tasnifi va geografiyasi bilan tanishganimizda ulardan turizmda foydalanishda bu turlarning deyarli tayyor holatdaligini ko‘ramiz. O‘zbekistonda milliy meros boyliklaridan xalqaro turizmni rivojlantirish uchun foydalanishda birinchi navbatdagi vazifa milliy madaniy meros turizmining xizmatlarini aniqlash, xizmatlar ko‘rsatishning ishlab chiqish va tashkil qilish hisoblanadi. Bu yo‘nalishda O‘zbekistonning xalqaro turizmida milliy meros turlarini rivojlantirish haqidagi reklama mahsulotlari xalqaro miqyoslarda, Respublikamizning barcha mehmonxonalarida, turistik firmalarida va turizm tashkilot larida ko‘p tirajda bo‘lishligini taminlashdir.

Milliy madaniy meros turizmini reklama qilish yo‘nalishida jahonning turli tillarida O‘zbekiston xalqining ijodkorligi, yaratuvchanligi, milliy madaniyati va sanati, hunarmandchiligi, betakror-mo‘jizali buyumlar yaratishdagi qo‘li gul ustachiligi va boshqa davlatlarda uchramaydigan turli tuman, qiziqarli milliy o‘yinlari borligi haqida internetda saytlar ochish xalqaro turizmda milliy madaniy meros turlarini rivojlantirish yo‘lidagi faol mehnatlardan bo‘ladi.

Mamlakatimizning xalqaro turizmida milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish uchun jahon turizmi talablariga mos keladigan, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan, rejalashtirish bo‘yicha turli muddatlarga mo‘ljallangan grant loyihalar ishlab chiqishini amalga oshirishimiz kerak. Milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatlariga imkoniyatlar ochib berish vaqti keldi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun birinchidan, “O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish strategiyasi”ni mukammal ishlab chiqilishi kerak. Bu strategiya tarkibida “O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishning ko‘p-yillik “Dasturi”, “Strategik rivojlantirish rejasi”

va “Strategiyaning taktik vazifalari” muddatlari bo‘yicha aniq belgilanishi maqsadli yo‘nalish bo‘ladi.



20.1-Rasm. “O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish strategiyasi”ni, “Dasturi”ni ishlab chiquvchi va bajaruvchi tashkilotlar

Ikkinchidan, O‘zbekiston milliy turizmini rivojlantirishda turizm sohasiga kadrlar tayyorlayotgan institut va universitetlar milliy turizmning sohalari va turlariga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlashlari lozim. Turizmni yuksak darajada rivojlantirgan va rivojlantirayotgan AQSH, Kanada, Avstraliya va Yevropa davlatlari turizm uchun mutaxassislarni bizdagidek umumiy turizmga emas,

turizmning sohalari va turlari bo‘yicha tayyorlashadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligidagi “Turizm qo‘mitasi”ning rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, va Madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutlari o‘zaro hamkorlikda vatanimizda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishning bosh markazi bo‘lishi, “Strategik rivojlantirish rejasi” va “Strategiyaning taktik vazifalari” yagona “Dastur”ni ishlab chiqilishiga ma’sul bo‘lishlari kerak (20.1-Rasm, 20.1-Jadval).

Xalqaro turizmni ommaviy rivojlantirish uchun katta imkoniyat va salohiyatga ega bo‘lgan milliy madaniy meros turizmining istiqboldagi o‘rnini belgilash uchun albatta tashkiliy-harakat dasturini tuzish soha uchun zaruriy, majburiy talab ekanligini hozirdan jiddiy e’tibor berishimiz kerak. Yuqorida qayd qilingan maqsad va vazifalarni bajarishda o‘ziga xos bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarni ham hisobga olib, jamlangan holda milliy madaniy meros turizmining “Rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqish muammo emas.

Shu o‘rinda qayd qilmoqchimizki, O‘zbekiston milliy turizmida to hanuzgacha davlatimiz vakolatiga ega bo‘lgan tashkilotlarning, turizm ta’limidagi olimlar, mutaxassislarning, turizmdagi tadbirkorlarning bir maqsad yo‘lidagi o‘zaro hamkorligi sezilmayapti. Turizm rivojlangan davlatlarda davlatlar o‘zining ko‘pgina vakolatlarini xususiy tadbirkorlikga berib nazoratni o‘z zimmasida qoldirgan. Shuning uchun ham ularda mehmonxona xo‘jaliklarining zanjirlari, turizm firmalarining xususiy markazlari, birlashish natijasida xususiy turizm hududlari shiddat bilan rivojlanmoqda.

Xorij davlatlaridagi bu usullarni va tajribalarni o‘zimizda qo‘llashimiz lozim. Ya’ni davlatimizning tashkilotlari-O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligidagi “Turizm qo‘mitasi”ning rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, va Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti milliy turizmni rivojlan tirishda alohida-alohida dasturlar bilan emas, o‘zaro

hamkorlikda vatanimizda milliy madaniy meros rivojlantirishning bosh markazi bo‘lishi, “Strategik rivojlantirish rejasi” va “Strategiyaning taktik vazifalari” yagona “Dastur”ni ishlab chiqishi lozim.

19.1-Jadval

O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning Dasturi

Bosqichlar	Bosqichda bajariladigan ishlar	Bajarilish muddatlari
I - Bosqich	1.1.O‘zbekistonning xalqaro turizmida milliy meros boyliklaridan milliy madaniy meros turizmida foydalanishning me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish va hujjatlashtirish shakllarini belgilash. 1.2. O‘zbekistonning xalqaro turizmida milliy meros boyliklaridan milliy madaniy meros turizmida foydalanish Dasturini tayyorlash. 1.2.O‘zbekistonning barcha viloyatlarida, tumanlari va qishloqlarida milliy madaniy meros turizmining resurslarini aniqlash, tavsif va ta’riflarini tayyorlash, bu resurslardan foydalanishdagi muammolarni aniqlash, foydalanishdagi imkoniyatlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish. 1.3.Milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish. 1.4.Milliy madaniy meros xizmatlarining tarif va tavsiflarini, standartlarini tayyorlash. 1.5. Milliy madaniy meros turizmining turoperatorlarini tayyorlash.	2024-yildan, Davomli faoliyatlar, xalqaro turistlarni milliy meros turizmiga taklif qilishni boshlash
II - Bosqich	2.1.O‘zbekistondagi milliy meros boyliklarining xalqaro turizm talablaridagi reklamalarini yaratish, manzillariga turizm marshrutlarini, turizm ekskursiyalarini ishlab chiqish va xalqaro turizm bozoriga chiqarish. 2.2.Milliy madaniy meros turizmining ekoturizm, gastronomiya, qishloq , ziyorat va tarixiy-madaniy turizmlari bilan qo‘shilishi imkoniyatlarini foydalanish tizimlarini ishlab chiqish. 2.3.Milliy madaniy meros turizmining maxsus, xalqaro talablarga mos infratuzilmalarini tayyorlash	2024-2025-yillar, xalqaro turistlarni milliy meros turizmiga taklif qilishni kuchaytirish
III- Bosqich	3.1.O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklaridan xalqaro turizmda foydalanishni ommaviy ravishda boshlash.	2025-yildan

Bu “Strategik reja” va “Dastur” O‘zbekistondagi barcha viloyatlar kesimida ishlab chiqilishi maqsadli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi

vazirligidagi “Turizm qo‘mitasi”ning rahbarligida har bir viloyatlardagi boshqarmalaridan zaruriy ma’lumotlarni talab qilishi kerak. Chunki, har bir viloyatlarimizda milliy meros boyliklarining biri-biriga o‘xshamagan, takrorlamaydigan turlari va yo‘nalishlari mavjud.

Davlatimizning turizm sohasidagi barcha tashkilotlari ishlab chiqgan “Dastur” albatda mukammalligi bilan ajralib turishi milliy madaniy meros turizmidagi tadbirkorlar bu dasturdan yengil foydalanishning qulay imkoniyatlari bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda keltirish lozimki, O‘zbekiston milliy turizmida turizm xizmatlariga ixtisoslashuv hamon davlat tashkilotlari tomonidan ham, turizmdagi xususiy tadbirkorlikda ham e’tibordan chetda qolmoqda. Turizm ham har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sohalar kabi ixtisosuvlashni, rayonlashtirishni talab qiladi.



20.2-Rasm. Milliy madaniy meros turizmining milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanishi bo‘yicha ixtisoslashuvi

Shuning uchun ham, yangi-milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishni milliy madaniy meros turizmining istiqbolli yo‘nalishlariga ixtisoslashdan boshlash va bu yo‘nalishlarni davlat tashkilotlari quvvatlab borishi lozim. O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmining resurslaridan foydalanishda istiqbolli yo‘nalish-larni asoslagan edik. Shu sababli, bizning xulosalarimiz bo‘yicha milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishdagi ixtisoslashish milliy meros

boyliklaridan majmuali foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda dastlabki 4 ta yo‘nalishni qamrab olishi mumkin (19.1.2-Rasm).

20.2. Turizmdagi turlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish (Ekoturizm turi bo‘yicha)

Bizning loyihalarimiz bo‘yicha mamlakatimizda ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishning *strategik vazifalari* quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim (19.1.3-Rasm):

-Davlat miqyosida ekoturizmni turizm sohasidagi muhim yo‘nalish deb qabul qilish va “O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning Davlat dasturi”ni qabul qilish;

-Tabiat muhofazasida ekoturizm manfaatlariga va tabiat muhofazasi manfaatlariga mos bo‘lgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarni qabul qilish;

-“O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Davlat dasturi” asosida viloyatlarda ekoturizmni istiqbolda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

-“Xalqaro ekoturizm tashkiloti” ishlab chiqgan ekoturizmni barqaror rivojlantirish talablarini qabul qilish;

-Ekoturizm rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari zamonaviy texnologiyalarini o‘rganish va milliy ekoturizmda joriy qilish;

-Yuqori malakali ekoturizm mutaxassislarini tayyorlashga kirishish.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishdagi muhim taktik vazifalar:

Ekoturizmni rivojlantirishdagi taktik vazifalar qisqa muddatli, bosqichma-bosqich bajarilishi lozim bo‘lgan rejalarni ishlab chiqish bajarish orqali amalga oshirilishi maqsadli bo‘ladi. Xulosalarimiz bo‘yicha O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish dagi muhim taktik vazifalar quyidagilardan iborat;

-Mamlakatimizda ekoturizm mutaxassislarini tayyorlash;

-Ekoturizm bo‘yicha ichki va tashqi turizm bozori uchun raqobatbardosh turmahsulotlar va tur dasturlar ishlab chiqish;

-Ekoturizmni rivojlantirishda ishonchli baho siyosatini shakllanti

rish va joriy qilish;



19.3-Rasm. O‘zbekistonda ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishning strategik dasturi

-Ekoturizmni rivojlantirishda tadbirkorlikni, tashabbus korlikni davlat imtiyozlari asosida qo‘llab-quvvatlash, tashkil qilish va rivojlantirish;

-Ekoturizmning mukammal axborot reklamalarini, marshrut larini yaratish, ichki va xalqaro ekoturizm bozoriga chiqarish.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda birinchi navbatda ekoturizm rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari ni o‘rganishimiz va ikkinchi navbatda ekoturizmning zamonaviy konsepsiyasi va amaliyoti talablarini bajarishimiz lozim.

Ekoturizmning zamonaviy konsepsiyasini jahonda ekoturizm ning mohiyati, maqsadi va vazifalari, tamoyillarining-yildan–yilga takomillashib, mukammallashib borishini kuzatib va muhim xalqaro hujjatdagi talablarga amal qilishimiz lozim bo‘ladi.

Ekoturizmning xalqaro konsepsiyasi va amaliyotini, ilg‘or tajribalarini o‘rganish natijalari O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning strategik va taktik vazifalarini ishlab chiqishga asos bo‘ldi. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish ning strategik va taktik vazifalarini yanada mukammal takomillashtirib, O‘zbekistonda milliy ekoturizmni rivojlanti rishning qo‘yidagi strategik dasturini tavsiya qilamiz.

O‘zbekistonda ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishning strategik Dasturini izohlash:

I.Ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishning nazariy asoslari va huquqiy me’yorlari.

a) Ekoturizmning kelib chiqishi va O‘zbekistonda shakllanishi;

b) Ekoturizmining mohiyati va mazmuni, maqsadi va vazifalari;

v) Ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy–me’yoriy qonun-qoidalari. O‘zbekiston ekoturizmini rivojlantirish uchun zamonaviy huquqiy-me’yoriy asoslarni dunyo ekoturizmi me’yorlari bo‘yicha ishlab chiqish tizimi;

g) Ekoturizm resurslaridan foydalanishning huquqiy-me’yoriy asoslari. “Alohida muhofaza qilinadigan hududlar”dagi ekoturizm ob’ektlarida ekoturizmni rivojlantirishning “Davlat dasturini”, ishlab

chiqish;

d) Ekoturizm resurslarida ekoturistik infratuzilmalar yaratishning huquqiy-me’yoriy asoslari.

e) O‘zbekistonning milliy ekoturizmi tamoyillari.

II. Tashkiliy qism.

a) Ekoturizmning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqish:

b)Ekoturizmdagi talab va taklif, ehtiyoj va iste’molni o‘rganish;

v)Ekoturizmning mahsulotlarini (ichki va xalqaro ekoturizm) yaratish va iste’molchilarini aniqlash;

g)Ekoturizm ob’ektlarida ekoturizm infratuzilmalarini, ekoturizmni muzeylashtirish tadbirlarini, ekoturizm marshrut larini, jihozlangan ekoturizm so‘qmoqlarini, flora va faunani jihozlangan kuzatish joylarini, jihozlangan dam olish joylarini yaratish;

d) O‘zbekiston ekoturizmining reklama-axborot imidji va brendini yaratish va ichki, xalqaro ekoturizmda harakatga keltirish, yangi ekoturistik mahsulotlar ishlab chiqish;

j)O‘zbekiston ekoturizmida har tomonlama qulay investitsiya muhitini yaratish, ekoturizmda xususiy va davlat hamkorligini yaratish;

z)O‘zbekiston ekoturizm industriyasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash (gid-yetakchilar, mutaxassislar, zoologlar, botaniklar, geograflar va boshq..), qayta tayyorlash tizimlarini yaratish;

i) Ichki va xalqaro ekoturizmda ekoturistlarni jalb qilish bo‘yicha marketing tadqiqotlari tizimlarini ishlab chiqish;

y) Ekoturistlar bilan mahalliy aholi o‘rtasida do‘stona aloqalarni tashkil qilish tadbirlarini, mahalliy aholining ekoturizmdan ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdor bo‘lishi tizimlarini ishlab chiqish;

k)Ekoturizm ob’ektlarida mehmon uylarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni davlat tomonidan quvvvatlash tizimlarini yaratish, mahalliy aholining an’anaviy milliy me’ros boyliklarini tiklash va ulardan ekoturizmda foydalanish tizimlarini yaratish;

l)Ekoturizm industriyasida davlat statistik axborotlarini takomil lashtirish va bu statistik axborotlarning keng omma, ekoturizm firmalari, ekoturizm tashkilotlari, ekoturizm mutaxassislari va

tadbirkorlari uchun shaffof muhitini yaratish;

III. Ekoturizmni moliyalashtirish va soliq tizimi.

a)Ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishda davlatimizning qo‘llab-quvvatlashi tizimi;

b) Ekoturizmda ekoturistlarni joylashtirish vositalariga moliyaviy yordamlar, joylashtirish tartib-qoidalari, talab qilinadigan infratuzilmalar, joylashtirish baholari, joylashtirish darajalari, soliqlar tizimi.

v)Ekoturistlarni, ovqatlantirish tartib-qoidalari, ovqatlan tirish infratuzilmalari, ovqatlantirish baholari, milliy ekologik taomlar menyusi, ovqatlantirishdagi texnologiyalar, xizmat va servis darajalari, soliqlar tizimi.

g)Ekoturizmda transport xizmatlari, transport vositalari, transport kommunikatsiyasi xizmatlari, transportdan foydalanish tizimi, cheklovlar, mahalliy transportlardan foydalanish tizimi, xavfsizlikni ta’minlash tizimi.

d)Ekoturizmda dam olishni, ekoturistlarning milliy bayramlarda, to‘y va boshqa marosimlarga qatnashishi tartib qoidalari, kechki o‘yinlarni o‘tkazish, milliy an’ana, urf-odatlarda kiyinishi, qatnashishi tartibi.

j)Ekoturizmda gid-ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish tizimi, turmarshrutlar tanlash tizimi, ekoturistlarning hayoti xavfsizliklarini ta’minlash tizimi.

z)Ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishda rag‘batlantirish tizimi;

IV.Ekoturizm uchun kadrlar tayyorlash tizimi:

a)O‘zbekistondagi universitetlar, institutlar, turizm kollejlari. xalqaro universitetlar

V. Ekoturizmni boshqarish tizimi:

a)O‘zbekiston respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligidagi “Turizm qo‘mitasi”si, viloyat hokimliklari, tuman hokimliklari, mahalla fuqarolari yig‘ini.

b) Yordamchi boshqaruv tarkiblari: vazirliklar, qo‘mitalar

Ekoturizm rivojlangan davlatlardagi tajribalarni o‘rganish natijasida shunday xulosaga keldik-ki, O‘zbekistonda ekoturizmini tashkil qilish va rivojlantirishni quyidagi uchta bosqichda amalga oshirish mumkin:

Birinchi bosqichda - ishlab chiqilgan tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlar asosida mamlakatimizda ekoturizmini rivojlantirishning huquqiy–me’yoriy hujjatlari ishlab chiqiladi.

Ikkinchi bosqichda - **“**O‘zbekistonda ekoturizmini rivojlanti-rishning davlat Dasturi”ni qabul qilish, O‘zbekistonda ekoturizmni turizmini tashkil qilish va rivojlantirishni boshqarishning tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqichda **-** mamlakatimizda ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirish ning huquqiy–me’yoriy qonunlariga asoslanib foydalanish imkoniyatlari hisoblab chiqiladi, ekoturistik ob’ektlarda ekoturistik infratuzilmalar va ekoturistik marshrutlar yaratiladi.

O‘zbekistonda milliy ekoturizmni rivojlantirishning strategik dasturini ishlab chiqishda ekoturizmni shiddat bilan rivojlantirayot-gan AQSH, Kanada, Yaponiya, Yevropa davlatlari Afrika qit’asidagi davlatlarning tajribalari va yangi texnologiyalari hisobga olindi. Ekologik turizmni rivojlantirish ning xalqaro darajalarda rivojlanish konsepsiyalarida bizning sharoitimizga to‘g‘ri keladigan va moslashadigan ayrim xususiyatlari, yangi tajribalari va texnologiyalaridagi elementlariga e’tibor berildi.

Tayanch so‘zlar: dastur, strategiya, statistika, shaffof, konsepsiya, taktika, milliy meros, bosqich, milliy mahsulot.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Turizmning turlarining dasturlari nima uchun ishlab chiqiladi?

2.Turizmning turlarining strategiyalari nima uchun ishlab chiqiladi?

3. Turizmning turlarining Konsepsiyalari nima uchun ishlab chiqiladi?

4.Turizmning o‘zingizga ma’qul bo‘lgan turini tanlab uning strategiyasi taqdimotini tayyorlang va amaliy darslarda so‘zlab bering.

5.Turizmning o‘zingizga ma’qul bo‘lgan turini tanlab uning dasturi taqdimotini tayyorlang va amaliy darslarda so‘zlab bering.

XXI BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING TURLARINI RIVOJLANTIRISH

21.1. O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi bosqichlari

O‘zbekistonning milliy turizmi sohasidagi rivojlanishni quyidagi beshta bosqichga ajratsak bo‘ladi.

Birinchi bosqich-1991-1995 yy. Mustaqillikka erishgach 1991-yildan keyin O‘zbekistoning turistik xizmatlar bozori shakllana boshladi, aynan shu davrda respublika o‘zining iqtisodiy mustaqilligini va mustaqil ravishda tashqi dunyo bozorlariga chiqishini e’lon qildi. Shu davrda qabul qilingan tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonun turistik xizmatlarni sotuvchi korxonalarga yangi asos yaratdi. Natijada tarmoqda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turizm biznesini yuritishga yordamlashadigan qo‘shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog‘ining mintaqaviy bo‘linmalarini tuzish, xalqaro miqiyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylash irilgan turizm korxonalarini litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e’tibor berildi. Mustaqillikdan keyin turizm sohasida bir vaqtning o‘zida uchta muhim jarayon amalga oshirildi:

- eski xildagi korxona va tashkilotlarning tanazulga uchrashi (ekskursiya byurosi, sayohat byurosi), o‘zlarining tuzilishi va faoliyat turiga ko‘ra yangi ishlab chiqarish talablariga javob bermay qoldi;
- turoperator va turagent sifatida nomlangan yangi tashkilotlar tuzildi;
- eski turistik korxonalarni qayta qurish yo‘li bilan O‘zbekiston va xorijiy iste’molchilar talab qiluvchi turistik mahsulotni ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi.

1992-yilda respublikada “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi tashkil etildi va turizm sohasida bu kompaniya barcha tashkiliy, boshqaruv hamda muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshira boshladi. 1993-yilda “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi Butunjahon turizm tashkilotiga (BTT) haqiqiy a’zo bo‘lib kirdi va bu o‘z navbatida xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. 1994-

yilda BMTning YUNESKO tashkiloti hamda O‘zbekiston hukumatining tashabbusi bilan Samarqand shahrida Buyuk Ipak yo‘lidagi shaharlarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo‘yicha Samarqand Deklaratsiyasi qabul qilindi.

Bu bosqich mobaynida, ya’ni 1994-yilda ishlab chiqilgan “Turistik korxonalarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi” chuqur tizimli - institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994-1995-yillar mobaynida “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasining 87,8% turistik ob’ektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarilgan edi.

Ikkinchi bosqich 1995-1999 yy. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. 1995-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Farmoni[146] Buyuk Ipak yo‘lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu o‘z navbatida O‘zbekiston turizm sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Natijada Buyuk Ipak yo‘lidagi shaharlar va turistik manzillar ro‘yhatga olindi, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G‘ijduvoniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Motrudiy, Mahmudi A’zam, Hakim at-Termiziy, Hazrati Imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin Marg‘inoniy, Buxorodagi Chor Bakrlar kabi allomalarimizning maqbaralari ta’mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi, 1998-yildan boshlab Toshkent shahrida muntazam ravishda Xalqaro turistik ko‘rgazma tashkil etilaboshlandi, mehmonxonalardagi xalqaro talablarga javob beruvchi o‘rinlar soni 4,8 barobarga ko‘paytirildi.

Bu bosqichda O‘zbekistonning turizm sohasida qo‘yidagi masalalari amalga oshirildi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni;
- yangi xorijiy investorlarni jalb qilish;

[146] “Xalq so‘zi” gazetasi, 1995 yil 3 iyun.

- tashqi bozorlarga chiqishning yangi yo‘llarini izlash;
- Xalqaro ko‘rgazmalarga chiqish (Berlin, London, Madrid, Moskva);
- turistik yo‘nalishlarning rang - barangligini ta’minlash, mahsulotning ekologik talablarini kuchaytirish, yangi hududlarni turistik diqqatga sazovor joylar sifatida ochish;
- O‘zbekiston mehmonxonalarida xorijiy menejmentni qo‘llash;
- kichik mehmonxonalar tarmog‘ini kengaytirish;
- turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlash (o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim bosqichida);
- xorijiy tajribalarni o‘rganish;
- ilmiy loyihalar tayyorlash;
- BTT tadqiqot guruhining O‘zbekistonga kelishi va “Turizm tug‘risida”gi Qonunni tayyorlash borasidagi ishlar;
- turfirmalarning nodavlat va koorporativ tashkilotlar “Ustoz”, “Meros”, “Ekosan” va h.k. bilan aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Uchinchi bosqich-1999-2005 yy. Turizm sohasidagi islohotlar ning uchinchi bosqichida, 1999-yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi, shu-yilning 20-avgustida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Turizm tug‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo‘lga qo‘yildi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo‘yildi. Ko‘pchilik turistik ob’ektlar o‘zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladi, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, ular o‘rniga samarali ishlovchi yangi korxonalar tashkil etildi.

2000-yildan boshlab, Respublikamiz turizm sohasi yuqori sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Turizm sohasidan olinayotgan daromadlar-yiliga 20 va undan ortiq foizlarda o‘sa boshladi. 2001-yil oxirida Afg‘onistondagi tolibonlarga qarshi harakatlarning boshlanishi o‘lkamizga kelayotgan turistlar oqimini ikki-yil davomida ancha

kamaytirib yuborganidan so‘ng, 2003-yilning ikkinchi yarmiga kelib o‘lkamiz turizmi yana o‘zini o‘nglab oldi. Sharqiy Osiyoda o‘tgan-yillarda tarqalgan odatdan tashqari Pnevmaniya (Sars) va Parranda grippi kabi kasalliklar O‘zbekiston turizmiga 2001-yil 11-sentyabr voqealaridek kuchli ta’sir ko‘rsata olmadi.

O‘zbekistonga 2004-yilda turistlar oqimining mintaqaga tashrif buyurishi Sharqiy Osiyo, Tinch Okeani mintaqasi va Yevropadan kelishgan. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) tomonidan o‘rnatilgan tasnif bo‘yicha, barcha sobiq ittifoq hamdo‘stlik mamlakatlari Yevropa mintaqasiga kiradi. Shuning uchun O‘zbekistonga qo‘shni hamdo‘stlik mamlakatlaridan kiruvchi turistlar ham Yevropa mamlakatlaridan kelgan hisoblanadi.

To‘rtinchi bosqich-2005-2016-yy. Bu davrda xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasiga va tashkil etiladigan boshqa turistik assotsiatsiyalarga (masalan, Gid-tarjimonlar assotsiatsiyasi, Mehmonxona egalari assotsiatsiyasi, Transportchilar assotsiatsiyasi) “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasining bir qator vakolatlarini o‘tkazish ustida izlanishlar olib borildi. Bu o‘lkamiz turizm xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi korxonalarning yanada tezroq sur’atlarda rivojlantirishga yordam berdi.

O‘zbekiston Respublikasining bu davrdagi amalga oshirilgan o‘lkan ishlarini hisobga olib, Islom konferensiyasi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri – Ta’lim, Fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e’lon qildi. O‘zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash va yanada boyitish borasidagi misilsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak va faxrli unvonga sazavor bo‘ldi.

Turizm xizmatlar bozori har qanday davlat, viloyat, tumanning iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodchilarning baholariga qaraganda, undan olinadigan pul tushumlari bir-yil davomida 3 martadan 5 martagacha muomalada bo‘ladi. Katta mablag‘lar talab qilishiga qaramay, turizm sohasiga kapital qo‘yish ancha foydalidir, chunki bu mablag‘lar nisbatan tez muddatda o‘zini oqlaydi, bundan

tashqari O‘zbekiston iqtisodiyotiga asosan xorijiy valyutada sarmoya keltiradi.

Beshinchi bosqich-2016-yildan boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “*O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861 sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni, xalqaro turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, istiqbolli islohatlarning sharoitlarini yaratdi.

Prezidentimizning O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirishdagi quyidagi Farmonlari va Qarorlari beshinchi bosqichda O‘zbekiston milliy turizmining to‘liq shakllanganligini tasdiqlaydi. 2017-yil 16-avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3217-sonli Qarori, 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli Farmoni, 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 19-iyundagi PQ-4755-son “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlik ning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlan-tirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda

hududlarning turizm salohiyatini izchil rivojlantirish chora-tadbirlari, dasturilari va “Yo‘l haritalari”da belgilangan vazifalar.

21.2. Turizmning turlarini rivojlantirish imkoniyatlari

Turizmning turlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarni yoritib beruvchi ushbu mavzuda turizmdagi barcha turlarni rivojlantirish imkoniyatlarini keltirish shart emas. Mavzuni tushunish uchun turizmdagi uchta-qishloq turizmini, milliy meros va gastronomiya turizmlarini rivojlantirish imkoniyatlarini keltiramiz.

Qishloq turizmini rivojlantirishdagi imkoniyatlar. Ishlab chiqarish sohalarida, hayotimizning barcha jabhalarida imkoniyatlarning borligi yoki yo‘qligining sezilishi ikki yo‘nalishda bo‘lishi mumkin:

1. Aniq bilinib, anglanib turiladigan imkoniyatlar.
2. Muammolar bilan bog‘lagan imkoniyatlar.

O‘zbekiston turizmini rivojlantirishda keltirilgan ikki yo‘nalishdagi imkoniyatlar ham mavjud. “Mamlakatimizning boy va qadimiy tarixidan ma’lumki, ajdodlarimiz tomonidan mahallalarni obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish eng bebaho qadriyat va an’analardan hisoblanadi. Mazkur qadriyatlarimizni izchil davom ettirgan holda keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini barcha hududlarda amalga oshirish orqali qishloq aholisi uchun munosib sharoitlar yaratish va ularning turmush madaniyatini yanada yuksaltirish, eng asosiysi, yoshlarni xayrli ishlarga da’vat etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimiz aholisining 50 foizi yashaydigan qishloq joylarda salmoqli demografik, mehnat va iqtisodiy salohiyat jamlanishiga qaramasdan ular uchun zaruriy sharoitlar yaratib berilmagan, turmush darajasi va sifatini oshirishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Jumladan, so‘nggi-yillarda paxta, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga hissasi yuqori bo‘lgan dehqon-fermerlarning va boshqa toifadagi aholining hayotiy-maishiy

ehtiyojlari to‘liq ta’minlanmagan”[147].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bunday munosabatga chek qo‘yilib, aholining yashash sharoitini yanada yaxshilash bo‘yicha aniq va maqsadli tizim yaratildi. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 29-martdagi “Obod qishloq dasturi to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, joriy-yilda har bir tumanda 2 tadan qishloqda, keyingi-yildan boshlab esa har-yili har bir tumanda 3 tadan qishloqda keng ko‘lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Prezidentimizning “Obod qishloq” dasturi to‘g‘risida”gi farmoni juda chuqur tahlillarga asoslanganligi, mavjud holatning ochiq ko‘rsatilishi va shu asosda aniq tadbirlarning belgilanishi bilan ajralib turadi. Haqiqatan ham, o‘z oldiga dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylanish maqsadini qo‘yib, zamonaviy iqtisodiyotni, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish yo‘lidan borayotgan davlat uchun aholisining qariyb yarmi istiqomat qiladigan, qolaversa, mamlakat moddiy boyligining salmoqli qismini yaratayotgan qishloq hududlarining taraqqiyotning magistral yo‘lidan chetda qolib ketishi, bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermaydigan bir sharoitda yashashi tushunish qiyin bo‘lgan vaziyat edi.

Ushbu jiddiy masalaga shaxsan yurtboshimiz tashabbusi bilan oshkora e’tibor qaratilganligi mavjud muammolarni ko‘tarish va ularni hal qilish borasida davlatimiz qanday qadamlarga tayyorligini yana bir bor yaqqol ko‘rsatdi. Ta’kidlash lozim, qabul qilingan farmon doirasida ko‘tarilgan va o‘z yechimini kutayotgan masalalar qaysidir bir hudud, tuman yoki qishloq emas, balki butun mamlakatimizni qamrab olgan tizimli asosga egaligi bilan ahamiyatli.Ijro doirasida amalga oshiriladigan ishlar qishloqlarimiz, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan millionlab vatandoshlarimiz taqdiriga daxldor.

[147] «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.04.2021 yildagi PQ-5048-son



21.1-Rasm. O‘zbekistonda qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi imkoniyatlar

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining Qarori[148] “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirishni izchil davom ettirish orqali hududlarning yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha ob’ektlarini rivojlantirish va shu asosda aholining farovonligi hamda turmush darajasini yanada yuksaltirishda qishloqlarimizning “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomiga egaligidan samarali foydalanish belgilanganligini o‘zi mamlakati mizda qishloq turizmini rivojlantirishning davlat ahamiyatiga ega ekanligini bildiradi. Vatanimizda qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishda Prezidentimizning yuqoridagi Farmoni va Qaroriga asoslanib- *“O‘zbekistonda qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi imkoniyatlar”*ni aniqlab va belgilab chiqdik (20.1-rasm).

Xulosalarimiz bo‘yicha ushbu chizmada qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning tashkiliy-ijtimoiy- iqtisodiy tuzilmalari berildi. Eng muhimi, belgilangan imkoniyatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, viloyat va tuman hokimliklari o‘zlarining viloyat va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga qishloq turizmini rivojlantirish dasturlarini kiritishi va bu dasturning bajarilishiga ma’sullik qilishlari lozim.

Milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishdagi imkoniyatlari. Turizm resurslarini ro‘yxatga olishda va malum bir obektning turizm resursi bo‘la olishligi o‘rganilgandan keyin bu obektga yoki tabiiy makonga yoki ishlab chiqarish sohasiga “turizmi” so‘zini qo‘shish bilan hal qilinmaydi. Masalan: hunarmandchilik sohasini “hunarmandchilik turizmi” kabilar. Xalqimizning milliy meros boyliklaridagi milliy ishlab chiqarish mahsulotlarini turizm resurslariga aylantirishdagi dastlabki talab, mamlakatda xalqaro turistlarni birinchi navbatda qiziqtira oladigan soha yoki obektni o‘rganish va aniqlash lozim. O‘rganiladigan obekt xalqimizning o‘ziga xos bo‘lgan milliy bejirim buyumlarining boshqa davlatlarda ishlab chiqarilmasligi, urf-

[148] «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.04.2021 yildagi PQ-5048-son

odatlarning milliyligi yoki milliy o‘yinlarning boshqa davlatlardagi xalqlar hayotida umuman yo‘qligi, milliy sanatkorlik, hunarmandchilik ijodlari mujassam bo‘lishi birinchi navbatda chet ellik turistlarni jalb qiladi.

Milliy merosimizdagi bunday obektlarni masalan, milliy hunarmandchilik, yoki milliy ustachilikni olganimizda dastlab dunyoning barcha davlatlarida yashayotgan xalqlarning ham o‘ziga xos milliy hunarmandchiligi va milliy ustachiligi sohalari albatda bor. Biz ishlab chiqarishdagi milliy hunarmandchilik yoki milliy ustachilikda o‘zimizning hunarmandchilik yoki ustachilik sohalari buyumlarining noyobligi, go‘zal-bejirimligi, mustahkamligi, bu buyumlarda sanatkorlikning, kishilarni hayratga soladigan ijod namunalarining ko‘pligidan, boshqa davlatlardagi xuddi shunday buyumlar, mahsulotlardan ancha ustunligiga e’tibor berishimiz lozim bo‘ladi.

Masalan, milliy kashtachilikdagi ikki yo‘nalish:oddiy-milliy guldo‘zi kashtachilik va murakkab-milliy zardo‘zi kashtachilikning boshqa davlatlarda yashayotgan xalqlarning kashtachiligidan ustunligi shundan iboratki, so‘nggi vaqtlarda O‘zbekistonga kelib ketayotgan davlat rahbarlari, Bosh vazirlar, mashhur adiblarga, xalqaro miqyosdagi taniqli rahbarlar, sport va san’at yulduzlariga maxsus marosimlarda milliy zardo‘zli to‘n va milliy do‘ppi kiydirilmoqda. Ikkala buyum ham faqat O‘zbekistonliklar uchun milliy buyum xillari hisoblanadi.

Milliy madaniy meros turizmida uning resurslari va ob’ektlarini aniqlish va ro‘yxatga olish, kuzatish, ustaxonalardagi hunarmandlar va ustalarning faoliyat va ishlab chiqargan buyumlarini tomosha qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy madaniy meros turizmida foydalanish uchun ro‘yxatga olayotgan aksariyat resurslar va ob’ektlardan ichki turizmda ekskursiya-tanishuv turizmida xalqaro turizmda esa qo‘shimcha tur manbalari sifatida (turistga taklif qilish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, suratga yoki videoga olish va hak...) foydalanishning imkoniyatlari mavjud (21.2-rasm).

1.O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslari (O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonda

turizmni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilgan Farmonlari va Qarorlari) yaratilganligi imkoniyati.



21.2-Rasm. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish-da milliy madaniy meros resurslaridan foydalanishdagi mavjud imkoniyatlar

2.O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmi resurslari ning katta salohiyatlari mavjudligi (milliy meros boyliklari ning

yo‘nalishlari, tarmoqlari) imkoniyati.

3.O‘zbekistonning ko‘plab universitetlari va institutlarida turizm sohasiga oliy malakali mutaxassislar tayyorlanayotganligi imkoniyati.

4.O‘zbekistonning xalqaro turizmini rivojlantirishda xalqimizning milliy merosi boyliklaridan foydalanishni rivojlantirishning Dasturini yaratish, istiqbolli yo‘nalishlarini, amaliyot usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb muammolarini hal qilish yo‘nalishlaridagi ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish imkoniyatlari.

5.O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning rivojlani shi, unga bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga siljishi bilan belgilanadi. Respublikamiz sharoitida, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xalqaro turizmning imkoniyatlari boshqa sohalarga karaganda juda katta bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli respublikadagi siyosiy, iqtisodiy barqarorlik turizm tadbirkorlariga keng yo‘l ochishi bilan birga, uni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

O‘zbekiston hozir Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiyoti barqaror rivojlanib borayotgan davlatlardan biri bo‘lib, o‘ziga xorijiy investorlarni, ishbilarmonlarni va turistlarni jalb qiluvchi markazlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish mamlakatimizda yuqorida keltirilgan omillarga o‘z hissasini qo‘shadi.

6.O‘zbekistonda turizm sohasini hududiy, mintaqaviy rivojlantirish siyosatining eng asosiy maqsadi, mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib borishdir.

Turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan ma’lumki, ishlab chiqarish kuchlarini hududlarda va mintaqalarda to‘g‘ri joylashtirishda aynan ana shu hududlarda va mintaqalarda turizmning yangi yo‘nalishlarini tashkil qilish turizm sohasini rivojlantirish eng samarali va istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi.

7.O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishdagi yana bir imkoniyat-xalqimizning mehmondo‘stligi bilan bog‘liq. Ma’lumki, milliy meros boyliklaridagi hunarmandchilik

(ustachilik) mahsulotlarini ishlab chiqarish asosan hunarmandlarning uylarida amalga oshiriladi.

Hozirgacha amalga oshirilgan kuzatuvlarimiz va hunarmandlar bilan o‘tkazilgan suhbatlardan ma’lum bo‘ldiki, ular o‘zlarining ustaxonalari joylashgan uylariga turistlarni olib borilishiga hech qanday mone’lik qilishmaydi. Aksincha, ochiq chehra bilan kutib olishadi, hatto mehmonlarga o‘zlarining mahsulotlaridan sovg‘alar ham berishadi.

8.O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishdagi yana bir qulay imkoniyat-xalqimizning milliy o‘yinlari, milliy urf-odatlari va milliy marosimlarining ommaviyligi va ochiqligidir. Masalan, milliy o‘yinimiz ko‘pkari-uloq, milliy kurash o‘yinlarga turistlarni bemalol taklif qilish mumkin.

9.O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlanti rishdagi yana bir istiqbolli imkoniyat shundan iboratki, milliy madaniy meros turizmidagi turistlarni turizmdagi boshqa turlarga ham qiziqtirish va taklif qilish imkoniyatlari juda katta (21.3-Rasm).



21.3-Rasm. Milliy madaniy meros turizmining turizmdagi asosiy turlar bilan qo‘shilishi imkoniyatlari

10.Xalqaro turistlarning bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishda milliy meros ob’ektlariga ekskursiyalar tashkil qilish imkoniyati. Har qanday bo‘sh vaqtni qiziqarli, samarali o‘tkazishda tanlash va saralashning o‘zi insonni qiziqtiradi va birinchi navbatda ko‘rmaganni tanlaydi.



21.4-Rasm. O‘zbekistonda gastronomiya turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning imkoniyatlari

11.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros ob’ektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni

tasdiqlash haqida qarori”da[149] belgilangan imtiyozlardan foydalanib, milliy madaniy meros turizmining

O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari. Turizm sohasi faol darajalarda o‘zgarishlarga, yangiliklarga, innovatsiyalarga uchramoqda. Shu omillar tasirida turizm industriyasining tarkibi va xususiyatlari ham o‘zgarayapti. Turistlarning talablari va buyurtmalari bilan ommaviylashgan va standart bo‘lib qolgan majmuali turizmga yangi turlar, yangi yo‘nalishlar kirib keldi. Bu jarayon global innovatsiyali xususiyatlarga ega ekanligi ham ma’lum bo‘ldi.Davlatlar gastronomiya turizmining iqtisodiyot uchun juda muhim ekanligini, bu turizm turi yangi infratuzilmalarni, yangi ish o‘rinlarini yaratishini, milliy madaniyat va an’analarni saqlashiga, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy darajalari past hududlarining ham ijtimoiy-iqtisodiyotini ko‘tara olishligiga jiddiy e’tibor berishmoqda**.** Shu o‘rinda, turizmning har bir yangi turini tashkil qilish va rivojlantirishda dastlab bu turni rivojlantirish imkoniyatlarini mukammal ko‘rib chiqish lozim (21.4-Rasm).

O‘zbekistonda gastronomiya turizmini tashkil qilish va rivojlantirishda juda katta, salohiyatlari imkoniyatlar mavjud Chunki, qadimiy taraqqiyotning ilk madaniyatlarini yaratgan xalqimiz, o‘tgan davrlar mobaynida shifobaxsh, o‘zining madaniyati, mentaliteti va etiketini ifodalovchi milliy oshxona, milliy choyxona va milliy taomlarini ham ixtiro qilishgan.

Tayanch so‘zlar: milliy meros, gastronomiya, ko‘rgazma, sayil, turizm qishlog‘i, turizm ovuli, festival, milliy o‘yin, gastrotur.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.O‘zbekistonda milliy turizmning shakllanishi bosqichlari ni tushuntirib bering.

2.Turizmdagi turlarning rivojlanishi imkoniyatlari turning asosiy xususiyatlariga bog‘likmi?

3.Gastronomiya turizmining mazmuni va mohiyati haqida ma’ruza tayyorlang.

4.Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishning imkoniyat laridan foydalanib bo‘ladimi?

5.Milliy madaniy meros turizmini qanday rivojlantirish mumkin?

[149].O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Moddiy madaniy meros ob’ektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori, Toshkent sh.,2019 yil 18 oktyabr,881-son

XXII BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING TURLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

22.1. O‘zbekistonda turizmning turlarini rivojlantirishdagi muammolar

Ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar. Ekoturizmni rivojlanti rishda “O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi” dasturlari bo‘yicha katta ishlar bajarilmoqda. Shu bilan birga Respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishda yechimlari ancha og‘ir, jiddiy bo‘lgan muammolar ham to‘planib qolgan. Bu muammolarning birinchi navbatda o‘z yechimini kutib turgani, ekoturizmni rivojlantirishdagi bosh ekoturizm resurslarining davlat muhofazasida turganligidir. Keltirilgan jadval ma’lumotlari bilan tanishib chiqib Respublikamizda ekoturizm rivojlanishi kerak bo‘lgan birinchi navbatdagi ekoturizm resurslari davlat muhofazasida ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu holat juda to‘g‘ri qaror qilingan.

Dunyoning barcha davlatlarida ham tabiiy hududlar o‘zining o‘simliklar olami va hayvonot dunyosi bilan qattiq qo‘riqlanadi. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, juda ko‘plab davlatlarda, ayniqsa tabiatda noyob o‘simlik yoki hayvon turlari muhofaza qilinadigan qo‘riqxonalardan ham ekoturizm maqsadlarida samarali foydalanishadi. Bunga misol qilib Afrika, Kanada, Amerika, Avstraliyadagi qo‘riqxonalar, rezervatlar va milliy parklar haqidagi kino seriallarning tobora ommaviylashib borayotganligini keltirish mumkin.

Bu holatning eng muhim sababi, bu muhofazadagi manzillardan ekoturizmda foydalanishning huquqiy-qonuniy me’yorlari yaratilganligidir va bu qonunlarga “mehmonlar” ham “mezbonlar” ham qattiq rioya qilishadi. Respublikamizdagi tabiat qo‘riqxona lariga faqat ilmiy xodimlar kirishga ruxsat beriladi. Bu qo‘riqxonalarga hatto maxsus ilmiy ekspeditsiyalar ham O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining ruxsatnomasini olishi kerak.

Shuningdek, Respublikamizning daryo va suv havzalarida, suv

omborlariga kirish O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan taqiqlangan. Tabiatimizning diltortar tog‘ va cho‘l landshaftlari haqida ham qayd qilingan cheklovlarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda xalqaro ekologik turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda tabiat qo‘riqxonalarimizdan xalqaro ekoturizmni rivojlantirishda foydalanishning huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratishimiz kerak. Chunki, xalqaro ekologik turizmning asosiy resurslari milliy parklar, tabiat va biosfera qo‘riqxonalari, alohida muhofazadagi hududlar hisoblanadi. Ekoturizmni rivojlantirish uchun ekoturizmning asosiy resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib ekoturizmdagi muammolar quyidagilar ekanligi ma’lum bo‘ldi:

1.Respublikadagi asosiy ekoturizm resurslariga turistik marshrutlar ishlab chiqish qoniqarsiz holatdaligini alohida ta’kidlash zarur.

2.Qo‘riqxonalar, zakazniklar va milliy parklarda ekoturizm so‘qmoqlari, marshrutlari va bu marshrutlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishga haligacha kirishilgan emas.

3.Respublikamizda ekoturizm resurslaridan foydalanishning huquqiy – qonuniy me’yorlari hozirgacha ishlab chiqilmagan.

4.Ekoturizmni rivojlantirishda ekoturizm maskanlaridagi tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm-biznes mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bilishidagi ta’lim–targ‘ibot, qiziqtirish ishlari qoniqarsiz ahvolda.

5.Ekoturizmni rivojlantirishda ichki ekoturizm va xalqaro ekoturizmning milliy reklamasi ichki turizm bozorida ham tashqi turizm bozoriga ham chiqarilmagan.

Mamlakatimizda turizm ta’limining 5 yo‘nalishi uchun 5 ta mukammal o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlagan taniqli olim N.To‘xliyev va T.Abdullayevalar ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolarga Markaziy Osiyo davlatlari chegaralarida qaraydi[150];

[150].To‘xliyev N., Abdullayeva T., Eologicheskiy turizm;sushnost, tendensii i strategiya razvitiya. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009,415 s.

- Davlatning ekoturizmni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilmaganligi. Shuning uchun viloyatlar va hududlar ekoturizmini rivojlantirishda davlatning moliyaviy quvvatlashi juda kam miqdorlarda;
- Alohida muhofaza qilinadigan hududlar o‘zlarining «Rivojlantirish rejalari»da ekoturizmni rivojlantirish masalalariga e’tiborsizlik bilan qaraydilar, ko‘rib chiqmaydilar;
- Ekoturizm ob’ektlari va ekoturistik tashriflar haqida statistik hisobotlar yuritilmaydi;
- Ekoturizmni tashkil qilish usullari va ekologik turizmni tashkil qilishning itimoiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari ishlab chiqilmagan;
- Ekoturizmni rivojlantirishda tegishli idoralar va korxonalarning biri-biri bilan bog‘lanmaganligi shuningdek, ekoturizm infratuzilmalari boshqaruvining tashkil qilinmaganli gi;
- Ekoturizm xizmatlarining xalqaro darajalarda emasligi;
- Ekoturizmda moddiy-texnika zaxiralarining rivojlanma ganligi;
- Alohida muhofaza qilinadigan hududlarning ekoturizm marshrutlarini rivojlantirishga moliyaviy kuchsizligi, ekoturizm mutaxassislarinig yo‘qligi;
- Ekoturistik ob’ektlarga transport vositalari bilan borishning chegaralanganligi va asosiy magistrallardan uzoqligi;
- Ekoturizmda o‘zaro aloqalarning va xalqaro tajribalar almashishning yo‘qligi.

O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishdagi muammolar. Davlat miqyosidagi dolzarb masala–bu jamiyatda ehtiyojlarning kelib chiqishi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining muhim talablari ham bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik yo‘nalishlariga kiritilgan turizm sohasida endigina o‘rganilayotgan yangi yo‘nalishni, milliy madaniy meros turizmi turini rivojlanti rishdagi muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini tadqiq qilishda hozirgacha to‘plagan tajribalarimiz va turizm sohasidagi tadqiqotlarimizning natijalaridan foydalanishi miz lozim.

O‘zbekiston turizmida xalqimizning milliy merosi boylik laridan turizmda foydalanish yo‘nalishidagi kuzatuvlari mizdan ma’lum bo‘ldiki, hozirgacha ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ning natijalarini e’lon qilish sanoqli sonlarda ekan[151]. Bu holat O‘zbekiston turizmida yangi-milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlarning boshlanmagan ligini, xalqimizning milliy merosi boyliklaridan turizmda foydalanish kabi dolzarb mavzu olimlar, mutuxassislarning ham, tadbirkorlarning ham e’tiboridan chetda qolib kelayotganligidan dalolat beradi.

O‘quv qo‘llanmaning maqsadi va vazifalarini belgilash va asoslash, bajarish, shakllantirish jarayonida mamlakatimizda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishdagi muammolarni ham aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Bizning xulosalarimiz bo‘yicha, bu muammolar asosan milliy madaniyatimiz, milliy san’timiz, milliy urf-odatlarimiz, milliy meros boyliklaridagi mahsulotlarni ishlab chiqarishimiz va milliy o‘yinlarimizni ichki va xalqaro turizmda axborotlash va ommaviy lashtirish bilan bog‘liq quyidagi *muammolardan* iborat:

1.O‘zbekiston turizmida yangi milliy madaniy meros turizmi turini rivojlantirish masalalari turizm sohasini rivojlanti rishga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlarda, axborot tizimlarida tashviqot qilinmagan. Shu sababli, turizm sohasida tayyorlanayotgan bakalavriat va magistratura ta’limi tizimidagi mutaxassislik fanlariga[152] alohida mavzu sifatida kiritilmaganligi natijasida xalqimizning milliy merosi boyliklaridan turizmda foydalanish ning dolzarbligi e’tibordan chetda qolgan. Binobarin, bu mavzu bo‘yicha talabalar va magistrlar milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishning yuzaga chiqishi bo‘yicha dastlabki ommaviylash tirishni amalga oshirgan bo‘lar edi (milliy meros boyliklaridan mustaqil ishlar, kurs ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va boshq...).

2.Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy

[151].SamarovX., Kayumov R., Registon-Samarqand ramzi, Moziydan sado jurnali № 3,Toshkent,2020.- 36-39 b.
[152].Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B., Tursunova G., Turizm asoslari, Darslik, Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2014.-332 b.

qadriyat lari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash yo‘nalishiga salohiyatli hissa qo‘shish imkoniyatlari bo‘lgan yangi, milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi muammosi.

3.Xalqaro turizmni rivojlantirish dasturlariga yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniyat, milliy san’at va milliy o‘yinlar tadbirlariga hamda madaniyat markazlari tomonidan xorijiy sayyohlar uchun tashkil etiladigan madaniy tadbirlarni, dasturlarni kiritish muammolari.

4.O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari vakillari orqali yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniy tadbirlarni xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish, milliy madaniyatimiz sohasida chet el mamlakatlari bilan madaniy hamkorlikni yanada jadallashtirish, xorijiy sayyohlarni milliy madaniyat tadbirlarga, jalb qilish dasturlarining ishlab chiqilmaganligi muammolari.

5.Xalqimizning boy qadriyatlarini, hunarmandchiligini, urf-odat, an’analari, yaratuvchilik san’atini jahon xalqlariga yetkazishda milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish juda muhimligini asoslash muammosi, tumanlarimizda, qishloq larimizda dunyoning har qanday davlatlaridan kelgan xalqaro turistlarni qiziqtirish va ularni milliy hunarmandchilik uylariga olib borishni tashkil qilish muammolari.

6.Milliy madaniy meros turizmining qishloq turizmini, ziyorat turizmini, ekologik-rekreatsiya turizmini va gastronomiya turizmlarini rivojlantirishini kuchaytirishini asoslashdagi muammolar.

7.Xalqaro turizmda milliy madaniy merosimizga xos noyob boyliklarni namoyish qilish va shu omillar asosida xalqaro turizmni rivojlantirish vazifalarining belgilanmaganligi muammolari.

8.Xalq hunarmandchiligi va ijodiy an’analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va

yanada rivojlantirish, iste’molchilarga hunar mandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratuzil malarini yaratishdagi muammolar.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida[153], “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorida[154] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros ob’ektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi qarori”da[155] belgilangan topshiriqlar, ko‘rsatmalar va rejalarni bajarishdagi muammolar.

Qishloq turizmini rivojlantirishdagi muammolar. Qishloqa turizmini rivojlantirish muammolarini yoki masalalarini ixtiro yoki kashf qilish kerak emas, bu muammolar turizm mutaxassislariga ham hokimliklarga ham, mamlakatimizning turizmi boshqaruviga ham ma’lum hisoblanadi. Bu yerda eng achinarli va taasufli joyi shundaki, viloyatlarning hokimliklari o‘z viloyati hududlarida qishloq turizmini rivojlantirish qishloqliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida istiqbolli, muhim yo‘nalish ekanligiga e’tiborsizlik qilayotganliligida, qishloq-larda qishloq turizmini rivojlantirish masalalarida tashabbuskorlikni tashkil qilmayotganligida hisoblanadi.

Qishloqlarimizdagi turistik resurslardan qishloq turizmida foydalanishdagi tashkiliy muammolar quyidagilardan iborat:

1.Qishloqlarimizning markazlardan, shaharlardan uzoq masofalarda joylashganligi.

2.Qishloqlarimizda mehmonxonalarning yo‘qligi.

3.Qishloqlarimizda sifatli ovqatlantirish xizmatlarining tashkil qilinmaganligi.

4.Qishloqlarimizda turizm infratuzilmalarining yo‘qligi.

---

[153].O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (Toshkent sh., 2021 yil 6 aprel, PF-6199-son).

[154]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori (Toshkent sh., 2021 yil 6 aprel,PQ-5054-son).

[155].O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Moddiy madaniy meros ob’ektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori (Toshkent sh., 2019 yil 18 oktyabr, 881-son)

5.Qishloqlardagi qiziqarli turistik resurslarga turizm marshrutlarining ishlab chiqilmaganligi.

6.Qishloqlarimizdagi turizm resurslaridan turizmda foydalanish reklamalarining ishlab chiqilmaganligi.

7.Qishloqlarimizning aholisida turizm sohasi haqida to‘liq ma’lumotlarning targ‘ibot va tashviqot ishlarining yo‘qligi.

8.Viloyat, tumanlar hokimliklarining o‘z hududlarida qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishga befarqliligi.

Bu muammolarni yechishda va qishloqlarimizda qishloq turizmini rivojlantirishdagi dastlabki loyihalarda mamlakati mizda ichki turizmni rivojlantirish masalalarini tadqiq qilishimiz zarur bo‘ladi. Chunki oldingi bo‘limlarda qayd qilganimizdek, turizm rivojlangan davlatlar dastlab o‘z davlatlarida ichki turizmni rivojlantirganlar.

O‘zbekistonning qishloqlarida qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning yana bir qator muammolariga to‘xtalish lozim. Xalq xo‘jaligidagi har qanday yangi sohaning rivojlanishida dastlab shu sohani rivojlantirishning muammolari o‘z zahiralari bilan mavjud bo‘ladi. Har qanday sohada rivojlanishni ta’minlash uchun dastlab bu sohaning huquqiy-me’yoriy asoslari davlatning qonunlari bilan mustahkamlanmog‘i lozim.Mamlakatimizning qishloqlarida qishloq turizmini rivojlantirishdagi muammolar umumiy milliy turizmni ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan tashkil qilish masalalari bilan uzviy holatlarda bog‘langandir. Quyida shunday muammolar keltiriladi:

1.Qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirish muammolarining birinchisi-bu qishloqlardagi turizm resurslarini ro‘yxatga olish, hujjatlashtirish, asosiy va qo‘shimcha turizm ob’ktlarining tarif va tavsiflarini batafsil yozib chiqish, bu turizm resurslaridan qishloq turizmida foydalanishda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash, istiqbolda iqtisodiyotimizdagi o‘rnini belgilash.

2.Qishloq turizmini tashkil qilish va rivojlantirish qishloqlardagi tabiat boyliklari, biologik xilma-xillik resurslari bilan bog‘liq turizm resurslari manzillari, ob’ektlari, ovchilik maydonlari, suv havzalari, daryolar sohillari davlat muhofazasida bo‘lganligidan bu hududlardan turizmda foydalanishning huquqiy-qonuniy me’yorlari hozirgacha ishlab

chiqilmagan. Xususan, qishloqlarning yaqinida joylashgan tabiat qo‘riqxonalaridan turizmda foydalanishda davlatning ruxsatnoma lari hozirgacha olinmagan.

3.Qishloqlardagi mahalliy aholi yashash joylari va aholiga yaqin bo‘lgan turizm ob’ektlarida aholini, mehnat resurslarini turizm ob’ektlariga jalb qilish, bu tadbirlardan mahalliy aholini ish bilan band qilish muammolarining yengillashishi, turistlar bilan do‘stlashuv aloqalari vujudga kelishidek muhim masalalarning targ‘iboti, tashviqoti, tushuntirish ishlari umuman tashkil qilinmagan.

4.Viloyatlarning va tumanlarning hokimliklari hokimliklari va “O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligining viloyatlardagi Boshqarmalari o‘z viloyatlaridagi turizm resurslaridan “Viloyatda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarida” qishloqlardagi turizm resurslaridan qishloq turizmida foydalanish masalalariga e’tborsiz bo‘lib kelmoqdalar.

5.Qishloqlardagi turizm resurslaridan foydalanishda ekologik, rekreatsiya va ziyorat turizmlarini rivojlantirish imkoniyatlari ustuvor ekanligini hisobga olib, bu turizm resurslariga zamonaviy turizm marshrutlar ishlab chiqish ishlari boshlanmagan.

Har qanday sohadagi muammolar o‘z yechimlarini topmagan vaqtda sohadagi vaziyatlar og‘irlashib, chalkashib boraveradi. Vaziyatni o‘nglash uchun esa yana qo‘shimcha vaqt va qo‘shimcha mablag‘lar talab qilinadi. Bu holatlardan vaqti kelib chiqilishi mumkin, chiqiladi albatda. Bu yerda eng afsuslanadigan joyi shundaki, ko‘p mablag‘lar, eng asosiysi, inson umrining qulay fursatlari boy berilgan bo‘ladi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishning barcha shart–sharoitlari, huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilgan hozirgi vaqtda mahalliy hokimliklarning bu asoslar, sharoitlar va qulayliklardan foydalanmasliklari aslo kechirilmas holat hisoblanadi. Qishloqlarda turizmni rivojlantirish muammolarini o‘z vaqtida hal qilish, kelajakda qishloqliklarning iqtisodiyotini ko‘taruvchi bu sohani o‘z vaqtida rivojlantirish asosiy vazifalardan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Obod qishloq dasturi” to‘g‘risida 2018-yil 29-martda qabul qilgan

Farmonida - “Mamlakatimizning boy va qadimiy tarixidan ma’lumki, ajdodlarimiz tomonidan mahallalarni obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish eng bebaho qadriyatlardan va an’analardan hisoblanadi. Mazkur qadriyatlarimizni izchil davom ettirgan holda keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini *barcha hududlarda amalga oshirish* orqali qishloq aholisi uchun munosib sharoitlar yaratish va ularning turmush madaniyatini yanada yuksaltirish, eng asosiysi yoshlarni xayrli ishlarga da’vat etish alohida ahamiyat kasb etadi[156]. Prezidentimizning bu farmonida ham taraqqiyotni barcha hududlarda amalga oshirish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Obod qishloq” dasturini 2018-yilda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 11-bandida - “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari, sektorlar rahbarlari, xo‘jalik birlashmalari korxona va tashkilotlar bilan birgalikda “Obod qishloq” dasturiga kiritilgan qishloq aholi punktlarida yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining ish bilan bandligini oshirilishini ta’minlasin” deyilgan.

Qayd qilingan mummolarni yechish uchun viloyatlar, tumanlar hokimliklari birinchi navbatda “O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligining viloyatlardagi bo‘limlari bilan “Viloyatning barcha hududlarida qishloq turizmini rivojlantirish” dasturlarini ishlab chiqishlari lozim.

O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirishdagi muammolar: Yevropa davlatlaridagi va Rossiya davlatidagi gastronomiya turizmiga bag‘ishlangan adabiyotlarni o‘rganishdan ma’lum bo‘ldiki, gastronomiya turizmini rivojlantirishda aniq tavsiyalar, metodlar yoki mexanizmlar jahon gastronomiya turizmida lider hisoblangan Italiya, Fransiya kabi davlatlarda ham yaratilgan emas.

Yevropa davlatlari o‘zlarida gastronomiya turizmini rivojlantirish

[156].Ўzbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Obod qishloq» dasturi tўg‘risidagi Farmoni, Toshkent sh., 2018 yil, 29-mart. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2018 y., 06/18/5386/0979-son)

uchun dastlab gastronomiya turizmining infratuzil malarini yaratishgan va bu turizm turi bilan bog‘liq barcha xizmatlarga milliylik talablarini kiritishgan[157]. Ularning bu yo‘nalishda ikkinchi to‘g‘ri yo‘li kulinariya maktablarini ochish va bu maktablarga o‘z davlatlaridagi nomdor oshpazlarni to‘plab gastronomiya turizmiga yangi mutaxassislarni tayyorlash bo‘ldi.

Mahalliy xalqlar esa ko‘plab unutilgan taomlarni tavsiflab berishdi. Natijada yangi taomlar tayyorlandi. Bu taomlarning reklamalari va marshrutlari tezda gastronomiya turizm bozori shiorida tashviq qilina boshlandi. Xullas Yevropa davlatlari o‘z xalqlarining taomlariga o‘zlarining aholisini qiziqtira bildi, keyinchalik xalqaro gastroturistlarni taomlariga qiziqtirishning maxsus dasturlarini tayyorlashdi. Jahonda gastronomiya turizmi shu amaliyotlar tariqasida kelib chiqdi.

Yevropa davlatlari gastronomiya turizmini ikki: qishloq gastronomiya turizm va shahar gastronomiya turizmi yo‘nalishda rivojlantirmoqdalar. Gastronomiya turizmining bu ikki destina siyadagi infratuzilmalariga kelsak shaharlarda so‘ngi dizayn usulida qo‘rilgan yuqori darajalarda komfortlashgan restoranlar ni gastrotur markazlariga aylantirishdi. Qishloq gastronomiyasida zamonaviy komfortdan voz kechishdi va ekologik sahnlarga, ekologik joylashuvlarga ega bo‘lgan qishloq gastronomiya uylarini qurishdi. Shuning uchun ham Yevropada ekoturizm, qishloq turizmi va qishloq gastronomiyasi turizmlari biri-biri bilan bog‘langan holda rivojlanmoqda.

Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliya, Shveysariya kabi davlatlarda bu usulda xalqaro gastroturistlarni jalb qilishning maxsus dasturlari ishlab chiqilgan. Bu davlatlarda ichimliklar bilan bog‘liq barcha turlar, ichki va xalqaro gastronomiya festivallari faqat qishloqlarda o‘tkazilib kelinmoqda. Shuning uchun ham bu davlatlardagi qishloqlarning aholisi gastroturist larga joylashtirish va ekologik toza ovqatlantirishdan juda katta daromad olishadi[158].

---

[157]*Food and Wine Events in Europe.* A Stakeholder Approach Alessio Cavicchi, Cristina Santini. Routledge – 2014.-236p;.; ДжанджугазоваЙе.А. «Литературний трактир или националниэ особенности трапези». Современниэ проблеми сервиса и туризма. № 3, 2010.-97-102 с.

[158]Sicheva V.O., Shpenkova K.S., Usloviya razvitiya gastronomicheskogo turizma V Rossi i v mire. J. «Konsept, -

Gastronomiya turizmi rivojlangan Yevropa davlatlaridagi qayd qilingan amaliyotlarga to‘xtalganimizda biz birinchi navbatda gastronomiya turizmining milliy infratuzilmalarini yaratishimiz lozim. Ikkinchi navbatda kulinariya maktablarini tashkil qilib gastronomiya mutaxassislarini tayyorlashimiz kerak. Navbatdagi vazifa O‘zbekiston milliy gastronomiya turizmini rivojlantirish ning dasturlarini ishlab chiqishimiz kerak.

O‘zbekistonning milliy gastronomiya turizmida birgina xalqaro gastroturistlarga xizmat qiluvchi gid-ofitsiantlarni tayyorlash ancha qiyin muammolar qatorida turibdi. Ikkinchidan, milliy dasturxonimiz qanday bo‘lishi kerak?-xontaxta dasturxon mi yoki naqshinkor karovatlarga qo‘yiladigan dasturxonmi yoki Yevropacha usul-stol-stulmi?. Gastronomiya turizmini ayniqsa xalqaro gastronomiya turizmini rivojlantirishda milliylikga e’tibor berishimiz lozim.

O‘zbekiston milliy gastronomiya turizmida ishlovchilar vatanimizda tayyorlanadigan milliy taomlarimizning barcha xususiyatlarini mukammal darajalarda o‘zlashtirishi lozim. Yevropaliklar, Yaponiyaliklar taomlarimizning, ziravor o‘tlarimiz ning hatto kaloriyasigacha, mevalarimizning tarkibidagi shakar moddalarining foizlarigacha savollar berishgan.

Yevropa gastronomiya turizmini o‘rganishdan ma’lum bo‘ldiki, Yevropadagi davlatlar gastronomiya turizmida faqat o‘zlarida ishlab chiqarilgan kosa-tovoqlardan va boshqa chinni idishlardan foydalanishar ekan[159]. Bizda mashhur chinni idish tovoqlarimiz bo‘lishiga qaramasdan chet elnikiga intilish kuchli. Chet ellik turistlar faqat milliylikga qiziqishadi. Keltirilgan tahlillarning natijalari asosida O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirishdagi muammolar aniqlandi (21.1-rasm).

№ 7, Saratov, 2014.-126-130 s.; Katelo Y. Methodical approach to the analysis of the preconditions ofstrategic development of gastronomic tourism, Danish Scientific Journal 2018. - № 17. – R. 8-12.

[159]Мясникова Йе. Н., Традиции и культури питания народов мира.Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова, Москва.2018.-67 с.



22.1-Rasm. O‘zbekistonda gastronomiya turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi muammolar

22.2. O‘zbekistonda turizmning turlarini rivojlantirishdagi muammolarni hal qilish yo‘llari

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishdagi muammo larning yechimlari. Qayd qilingan muammolar ham mamlakatimizda turizmni

va ekoturizmni rivojlantirishga kirishganimizdan keyingina aniqlanmoqda. O‘z rivojlanishini boshlagan har qanday soha taraqqiyotiga, istiqboliga bosqichma-bosqich yetib boradi. Birinchi navbatda ana shu bosqichlardagi muammolarni bajarilish darajalari va ketma-ketligini aniqlash talab qilinadi. Ikkinchidan, muammolar-ning yechimini topishda albatda mukammal tajriba va mukammal tadqiqot natijalariga asoslanish lozim (22.2-Rasm).

O‘zbekistonda xalqaro milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishdagi muammolarning yechimlari.Fikrimizcha, O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishda qayd qilingan muammolarni hal qilish yo‘llarini, yechimlarini har bir muammoning o‘zidan quyidagicha topishimiz mumkin:

1.O‘zbekiston turizmida yangi milliy madaniy meros turizmi turini rivojlantirish masalalari turizm ta’limi o‘qitilayotgan universitetlar va institutlarning bakalavriat va magistratura ta’limi tizimidagi o‘quv rejalariga mutaxassislik fanlari blokiga kiritilishi kerak. Natijada milliy meros boyliklaridan turizmda foydalnish bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yuzaga keladi. Bakalavrlar kurs ishlari tayyorlashda, magistrlar dissertatsiya tadqiqotlarini o‘tkazishda albatda milliy meros boyliklarining o‘zlarini qiziqtirgan yo‘nalishlarni tanlashadi.

2.O‘zbekistonda turizm sohasiga mutaxassislar tayyorlayotgan universitetlar va institutlarning kafedralaridagi ilmiy tadqiqotlar rejasiga yangi, milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning tashkiliy-ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari kiritilishi.

3.O‘zbekiston Respublikasi turizm va milliy madaniyat vazirligi xalqaro turizmni rivojlantirish dasturlariga yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniyat, milliy san’at va milliy o‘yinlar tadbirlariga, sayillariga, festivallariga hamda turli millatlarning madaniyat markazlariga, xorijiy sayyohlar uchun tashkil etiladigan madaniy tadbirlarga milliy madaniy meros turizmining dasturlarini kiritishi lozim.



22.2-Rasm. O‘zbekistonda ichki va xalqaro ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirishdagi muammolarning yechimlari

4.O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari vakillari orqali yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniy tadbirlarni xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish, milliy madaniyatimiz sohasida chet el mamlakatlari bilan madaniy hamkorlikni yanada jadallashtirish, xorijiy sayyohlarni milliy madaniyat tadbirlariga, jalb qilish dasturlari davlat boshqaruvida ishlab

chiqilishi kerak.

5.Viloyatlarning tumanlari hokimliklari, tumanlardagi mahalla boshqaruvi va faollari xalqimizning hunarmandchiligini, urf-odat, an’analari, yaratuvchilik san’atini jahon xalqlariga yetkazishda milliy madaniy meros turizmini rivojlan tirish juda muhimligini tushunib olishlari, qiziqishlari lozim. Tumanlarimizda, qishloqlarimizda dunyoning har qanday davlatlaridan kelgan xalqaro turistlarni qiziqtirish va ularni milliy hunarmandchilik uylariga olib borishni tashkil qilishda iqtisodiy manfaatdor bo‘lishligi imkoniyatlari katta.

6.O‘zbekiston Respublikasi turizm va milliy madaniyat vazirligi milliy madaniy meros turizmining qishloq turizmini, ziyorat turizmi-ni, ekologik-rekreatsiya turizmini va gastronomiya turizmlarini rivojlantirishini kuchaytirishiga jiddiy e’tibor qaratishi lozim.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida, “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros ob’ektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi qarori”da belgilangan topshiriqlar, ko‘rsatmalar va rejalarni mamlakatimizning turizm sohasidagi barcha tashkilotlar o‘zlariga tegishli bo‘lgan qismlarini bajarishi kerak.

8.Xalq xo‘jaligidagi moddiy va nomoddiy mahsulotlarni ishlab chiqarish sohalarining, tarmoqlarining va yo‘nalishlari ning muvaffaqiyatlari albatda o‘zaro mustahkam hamkorlikga bog‘liq. Shu nuqtai-nazardan, milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishda yuqorida aniqlangan muammolar birinchi navbatda mamlakatimiz turizmidagi mutasaddi tashkilotlarning, turizm ta’limidagi olimlarning, mutaxassislar ning va tadbirkorlarning hamkorligi natijasida qisqa muddatlar da hal qilinishi mumkin.

O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirishda gi muammolarning yechimlari. O‘zbekistonda gastronomiya turizmini rivojlantirishdagi imkoniyatlarning, muammolarning aniqlanishi o‘rganilayogan gastronomiya turizmiga tavsiyalar ishlab chiqish uchun

ilmiy tadqiqotlarning aniq yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Imkoniyatlar va muammolarning quyidagi yechimlarining aniqlanishi zarur tashkiliy-ijtimoiy-iqtisodiy rejalarni tuzish va amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratadi:

-Gastronomiya turizmining milliy turizm sohasidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash;

-Gastronomiya turizmini tashkil qilish va rivojlan tirishning yangi gastronomiya loyihalarini va dasturlarini ishlab chiqish omillarini aniqlash;

-Yangi turistik hududlarni va yangi turistik markazlarni tashkil qilishni rejalashtirishda gastronomiya turizmnining o‘rnini belgilash va istiqbolini amalga oshirishning strategik rejalarini ishlab chiqish;

-Gastronomiya turizmining resurslari va destinatsiya larini aniqlash, ularning tarif va tasniflarini yaratish;

-Turizmning turlarida yangi gastronomiya turizmi yo‘nalishiga ixtisoslashuvi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

-Gastronomiya turizmini tashkil qilish va rivojlantirish ning tashkiliy-ijtimoiy mexanizmlari yaratish;

-Gastronomiya turizmining zamonaviy marshrutlari va reklamalari yaratish;

-Gastronomiya turizmida gastronomiya bilimini egallagan malakali mutaxssislar tayyorlash;

-O‘zbekiston milliy gastronomiya turizmida raqobatbardosh gastronomiya mahsulotlari yaratish.

Tayanch so‘zlar: gurmanlar, biosfera, gelogiya, madaniy meros, urf-odat, oshpaz, destinatsiya, gastronomiya, kulinariya.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Turizmning turlaridagi muammolar qanday aniqlanadi?

2.Turizmning turlarini rivojlantirish imkoniyatlari qanday aniqlanadi?

3.Turizmning o‘zigiz yoqtirgan turini tanlang va rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarini aniqlang.

4.Turizmning o‘zingiz yoqtirgan turini tanlang va rivojlantirish imkoniyatlarini taklif qiling.

XXIII BOB. O‘ZBEKISTON TURIZMIDAGI TURLARNING EKSKURSIYALARINI ISHLAB CHIQISH

23.1. Turizmdagi turlarning ekskursiyalarini ishlab chiqish

Ekskursiya so‘zi lotincha “ekskursion”-qisqa muddatli safar yoki sayohat, sayohatga jo‘namoq, sayohat qilib kelmoq ma’nolarini anglatadi. Turizm so‘zi paydo bo‘lmasdan, insonlarda atrof-muhitga qiziqish, uzoqlarda nimalar bor, tog‘lar ortida yoki daryoning yoki qir-tepaliklardan keyin nimalar borligiga oid ko‘plab savollarning to‘planinib qolishi natijasida ularni safarga (uydan chiqib ketishga) chorlaydigan ichki his-tuyg‘u-qiziqishning harakatga kelishi bo‘lgan[160]. Jamiyatdagi dastlabki sayohatlar albatta o‘zga yurt, mamlakatlar haqidagi xabarlar natijasida yuz bergan.

Ekskursiya xizmatlarini turizmning yuragi deb ta’riflasha di[161]. Haqiqatdan ham turist mehmonxonaga joylashganidan so‘ng birinchi navbatda ekskursiyaga chiqadi. U aynan shu maqsadda sayohatga chiqgan.Ichki turizmda barcha davlatlarda ekskursiya xizmatlari birinchi o‘rinda turadi. Chunki mamlakat ichkarisidagi aholi turizmning deyarli barcha turlari bo‘yicha doimo ekskursiya xizmatlaridan foydalanadi. Shu o‘rinda turist bilan ekskursantni farqlash lozim bo‘ladi, chunki turizmni rejalashtirishda ekskursantning turizm xizmatlarig bo‘lgan talabi boshqa, turistning talabi boshqa. Ekskursant turizmdagi barcha xizmatlarni talab qilmaydi. Turistning talabi nafaqat ekskursiya xizmatlari bilan chegaralanmasdan, balki, boshqa ko‘rsatiladigan xizmatlarni ham hisobga olishni taqoza qiladi.

Turist-O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo‘nab ketgan) jismoniy shaxs[162].

Ekskursant-tunab qolmaydigan va ekskursiya marshrutida 24 soatdan ko‘p bo‘lmaydigan shaxsning sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy, qiziqish, ko‘rish, bilish, tanishish yoki boshqa

[160]Hayitboyev R., Haydarov S., Abduhamidov S., va boshq.. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish.O‘quv qo‘llanma. «Ilmnurfayz», Samarqand, 2016.-175 b.
[161]Емелянов Б.В. Экскурсоведение. Учебник, Москва,2006.-218 с.
[162]. «Turizm to‘g‘risida»giQonuni //«Xalqso‘zi» gazetasi, 1999 yil, 14 sentyabr.

maqsadlarda sayohatga chiquvchi hisoblanadi.

O‘zbekiston milliy turizmida “Turistik ekskursiya faoliyati”, “Turistik-ekskursiya faoliyatni boshqarish huquqlari va sharoitlari”, “Turistik-ekskursiya mahsulotni yaratishni boshqarish sharoitlari” bo‘yicha davlatimizning huquqiy-me’yoriy qarorlari va hujjatlari qabul qilingan[163].

Shu o‘rinda ekskursiya xizmatlarining ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda quyidagi muhim talablarini keltirish lozim:

1.Turizmdagi ekskursiya xizmatlari iqtisodiy faoliyatni bajaradi (turistik firma ekskursiya marshrutlarini sotishdan daromad oladi, ekskursiya a’zolaridan tushgan mablag‘ hisobiga daromad oladi, gid-tarjimon ish o‘rinlari yaratiladi, ekskursiya ob’ektlarida turizm infratuzilmalari yaratiladi);

2.Ekskursiya xizmatlarining g‘oyaviy siyosiy faoliyati (vatanning tarixiy merosi boyliklari, qadriyatlari, yangi texnologiyalari bilan tanishishda g‘urur hislarini, tuyg‘ularini sezish xususiyatlari paydo bo‘ladi);

3.Ekskursiya xizmatlarining umumiy ta’lim berish faoliyati (ekskursiya ekskursantlarga universal bilim beradi-tarixiy madaniy meros haqida, ishlab chiqarish haqida, madaniy-ma’rifiy ma’naviyat haqida, san’at haqida, yangi texnologiyalar va hokazolar);

4.Ekskursiya xizmatlari axborot tashish, axborotlar berish faoliyati ni bajaradi (o‘tmish va xozirgi voqealar, jarayonlar, insoniyat jamiyatining taraqqiyoti, xozirgi rivojlanish, sayyoraviy voqealar, xalqaro birdamlik va boshqalar);

5.Ekskursiya xizmatlari tarbiyaviy faoliyatni bajaradi (Vatan boyliklarini asrash, avaylash, g‘urur hissiyotlari, faxrlanish va boshqalar);

6.Ekskursiya xizmatlari mazmunli dam oldirish faoliyatini bajara di (tabiatga va uning so‘lim go‘shalariga, daryo sohillariga, o‘rmonlarga, tog‘larga, soylarga ekskursiyalar va boshqalar);

7.Ekskursiya xizmatlari insonlarda dunyo qarashni kengaytirish

[163]«Standartlashhaqida» O‘zbekistonRespublikasiningQonuni (25.04.2003y.), O‘zbekistonRespublikasining «Mahsulotlarvaxizmatlarnisertifikatlash» haqidagiQonuni (28.12.1993y.,1006- XII-conli);

faoliyatini bajaradi (olamnig cheksizligi, olamning bir butunligi, hayotning davriyligi, jismlarning aylanma biologik harakati va boshqalar);

8.Ekskursiya xizmatlari insonlarda qiziqishni shakllantiradi (hayotga qiziqish, yashashga qiziqish, ijodga qiziqish, san'atga qiziqish, yangi texnologiyalarga qiziqish, tarixga qiziqish va boshqalar);

9.Ekskursiya xizmatlari mutaxasislarni, kadrlarni qayta tayyorlaydi, malakasini oshiradi va boshqalar[164].

Milliy madaniy meros marshrutlari va ekskursiyalarini ishlab chiqishda, ekskursiya xizmatlarining ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda yuqorida keltirilgan muhim talablarini e'tiborga olgan holda dastlab milliy madaniy merosdagi ekskursiya ob'ektlarini baholashda quyidagi mezonlarga asoslanishimiz lozim:

- Milliy madaniy meros ob'ektining bilishni anglatishi, his qilishi hususiyatlari, jozibadorligi, betakrorligini aniqlash;
- Milliy madaniy meros ob'ektining ma'lumligi, mashhurligi, ekzotikligi, yangiligi yoki qadimiyligi haqidagi ma'lumotlarni to'plash va ekskursiya gid-axborotini tayyorlash;
- Milliy madaniy meros ob'ektining hozirgi holatini baholash;
- Milliy madaniy meros ob'ektining manzilini baholash (milliy merosdagi ekskursiya ob'ektiga to'liq qiyinchiliksiz borish, aylanib tomosha qilishning qulayligi, ekskursantlarning to'liq joylashishi, transport to'xtash maydonlarining borligi va boshqalar..).

Ekskursiya xizmatlari ob'ektlari baholangandan keyin ekskursiya marshrutini tuzishda va ishlab chiqishda ekskursiyaning asosiy ob'ektlari va qo'shimcha ob'ektlari belgilanadi. Asosiy ob'ekt bo'lib, ekskursantlar tanlagan yoki turistik firma ekskursantlarga taklif qilgan ob'ekt hisoblanadi. Qo'shimcha ob'ektlarni ekskursiya tashkilotchilari belgilaydi. Ekskursiya xizmatlarining qo'shimcha ob'ektlari asosiy ob'ektga borish va qaytish marshrutlarida ko'rsatiladi.

Biz bajarilgan tadqiqotlarimizning natijalariga, xulosala riga

[164]. Емелянов Б.В. Экскурсоведение. Учебник, Москва,2006.-218 с.: Hayitboyev R., Haydarov S., Abduhamidov S., vaboshq.. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'llanma. «Ilmnurfayz», Samarqand, 2016.-175 b.: Amriddinova R. S., Ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2018.-210 b.

asoslanib, O‘zbekistonda milliy madaniy meros resurslaridan foydalanishdagi istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha marshrutlarini va ekskursiyalarini ishlab chiqishni quyidagi 3 ta yo‘nalishda bajarishni tavsiya qilamiz:

1.Milliy madaniy merosning milliy madaniyat va milliy san’at merosi boyliklari ekskursiyalarni ishlab chiqish.

2.Milliy madaniy merosning milliy o‘yin turlari ekskursiyalarini ishlab chiqish.

3.Milliy madaniy merosning milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari ekskursiyalarini ishlab chiqish.

1.*Milliy madaniyat va milliy san’at merosi ekskursiyalarni ishlab chiqish.* O‘zbekistonda o‘ziga xos turli milliy urf-odat, ananalarga boy xalqlar yashaydi. Xalqimiz ichida necha asrlar davomida shakllangan urf-odatlar juda ko‘p. Ba’zi manbalarda ularning 376 tasi sanab o‘tilgan. An’analar qadimdan odamlarning hayot kechirishi tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, mehnati, ijodi davomida shakllangan. Shuning uchun ham, xalqimiz yaratgan o‘zbekona milliy meros boyliklari, kadriyatlari rang-barang va beqiyos hisoblanadi.

Milliy madaniy meros boyliklaridan foydalanib turizmni rivojlantirishda xalqimizdagi urf –odatlar, milliy madaniyat va milliy san’at biri-biri bilan uyg‘un holatlarda namoyon bo‘lganligidan milliy etnik meros, milliy madaniyat va milliy san’at merosi boyliklari bo‘yicha xalqaro milliy madaniy meros turizmi ekskursiyalarini va marshrutlarini ishlab chiqish va tashkil qilish majmuali dasturlarda bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, bu yo‘nalishdagi turizm marshrutlari va ekskursiyalari jozibadorligi jihatlaridan bir milliy meros ob’ektidan ikkinchi milliy meros ob’ekti yoki urf-odatlar va milliy an’analar jarayonlarini qamrab olishlari kerak (23.1-Rasm).

2.*Milliy madaniy merosning milliy o‘yin turlari ekskursiyalarini ishlab chiqish.* O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qarori”da Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek sporti

brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlanti rish orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsad qilib qo‘yilgan.



23.1-Rasm. Xalqimizning milliy madaniyati, milliy san’ati va milliy etiketi merosi boyliklari ekskursiyalarini ishlab chiqish

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, xalqchillik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga

aylantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirish belgilangan[165]. Xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi milliy o‘yin turlari bo‘yicha quyidagi xalqaro milliy madaniy meros turizmi ekskursiyalarini ishlab chiqishni tavsiya qilamiz (23.2-Rasm).



23.2-Rasm. Xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi milliy o‘yin turlariga ekskursiyalar ishlab chiqish.

Xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi milliy o‘yin turlari bo‘yicha xalqaro milliy madaniy meros turizmi ekskursiyalarini ishlab chiqishda ham turizm operatorlari keltirilgan milliy o‘yin turlari vatanimizning qaysi viloyatlari va tumanlarida ommaviy holatlarda (xalq bayramlarida, aholining to‘ylarida, sayillarda va boshq...) tashkil qilinishi va o‘tkazilishlarini hisobga olishlari lozim. Surxondaryo, Qashqadaryo liklar va Buxoroliklarning to‘ylari va xalq bayramlarida albatda milliy kurashni va baxshilar san’atini tomosha qilasiz. Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Xorazm viloyatida qo‘chqorlar jangi juda ommaviylashgan.Shu sababli, milliy madaniy meros turizmidagi operatorlar va gid-ekskursiyachilar vatanimizdagi viloyatlar va tumanlardagi aholining milliy sport o‘yinlarini tashkil qilishi va o‘tkazilishi bilan bog‘liq barcha tashkiliy muddatlarni va jarayonlarni yaxshi bilishlari lozim.

[165]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qarori», Toshkent sh., 2020 yil 4 noyabr, PQ-4881-son



23.3-Rasm. Milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha ekskursiyalarini ishlab chiqish

3. *Milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha ekskursiya-larini ishlab chiqish.* O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 17 noyabrda “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5242-sonli Farmoni davlatimizda

xalqimizning betakror hunarmandchiligi-ni asrab–avaylab kelayotgan hunarmandlarni davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan birga hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, pirovard natijada xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti darajalarini ko‘tarishga qaratilgan[166] (Farmondagi 1-Ilova qisqartirilib berildi).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu Farmoni birinchidan, xalqimiz asrlar davomida saqlab, sayqallab kelayotgan ijodi mahsulotlarini rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchidan, xalqimizning ijodga,taraqqiyotga, istiqbolga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, mehr-muhabbat qo‘ygan kasbini yanada ardoqlash hissiyotlarini kuchaytiradi.

Milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro milliy madaniy meros turizmi ekskursiyalarini ishlab chiqish keltirilgan-ligini hisobga olib, xalqimizning milliy merosi boyliklaridan milliy madaniy meros turizmida foydalanishda ushbu milliy meros boylik-larining har biriga va turli yo‘nalishlariga majmuali turistik ekskursiyalar va turistik marshrutlar ishlab chiqishning katta imkoniyatlari mavjud (22.1.3-rasm).

Tayanch so‘zlar: turist, ekskursiyachi, standart, hunarmand, kosib, dorbozlar, milliy mahsulot, duradgor, mahalliy mahsulot.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Turist bilan ekskursiyachining o‘rtasidagi farqlanishni tushuntiring.

2.Milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha ekskursiya ishlab chiqing.

3.Milliy ustachilikni ko‘rish ekskursiyalari qanday ishlab chiqiladi?

4.Milliy madaniy meros boyliklariga majmuali ekskursiyalar qanday ishlab chiqiladi?

5.Milliy madaniy merosning milliy o‘yin turlari ekskursiyasini ishlab chiqing.

[166]O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 17 noyabrda “ Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5242-sonli Farmonni

XXIV BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM TURLARINING MARSHRUTLARINI ISHLAB CHIQISH

24.1. Turizm marshrutlarini ishlab chiqishning tamoyillari va usullari

Iqtisodiy adabiyotlarda g‘oya va nazariyalarning shakllanishida ishlatiladigan prinsip so‘zi asos, talab, negiz ma’nolarini anglatgani uchun davlat tilida tamoyil deb tarjima qilingan. Turistik marshrutlar ishlab chiqishning asosiy prinsiplarini (tamoyillarini) ana shu marshrutlar ishlab chiqishdagi birlamchi talablar, mezonlar deb qabul qilsak bo‘ladi. Hozirgacha turistik marshrutlar ishlab chiqishning 7 ta tamoyili bor. Bu tamoyillarni turistik marshrut ishlab chiqishdagi asosiy talablar sifatida biror bir olim yoki turizm mutaxassisi taklif qilmagan. Balki, turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi yo‘l-yo‘lakay kuzatuv, talab, amaliyot, o‘y-fikr va takliflarni jamlagan mutaxassislarning umum, xulosaviy, ijodiy qarashlaridir.

Turistik marshrutlar ishlab chiquvchi bu tamoyillarni qo‘llaganida marshrutga kiritish ob’ektlari, shart-sharoitlar, turistlar yoki xizmat qiluvchilarning, mahalliy aholining takliflari yoki talablari bilan boyitib, mukammallashtirib borishi mumkin. Turistik marshrutlarga bo‘ysunadigan standartlar marshrutlarning texnik jihatlaridir.Turistik marshrut ishlab chiqish bu-ma’lum turistik ob’ekt, resursga turistlarni jalb qilishdagi eng birinchi harakatdir. Shuning uchun ham marshrut ishlab chiqish–turni ishlab chiqish, ma’lum turistik ob’ektdan turizmda foydalanishni turlar ham o‘ta darajada mukammal, har tomonlama qulaylik imokniyatlariga ega bo‘lgan marshrutlar asosida amalga oshirilishini talab qiladi.

Turistik marshrutning mukammal ishlab chiqilishi bu–turistning erkin harakat qilishini va turdagi xizmatlarga bo‘lgan talablarini o‘z vaqtida qondiradi. Hozirda turistik marshrutlar ishlab chiqishning tamoyillari yaratilganki, turizmda har qanday turistik marshrutlar ishlab chiqishda asosan ana shu tamoyillardan foydalaniladi. Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi birinchi talab qayd qilingan “tamoyillar”ni puxta bilish va o‘z o‘rnida, talabiga qarab qo‘llash,

ishlatish hisoblanadi. Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi tamoyillar alohida-alohida yoki majmuali holda qo‘llanilishi mumkin.

Jozibadorlik, betakrorlik tamoyili. Jozibadorlik, betakrorlik tamoyiliga e’tibor berish lozimki, ma’lum bir turistik ob’ektga, resursga turistik marshrut ishlab chiqishda turoperatorning birinchi navbatdagi asosiy vazifasi aynan ana shu turistik ob’ektning eng jozibador, betakror joyini, ko‘rinishini aniqlashdir. Turizmdagi barcha turistik ob’ektlarda jozibadorlik, betakrorlik mavjud. Bu jozibadorliksiz biron-bir turistik ob’ekt turistlarni o‘ziga jalb qilaolmaydi. Jozibadorlik va betakrorlik deganda ma’lum bir xalqaro yoki mahalliy talab va standartlarning o‘lchamlariga, darajalariga javob beradigan ob’ektning tarixiyligi, mo‘’jizaviy ko‘rinishi va hokazolarni tushunishimiz kerak.

Shu nuqtai-nazardan turistik ob’ektdagi jozibadorligi, betakrorlikni 4 darajaga bo‘lishimiz mumkin:

- xalqaro miqyosdagi turistik ob’ektlardagi jozibadorlik va betakrorlik;
- davlatlardagi turistik resurslarning jozibadorligi va betakrorligi;
- tabiatning biologik xilma-xilligidagi jozibadorlik va betakrorlik;
- turistning hohishi bo‘yicha turistik ob’ektda belgilanadigan jozibadorlik va betakrorlik.

Xalqaro miqyosdagi turistik ob’ektlardagi jozibadorlik va betakrorlik deganda mazkur turistik ob’ektning xalqaro miqyosda ma’lum va mashhurligi, mo‘jizaviyligini, dunyo aholisi, bu ob’ektni bilishi tan olinadi. Bunday miqyosdagi jozibadorlik va betakrorlik asosiy hollarda mo‘jiza deb nomlanadi. Dunyo miqyosidagi turistik ob’ektning mo‘jiza deyilishi o‘tmishdagi insoniyat bunyod etgan ulkan inshootlarning qay tartibda qurilganligi, ularda hozirgacha ko‘plab ochilmagan sir-sinoatlarning mavjudligidir.

Yetti mo‘jizadagi asosiy jozibadorlik, betakrorlik ularning o‘ta darajada ulkanligi va qurilishi jihatidan hozirgi inson ahlini lol qoldirganidir. Shu o‘rinda e’tibor berish kerakki, dunyoda yetti mo‘jizadan ham mo‘jizaliroq turistik ob’ektlar juda ko‘p. Mazkur tarixiy yodgorliklardagi jozibadorlik va betakrorlik, qadimiylik va inson ahlini lol qoldirgan qurilish san’atidir.

Davlatlarning turistik ob'ektidagi jozibadorlik va betakrorlik. Jahonning barcha davlatlarida ham o‘sha mamlakatda yashayotgan aholi uchun ham va boshqa mamlakatlarda yashayotgan aholilar uchun ham taniqli bo‘lgan turistik resurs ob'ekt mavjud bo‘ladi. Ko‘p mamlakatlarda esa faqat shu mamlakat aholisiga tanish, e'zozli turistik ob'ekt bo‘lishi mumkin.Bu e'zozli turistik ob'ekt jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lmaganligidan boshqa davlatlardagi odamlar deyarli qiziqishmaydi, ular bu davlatga ushbu ob'ektni ko‘rish uchun kelib-ketuvchi turistlar bo‘laolishmaydi.

Jahondagi ko‘pgina davlatlarda esa sivilizatsiya qadimdan rivojlanganligi uchun o‘sha davlat aholisi uchun ham, boshqa davlatlardagi aholi uchun ham hatto jahonshumul ahamiyatga, qiziqishga molik turistik ob'ekt mavjud bo‘ladi. Bunday davlatlarga Yevropadagi ko‘plab mamlakatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Masalan: Fransiya davlatida qadimiy, tarixiy obidalar ham, madaniyat markazlari ham juda ko‘p. Lekin, faranglar xalqaro miqyosda o‘zlarining Eyfel minorasi bilan faxrlanishadi

Yana bir davlat Hindistonni olsak, tabiati jihatidan ham tarixiy obidalari (ko‘hna ibodatxonalar, tog‘larni o‘yib ishlangan tosh ibodat xonalar va hakozolar) jihatidan ham turistik resurslarga juda boy bo‘lgan, mamlakat. Lekin, bu mamlakatga kelgan xalqaro turistlar deyarli birinchi navbatda sevgi-muhabbatdagi sadoqat timsoliga qurilgan Toj Mahal maqbarasini ko‘rish va ziyorat qilish uchun kelishadi. Bu holatdan xulosa shulkim, Toj Mahal maqbarasi Hindistondek katta va qadimiy mamlakatdagi turistik resurslarning jozibadorligi va betakrorligida yorqin toj hisoblanadi.

Dunyoning davlatlarida joylashgan turistik ob'ektlaridagi jozibadorlik va betakrorlikni O‘zbekistondagi turizm resurslarida tahlil qilganimizda ko‘z o‘ngimizda juda katta va turli-tuman mavzuli turizm resurslari va bu resurslarning har birida o‘ziga xos va mos bo‘lgan jozibadorlik va betakrorlik borligini ko‘ramiz.

Qisqa qilib aytganimizda To‘maris, Spitamen, Zahiriddin Bobur, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shayboniyxon, Temur Malik, Inolchiq kabi jahonga mashhur sarkardalar, sohibqironlar bizning

vatanimizning farzandlari va ularning faoliyati, hayoti, ular qurdirgan niliy gumbazli maqabaralar, madrasalar va boshqa tarixiy obidalardagi jozibadorlik, betakrorlik faqatgina O‘zbekistonda bor.

Jahon sivilizatsiyasining madaniyati, tabobati, astronomiyasi, matematikasi, geografiyasi, she’riyati, geologiyasining tamal toshini qo‘ygan, jahonshumul maktablarni, dunyodagi dastlabki akademiyalarni (Baytul al-xikma, Ma’mun akademiyasi, Ulug‘bek akademiyasi) tashkil qilgan Al-Beruniy, Ibn-Sino, Al-Xorazmiy, Ulug‘bek, Al-Farg‘oniy, Abu-Nasr Farobiy, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Lutfiy kabi buyuk siymolar hayoti bilan bog‘liq tarixiy obidalardagi jozibadorlik va betakrorlik faqatgina O‘zbekistonda bor.

Islom olamining mukammal ta’limotini yaratgan, Islom olamining buyuk daholari bo‘lgan Ahmad Yassaviy, imom Termiziy, at-Termiziy, Motrudiy, Bahoviddin Naqshband, imom al-Buxoriy, Maxdumi A’zam, Qusam ibn Abbos, Buxorolik yetti pirlar, Buxorolik Chor Bakrlar, hazrati Doniyor payg‘ambar, Dovud payg‘ambar, Xo‘ja Ahror Vali kabi aziz avliyolar va boshqa ko‘plab ulug‘ insonlar hayoti-faoliyati bilan bog‘liq tarixiy obidalardagi o‘ziga xos va o‘ziga mos jozibadorlik va betakrorlik faqatgina O‘zbekistonda bor.

Tabiatning biologik xilma–xilligidagi jozibadorlik va betakrorlik. Tabiatimizda biologik xilma xil resurslar, to‘rt ekologik tabiiy geografik mintaqaning va yerning tabiati, endemik turlar, iqlim, to‘rt iqlimiy faslning ziynatidagi jozibadorlik va betakrorlik faqatgina O‘zbekistonda bor. Turizmning rivojlantirishga bel bog‘lagan ekanmiz, turizm resurslarimizdagi jozibadorlik va betakrorlikni jahonga ko‘z–ko‘z qilishning faqatgina uddasidan chiqishimiz lozim bo‘ladi.

Tabiatning biologik xilma–xilligidagi jozibadorlik va betakrorligi haqida gapirilganda qandaydir tortishuvlar, isbotlashuvlarga o‘rin qoldirmaslik zarur. Lekin tabiat go‘zalligi, uning betakrorligi haqida tortishuvlar, bu betakrorlikni ba’zi bir olimlar, o‘zlarining o‘rganish, ilmiy–tadqiqotlari mavzulari bo‘yicha tushunadi va tabiatdagi betakrorlikni oldingi o‘rinlarga chiqarishga harakat qilishadi.Biologik xilm-axillik deganda o‘simliklar olami va hayvonot dunyosining o‘zi

emas, ular o‘sadigan va yashaydigan tabiiy muhit ham tushunilmog‘i kerak.

Turistning hohishi bo‘yicha turistik ob’ektda belgilanadigan jozibadorlik va betakrorlik. Jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan turistik ob’ektlarga turizmdagi oqim ham katta bo‘lishi o‘z–o‘zidan ma’lum. Masalan, Misrdagi piramidalar, Samarqanddagi Temuriy larning tarixiy, madaniy inshootlari, Hindistondagi Toj Mahal maqbarasi, Parijdagi Eyfel minorasi, Xitoydagi “Buyuk Xitoy devori”, Rossiyadagi “Kreml” majmuasi, Angliyadagi “Stounnxej” qoldiqlari va x.k. Shu bilan birga halqaro turizmda ham, ichki turizmda ham alohida guruh turistlarning o‘z qiziqish ob’ekti bo‘ladi. Ko‘p hollarda bunday turistlar yoki kasbiy faoliyati bo‘yicha yoki tabiatdagi biron-bir o‘simlikning o‘sish tarzi yoki bir hayvonning yashash tarzining tabiatiga qiziqishi, aynan o‘sha turni yaxshi ko‘rishi, unga ana shu turning harakatlari yoki o‘sishi, guli, bargi, yoki rangi kichikligi, mittililigi yoki ulkan, kuchliligi yoki yirtqichligi ma’qul bo‘ladi.

Lekin turist yoqtirgan o‘simlik yoki hayvon turi o‘zi yashayotgan mamlakatda yo‘q bo‘lganligi uchun u shu tur o‘sadigan yoki yashaydigan boshqa mamlakat tabiatiga sayohatlar uyushtiradi. Masalan, cho‘lning go‘zal hayvonlari jayron va sayg‘oqlar Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida kamsonli bo‘lsada saqlanib qolgan. Ana shu jayron va sayg‘oqlarni ko‘rish, yashash tarzini o‘rganish va boshqa davlatlar tabiatida yoki hayvonot bog‘ida saqlash va ko‘paytirishga qiziquvchilar, olimlar, tabiatshunoslar hozirda deyarli O‘zbekistonga kelishadi (Buxoro viloyatidagi “Jayron” ekologik markazi). Bu yerda ularning faoliyati uchun barcha shart–sharoitlar yaratilgan.

So‘nggi-yillardagi kuzatishlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, yurtimizga keluvchi turistlar ichida qoyatoshlarimizdagi qadimiy tasvirlar, rasmlarga qiziquvchilar, ko‘hna arxeologik qoldiqlarga qiziquvchilar soni ko‘payib bormoqda.Shuning uchun ham Respublikamiz hududlaridagi tog‘larda, daralarda qadimiy rasmlar, tasvirlar va yozuvlar tushirilgan qoyatoshlarni ro‘yxatga va davlat nazoratiga olishimiz kechiktirilmay bajariladigan ish hisoblanadi. Yana bir misol

keltirganimizda yovvoyi qo‘ylar arharlarni ko‘rish uchun ham davlatimizga ko‘plab turistlar kelishadi. Chunki, “Nurota” tog‘–o‘rmon qo‘riqxonasining asosiy faoliyati Markaziy Osiyo uchun endemik hisoblangan “arharlarni” saqlab qolish va ko‘paytirishga qaratilgan.

E’tibor qiling, “Yovvoyi Afrika” va “Xalqaro geografiya jamiyati”ning yovvoyi yirtqich hayvonlar (sher, yo‘lbars, qoplon, puma, leopard, pantera, giyena va hakozlar) hayoti haqidagi tabiatda olgan filmlarini hamma zo‘r qiziqish bilan tomosha qilishadi. Shu bilan birga tomoshaning eng qiziq joyi yirtqich hayvonlarning ov qilishi va ovqatlanishi usullaridir. Ushbu filmlardagi betakrorlik aynan ana shu ov qilish ko‘rinishlari ning berilishidir.

Agar ushbu filmlarda yirtqich hayvonlarning ov qilish ko‘rinishi bo‘lmasa film juda zerikarli va bir marotaba (yovvoyi hayvon bo‘lganligidan) ko‘rishga arziydi. Turizm marshrutlarini ishlab chiqishda shuning uchun ham, insonni qiziqtiruvchi birorta ob’ekt (katta, kichik, mayda, ulkan, haroba va boshq.) e’tibordan chetda qolmaslik lozim bo‘ladi. Shu o‘rinda yana takrorlaymizki, bugungi kunda e’tibordan chetdagi ob’ekt ertaga qiziqarli bo‘lishi mumkin degan xulosa bilan turistik resurslarning barchasini ro‘yxatga olib, hozirdan turistik resurslar katologini tuzishga kirishimiz lozim bo‘ladi.

Turistik marshrut ishlab chiqishda imkoniyatlarning yaratilganligi tamoyili. Bu tamoyilda turistga turistik marshrut davomida turistik xizmatlardan foydalanishning eng qulay imkoniyatlari yaratilgan bo‘lishi lozim. Bunday imkoniyatlar quyidagi xizmatlar ko‘rsatishdagi imkoniyatlardir.

Transport xizmatlaridagi imkoniyatlarning dastlabki sharoiti turistlarga xizmat qiluvchi transport xillarining zamonaviy bo‘lishligi dadir. Marshrut boshlanganidan turist birinchi nabatda o‘z yuklarini joylashtirish tashvishi bilan band bo‘lishadi. Turoperator bu tashvishni doim nazarda tutishi lozim. Transport xizmatlarini taklif qilishda albatta baland o‘rindiqlarga ega bo‘lgan avtobus yoki mikroavtobuslarni taklif qilish yaxshi natija beradi. Baland o‘rindiqli avtobuslarda turist yo‘l-yo‘lakay ko‘p narsani ko‘radi. Ularning yuklariga kelganda eng yaxshi variant hozircha turist o‘z yukini yonida olib o‘tirishidir. Uning

xotirjamligi ham shunday ta’minlanadi.

Turistlarga transport xizmatlari ko‘rsatishda turist yukining (xaltasining) alohida joyda bo‘lishi davri o‘tdi deyishadi mutaxassislar. Transport xizmatlaridagi yana bir imkoniyat transport ichida ekologik toza ichimlik suvlarining bo‘lishi, transport oynalarining ochilishi yoki yopilishi, radio, TVning bo‘lishi, turistning avtobus salonida erkin harakatlanishga sharoitning bo‘lishidir.

2.*Marshrutdagi ekskursiya vaqtidagi imkoniyatlar*. Turistik marshrutlarning aksariyat qismida (ekologik turizm, arxeologik turizm, rekreatsiya turizmi, tarixiy, diniy turizm va hakozo turlarda)ekskursiyalar tashkil qilinadi. Ayniqsa ekoturizm marshrutlarida, rekreatsiya turizmi marshrutlarida va turistik lagerlarda dam oluvchilar uchun turli mavzularda landshaftni ko‘rish, tomosha qilish ekskursiyalari uyushtiriladi. Ekskursiya vaqtidagi imkoniyatlarning birinchisi yurish yo‘llari, so‘qmoqlar, mahalliy ko‘priklar, daralar yoki tog‘ bag‘ridan chiqish, tushish, jarliklar ichidagi yurish yo‘llari tekis, xavfsiz bo‘lishidir. Tog‘ so‘qmoqlaridan, jarliklar bo‘ylab yurganda tovush, shovqin effektining halokatli bo‘lishi albatta turistlarga tushuntiriladi.

Ekskursiya vaqtida turistlarga yana bir imkoniyat yaratish lozimki, zamonaviy turizmda zamonaviy xizmat deyiladigan–ya’ni ekskursiya davomida turistlarni dam olish tanaffusiga chorlash. Bu usulni ayniqsa tog‘ va cho‘llardagi ekoturizm marshrutlaridagi ekskursiyalar vaqtida qo‘llash turistning kayfiyatini ko‘taradi. Bu usulda marshrut rahbari mahalliy aholidan ot, eshak yoki mahalliy arava olib turistlarning o‘zini ham shu transport turlarida olib yurishi, agar turistlar piyoda yurishni hohlashsa ularning yukini, ichimlik suvini, qisqa muddatli ekzotik ovqatlanish mahsulotlarini va eng muhimi yig‘ma stul va yig‘ma karovatchalarni albatda birga ortib yurish kerak.

Marshrutdagi ekskursiyalarda bizning iqlimimizda xalqaro turistlar ham mahalliy turistlar ham yoz mavsumida tezda chanqab qolishi yoki tog‘lar va xushxavoli tabiat bag‘rida tezda och qilishi mumkin. Bunday vaqtlarda marshrutning yoki ekskursiyaning rahbari turistlarga soya-salqin joylarda yig‘ma stul va yig‘ma karovatlardan iborat dam olish

joyini taklif qilish mumkin. Bunday imkoniyatlardan foydalangan turist albatta yaxshi kayfiyatda bo‘ladi. Marshrutdagi boshqa xil ximatlarda ham imkoniyatlarning yaratilganlik tamoyilini qo‘llash marshrutning muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlaydi.

Mazmundorlik tamoyili. Turistik marshrut ishlab chiqishning mazmundorligi tamoyili. Bu tamoyildagi talablar ko‘proq birinchi-jozibadorlikni tashkil qilish tamoyiliga o‘xshab ketadi. Lekin jozibadorlikdan boshqa ta’surotlar mazmundorlik larga e’tibor berilib ishlab chiqilgan turistik marshrut har qanday darajadagi turistlar uchun eng yaxshi turistik marshrut hisoblanadi. Bu tamoyilda turistik marshrutlar ishlab chiqishda turistning qisqa vaqt davomida ko‘p ob’ektlarni ko‘rishi, bilib olishi yoki eshitish ta’minlangan bo‘lishi kerak. Bunday imkoniyatlardan foydalangan turist turistik firmaning boshqa marshrutlariga ham buyurtma berishi mumkin. Masalan:turist Respublikamizning tabiiy hududlari, mintaqalaridagi ekoturizm resurslarini ko‘rishni tanlaydi. Bu holatda turoperatorda xuddi ana shu turist tanlangan ekoturizm resursiga olib boradigan 2 ta turistik marshrut bo‘lishi lozim.

Birinchi turistik marshrut–Ekoturizm resursiga–ob’ektiga to‘g‘ridan –to‘g‘ri boradi. Bu marshrutdagi jozibadorlik va betakrorlik ekoturizm ob’ektining o‘zida bo‘ladi albatda. Ob’ektga to‘g‘ri borilganidan yo‘l-yo‘lakay turist ko‘rgan mazmundorlik ham uzuq-yuluq bo‘ladi, axborotlar kam, to‘xtash deyarli yo‘q va hakozolar. Albatda, bunday turistik marshrut turistga, ayniqsa xorijiy turistga unchalik ham xush kelmasligi mumkin.

Ikkinchi turistik marshrut–yo‘l-yo‘lakay, tarixiy madaniy, me’moriy obidalar,tabiatning rang-barangligi, ko‘ngil ochar o‘yinlar, ko‘rgazmalar, favvoralar, hayvonat bog‘lari, agroturizm ob’ektlari-ning o‘zgarib turishi, soylar, baland, haybatli qoyatoshlar yoki bepoyon kengliklarning yastanib yotganligi va bu yerda yashayotgan mahalliy xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, jarliklar, daryo sohili va hakzolarga turistlar e’tiborini jalb qiladi. Agar turoperator yo‘ldagi soylar yoki qandaydir tarixiy joylarning tarixdagi mashhur kishilarning hayoti bilan bog‘liq qiziq afsona va rivoyatlarni topib turistlarga qiziqarli usullarda,

jonli ravishda aytib bersa marshrutdagi mazmundorlik yanada oshadi.

Agar turistik guruhda diniy yo‘nalishlardagilari ko‘pchilik bo‘lsa albatda marshrut yo‘lidagi diniy rahnomalar, shayxlar, avliyolar, sayyidlar va eshonlarning qabrlari, ular yaratgan obidalar, ular yashagan joylardan o‘tishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qayd qilinganlardan ma’lum bo‘ladiki, ikkinchi turistik marshrutda jozibadorlik, betakrorlik va ayniqsa mazmundorlik manbalari keng qo‘llanilgan. Albatda, birinchi turistik marshrut ning bahosiga nisbatan ikkinchi turistik marshrutning bahosi ancha baland bo‘ladi. Chet ellik turistlar turistik marshrut davomida mazmundor ob’ekt larini ko‘rish, yaxshi dam olish uchun mablag‘ harajat qilishdan tortinmasliklari xalqaro turizm rivojidagi tahlillardan ma’lum.

Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi faoliyatlilik tamoyili. Bu tamoyilda bir turistik marshrutdan-yil davomida foydalanish tushuniladi. Lekin mavsumlar o‘zgarishi bilan ushbu turistik marshrutdagi xizmatlarning turlari biroz murakkabla shishi yoki yengillanishi mumkin. Masalan, tog‘ daralariga, soylarga, buloq va daryolarga, rekreatsiya ob’ektlariga turistik marshrut yozda uyushtirilsa, xudi shu marshrutdan qish mavsumida tog‘larda chang‘i sportini tashkil qilishda, soylar va daryolar bo‘yicha ovchilik marshrutlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin. Qisqasi turistik marshrut harakatdan to‘xtamaydi.

Turistik marshrutlarning faoliyatlilik tamoyilida faqat transport xillari va marshrutdagi xizmatlar biroz o‘zgaradi. Masalan, qishning sovuq havo sharoitida ham erkin yuruvchi, saloni isitiladigan maxsus avtomashinalar kuzgi-qishki marshrutlarda xizmatga olinadi. Kuzgi-qishki marshrutlarga turistlarni taklif qilganda turistlarning hayoti xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarga juda e’tiborli bo‘lish talab etiladi.

Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi ko‘p qirralilik, (variantlilik) tamoyili. Bu tamoyil bo‘yicha ma’lum bir tur uchun ishlab chiqilgan marshrutning bir necha variantlari oldindan tayyorlanib qo‘yiladi. Masalan, ob-havo o‘zgargan hollarda turistik marshrutdagi xizmatlar ham o‘zgaradi. Ayniqsa turistik marshrutdagi ekskursiyalarni o‘tkazish qiyinlashadi (masalan, yomg‘ir yog‘ayotgan vaqtda). Bunday

vaziyatlarda ekskursiyaga ajratilgan vaqtni samarali o‘tkazish tadbirlari ishlab chiqish zarur bo‘ladi va marshrut dasturiga kiritiladi. Endi bu marshrut o‘zgartirilgan marshrut hisoblanadi. Ma’lum bir tur uchun marshrutning o‘zgartirilgan variantlari turistlar soni o‘zgarganda ham ishlab chiqiladi. Chunki, bu holatda ham oldingi marshrutdagi hajm o‘zgarib ketadi (masalan transport soniga, ovqatlantirishga, ekskursiyaga buyurtmalar). Shu o‘rinda turistlarning (ma’lum bir guruhi) jismoniy tayyorgarligi, yoshi bilan bog‘liq holatlarida ham marshrutning yangi variantlari ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi qulaylilik tamoyili. Bu tamoyildagi talablar shundan iboratki, marshrutdagi barcha xizmatlarni turistga taklif qilishda birinchi navbatda komfortga, qulaylilikga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Bu qulayliklar haqida turistik marshrutning oldingi tamoyillarida batafsil to‘xtaldi.

Turistik marshrut ishlab chiqishning axborotlanganlik tamoyili. Turistik marshrut haqidagi barcha ma’lumotlar–broshyura, bukletlar, ma’lumotlar, gazeta, radio, TV, aloqa vositalari marshrut ish boshlaganidan oldin tayyor bo‘lishi lozim. Turist marshrutda nimani ko‘radi, nimalar haqida ma’lumotlar eshitadi, qanday yuradi, transport turlari, dam olish, ovqatlanish tartibi, ko‘ngil ochar o‘yinlar turi, ekskursiyalar, uchrashuvlar va hakozolarga javob bo‘lishi kerak. Axborotlanganlik tamoyili turizmdagi barcha turistik resurslarga ishlab chiqiladigan turistik marshrutlarda qo‘llanilishi shart.

Qayd qilingan tamoyillar turistik marshrutlar ishlab chiqishning asoslarini, ko‘rsatmalarini, yo‘l-yo‘riqlarini tashkil qiladi. Ma’lum bo‘ladiki, turistik marshrutlar ishlab chiqish ancha murakkab jarayon bo‘lib, turistik xizmatlarni amalga oshirishda yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni talab qiladi. Shuningdek, turistik marshrutdagi xizmatlarni bajaruvchilar ham tillarni biladigan, zimmalariga olgan vazifalarni sidqidildan bajaruvchilar bo‘lishlari kerak.

24.2. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish usullari

Turistik marshrutlarni ishlab chiqishda turli uslubiy yondashishlarni hisobga olish talab qilinadi. Turizm sohasi dastlabki rivojlanish davrida turistik marshrutlar ham, turistik ekskursiya marshrutlari ham asosan og‘zaki tashkil qilinadi va aniqrog‘i og‘zaki dasturga asoslanib o‘tkazilaveradi. Bunday holatlarda turist o‘zi ko‘rishni, borishni istagan turistik ob’ektni tavsiya qiladi va unga ko‘rsatiladigan xizmatlarning barchasi rejalashtirilgan og‘zaki dasturlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Turizm rivojlana borgan sari turistlarga bunday usullarda xizmatlar ko‘rsatish samara bermay qoladi. Chunki, birinchidan, turistlar oqimining ko‘payishi, ikkinchidan, barcha turistlarga og‘zaki xizmatlar ko‘rsatishga vaqt yetishmaydi.Uchinchidan, zamonaviy vaqt talabi bo‘yicha hozirda juda ko‘plab turistlar o‘zi qiziqgan turistik ob’ektlarga oldindan buyurtmalar berishga odatlangan. Shuning uchun ham mamlakatimizda turistlarga og‘zaki va’dalar berish va og‘zaki usullarda turistik marshrutlar xizmatlarini ko‘rsatish davri tugadi. Odatlanganimizdek, hozircha ichki turistlarga og‘zaki turistik marshrutlar xizmatlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Chunki, ichki turistlar shu sharoitlarga hozircha o‘rganishgan. Hozirgi zamonaviy turizmda, ayniqsa xalqaro turistlarga mukammal rejali, dasturli turistik marshrutlarni ishlab chiqishimiz talab qilinmoqda.

Umumiy qilib olganda turistik marshrutlarni ishlab chiqish 3 usulda amalga oshiriladi. Bu usullarning barchasida turistik marshrutlar ishlab chiqish faqat bir tizim talablari asosida amalga oshiriladi. Aniqrog‘i, turistik marshrutlar ishlab chiqish texnologiyasi bir usulda mavzulari turlarning talablariga rioya qiladi.

Mavzuli usul. Turistik marshrutlarni ishlab chiqishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul mavzuli usul hisoblanadi. Turistik resurslarning barchasi ma’lum bir tizimda turganligidan, aniqrog‘i nomlanishi bo‘yicha turlarga ajratilgan. Masalan: ekoturizm, diniy-ziyoratgoh turizm, sport turizmi va hakozolar. Qayd qilingan nomlanishlardan ma’lum bo‘ladiki, ekoturizm marshrutlari tabiat landshaftlari va uning

biologik resurslari bilan bog‘liq. Shuning uchun ham, ekoturizm marshrutlarining barchasi tabiat resurslari va uning turlari nomi bilan ataladi. Masalan, “Tabiat qo‘riqxonasining hayvonot olami”, “Tabiat qo‘riqxonasining o‘simliklar dunyosi”. Bu mavzulardagi turistik marshrutlarni qo‘riqxonadagi ushbu turistik ob’ektlarga qiziqgan turistlarning o‘zlari tanlashadi.

Ekoturizm marshrutlari alohida tabiiy landshaftlarga ham ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, ekologik-rekresiya mavzusida ham majmuali holatda ishlab chiqilishi mumkin. Masalan, qo‘riqxonalarda ishlab chiqilgan turistik mashrutlarni ekoturizm ning majmuali marshrutlari deb atasa to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, qo‘riqxonada turist tabiatni va uning biologik xilma-xilligini majmuali holda (o‘simliklar, hayvonlar, qushlar, soylar, daralar, o‘rmonlar, suv havzalari va hakozolar) tomosha qilishadi, dam oladi-rekreatsiya. Shuning uchun ham turizm marshrutlar ishlab chiqish asosiy holatlarda turistik resurs nomi bilan nomlanadi.

Majmuali usulda turizm marshrutlar ishlab chiqilganda marshrut nomi bir mavzuda bo‘lishi ham yoki ikki, ayrim hollarda uchta mavzuda bo‘lishi ham mumkin. Masalan: tarixiy–diniy ziyoratgoh turizmi marshrutlari; tarixiy–rekreatsion–sport turizmi marshrutlari. Bunday majmuali turizm marshrutlarni ishlab chiqish ko‘pincha xalqaro turistlarning talab va istaklari asosida amalga oshiriladi.

Majmuali turizm marshrutlar aksariyat hollarda uzoq masoflardagi turistik makonga–ob’ektga turistlar tashrif qilinganda ishlab chiqiladi. Masalan: ekoturizm resurslari shaharlar va tumanlar markazlaridan ancha uzoqda cho‘l yoki tog‘ mintaqalarida joylashgan. Tabiiy holatki, bunday resurslarga birdaniga yetib borish turistni charchatadi va zeriktiradi. Shuning uchun ham, majmuali marshrutlarni ishlab chiqilganda turistni qiziqtirgan so‘nggi turistik resursga borishdagi yo‘l-yo‘lakay barcha turizm resurslariga ekskursiyalar uyushtirish, so‘lim joylarda dam olish, tunashni tashkil qilish, eng muhimi, marshrut atrofidagi diqqatga sazovar joylar, qadimiy maskanlar, tarixiy–madaniy obidalar ham marshrutga kiritiladi.

Bunday majmuali turistik marshrutlar guruhlar uchun ham alohida

turist (buyurtma) uchun ham ishlab chiqilishi mumkin. Ba’zi bir hollarda kasbiy faoliyat tufayli kelgan turist turistik resurslarning tarixi bilan qiziqishi mumkin. Masalan, ekoturizmdagi hayvonat olami bilan qo‘riqxona da tanishgan turist uning yashash tarzi, areali, biologiyasi bilan qiziqib qolganda turistik marshrut tuzuvchi mazkur hayvonot turlari bo‘yicha ishlaydigan ilmiy markazlar, universitetlar va tajriba markazlari va bu markazlarda ishlaydigan olimlar bilan uchrashuvlarni tashkil qilishni ham marshrut dasturiga kiritadi. Ana shu tariqa bir mavzuli turistik marshrutlar ko‘p mavzuli yoki majmuali mavzuli turistik marshrutlarga aylanib boradi.

Kartografik (haritali) usulda turistik marshrutlar asosan uzoq masofalarga mo‘ljallanganligi uchun harakatlanish marshrut o‘tadigan joylardan haritadan foydalanib ishlab chiqiladi. Turistik marshrutni o‘tkazish davomida ham haritadan foydalaniladi. Harita bilan amalga oshiriladigan turistik marshrutlarda marshrutda dam olinadigan aholi joylari yoki shaharlarda dam olish yoki ovqatlantirish, tunash xizmatlarining darajalari oldindan belgilangan bo‘lishi kerak. Eng muhimi shundan iboratki, turoperator ushbu marshrutning yo‘li holatini oldindan yaxshi bilishi, o‘rganishi lozim bo‘ladi. Chunki, mamlakatimizda qishki va bahorgi mavsumlardagi suv toshqinlari, sel hodisalari ba’zi hollarda ko‘priklarni, yo‘llarni yuvib ketishi hollari uchraydi.

Bu holatlardan xabarsiz bo‘lish natijasida uzoq masofali marshrut buzilishi mumkin. Bu usulda sarguzasht turizmi, suv havzalaridagi sayohat, g‘orshunoslik turizmi,tabiiy mintaqalarga, tog‘larga turistik marshrutlar ishlab chiqiladi. Kartografik usulda turistik marshrut ko‘p hollarda arxeologik yoki paleontologik sayohatlarni tashkillashtirishda ham juda qo‘l keladi.

Tajribali va bilimli turoperator o‘zi ishlab chiqgan barcha (uzoq va yaqin turistik resursga, ob’ektga) turistik marshrutning karta-sxemasini qo‘yishi turistlarda qiziqish hosil qiladi. Ayniqsa, karta-sxemada asosiy turistik ob’ektga borishdagi yo‘l-yo‘lakay uchraydigan ob’ektlar (marshrut dagi ekskursiya ob’ektlari) shartli belgilar va izohlar bilan qo‘yilganda marshrut davomidagi savollar kamayadi.

Turistik marshrutlarning mavzulari tur nomlarini anglatishi. Turistik marshrutlarni tarixiy va diniy ziyoratgoh turizmi jihatidan ta’riflashda bu ikkala turning biri–biri bilan bog‘langanligi hisobga olinadi. Aslini olganda ham bu ikkala turni ajratib bo‘lmaydi. Bu holat ko‘p hollarda turistning talabi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aniqrog‘i xalqaro turistlar biror joydagi diniy ziyoratgohlar, diniy rahnomalar daxmalarini ziyorat qilganda bu rahnoma faoliyati, tarixi bilan ham qiziqishadi. Ba’zi turistik marshrutlarda nomoz amallarini bajarish sharoitlarini talab qilib qolishi mumkin.

Bunday hollarda marshrutda qatnashuvchi gid-tarjimon tarixiy jihatdan kuchli bilimga ega va talab qilingan sharoitlarni tezkor usulda yaratish tajribalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Mahalliy turizm sayyohlari esa aksariyat hollarda faqat ziyoratni ijro etishib uning tarixi bilan qiziqmaydi. Tarixiy va diniy turizm marshrutlarini ishlab chiqishdagi tayyorlangan buklet, marshrut dasturida diniy ziyoratgoh maskani va bu maskanning yuzaga kelishidagi tarixiy davrlar haqida juda qiziqarli, qisqa-qisqa ma’lumotlar albatta turistni qiziqtiradi.

E’tibor qilsak, har qanday turistik resursning o‘ziga xos tarixi mavjud bo‘ladi. Turizmdagi barcha turlarga turistik marshrutlar ishlab chiqqanda turoperator bu savolga albatta marshrutda javob topishi lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham, turistik marshrutlar mavzusini nomlash, belgilash asosan turistik resurs-makon nomi bilan ataladi.

Masalan, Registon ansambli, Shohizinda yoki Amir Temur daxmasiga ishlab chiqilgan marshrutlar ana shu tarixiy obidalar nomi bilan atalishi hammaga ayon albatta. Bu marshrutlarda ba’zi turistlar (asosan islom dinidagi) birinchi navbatda ziyorat bilan shug‘ullanishadi va qur’on oyatlaridan duolar o‘qishadi. Keyinchalik esa bu ziyoragoh tarixi bilan qiziqishi mumkin. Ikkinchi xil turistlar (islom diniga e’tiqod qilmagan) dastlab ushbu turistik makonni tomosha qilishadi va keyin uning tarixi bilan qiziqishadi.

Qayd qilinganlarni hisobga olsak, turistik resursga turizm marshrutlarini ishlab chiqishda turistik resursdan majmuali foydalanish tomonlarini ham hisobga olish to‘g‘ri yondashish bo‘ladi. Eng muhimi shundaki, turistik marshrut dasturi marshrut atrofidagi barcha

qiziqtiruvchi ob’ektlarni qamrab olishi lozim. Turistik marshrutda turistni qiziqtiruvchi, uni to‘xtatib tomosha qildiruvchi resurslari qanchalik ko‘p bo‘lsa, ushbu marshrutga talab ham ko‘payadi, turistik oqim hajmi oshadi.

Tayanch so‘zlar: tamoyillar, jozibadorlik, mazmundorlik, qulaylilik, variantlilik, geografiya, usul, xilxona, maqbara.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va tpshiriqlar

1.Turizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillari qanday tavsiflanadi?

2.Turizm marshrutlaridagi jozibadorlik qanday aniqlanadi?

3.Turizm marshrutlarida mazmundorlik tamoyilining ahamiyati mavzusida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering.

4.Turizm marshrutlarining qulaylilik tamoyilida marshrut uchun qanday qulayliklar talab qilinadi?

5.Turizm marshrutlarini ishlab chiqish usullari mavzusida taqdimot tayyorlang va amaliy mashg‘ulotlarda gapirib bering.

XXV BOB. O‘ZBEKISTON TURIZMIDAGI TURLARNING REKLAMALARINI ISHLAB CHIQISH

25.1. Turizmning reklamalari va ularni ishlab chiqishdagi talablar

Turizmda reklama–turistik xizmatning iste’molchilari va ishlab chiqaruvchilari orasida aloqalar bajarilishining faol vositasidir. Reklama turizmning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, turistlarga faqat sayohat vaqtida emas, balki undan so‘ng ham xizmat ko‘rsatadi[167]. Turizm reklamalari quyidagi talablar bo‘yicha ishlab chiqiladi;

1. Turistik korxonalar uchun.
2. Turoperatorlar uchun.
3. Mutaxassislar uchun.
4. Turistlar uchun.

Turizmda reklamalar talabalar darajasi bo‘yicha 2 guruhga bo‘linadi:

1. Ehtiyojlar reklamasi–firmaning mavjudligi va uning biror-bir narsaga ehtiyojligi haqida mumkin bo‘lgan sheriklarini xabardor qilish uchun zarur bo‘lgan reklama turidir. Bunday ehtiyojlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ma’lum malaka va tajribaga ega bo‘lgan ishchilar, mutaxassislar, xizmatkorlarni vaqtincha yoki doimiy ishga qabul qilish haqida;
- material–texnik resurslarni qidirish haqida;
- material–texnik resurslarni sotish haqida.

2.Imkoniyatlar reklamasi–turistik xizmatlar ko‘rsatish sohasida firmaning imkoniyatlari haqida qiziquvchi tomonlarni xabardor qiladigan reklama turi. Qiziqadigan tomonlar yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Yuridik shaxslar–vatan va chet el firmalari, jamoa tashkilotlari, har xil mulkchilik shaklidagi korxonalar. Imkoniyatlar reklamalari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ma’lum davrda qaytariladigan yoki bir marotaba o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlarni tashkil etish;

[167].Karimov A.,Turizmda kommunikatsiya bozori.Toshkent,2003,44 b.

- o‘z xodimlari uchun dam olishni o‘tkazish;
- homiylik sayohatlarini amalga oshirish.

Reklama–axborot faoliyati yo‘nalishiga ta’sir etuvchi turizm xususiyati bo‘lib,bitta tarmoq doirasida barcha yoki ko‘pchilik moddiy-texnika asosini birlashtirsh imkoniyatini istisno qiladigan texnik-iqtisodiy ko‘rsatgichlari bo‘ladi.

Turizm boshqa tarmoqlarning tovar va xizmatlarini o‘tkazish bozori bo‘lib reklama axborot faoliyatining turli xil bozorlar va turistik mahsulotni ishlab chiquvchi – vositachilar bilan faol ishlashga yo‘naltiradi. Ishbilarmon turizmga mo‘ljallangan turlar reklamasi ommaviy axborot vositalari va direkt-meyl yo‘li bilan tarqatilishi mumkin. Pochta orqali reklamani tarqatish ham yaxshi samara beradi.

Direkt–meyl–reklamaning eng samarali turlaridan biri, uning mazmuni shundan iboratki, maxsus ajratilgan turistik korxonalar va xususiy shaxslar adreslari bo‘yicha belgilangan davrda reklama materiallari jo‘natiladi. Turistik firmalarning turli mamlakatlardagi turoperatorlik firmalari va ma’lum darajada salohiyatli va real maqsadlar (ishbilarmon turlardan doimiy foydalanishga majbur bo‘lgan firmalar) bilan keng aloqasi mavjudligida to‘g‘ri pochta orqali tarqatish samarali bo‘ladi.

Diniy, etnografik, tarixiy va qiziqish bo‘yicha turizmning ayrim turlarining reklamasini yoki bu turizm ishqibozlarining yig‘ilish joylarida, muzeylar, teatr markazlari yonida, qiziqish bo‘yicha klublarda, maxsus mollarni sotadigan do‘konlarda tarqatish maqsadli bo‘ladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ko‘cha reklamasi, transparantlar, afishalarda reklama tarqatish yaxshi natija beradi. Turizmda reklamani tarqatish vositalari quyidagi manbalar bo‘lishi mumkin.

1.*Matbuot reklamasi*–barcha davriy matbuot (gazetalar, jurnallar, ixtisoslashgan gazetalar va jurnallar).

2. *Kitob reklamasi*–reklamani nashriyotdan yangi chiqadigan kitoblar ichiga joylashtirish.

3.*Bukletlar*–firma va uning xizmatlari, mahsulotlariga bag‘ishlangan maxsus nashr.

4.*Reklama varaqalari*–bir varaqda chop etiladi, bir va ko‘p rangli, matnlari bilan shakllantiriladi. Ko‘pincha ko‘rgazma, yarmarkalarda, yig‘ilishlarda tarqatiladi.

5.*Kataloglar*–qisqa tushuntirish va narxlari bilan mahsulot va xizmatlarning katta ro‘yxatini reklama qiluvchi, chop etilgan nashr.

6. *Afishalar*–katta illyustratsiyalardan foydalanadigan katta o‘lchamli nashrlar.

7.*Kalendarlar,* tamg‘alar, ruchkalar, kundalik ommaviy sotiladigan sellofan xaltachalar.

8.*Telereklama*–reklamaning televideniyada berib borilishi eng yuqori natijalarga erishadi.

Turistik marshrutlar alohida turlar uchun ishlab chiqilganligidan uning reklamasi ham turlar bo‘yicha alohida reklama qilinadi. Bu reklama mazmuni reklama qilinayotgan turga bag‘ishlanadi. Marshrutlarning reklama mazmuni tanlanganda va ishlab chiqilganda quyidagilarga e’tibor berish lozim bo‘ladi;

-reklamaga turning eng qiziqarli, asosiy resursi-ob’ektini kiritish;

-reklamada marshrutning yo‘nalishi atrofida joylashgan (agar mavjud bo‘lsa) diqqatga sazovor turistik ob’ektlarni rangli tasvirlash. Reklamada marshrut davomida o‘tkaziladigan ekskursiya larning qiziqarli ob’ektlarini rangli tasvirlash;

-reklamada marshrut davomida ko‘rsatiladigan xizmatlarni tasvirlash.

O‘zbekistonda hozirgi vaqtda tarixiy obidalar turizmiga reklamalar talab darajasida ishlab chiqilmoqda. Lekin bu ishlab chiqilgan reklamalar ham Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlaridagi tarixiy obidalar haqida. E’tibor qilsak, bu shaharlardagi tarixiy, madaniy obidalarni dunyo mamlakatlaridagi xalqlar reklamasiz ham bilishadi, bu obidalarning mo‘jizaviyligi haqida jahon matbuoti (YUNESKO, BMT) axborotlarini o‘qishgan, eshitishgan.

Respublikamizdagi boshqa shaharlar, tumanlardagi tarixiy obidalar haqidachi? Bu obidalarni bizning o‘zimiz ham to‘liq bilmaymiz. Bilganlarimiz ham chala, savodsiz holatda. Islom olamida mashhur va taniqli avliyolar, shayxlar, xo‘ja va sayyidlar hayoti bilan

bog‘liq joylar, ularning daxmalari ziyoratgohlari to‘liq ro‘yxatga olingan bo‘lsada, turistik marshrutlar ishlab chiqilmaganligidan na xalqaro turizmda na mahalliy turizmda foydalaniladi.

Jizzax viloyatida Islom dini ta’limotida mashhur bo‘lgan 30 ta avliyolar, shayxlarning ziyoratgohlari ro‘yxatga olindi va bular haqida kitob ham chop qilindi[168]. Bu ziyoratgohlarning birortasiga ham turistik marshrut ishlab chiqilmagan. Respublikamiz aholisi biri-biridan eshitib bu qadamjolarni ziyorat qilishmoqda, ko‘rib ketish-moqda. Respublikamizda turizmni, rivojlantirish uchun dastavval har bir turistik resursga turistik marshrut ishlab chiqilmog‘i zarur. Turizmdagi reklamada 3 ta zaruriy ob’ekt bo‘ladi. Birinchisi–turistik ob’ekt (makon, manzil) ikkinchisi–turistik marshrut, uchinchisi–turistik marshrutdagi xizmatlar.

Reklamaga turning eng qiziqarli, asosiy resursi–ob’ektini kiritish va izohlash. Bu talabda reklamaga barcha turlarning asosiy ob’ekti rangli tasvirda kiritiladi. Bu usul jahon turizmida eng qulay, natijali va tan olingan usul hisoblanadi. Respublikamizdagi tarixiy obidalar turizmida qayd qilingan usulda reklama mahsulotlari jahon andozalarida chop qilinib dunyo mamlakatlariga tarqatilmoqda.

Diniy turizmda hozirgacha jahon miqyosida nomlari mashhur bo‘lgan allomalarning qabrini ziyorat qiluvchilar turistik marshrut reklamasiz ham vatanimizga kelib ketmoqda. Turizmda reklama turistik ob’ektga turmarshrut ishlab chiqilgandan keyin turizm bozoriga–iste’molchiga chiqarilishi lozim. Reklama falon joy yoki falon qiziqarli turistik ob’ekt falon joyda joylashgan degan axborotlar bilan reklama bo‘lib qolmaydi. Bunday reklamalar hozircha bizning, mahalliy aholi talabini qondiradi.

Biz turistik ob’ekt yoki ziyoratgoh manzilini so‘rab-surishtirib borishga o‘rganganmiz. Reklamada turistni turistik resursga–ob’ektga chorlaydigan markaziy ob’ekt birinchi betda, ko‘rinarli holatda, rangli tasvirda, qisqacha izoh bilan berilishi lozim. Masalan, ekoturizm ishqibozlari xilma-xil hayvonot dunyosiga qiziqishadi, biri qushlarga, biri hayvonlarga. Bunday reklamalarga ma’lum joylarda (tog‘larda,

[168] .Og‘a burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. Toshkent, «Fan» nashriyoti,2008.-50 b

qo‘riqxonalarda, buyurtmaxonalarda, suv havzalarida va hako.) yashayotgan, ko‘paytirilayotgan, asosiy diqqat–e’tibordagi yakka yoki o‘sha joyda yashayotgan hayvonot olamining vakillari birgalikda beriladi.

Masalan, Nurota Qo‘riqxonasida 600 tur o‘simliklar o‘sadi. Bu o‘simliklarning umumiy fondini rangli qilib berish reklamaning ta’sirchanligini oshiradi. Shuningdek, qo‘riqxonaning Osraf darasida tog‘ hayvonlari tasvirlangan qoyatoshlarni ham reklamaga kiritish reklama bilan tanishgan turistlarda qiziqish hosil qiladi. Qo‘riqxona hududidagi Majrum qishlog‘ida ming yoshli ulkan archa daraxti hozir ham ko‘karib turibdi, bu archani ham tayyorlanadigan reklamaga kiritish reklamaning ta’sirchanligini kuchaytiradi. Shuningdek, qo‘riqxonada burgut, lochin va qora kalxatlar ham reklamaga albatda rangli tasvirda kiritilishi reklamaning jozibadorligini kuchaytiradi.

Reklamada marshrutning yo‘nalishi bo‘yicha joylashgan diqqatga sazovor turistik ob’ektlarni tasvirlash. Turizm reklamalarini ishlab chiqishda turoperatorning yetuk bilimli, malakali va qiziquvchanligi turistik firma uchun juda muhim omildir. Turistni belgilangan marshrut bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri u tanlangan turistik ob’ektga (makonga) olib borish mumkin. Turoperatorning bilimi, qiziquvchanligi va ustamonligi omilini ishlayotganimizda yoki undan talab qilganimizda turist tanlagan ma’lum bir turistik marshrut reklamasiga mazkur marshrut bo‘ylab joylashgan qiziqarli turizm ob’ektlarning rasmlarini qisqacha izohlash albatda qiziqarli bo‘ladi.

Masalan, Samarqand shahriga kelgan turist reklama bo‘yicha viloyatimizning eng so‘lim go‘shalaridan biri bo‘lgan Omonqo‘ton vohasida 1-2 kun dam olishni hohlaydi (rekreatsion va ekologik turizm). Bunday buyurtmalarga turfirma va mehmonxonalarda ishlayotgan turoperatorlarda hamisha zahirada qo‘shimcha turistik marshrut reklamalari bo‘lishi lozim va shunday bo‘lishi ham kerak.

Omonqo‘ton vohasiga boradigan turistik marshrutning zahiradagi reklamasiga marshrut bo‘ylab joylashgan ko‘plab yoki asosiy diqqatga sazovor turistik ob’ektlarni joylashtirish mumkin. Masalan, Samarqandga kelib Omonqo‘tonni ko‘rishni hohlagan turist va turistlar

albatda birinchi kuni Samarqand shahridagi tarixiy obidalarni tomosha qilishadi va ikkinchi kundan boshlab Omonqo‘ton vohasiga turistik marshrut asosida yo‘lga tushadi.

Ana shu turistik marshrut reklamasiga birinchi navbatda Samarqand shahridan chiqishda joylashgan, naqshbandiya tariqati ning jahonga mashhur allomasi Xoja Ahror Vali hazratlarining madrasasi binosini rangli tasvirda joylashtirish maqsadli bo‘ladi. Chunki, Xo‘ja Ahror Vali nomi ham Temuriylar davrida qurilgan Xo‘ja Ahror Vali madrasasining qurilishi, mahobati va rang-barangligi ham Temuriylar qurgan ulkan, tarixiy binolardan kam emas.

Xuddi ana shu reklamaga shahardan chiqishdagi qadimiy Darg‘om kanalining rasmi va qisqacha tarixini berish ham turistni qiziqtiradi. Ushbu reklamaga Omonqo‘ton yo‘lidagi tosh haykallar ning rasmlarini joylashtirish ham albatda turistlarni o‘ziga jalb qiladi. Ular tabiiy jarayonlar ta’sirida hayratomuz ko‘rinishni hosil qilgan tabiiy tosh haykallarni tomosha qilishadi, rasmlarga tushishadi, turistlar jozibadorlik, takrorlanmaslikni ko‘rib yaxshi kayfiyatda bo‘lishadi.

Har bir turistik marshrut reklamasida qayd qilingan usullarni qo‘llash mumkin. Turistik marshrut reklamasi faqat diqqatga sazovar turistik ob’ektlar bilan to‘ldirilishi mumkin. Ba’zi hollarda turistik makonga yetguncha birorta ham qiziqarli turistik ob’ektlar bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday marshrutlarda tabiiy va antropogen landshaftlardagi so‘lim, rekreatsion ob’ektlarga ekskursiyalar uyushtirish lozim bo‘ladi.

Reklamada marshrut davomida o‘tkaziladigan ekskursiya ob’ektlarini tasvirlash. Turizmda ishlab chiqiladigan marshrutlarda ekskursiyalar (sayrlar) qanchalik ko‘p bo‘lsa marshrutning betakrorligi, jozibadorligi, turli-tumanligi shunchalik kuchli bo‘ladi. Har qanday turob’ektga turistik marshrutning reklamasini ishlab chiqilganda marshrut davomida nechta ekskursiya o‘tkazish rejalashtirilsa barchasi haqida turmarshrut reklamasida rangli rasm va qisqacha izoh bo‘lishi marshrutni tanlangan turist uchun yaxshi axborot bo‘ladi.

Ekoturizm, rekreatsion turizm va boshqa turizm turlari bo‘yicha shaharlardan uzoq masofadagi diqqatga sazovar joylar, tarixiy obidalar

va mashhur kishilar hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy-madaniy joylar albatda turmarshrut reklamasida aks ettirilishi lozim. Masalan, Samarqand shahridan Qashqadaryo tomon chiqilganda bu yo‘nalishdagi barcha turistik marshrut reklamasida albatda yo‘l bo‘yidagi Oqsoy qishlog‘i tog‘laridagi Dovud payg‘ambar g‘origa ekskursiya uyushtirilishi va bu g‘orning jahonga mashhurligi, jahon miqyosidagi ziyoratgoh joyligi marshrut reklamasidan albatda joy olishi turistlarda katta ta’surot qoldiradi.

Qayd qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, turistik marshrutni reklama qilganda marshrutni ishlab chiquvchi ham va uni reklama qiluvchi ham vatanimizning tabiiy, tarixiy geografiyasini juda yaxshi bilishi, ayniqsa turistik marshrut atrofidagi diqqatga sazovor ob’ektlar, joylar va markazlarni turistdan oldin yaxshilab tanishib chiqishi zarur.

Reklamada marshrut davomida ko‘rsatiladigan xizmatlarni tasvirlash. Turistik marshrut davomida turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar haqida ushbu o‘quv qo‘llanmadagi mavzularda batafsil yozildi. Endi turistik marshrutdagi xizmatlarni ham marshrut reklamasida aks ettirish turistlar uchun talab qilinadigan axborotlar ro‘yxatida turadi. Turistik marshurtlardagi xizmatlar reklamada tasvirlaganda reklamadagi asosiy ob’ektlardan, qo‘shimcha ob’ektlardan va ekskursiya ob’ektlaridan keyin qo‘yilishi mumkin.

Bu holatda dastlab marshrutda xizmat qiladigan yuqori komfortli transport xillari, ovqatlanishdagi milliy taomlar, eng so‘ngida dam olishdagi sharoitlar kichik rangli rasmlarda ham berilishi turistlarni ancha xotirjam qiladi. Ular marshrut davomida yuqorida qayd qilingan xizmatlarni so‘rab-surishtirishib yurmaydi. Respublikamizda hozirgi kunga kelib Chimyon tog‘-chang‘i sporti turizmi majmuasi, yirik, xalqaro kurortlarimiz jahon andozalari talabida reklama chiqarmoqda va xalqaro turizmda turistlar oqimining kelishiga yaxshi sharoitlar yaratmoqda.

Turizmda reklama ishlab chiqarish mutaxassislarining fikricha:

- rangli reklamalar oq-qora rangdagilarga nisbatan 65-70 % ko‘proq ko‘zga yaxshi tashlanadi;

- sifatli ranglangan rasmlari bor reklama sifatsiz rasmli reklamaga qaraganda bir yarim barobar koʻp kishilarga oʻziga jalb qiladi;
- sariq hoshiyadagi qora rangdagi matn boshqa ranglarga qaraganda koʻproq kishilarni matnni oʻqishga jalb qiladi;
- reklamada ramkalangan tasvirlar, izohlar ramkalanmagan matnlarga nisbatan birinchi navbatda oʻqiladi;
- reklamadagi soʻz oʻyinlari uning oʻquvchanligini pasaytirib yuboradi;
- reklamada matn qanchalik qisqa boʻlsa tez yodda qoladi;

Reklama turizmning doimiy yoʻldoshi boʻlib, turistlarga faqat sayohat vaqtida emas, balki undan soʻng ham xizmat koʻrsatadi. Bu esa reklamaga alohida ma'suliyat yuklaydi va turizmdagi tovar va xizmatlarni taklif qilishda turizm bozoridagi axborotlarga toʻla moddiy mahsulot vazifasini bajaradi. Yodda tutish lozimki, turistik marshrut qanchalik mukammal ishlab chiqilsa uning reklamasi mazmuni shunchalik qiziqtiruvchi ma'lumotlarga boy boʻladi. Turizm bozorida reklama qanchalik koʻp boʻlsa, xalqaro miqiyosda ham mahalliy miqiyosida ham turistlar oqimining kuchayishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida"gi Qonunida shunday deyiladi: "OAVda, reklama axborotlari va materiallariga maxsuslashtirilgan sifatida roʻyxatga olinmagan reklama tarqatish hajmi davriy bosma nashrning alohida nomeri hajmining 40 foizidan; radio va teledasturlar uchun-25 foizdan oshmasligi lozim. Tahririyat ma'lumot, tahririyat va mualliflik materiallari koʻrinishda joylashtirilgan reklama uchun haq olish huquqiga ega emas".

Oʻzbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlar sertifikatsiyasi toʻgʻrisida"gi Qonunida majburiy sertifikatsiya dan oʻtishi lozim boʻlgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega boʻlmagan mahsulotlarni reklama qilish ta'qiqlanadi. Turoperator turlar sotish bilan bogʻliq kataloglar, reklama varaqalari va e'lonlardagi ma'lumotlarning toʻgʻriligi uchun javobgar hisoblanadi.

Ko‘pincha, bir reklama axborotida mahsulotni harakatlantiruv chi har uchala tashkil qiluvchini ham hisobga olish talab qilinadi (yo‘nalish, safarlar ko‘rinishlari va iste’molchilar kategoriyalari bo‘yicha ajratilgan takliflar). Bunda reklamaning quyidagi asosiy prinsiplarini hisobga olish zarur:

- reklama qisqa bo‘lishi lozim,aks holda u oxirigacha qabul qilinmaydi;
- reklama mijozlarga tushunarli bo‘lishi kerak, chunki ongli qabul qilingan narsalar odatda xotirada ko‘proq saqlanib qoladi;
- axborotning boshidagi va oxiridagi xabarlar axborotning o‘rtasida keltiriladigan ma’lumotlarga qaraganda yaxshi esda qoladi. Reklama axboroti maketi va matnini tuzishda asosiy ma’lumot bilan boshlab, u bilan tugatish uchun uni oldindan ajratib olish lozim;
- ma’lumotlar odatiy tushunchalarga, ishonchlar, fikrlarga zid bo‘lmasa, yengil qabul qilinadi va yaxshi eslab qolinadi;
- jamiyat hayotining asosiy tendensiyalari ruhiyatini ham hisobga olish zarur. Buning uchun aholi ichida ijtimoiy so‘rovlar, ya’ni marketing tadqiqotlarini o‘tkazish kerak. Faqat shu orqali mijozlarga nima yoqishini bilib olish mumkin.

Turistik firmadagi reklama bo‘yicha taktik qarorlar o‘z ichiga 3 blok savollarni oladi:

- reklama vositalari yoki reklama tashuvchilarni tanlash;
- reklama e’lonlariga to‘lovlar va harajatlarni nazorat qilish;
- reklama murojaatnomalarining chiqish grafigi.

Ekoturizm marshrutlarining reklamasini ishlab chiqishda dastlab ekoturizm marshrutining mavzusi aniqlanadi. Respublikamiz-da ekoturizmni rivojlantirishda tabiat qo‘riqxona laridan foydalanish haqida juda ko‘plab mulohazalar va takliflar, tavsiyalar bildirilmoqda. Lekin, yuqorida qayd qilganimizdek tabiat qo‘riqxonalaridan ekoturizm maqsadlarida foydalanishning huquqiy me’yorlari ishlab chiqilmaganidan hozircha bu ekoturistik salohiyat-dan foydalanish imkoniyatlari yo‘q. Shunga qaramasdan, hozirdanoq tabiat qo‘riqxonalarimizdagi ekoturistik ob’ektlarni ro‘yxatga olishimiz va

ularning tavsiflarini yozib borishni boshlashimiz kerak.

Albatta, tabiat qo‘riqxonalarning o‘ziga xos bo‘lgan tabiat landshaftlarining rangli tasvirlari kataloglari ishlab chiqilgan. Ekoturizm rivojlanishidagi halqaro statistikani ko‘rganimizda ichki turizmda ham halqaro turizmda ham 70–80 % turistlar tabiat qo‘riqxonalaridagi noyob ayniqsa, tubjoy tabiatidagi hayvonot olamiga qiziqishmoqda.

25.2. O‘zbekiston turizmidagi turlarning reklamalarini ishlab chiqish

O‘zbekistonning davlat tabiat qo‘riqxonalarining reklamalarini ishlab chiqishda ekoturizm rivojlangan xorij davlatlarining tajribalariga amal qilishimiz mumkin. Ekoturizm rivojlangan Yevropa davlatlarida, AQShda va Kanada davlatida ekoturizmning asosiy resurslari alohida muhofazadagi hududlar hisoblanib, bu hududlar milliy parklar, davlat tabiat qo‘riqxonalari, davlat tabiat buyurtmaxonalari va tabiat yodgorliklari hisoblanadi.

Bu davlatlarda ekoturizmning reklamasida alohida muhofazadagi hududlardagi (milliy parklar, tabiat qo‘riqxonalari, tabiat buyurtma-xonalari va tabiat yodgorliklari) asosiy muhofazadagi, xalqaro “Qizil kitob”dagi bir yoki ikkita hayvon yoki parrandaning rasmlari beriladi.

Reklamada bu hayvonlarning noyobligi, qirilib ketishi arafasida turganligi, uni muhofaza qilishning va saqlab qolishning zarurligi, lozim topilsa uni muhofaza qilish va ko‘paytirishga moddiy yordam berishning vatandagi biologik resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishdagi xayrli ishlar ekanligi ham, bunday kishilarning nomlari va yordam miqdorlari gazeta va jurnallarda e’lon qilinishi, ularning oilalari milliy parklarga va tabiat qo‘riqxonalariga bepul qo‘yishliklari ma’lum qilinadi.

Ma’lumki, har qanday turistik harakatlar va faoliyatlar turistik marshrutlardan boshlanadi va turistik marshrutda turistni qiziqtiradigan asosiy rasmlar yoki axborotlar tasvirlanadi. Shuning uchun ham turistik marshrutlar ishlab chiqishda ramzlar va emblemalardan foydalanish turizm reklamasida muhim o‘rinni egallaydi. Chunki, emblema yoki

ramz qo‘yilgandan keyin turistik resurs yoki turistik ob’ekt haqida qo‘shimcha izohlarning yozilishiga ehtiyoj qolmaydi. Buning uchun turoperatorlar bilimli bo‘lishi kerak.

Dunyo ekoturizmida ekoturistlar milliy parklar va tabiat qo‘riqxonalariga qiziqishadilar. Buning bosh sababi, tabiat qo‘riqxonalarida tabiiy landshaftlarning, biologik resurslarning saqlanib qolganligi hisoblanadi.

Jahonning ekoturizmida dunyodagi eng katta–sahroyi Kabirda joylashgan arab davlatlari juda qiziqarli turlarni tashkil etgan (cho‘pon uylari-yurtalarda yashash, cho‘l bo‘ylab tuyalarda sayr qilish, cho‘lliklarning milliy taomlarini tayyorlash va boshq..) va bu turlarning xalqaro turizmdagi ishqibozlari ham ko‘p. Xuddi shunday turlarni O‘zbekistonning cho‘llarida ham tashkil qilishning juda katta imkoniyatlari bor. Buning uchun turoperator larga Samarqand shaharidagi O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘llar ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining olimlari samarali yordam berishlari mumkin.

Bu institut 1930-yildan jahonda yagona Butunitifoq qorako‘lchilik ilmiy-tadqiqoti instituti, mustaqillik-yillaridan O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘llar ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti maqomini olgan. Institutning olimlari Markaziy Osiyo cho‘llarida juda ko‘p-yillar cho‘l ekotizimlarini saqlash, boyitish va muhofaza qilish ilmiy-tadqiqotlari bilan mashg‘ul bo‘lgan. Turoperatorlar cho‘llarmizdagi qiziqarli turob’ektlar haqida tayyor ma’lumotlarni berishlari mumkin. O‘rganilayotgan mavzumizning maqsadi bo‘yicha, quyida *Qorako‘lchilik “Turizm va biznes” mavzusidagi turistik marshrutning reklamasida turistlarni qiziqtiruvchi asosiy ob’ektlarni keltiramiz.*

QORAKO‘LCHILIK: “Turizm va biznes” mavzusidagi turistik marshrutning reklamasida turistlarni qiziqtiruvchi asosiy ob’ektlar.



25.1-rasm. Turistik marshrutning boshlanishi manzili: Samarqand shahridagi O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘llar ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti. Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 47 uy, tel. 233-35-79



25.2-rasm. Institutning muzeyi va muzeydagi qorako‘l terilari kolleksiyasi









25.3-rasm.Qorako‘l qo‘y zotiga qo‘yilgan jahondagi yagona haykal, 1930-yilda institut tashkil qilinganda Moskva shahrida tayyorlangan.Hozir institut hovlisida saqlanmoqda





25.4-rasm.Cho‘lning Tim qishlog‘idagi 1000 yoshliarcha daraxti. Qarnabcho‘lning Tim qishlog‘i qabristonidagi Arab ota maqbarasi. ma’lumotlar bo‘yicha bu maqbaraning yoshi ham ming -yilga teng. Maqbara to‘liq tadqiq qilinmagan.

Tayanch so‘zlar: cho‘l, sahro, reklama, brend, afisha, ramz, emblema, antropogen, katalog, buklet, direkt meyl, inter reklama.

Mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha savollar va topshiriqlar

1.Reklamaning kelib chiqishi tarixini o‘rganing va amaliy mashg‘ulotlarda gapirib bering.

2.Reklamaning qanday turlari bor?

3.Hozirgi jahon turizmida reklamalar ishlab chiqishning talablari haqida taqdimot tayyorlang va amaliy mashg‘ulotlarda gapirib bering.

4. Reklamalarda shakllar va ranglar qanday tanlanadi?.

5.O‘zbekiston turizmi mavzusida yangi reklama tayyorlang.

XXVI BOB. O‘ZBEKISTON TURIZMIDAGI TURLARGA GID-EKSKURSIYACHILAR TAYYORLASH

26.1. Turizmning turlariga gid- ekskursiyachilar tayyorlash

Milliy meros turizmiga gid- ekskursiyachilarini tayyorlash. Har qanday kasb mehnat faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, shu kasbning asosiy xususiyatlarini belgilaydigan bilim va tajribaga ega bo‘lishni talab qiladi. Bunday bilimlar ushbu kasb yo‘nalishidagi ta’limni o‘rganishdan, tajribalar esa mehnat faoliyati davomida o‘zlashtiriladi. Turizmdagi gid faoliyati-gid kasbi yuqorida qayd qilingan bilimlar, tajribalar, ta’limni mukammal egallashni talab qiluvchi kasb. Hozir O‘zbekiston turizmidagi gid faoliyatini, uning o‘zini gid-ekskursovod, gid-yetakchi, gid-ekskursiyachi, gid-boshlovchi deb atashmoqda va gid atamasi faqat turizm sohasiga taalluqli emas.

Turizmdagi gid faoliyati va uning kasbiy talablarini Rossiyalik taniqli olimlarning asarlaridan o‘rganganmiz[169]. Ularning darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari mukammalligi uchun turizmda asosiy mutaxassislik fanlari sifatida o‘qitiladi. O‘zbekistonda chop qilingan lug‘atlarda gid va gid-tarjimon-ekskursiyachining izohlari Rossiyalik olimlarning asarlarini tarjima qilish bilan quyidagicha berilgan[170].

Gid farang tilida – guide – boshlovchi – sayrbon, turistik ekskursiya byurosi rasmiy vakili, turistlar va sayohachilarga turistik ob’ektni ko‘rsatadi, tarixini so‘zlab beradi, shahar yoki hududning tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylari bilan tanishtiradi.

Gid - tarjimon - ekskursiyachi - xorijliklarga ularning mamlakat bo‘ylab turistik safarida kuzatib boradi. Marshrutda ularga xizmatlar ko‘rsatishda bevosita ishtirok etadi, xizmatlar uchun moliyaviy hisob kitoblarni olib boradi. Gid-tarjimon-ekskursiyachi bir nechta chet tillarda erkin so‘zlashadi, ekskursiya va marshrutlarni mustaqil o‘tkazadi, turistlarning savollariga javoblar, maslahatlar beradi. Gid-tarjimonning ish staji, kasbiy mahorati qarab uch darajali toifa

[169].Yemelyanov B.V., Osnovi ekskursovedeniye. Uchebnoye posobiye, SRIB, «Turist»,Moskva, 1985,-218 s.: Doljenko G.P., Ekskursionnoye delo, Uchebnoye posobiye, Izd.,sentr MarT-M,:-Rostov- na-Donu,2006.-304 s.

[170] Mamatqulov X. M., Turizm va servisga oid izohli lug‘at. Samarqand, SamISI, 2010.-362 b.

(uchinchidan birinchigacha beriladi)[171].

Gid-tarjimon-turizmga bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish jarayonlarida, har-xil tillardagi odamlarning o‘zaro muloqatlarida, hamkorlik faoliyatlarida, qo‘shma korxonalarning ish faoliyatlarida shartnomalar va hakozolarda tarjimonlik qiluvchi shaxs. Biz milliy turizmimizda bitta *gid-ekskursiyachi nomini* qabul qilishimiz va uning faoliyatiga o‘rganishimiz lozim. Chunki ichki turizmda gidning tarjimonligi talab qilinmaydi. Gid-yetakchi, gid-boshlovchi, atamalari turizmda gid-ekskursiyachi atamasiga nisbatan ancha noaniqroq tushunchalarni keltirib chiqaradi.

Turizm sohasida, turistik firma rivojida gid-ekskursiyachining ma’suliyati juda katta. U ekskursiyachilar va turistlar qiziqib tanlagan, ular uchun noaniq va birinchi ko‘rishi bo‘lgan turistik ob’ektni ularni qoniqtiradigan ko‘rsatuvni va ma’lumotlarni berishi, ularning savollariga to‘liq javob berishi kerak. Shuning uchun ham gid-ekskursiyachilarga quyidagi talablar qo‘yilgan:

1. Intellektuallik;
2. O‘z-o‘ziga ishonchliligi, qat’iyligi;
3. Kommunikativlik;

4.Kasbiy mahoratiga ishonishi yuzasidan yuqori pog‘onalarda turishini his qilish.

5.Tashkilotchilik;

6.Har tomonlama dunyoqarashga ega bo‘lish;

7.Madaniyatlilik;

8. Bilimililik

9.Tahlil qila bilish.

O‘zbekistonlik olimlar gid-ekskursiyachi quyidagi mezonlar bilan baholanishini tavsiya qilishgan[172]:

1.Tashqi ko‘rinishi, tajriba, zamonaviy asbob-uskunalar;

2.Puxta bilimlilik, kasbiy professionallik;

3.Axborotlanganlik va o‘zaro hamkorlik;

4. Ijtimoiy xulq-atvorining yuqoriligi;

[171]Mamatqulov X. M., Turizm va servisga oid izohli lug‘at. Samarqand, SamISI, 2010.-362 b.

[172]Tuxliyev N., Abdullayeva A., Ekologicheskiy turizm: sushnost, tendensii i strategiya razvitiya, O‘quv qo‘llanma, Gos.izd. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», Toshkent, 2006.-415 s.

5.Yoshi 20 yosh va undan yuqori bo‘lishi, 3-yil tajribaga ega gid-ekskursiyachining yoshi 50 yoshdan yuqori bo‘lmasligi.

Gid-ekskursiyachining shaxsiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo‘ladi: yoqimli tashqi ko‘rinish; e’tiborli; kuchli xotira; ishda ijodiy yondashuv; tez qaror qabul qilish qobiliyati; tashkilotchi; o‘ziga ishonuvchan; dunyoqarashi keng; nutq madaniyati, to‘g‘ri talaffuzga ega bo‘lish, so‘z boyligiga ega bo‘lishi kerak.

Shaxsiy fazilatlarga to‘g‘ri kelmaydigan ko‘rsatmalar: yurak qon-tomiri kasalliklari bilan og‘riganlarga, ruhiy va asab tizimlari buzilganlarga, nutqida va jismoniy kamchiligi borlarga bu ish tavsiya etilmaydi. Milliy madaniy meros turizmining xalqaro yo‘nalishiga gid-ekskursiyachilarini tayyorlashda yuqorida keltirilgan talablarga qat’iyan rioya qilinishi lozim. Shuning uchun hamki, milliy madaniy meros turizmiga tayyorlangan gid-ekskursiyachilar millatimizning insoniyatning qadim madaniyat markazlaridan biri ekanligini, millatimiz betakror odob-axloq madaniyatiga, yaratuvchilik san’tiga ega ekanligi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni xalqaro turistlarga yetkazuvchi, milliy meros boyliklarini ko‘rsatuvchi, tushuntiruvchi hisoblanadi.



26.1-Rasm. Milliy meros yo‘nalishlariga gid-ekskursiyachi tayyorlash

O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmining resurslaridan foydalanishda istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlab, milliy madaniy meros turizmining milliy meros boyliklaridan foydala nishi bo‘yicha ixtisoslashuvi ham ana shu yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi tavsiya qilinganligini hisobga olsak, milliy madaniy meros turizmiga gid-ekskursiyachilar tayyorlash ham shu yo‘nalishlarda tayyorlanishi to‘g‘ri bo‘ladi degan xulosaga to‘xtaldik (26.1-rasm).

Turizmning tarixiy-madaniy turizm, ziyorat turizmi, rekreatsiya turizmi va arxeologiya turizmi kabi asosiy turlari deyarli bir mavzuli bo‘lganligi uchun bu turlarga gid-ekskursiyachilar tayyorlash milliy madniy meros turizmiga gid- ekskursiyachilar tayyorlashga nisbatan ancha yengilroq. Chunki, mazkur turizm turlari nomlanishiga bog‘liq bo‘lib gid-ekskursiyachi tayyorlashda o‘rganiladigan fan va bilimlar, tajribalar ham asosan bir mavzu bilan bog‘liq. Masalan, O‘zbekistonning hozirgi turizmda tarixiy-madaniy turizm turi rivojlanayotganligi bilan bu turga gid-ekskursiyachilar tayyorlashga talab katta hisoblanadi. Tarixiy madaniy turizm turi tarixiy obidalar, tarixiy joylar va tarixiy voqealar bilan bog‘liq turizm resurslarini qamrab olganligi tufayli bu turizm turida tilni o‘rgangan tarix o‘qituvchilari ham gid-ekskursiyachi bo‘lib ishlamoqdalar. Ziyorat yoki arxeologiya turizmi haqida ham shunday xulosalarni keltirish mumkin.

Xalqimizning milliy merosi boyliklari turli-tuman va turli yo‘nalishlarni, hattoki sohalardan iborat bo‘lganligi uchun yuqorida keltirilgan turizm turlaridek umumiy yo‘nalishga gid-ekskursiyachilar tayyorlash juda murakkab bo‘lib, gid-ekskursiyachini milliy meros boyliklarining barcha turlariga va yo‘nalishlariga tayyorlash juda ko‘plab vaqtlarni oladi. Chunki xalqimizning milliy merosi boyliklari turli yo‘nalishlarni tashkil qilgan bo‘lib, biri-birini takrorlamaydi. Milliy merosimizdagi “Hunarmandchilik” sohasining o‘zigina gid-ekskursiyachidan xalqimizdagi quyidagi barcha hunarmandchilik yo‘nalishlarini puxta o‘rganishni talab qiladi:

I-Milliy hunarmandchilik:

1.1.Duradgorlik va duradgorlik yo‘nalishlari

1.2.Kulolchilik va kulolchilik yo‘nalishlari

1.3.Kashtachilik va kashtachilik yo‘nalishlari (zardo‘zi kashtachilik, guldo‘zi kashtachilik), milliy liboslar (milliy to‘n, milliy do‘ppi, shoyichilik, atlas, baxmal, beqasam va tikishdagi yo‘nalish-lar, va boshq..)

1.4.Gilamchilik va gilamchilikdagi yo‘nalishlar

Keltirilgan hunarmandchilik yo‘nalishlarining tarkibida yana yo‘nalishlar bor. Masalan, duradgorlikning 6 ta maktablari (Xorazm, Buxoro, Samarqand, Urgut, Toshkent, Farg‘ona) mavjud. Kashtachilik, kulolchilik va gilamchilik hurmandchiligida ham 4 dan to 10 tagacha yo‘nalishlar bor. Shuning uchun ham, milliy madaniy meros turizmida xalqimizning milliy merosidagi hunarmandchilik ning barcha yo‘nalishlari bilan bog‘liq tarixni, usullarni, puxta egallagan gid-ekskursiyachini tayyorlashimiz lozim (26.2-rasm).



25.1.2-Rasm. Milliy merosning “Hunarmandchilik” yo‘nalishlarga gid-ekskursiyachilar tayyorlash

Har bir yo‘nalish bo‘yicha gid-ekskursiyachi tayyorlash osonu lekin, hozirgi turizmda bu gid-ekskursiyachiga talab kam bo‘ladi. Lekin istiqbolda hunarmandchilik har bir sohalariga albatda gid-ekskursichilar tayyorlash ehtiyoji kelib chiqadi.

Hunarmandchilikning yo‘nalishlari har –xil bo‘lsada, ularning ko‘plab jihatlari biri-biriga yaqin. Tayyorlanayotgan gid-ekskursiyachi bu jihatlarni osonlik bilan o‘zlashtirib oladi va yetuk, malakali mutaxassis bo‘lib yetishadi.



26.3-Rasm. Milliy merosning “Milliy ustachilik” yo‘nalishlariga gid-ekskursiyachilar tayyorlash

O‘zbek xalqining tarixiy o‘tmish hayoti bilan bog‘liq ishlab chiqarishni tasvirlovchi milliy merosidagi eng katta guruhni millatning ustachiligi va uning turlari tashkil qiladi. Bu ustachilik yo‘nalishlariga ham bir mutaxassislikga ega bo‘lgan gid-ekskursiyachilarni tayyorlash maqsadli hisoblanadi (25.1.3-rasm).

Chunki, milliy merosimizdagi ustachilik xalqimizning tarixiy ekologik muhitdagi yashash sharoitlarining talablari asosida ixtiro qilingan. Viloyatda mavjud bo‘lmagan milliy ustachilik yo‘nalishlari-ga tayyorlanadigan gid-ekskursiyachi albatda qiziqmaydi va uning aynan shu viloyatda yashashini ham hisobga olish lozim. Viloyatda tayyorlanadigan gid-ekskursiyachi viloyatning hududlaridagi milliy ustachilik yo‘nalishlarigagina qiziqadi, borib ko‘radi va uning keyingi ish faoliyatlarida yengillik sharoitlarini hosil qiladi.

Milliy madaniy meros sohalariga tayyorlanadigan gid-

ekskursiyachining zimmasiga quyidagi vazifalar, majburiyatlar qo‘yiladi[173]:

- milliy madaniy meros marshrutlari va ekskursiyashunosligini yaxshi bilishi;
- milliy madaniy meros ekskursiya ob’ektlarini yaxshi bilishi;
- milliy madaniy meros sohalarining yangi ekskursiyalari va yangi marshrutlarini ishlab chiqa olishi;
- milliy madaniy meros xizmatlari bozoridagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida o‘zlashtirib olishi va yangi milliy madaniy meros mahsulotlarini ishlab chiqa olishi;
- milliy madaniy meros sohalarining turistik marshrutlari va ekskursiyalarini o‘tkazish metodlarini yaxshi o‘zlashtirish va yangi metodikalari bo‘yicha ma’ruzalar qila bilishi;
- milliy madaniy meros ekskursiya marshrutlarini mohirlik bilan boshqara bilishi.
- milliy madaniy meros turistik va ekskursiya marshrutlarini reklama qila bilishi.
- milliy madaniy meros ekskursiyalarining usullarini (texnologik harita, marshrutlar sxemasi, ekskursiyaning dasturi, ekskursiyani o‘tkazish usullari va boshqalar) yaxshi bilishi va amalda erkinlik bilan qo‘llay olishi.

Milliy madaniy merosga tayyorlangan gid-ekskursiyachilar faoliyatini baholashda ham yuqoridagi talablar qo‘yiladi. Ya’ni gid-ekskursiyachilar yuqorida zimmasida ko‘rsatilgan malakaviy ishlarini bajarishga qobiliyatli bo‘lishi lozim. Ekskursiyada ekskursiya ob’ektlarini ko‘rsatishning quyidagi usullari eng ko‘p ishlatiladigan qulay usullar hisoblanadi:

1.Oldindan ko‘rish, tomosha qilish usuli. Bu usulni ikkiga bo‘lish mumkin. Birinchi qismda ekskursantlar o‘zlari tomosha qila boshlaydi. Keyin ekskursovod ob’ektning qurilishdan boshlab u bilan bog‘liq ma’lumotlarni asta-sekin axborot tariqasida gapira boshlaydi.

[173]Hayitboyev R., Haydarov S., Abduhamidov S., va boshq.. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish, O‘quv qo‘llanma. «Ilm nur fayz» MCHJ, Samarqand, SamISI, 2016.-175 b

2.Panarama usulida ko‘rsatish–baland joydan katta hududlarni ko‘rsatish va tanishtira borish. Masalan, Cho‘ponota qirlaridan turib Samarqand shahrining tarixiy obidalari va baland minoralari haqida ekskursiya o‘tkazish mumkin.

3.Ko‘rib qaytadan tiklash usuli – ekskursovod ob’ektning dastavval qanday bo‘lganligini ishonchli ma’lumotlar asosida hikoya qila boshlaydi va tiklaydi.

4.Ko‘rishda montaj (qayta yig‘ish) usuli bu usul ham oldingi – “ko‘rib qaytadan tiklash” usuliga o‘xshab ketadi.

5.Voqealarni yig‘ish usuli–aynan voqea sodir bo‘lgan joyda eksursovod ekskursantlarning bu voqea haqidagi barcha fikr va bilimlarini yig‘adi.

6.Ko‘rishni taqqoslash usuli–ob’ektni boshqa ob’ektlar bilan taqqoslash (balandligi, usuli, kengligi, kattaligi, tarixiyligi, sirliligi, qandaydir voqealarga bog‘liqligi va boshq..).

Tayanch so‘zlar: gid, lug‘at, boshlovchi, sayrbon, ob’ekt, intellekttuallik, kommunikativlik, harita, sxema, panarama.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar

1.Gid-ekskursiyachining faoliyatlari nimalardan iborat?

2.Milliy meros boyliklariga gid ekskursiyachilar qanday talablar bo‘yicha tayyorlanadi?

3.Kimlarga gid-ekskursiyachi bo‘lishga ruxsat beriladi?

4.Gid bilan ekskursiyachining o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.

5.Amaliy darslarda gid-ekskursiyachi rolida birorta ob’ektni tushuntirib bering.

GLOSSARIY

Agroturizm- qishloq turizmining bir yo‘nalishi bo‘lib, u dam olish yoki qishloq xo‘jaligi ishlarida ishtirok etish uchun qishloq joylarida turistlarning vaqtinchalik qolishini nazarda tutadi, qishloq turizmida qishloq joylarining tabiiy, madaniy va tarixiy va boshqa resurslaridan foydalanishga qaratilgan faoliyatdir.

Avangard-ilg‘or, asosiy.

Avenyu-AQSH, Angliya va Fransiyada chekkalariga daraxtlar o‘tqazilgan katta ko‘cha.

Agent-vakil.

Ajur-pardadayek nafis, oppoq.

Atrof muhit-insonning yashash makoni bo‘lgan va yashashi uchun barcha tabiiy boyliklar yaratilgan tabiiy muhit. Tabiiy resurslar yaratilgan makon. Inson oilasi bilan yashaydigan uyining sayyoraviy hamjihatligi.

Akvatoriya- suv sathi, suv sathining bir qismi.

Antropogen ta’sir – Antropos-odam va genesis-kelib chiqish. Insonning tabiatga ta’siri.

Analogiya-o‘xshashlik.

Arxey-yerda hali hayot yuzaga kelmagan qadimgi davr.

Arxeologiya turizmi-Samarqand, Buxoro, Xorazm, Termiz, Shahrisabz, Toshkent, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon shaharlarining qoldiqlari, qadimiy qalalar harobalari, ko‘hna qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari hayoti haqidagi arxeologiya topilmalariga qiziqish. Turistning, turistlarning arxeologiya makonlaridagi qazishma ishlariga, arxeologiya ilmiy tadqiqotlari ga qatnashishga qiziqishi.

Antropogen landshaft- inson faoliyati natijasida hosil bo‘lgan yer yuzasi va uning ob’ektlari.

Biosfera qo‘riqxonasi-kishilar xo‘jalik faoliyatining atrof tabiiy muhitga ta’sirini o‘rganish va uni kuzatib borish maqsadida xalqaro YUNEP tashkilotining dasturiga asosan maxsus tashkillashtirilgan qo‘riqxona. Unda uch hudud-qo‘riqxona yadrosi hududi, bufer (muhofaza) hududi va halqaro kuzatish stansiyalariga ega bo‘lgan

biosfera maydoni bo‘lishi kerak.

Balans-muvozanat.

Bars-qoplon.

Barxan-o‘simliklari yo‘q, shamol ta’sirida tez ko‘chuvchi qum tepaliklar.

Biologik xilma-xillik- biologik resurslar–flora va fauna.

Buddizm-budda dini.

Byuro-tashkilotlarning, muassasalarning nomi.

Valyuta- 1 valyuta, pul birligi biror mamlakatning pul sistemasi va unga asos qilib olingan pul birligi.

Varan-echkiemar.

Vegetatsiya-o‘sish.

Vizit-tashrif.

Global - sayyoraviy, dunyo, olamshumul.

Vistavka-ko‘rgazma.

Gastronomiya-oaqatga shinavandalik.

Gidrologiya-suv haqidagi fan.

Gipoteza-faraziya.

Golf-to‘p o‘yinlaridan biri.

Gorizont-ufq.

Gumanizm-insonparvarlik.

Gerbariy- o‘simliklarning quritilgan kolleksiyasi.

Gastronomiya turizmi-“Gastronomiya turizmi-bu qo‘shni ko‘chadami yoki yer sharining boshqa bir oxirida unutilmas, g‘aroyib ichimliklar va taomlarni tatib ko‘rishdan lazzatlanishni izlashdagi turistik faoliyat hisoblanadi”. **“**Ovqat- bu millatning eng muhim mohiyati, uning harakteri va tarixi”. Bu so‘zlar “Butunjahon gastronomiya turizmi assotsiatsiyasi”ning “Manifesti” hisoblanadi.

Garantiya-kafolat, kafillik.

Degradatsiya-tanazzul, inqiroz, zavol.

Demografiya –aholishunoslik.

Delta-daryoning tarmoqlangan mansabi.

Yegipet-Misr arab respublikasi.

Ziyorat turizmi-Islom dini olamidagi mashhur kishilarning

qabrlarini ziyorat qilish. Makkaga, Madinaga haj va Umra safarlari ziyoratini amalga oshirish. Payg‘ambarmiz Muhammad Alayhissalom yaqinlarining va safdoshlarining vatanimizdagi muqaddas ziyoratgohlarini ziyorat qilish. Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent shaharlariga kelib masjidlarda “juma” namozlarini o‘qish. Shuningdek, ushbu shaharlardagi muqaddas qadamjolar bo‘lgan-Imom-al-Buxoriy, Buxorolik pirlar, Xo‘ja Ahror vali, Ruxobod majmualarida nomoz amallarini bajarish.

Ichki turizm-o‘z davlati chegarasida sayohat. Ekspertlar xulosasiga ko‘rasayyoh 80-100 km dan oshgan masofaga sayohat qilsa, turizm sayyohi deyiladi.

Ilmiy turizm-Vatanimizda va xorijda talim olish, xalqaro ilmiy markazlarda o‘qish, xalqaro yirik Universitetlarda ilmiy-amaliy malakalarini oshirish, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya lar, simpoziumlarga qatnashish, xalqaro ilmiy grant loyihalarni bajarishga, magistratura va doktoranturani xorij mamlakatlarda, vatanimizda o‘tkazishga qiziqish.

Ijtimoiy turizm-Davlat tomonidan yoki shaxs ishlab turgan korxona hisobidan sayohatga chiqish, sog‘lomlashtirish, dam olish maskanlariga, kurort va sanatoriyalarga borishga qiziqish. O‘zbekistonda bunday imtiyozlarni O‘zbekiston kasabachilar uyushmasi federatsiyasi ishlab chiqadi.

Ishchanlik turizmi-Ishchanlik turizmi–bu kompaniya yoki tashkilot xodimlarining ish masalalarini hal qilishi uchun o‘z vataniyadagi tashkilotlarga,korxonalarga va chel el davlatlaridagi konferensiyalar, ko‘rgazmalar, forumlar,sammitlar va boshqa xalqaro yig‘inlarga qatnashish va biznes rejalarini hal qilish uchun safarni tashkil qilishdir. Ishchanlik turizmining maqsadi o‘z vatanidagi va chet davlatlaridagi ishlab chiqarish seminarlariga, yig‘ilishlariga qatnashib yangi texnologiyalarni o‘rganish va turizm bozorining yangi segmentlarini va mahsulotlarini aniqlash hisoblanadi.

Kasbiy faoliyat turizmi - kasbiy faoliyat yuzasidan chet davlatlarga borishga, chet elliklarning respublikamizga kelishiga, tijoratchilar, tadbirkorlar, savdogarlar, qo‘shma korxonalar

tuzuvchilarning mamlakatlardagi o‘z kasbi faoliyati doirasida malakalar oshirish, mahsulotlar, asbob-uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga yoki tanishishga (ko‘rgazmalarga) qiziqish.

Kirish turizmi–O‘zbekistonga boshqa davlatlardan turistlarning kelishi.

Qishloq turizmi-qishloqlarda turizmni tashkil qishloqlari mizga ichki va xalqaro turistlarni jalb qilish asosida qishloqlarimizdagi obodonchilikni kuchaytirish,qishloq aholisi ning ish bilan bandligini oshirish, qishloqlarimiz aholisini xalqaro hamdo‘stlik jarayonlariga qo‘shish va qishloqlarimizni, qishloqlarimizda yashayotgan xalqimizni xalqaro miqyosda dunyoga ko‘rsatish.

Milliy turizm–kirish, ichki va chiqish turizm shakllarini birlashtiradi.

G‘or turizmi-sayyoramizdagi gorizontal va vertikal holatlardagi g‘orlarga qiziqish hisoblanadi. Bu turizm turiga (ekstremal) jismoniy jihatdan tayyorlangan, g‘orlardagi xavf-xatarlar bo‘yicha maxsus tayyorlangan, o‘ziga xos bo‘lgan dam olishni, sarguzashtlarni izlaydigan, hohlaydiganlar qiziqadilar.

Ovchilik turizmi-Respublikamizda ov qilishning huquqiy-qonuniy me’yorlari yaratilganligi, ovchilik maydonlarining katta hududlarni egallashi, ovchilik obektlarining aniqligi, ovda harakatlanishning erkinligidan qurol va qurolsiz ovchilikka qiziqish.

Rekreatsiya- (recreatio-lotincha- tiklanish).

Rekreatsiyali joylar–aholining yalpi dam olishini va turizmni tashkil etishning tabiiy geografik jixatdan qulay tabiiy joylar.

Rekreatsion ehtiyoj- insonning hayotiy faoliyati jarayonida yo‘qotilgan ruhiy va jismoniy mehnat qobiliyatini va sog‘ligini tiklashga bo‘lgan ehtiyoj hisoblanadi.

Rekreatsiya turizmi-Tabiat bag‘ridagi mo‘jizakor go‘shalarda, tog‘ o‘rmonlaridagi shifobaxsh daraxtlar ichida, tabiiy sharsharalar, zilol buloqlar yonida vaqtinchalik dam olishga, charchoqni yo‘qotishga intilish, qiziqish. Vatanimizning sog‘lomlashtirish markazlarida, kurort va sanatoriyalarida, mineral, shifobaxsh suvlari maskanlarida, shifobaxsh qum-balchiqlarida, ma’danli suvlari manzillarida

davolanishga qiziqish.

Savdo turizmi-Vatanimizda va xorijda faqat savdogarchilik masalalariga, mol olib kelish va olib ketish, ayriboshlash, savdo markazlari ochish, narx-navo o‘zgarishiga, valyutalar bahosiga, yangi bozorlarga, haridor talab mollar savdosiga qiziqish.

Sport turizmi-Xalqimizning hozirda jahon bo‘yicha ommaviylashib borayotgan milliy kurash, tennis, futbol, chang‘i sporti, boks, olimpiada, milliy va xalqaro sport va boshqa sport-bellashuv musobaqalariga qiziqish.

Tabiiy resurslar-Inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, inson tomonidan bunyod etilmagan resurslarga tabiiy resurslar deyiladi-yer, havo, suv, o‘rmon, hayvonot, mineral qazilmalar. Tabiatning inson xo‘jaligida foydalanilgan barcha elementlari.

Tabiiy milliy bog‘lar-tabiat muhofazasi, rekreatsiya, madaniy oqar tuv, ilmiy va madaniy maqsadlarda foydalanish uchun va ekologik, tarixiy, estetik qimmatga ega bo‘lgan alohida muhofaza qilinadigan tabiiy majmu alar (qo‘riqxona, buyurtma qo‘riqxona, rekreatsiya va madaniy sog‘lomlashtirish) dan iborat bo‘lgan hudud yoki akvatoriya.

Tarixiy –madaniy turizm– Dunyodagi davlatlarda joylashgan tarixiy arxitektura obidalari, dunyodagi tarixiy mo‘jizalarga vatanimizda Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Termiz, Qo‘qon, Qarshi, Jizzax shaharlaridagi va Respublikamiz tumanlaridagi tarixiy obidalarni ko‘rishga qiziqish.

Tur–turist uchun ma’lum marshrutda, ma’lum turistik ob’ektga, ma’lum muddatda taqdim etiladigan, turli xizmatlar (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati, maishiy, turistik ekskursiya va boshqa) to‘plamidir.

O‘zbekistonning xalqaro turizmi-O‘zbekistonliklarning xorij davlatlariga turizm maqsadlarida chiqishi va xorijiy davlatlar fuqarolarining O‘zbekistonga turizm maqsadlarida kelishi hisoblanadi.

Chiqish turizmi–agar O‘zbekistonlik Malayziyaga sayohat qilsa, chiqish turizmi (turist) bo‘ladi. Malayziyaga borgandan keyin, u turist Malayziya uchunkirishturizmigakiradi.

Xalqaro turizm–jahon davlatlaridagi turistlarning dunyodagi

mamlakatlar bo‘yicha turistik faoliyatlari hisoblanadi.

Shaharsozlik turizmi-O‘z vatanida va xorij davlatlaridagi zamonaviy shaharlarni ko‘rishga qiziqish. Toshkent, Samarkand, Buxoro,Xiva, Shaxrisabz shaharlaridagi yangi obidalar va yangi tipda kengaytiril gan shaharlar, ayniqsa cho‘llarimizda bunyod etilgan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Zafarobod kabi shaharlariga qiziqish ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham o‘zining turistik bozorini topishni taminlashimiz lozim.

Shop turlar-Rossiya va SNG davlatlari uchun xosdir. Xorijga tashrifning asosiy maqsadi bo‘lib, olib yana qayta sotish uchun halq iste’moli tovarlarini harid qilish hisoblanadi (poyafzal, trikatoj va boshqa tovarlar–Turkiyada, Italiya, Portugaliya, Suriyada; yozgi to‘qima kiyimlar–Indoneziyada; po‘stinlar – Gresiya va Argentinada; mebel–Polsha va Italiyada; tele-radio mahsulotlar BAAda; avtomashinalar Germaniyada, Shvesiyada, Yaponiyada, Finlandiyada, Gallandiyada).

Ekologiya-grekcha-oikos-uy va logos-ta’limot. Tabiiy muhitda organizmlarning yashashi xaqidagi fan.

Ekologik turizm-Ekoturizm-faqat tabiat bag‘rida dam olish, o‘rganish, kuzatish, tomosha qilish va zavqlanish natijasida tabiatni, biologik xilma-xillikga mehr qo‘yish, muhofaza qilish tadbirlariga ixtiyoriy moddiy yordam berishga qaratilgan, mahalliy aholining milliy madaniyatini, me’rosiy an’analarini, yashash tarzini hurmat qilishga asoslangan turistik faoliyatdan iborat.

Ekologik barqarorlik-tabiatning o‘z rivojida taraqqiy etishi.

Ekologik tizim(ekotizim) –tirik organizmlar majmui va ularning yashash muhiti yig‘indisi bo‘lib, tirik organizmlar o‘zaro va atrof muxit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati asosida bo‘lishi.

Ekologik konsepsiya-tabiat va jamiyaning o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi qarashlar tizimi, ya’ni jamiyat qonunlari bilan tabiat qonunlari o‘zaro harakat yo‘nalishlarining o‘rni, ahamiyati va mohiyati haqidagi dunyoqarash lar.

Ekologik ta’lim- yer kurrasi tabiiy boyliklari va yaqin fazoga ehti yotkorona munosabatda bo‘lish, insoniyatni tabiatdagi ekologik

jarayonlar bilan uzviy bog‘langanligini chuqur anglash ruhida tarbiyalash va boshlang‘ich o‘qitish.

Ekologik madaniyat-hozirgi va kelajak avlod hayotida ekologik muam molar juda chuqur ahamiyatga ega ekanligini anglagan holatdagi davlatlar va jahon madaniyatining rivojlanish bosqichi va tarkibiy qismi.

Ekskursiya (tanishuv, ko‘rish) turizmi-bu tur asosan mamlakat ichkarisida ko‘proq rivojlanadi. Yakka shaxs yoki guruh bo‘lib tashabbuskor (o‘qituvchi, ekolog, injener, mutaxassis) boshliq rahbarligida qisqa muddatlarda o‘lkashunoslik, tarixiy, madaniyat muzeylarini, botanika bog‘larini, zavod, fabrikalarning ish faoliyatlarini, yaqin masofalardagi oromgohlar, tabiiy landshaftlarni, hayvonot bog‘lari, suv va daryo havzalarini ko‘rishga qiziqish.

TESTLAR

Qishloq turizmini rivojlantirishning maqsadini aniqlang? -Qishloq aholisining ish bilan bandligini qo‘shimcha imkoniyatlar asosida oshirish, qishloq aholisi mahsulotlarining ko‘proq sotilishini ta’minlashdir. -Agroturizmni rivojlantirish. -Qishloqlarda ekoturizmni tashkil qilish. -Qishloqlarda turizmni tashkil qilish.	*Qishloq turizmini rivojlantirishning vazifasini aniqlang?* -Qishloqlarda turizmni rivojlantirish tadbirkorligini tashkil qilish asosida qishloq turizmi xizmatlari va servisni, qishloq turizmi infratuzilmalarini yaratishdan iborat. -Agroturizmni rivojlantirish. -Qishloqlarda ekoturizmni tashkil qilish. -Qishloqlarda turizmni tashkil qilish
Agroturizmning ekoturizmga qo‘shilishi to‘g‘rimi? -To‘g‘ri. -Noto‘g‘ri. -Farqi yo‘q. -Agroturizm va ekologik turizm alohida-alohida turlar hisoblanadi.	*Qishloq turizmini rivojlantirishning mohiyatini aniqlang?* -Qishloqlarimizga ichki va xalqaro turistlarni jalb qilish asosida qishloqlarimizdagi obodonchilikni kuchaytirish, qishloqlarimiz aholisini xalqaro hamdo‘stlik jarayonlariga qo‘shish va qishloqlarimizni xalqaro miqyosda dunyoga ko‘rsatish hisoblanadi. -Qishloq aholisini ekoturizmga tortish. -Qishloqlarni rivojlantirish. -Agroturizmni rivojlantirish.
Ekoturizmning turlarini aniqlash qachon boshlandi ? -O‘tgan asrning o‘rtalarida. -O‘tgan asrning 80-yillarida. -O‘tgan asrning boshlarida. -O‘tgan asrning oxirida.	*Turizm geografiyasining qanday tadqiqot metodlarini bilasiz* -baholash metodi – tibbiy biologik metod – ruhiy-estetik metod – texnologik metod
Ziyorat marshrutlaridagi birinchi talab nimalar?. -Ziyoragohdagi ziyorat qilish infratuzilmalarining taxt bo‘lishligi -Ziyoratgohda joylashtirish xizmatlarining taxt bo‘lishi	*S.Kempbellning turizmni rivojlantirishdagi «kenglik modelining» mohiyati nimada?.* -turist + marshrut + dam olish joyi + rekreatsiya markazlari + boshqa shaharlar

-Ziyoratgohda transport xizmatlarining taxt bo‘lishligi -Ziyoratgohda ovqatlantirish xizmatlarining taxt bo‘lishligi	– turist + marshrut + rekreatsiya markazlari – turist + marshrut + dam olish joyi + boshqa shaharlar – turist + marshrutda bo‘lish + qaytish
Ekoturizmning tabiatga tasirini o‘rganishning birinchi davrini aniqlang. -O‘tgan asrning 70--yillaridan asr oxirigacha bo‘lgan davr. -XX asrning oxiri. -XX asrning o‘rtalari. -XX asrning boshlanishi.	*AQSH da qaysi turizm sohasi rivojlangan?.* -ichki turizm – chiqish turizmi – xalqaro turizm –ekologik turizm
